Manba tahlili zamonaviy dunyoda ularning xilma-xilligi bilan murakkablashgan qiyosiy tadqiqotlarning eng qadimiy va an'anaviy usullaridan biridir. Turli xil manbalar qatorida me'yoriy va huquqiy manbaalar bo'lishi mumkin - qonunchilik bazasini aks ettiruvchi, ilmiy (maqolalar, monografiyalar, dissertatsiyalar va boshqalar), arxiv manbalari shular jumlasidan. Ba'zi badiiy yoki jurnalistik manbalar ham muhim bo'lishi mumkin. Bundan tashqari har yili turli shakllarda nashr etiladigan turli xil statistik manbalar alohida o'rin tutadi.

Shuningdek bu yerda matematik statistika usullari ham katta ahamiyatga ega.

Qiyosiy pedagogika fanlararo fan vazifasini o'taganligi sababli, u tegishli fanlarning usullaridan foydalanadi, bundan tashqari, tadqiqotchilar taqqoslashning turli usullarini ko'rib chiqadilar. Ular orasida umumiy ilmiy tadqiqot usullari ham qayd etilgan.

Qiyoslash usuli asosiy metodlardan biri hisoblanadi, uning yordamida ta'lim tizimlarining o'xshashlik va farqlari xususiyatlari aniqlanadi, pedagogik qonuniyatlarning umumiy va o'ziga xosliklari o'rganiladi.

Uslubiy yondashuvlar ham asosan ular tomonidan belgilanadi. Ko'rinib turibdiki, asosiy metod qiyosiy tahlildir. Bundan tashqari, taqqoslash shunga o'xshash ta'lim tizimlarini tahlil qilish uchun qo'llaniladi va taqqoslash uchun muhim asoslar bo'lmagan taqdirda qo'llanilmaydi.

Rim imperiyasi davrida lotin tili ta'siri ostida rivojlanib kelgan G'arbiy Yevropaning turli mamlakatlarining ta'lim tizimlarini taqqoslash juda maqbuldir. Lotin tili bir vaqtning o'zida ko'plab Yevropa tillarining shakllanishiga asos bo'ldi. Bundan tashqari, ko'plab Yevropa mamlakatlarida o'xshash ta'lim an'analari mavjud, masalan, universitetlarni rivojlantirish. Bolonya jarayoni barcha Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining oliy ta'lim tizimiga yagona standartlar va talablarni belgilab berdi, ammo har bir mamlakatda uning o'ziga xosligi va milliy ta'lim xususiyatlarini yo'q qilmadi.

Shu bilan birga, taqqoslovchilar ba'zan o'ziga xosligini yanada aniqroq namoyish etish uchun qarama-qarshilik deb ataladigan usulidan foydalanadilar, o'xshash bo'lmagan va turli sivilizatsiyalarga tegishli bo'lgan davlatlarni ataylab taqqoslaydilar. Bu yerda taqqoslashga ustuvor ahamiyat beriladi, bu ko'pincha taqqoslash uchun yetarlicha muhim umumiy asoslarga ega bo'lmagan ta'lim tizimlarini tahlil qilish uchun ishlatiladi, ya'ni turli madaniy an'analarga asoslangan.

Ta'riflash metodi muayyan faktlarni tahlil qilish va talqin qilish, ularni guruhlash, tizimlashtirish, tasniflash va hokazolar uchun zarur va yetarli ma'lumotlarni qidirish va to'plashni talab qiladi. Biroq, ko'pincha tavsiflash usuli turli mamlakatlarda ta'lim va tarbiya jarayonini eng yorqin tavsiflarini taqdim etadi, ularni ilmiy adabiyotlarda ham, san'at asarlarida ham uchratish mumkin. Shu bilan birga qiyosiy pedagogikaning o'ziga xos usullari ham ajralib turadi. Shunday qilib, G.M.Morozova qiyosiy pedagogik tadqiqotning quyidagi usullarini aniqlaydi, ular orasida biz umumiy va o'ziga xos usullarni ko'ramiz: manbalarni o'rganish, statistik ma'lumotlarni o'rganish, adabiy manbalarni o'rganish, suhbat, intervyu, qiyosiy usul.

M.L.Rodionov qiyosiy pedagogikaning beshta asosiy usulini aniqladi: tavsifiy, tarixiy, sotsiologik, statistik, qiyosiy. M.L.Rodionov ushbu usullarning o'ziga xosligini quyidagicha ta'rifladi: "Ta'riflash usuli aniqlikni, guruhlash, faktlarni tizimlashtirish va talqin qilishni, tahlil qilish uchun zarur va yetarli ma'lumot to'plashni, ta'lim tizimidagi yagona va tipiklikni aniqlashni talab qiladi; ushbu usulning dinamikasi tadqiqot boshlanishining nisbati izchil o'sishda namoyon bo'ladi.

Tarixiy- pedagogik metod muammolar rivojlanishining genezisi va xususiyatlarini tahlil qilish; o'rganilayotgan pedagogik hodisaning zamonaviy holatini chuqurroq anglashga hissa qo'shadi.

Masalan, taniqli rus jurnalisti va yozuvchisi V.V.Ovchinikovning publitsistik asarlarida "Emanning ildizi (Angliya va Britaniyaliklar haqidagi taassurotlar va mulohazalar)" va "Sakura filiali (Yaponiyaliklar qanday odamlar ekanligi haqidagi hikoya)" Buyuk Britaniya va Yaponiyadagi bolalar tarbiyasi va ijtimoiylashuvining xususiyatlarini aks ettiruvchi tavsiflar keltirilgan. XVIII asrning axloqshunos faylasufining mashhur kitobida F.S. Chesterfildning "O'g'ilga maktublari" bizga o'sha davrning dunyoviy yoshlari tarbiyasining ahamiyatli yo'nalishlarini topishga imkon beradi, ular bugungi kunda ham psixologlar muhim deb hisoblaydilar.

Tarixiy metod turli mamlakatlarda ta'limning rivojlanish jarayoni va xususiyatlarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Bu uning rivojlanishining tarixiy muammolarni o'z ichiga qamrab olgan majmua hisoblanadi. Ularning batafsil tahlili pedagogika fanlariga oid ixtiyoriy sohaning ilmiy tadqiqotlari nazariy metodologik darajasini mukammallashtiradi. Odanning kasbiy va aqliy kamolotida muhim ko'rsatkichga aylanadi. Bularning bari qiyosiy pedagogikaga ham to'la aloqador hisoblanadi.

4-Mavzu: Qiyosiy pedagogikaning taraqqiyot bosqichlari

REJA:

1. Fan taraqqiyotining birinchi davri?
2. Qiyosiy pedagogika fani taraqqiyotining ikkinchi va uchinchi davri, ularning o'ziga xos xususiyatlari.
3. O'zlashtirish, bashorat, ilmiyqiyosiy tadqiqotlar davri.
4. Qiyosiy pedagogikaning rivojlanish bosqichlari.

Qiyosiy pedagogika tahliliga metodologik yondashuvlar majmuini hisobga olgan holda biz uning besh taraqqiyot bosqichini ajratamiz: *ilmiydan oldingi bosqich, paydo bo'lish bosqichi, rivojlanish bosqichi, inqiroz bosqichi, integratsiya bosqichi.*

- 1- bosqich (ilmiydan oldingi) – qadimgi davrlardan XIX asrgacha.
- 2- bosqich (paydo bo'lish) – XIX asr oxiridan XX asr boshlarigacha.
- 3- bosqich (rivojlanish) – XX asr boshlaridan XX asrning 60-yillarigacha.
- 4- bosqich (inqiroz) – XX asrning 60-yillaridan 80-yillarigacha.
- 5-bosqich (integratsiya) – o'tgan asrning 80-yillaridan hozirgacha bo'lgan davr.

Qiyosiy pedagogika taraqqiyotining birinchi bosqichi – qadimgi davrlardan XIX asrgacha.

Bu davr qiyosiy-pedagogik tadqiqotlar rivojlanishining boshlang'ich bosqichi hisoblanadi. Yoki bu davrni boshqacha qilib, *falsafiy* davr deb atash mumkin. Chunki barcha muammolar falsafa fani doirasida ko'rilgan. Turli mamlakatlarda ta'lim-tarbiya masalalari, ya'ni-ular qanday o'qitadilar? degan savol qadim davrlardan oq ko'pchilikni qiziqtirib kelgan. Ko'pgina davlatlar o'z bolalarini, yosh avlodni tarbiyalash uchun qo'shni davlatlarning tajribalarini ham qo'llaganlar. Masalan, qadimgi grek faylasufi Platon spartaliklarning tarbiya metodlarini o'z vatani Afina maktablarida qo'llash imkoniyatlarini ochib bergan. Qadimgi Rim tarixchisi Tassit esa o'zining-Nemislarning kelib chiqishi va Germaniyaning joylashgan o'rnini deb nomlangan asarida o'sha vaqtlardagi nemis qabilalarida bolalar va yoshlar tarbiyasining o'ziga xos jihatlari bayon etadi. Qadimgi yunon tarixchisi Gerodotning –Tarix kitobida qadimgi forslar, saklar, massagetlarning ta'lim-tarbiyaviy qarashlariga oid muhim ma'lumotlar berilgan. Bunda forslarning eng sharaflaydigan narsasi jasurlik ekanligi, shunga ko'ra ular oilada ko'p o'g'illarning bo'lishidan faxrlanishlari va o'g'il bolalar tarbiyasiga alohida e'tibor berilishini ta'kidlaydi. Faylasuf forslarning zodagon yoshlari tarbiyasi xususiyatlarini tasvirlar ekan, yunon yoshlarini tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlarini shakllantirishda ulardan o'rnak olishni maslahat beradi.

Ammo bular qisqa va unchalik dalillanmagan kuzatishlar bo'lib, etnografik yoki tarixiy xotiralarda izini qoldirgan xolos. Shuning uchun bunday kuzatishlarni o'sha davrga xos bo'lgan ilmiy tasavvurlar doirasiga kiritish qiyin. Deyarli dunyoning barcha faylasuflarini yosh avlod tarbiyasi qiziqtirgan va bu to'g'risidagi o'z qarashlarini ular qo'shni davlat urf-odatlarini va an'analari taqqoslagan holda bayon etganlar. Ularning ba'zilar bevosita ta'lim-tarbiya ishiga ishtirok etganlar. Masalan, Djon Lokk (Angliya) yoki Konfustiy (Xitoy).

Sharq Uyg'onish davri yirik mutafakkiri Abu Nasr Forobiy o'zining-Fozil odamlar shahri nomli asarida ta'lim-tarbiyaga, inson kamolotiga munosabat nuqtai nazaridan ikki xil shahar yoki mamlakat-fozil hamda johil odamlar shahrini o'zaro qiyoslaydi. Ta'lim-tarbiya borasidagi eng nodir va qimmatli tajribalarni-Fozil shahar timsolida ko'rsatsa, ta'lim-tarbiya borasidagi eng nomaqbul va xunuk hodisalarni (didaktogeniya) –Johil odamlar shahri misolida ko'rsatadi. Yusuf Xos Hojibning –Qutadg'u bilig asari ham komil inson tarbiyasi to'g'risidagi eng qimmatli qadriyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Alisher Navoiyning –Mahbub ul-qulub asarida ham ta'lim, tarbiya, mudarris, dars, komillik, ilm, kasb-hunar to'g'risi g'oyalar bayon etiladi. Bunda mudarris va shogird munosabatlari odobi to'g'risida qimmatli ma'lumotlar keltiriladi.

O'rta asrlarda G'arbiy Yevropadagi madaniy vaziyat ta'lim-tarbiya sohasining xalqaro qiyoslashga qiziqishini muvofiqlashtirmagan edi. Ming yillar davomida ta'limda ham boshqa madaniy sohalar kabi cherkov yakka hokimligi mavjud bo'lib, o'qitishning asosiy tili hisoblangan. Buning natijasida turli mamlakatlarda o'quv muassasalari tashkil qilinishi; ta'lim maqsadi, metodi va mazmuniga ko'ra o'xshash, bir-biridan deyarli farqlanmagan.

So'nggi o'rta asrlarda Yevropa millatlar shakllanish jarayonini boshdan kechirdi. XVIII asrga kelib bir qadar rivojlangan mamlakatlarda bu jarayon o'z yakuniga yetdi. Milliy birlik hayotning turli sohalarga va xalqlarning milliy o'zligiga ijobiy ta'sir qildi. O'z navbatida bu ta'sir madaniyat va ta'lim sohasida ham kuchli namoyon bo'ldi. Milliy tillar uzluksiz ravishda lotin tilini siqib chiqara boshladi. Har bir mamlakatning o'quv muassasalari o'zining milliy xususiyatlarini shakllantira boshladi va cherkovga tobeligi ancha susaydi.

O'rta asrlarda Yevropaning ko'plab mamlakatlarida qo'shni mamlakatlarda ta'lim tizimi tashkil qilinishi bilan tanishish ehtiyoji kuchaydi. Turli davlatlardagi ta'lim-tarbiya tizimi to'g'risidagi qiyosiy tahlil namunalarini Ya.A.Komenskiy va boshqa mashhur pedagoglarning asarlarida ham ko'rish mumkin. Boshlang'ich maktabdan universitetgacha bo'lgan ta'lim tizimining uzluksiz strukturasi va tamoyillarini ishlab chiqishda Ya.A.Komenskiy Chexiya, Vengriya, Gollandiya, Shvetsiya kabi mamlakatlar tajribasiga ko'p marta murojaat qiladi. Shuningdek, badiiy-falsafiy asarlarda ham qiziqarli ma'lumotlarni uchratish mumkin. M.Moten (Fransiya) yoki Chesterfeld (Angliya) shular jumlasidan. M.Monten o'zining "Tajribalar" deb nomlangan asarida Uyg'onish davrida Fransiyadagi ta'lim-tarbiyaning o'ziga xos jihatlari to'g'risida ma'lumot beradi. Uning bola shaxsini har tomonlama shakllanishida tarbiyaning va rivojlantiruvchi ta'lim muhitining roli to'g'risidagi qarashlari keyinchalik, D.Lokk va J.J.Russo singari pedagogika fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan mutafakkirlarning pedagogik qarashlariga o'z ta'sirini o'tkazdi.

1641 yilda ingliz milliy ta'lim tizimini shakllantirishda uning bilimlaridan foydalanish uchun Londonga taklif qilinadi. Yirik mashina sanoati yaratilish davrida bolalarga maktab ta'limi berish keng tus oldi. Kasbiy ta'lim shakllanishiga dastlabki qadamlar qo'yildi. Qator mamlakatlarda davlat ta'lim tizimi asoslari yuzaga kela boshladi. Yevropa pedagogik tafakkuri evolyutsiya bosqichlarida XVIII asr oxiri XIX asr boshlari juda muhim davr hisoblanadi. Bu esa, xorijiy pedagogik tajriba va uni milliy ta'lim muammolariga qiyoslashga qiziqishni kuchaytirdi. Shu tarzda yangi ilmiy yo'nalish-qiyosiy pedagogika yuzaga kelishi uchun obyektiv manbalar hosil bo'la boshladi. Bu ilmiy yo'nalish ta'lim-tarbiya'ni xalqaro qiyoslab o'rganishga ixtisoslashishi ko'zda tutilgan edi.

Bu g'oyalar pedagogik fikr taraqqiyotiga katta ta'sir o'tkazgan bo'lsada, biz ularda qiyosiy pedagogikaning ilmiy asoslanganligini ko'rmaymiz. Qiyosiy pedagogika fan sifatida XIX asrda shakllana boshladiki, bunga qator ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy shart-sharoitlar ta'sir ko'rsatdi.

Qiyosiy pedagogika taraqqiyotining ikkinchi bosqichi – ilmiy qiyosiy pedagogikaning paydo bo'lishi (XIX asr oxiridan XX asr boshlarigacha).

Bu davrda qiyosiy pedagogika fan sifatida ilmiy asoslandi va pedagogikaning mustaqil sohasiga aylandi. Mohiyatan olib qaraganda, bu davr qiyosiy pedagogikaning alohida fan sohasi sifatida pedagogik hodisalarni ilmiy asosda o'rgana boshlangan ilk davri edi, desak xato bo'lmaydi. Bu davrda turli davlatlarning ta'lim tizimidagi rivojlanish tendensiyalari va qonuniyatlari ajratila boshlandi, ularning ilk qiyosiy tahliliga ilmiy yondashildi.

Ayrim Yevropa pedagoglari XIX asrda ta'lim taraqqiyotining xorij tajribasini diqqat bilan o'rgandilar. Bu tajribalardan o'z mamlakatlarida maktab ishlarini yaxshilashda foydalanishga harakat qilishdi. Bu izlanishlar ta'limda statistika mavjud emasligi, maktab qonunchiligi va pedagogik hujjatlamani yuritishni tizimlashtirish, materiallarning kamchiliklari tufayli katta muammoga duch keldi. Xorijiy ta'lim bilan tanishuv asosan «pedagogik sayohat» tarzida, ya'ni pedagoglarning xorijiy mamlakatlarga tashrifi orqali amalga oshirilgan. Bunday tadbirlar ko'pincha shaxsiy tashabbus natijasida yuzaga kelgan. Lekin ba'zida hukumat topshirig'i bilan amalga oshirilgan «sayohat»lar qayd etilgan, chunki ta'lim taraqqiyoti masalalari asta-sekin davlat hokimiyati e'tiborini o'ziga jalb qila boshlagan.

–Vaterlo yonidagi jang Itona sport maydonlarida yutilgan edi, –Sad yonidagi jangda pruss maktab o‘qituvchisi g‘olib chiqdi. Bular ingliz qo‘mondoni gersog Vellington va nemis konsleri Bismarkning mashhur iboralari bo‘lib, XIX asrdayoq Yevropa davlatlarining yetakchi arboblari maktab ahamiyatini –katta siyosatdagi dastaklardan biri sifatida tushunganligini isbotlaydi. Deyarli barcha Yevropa mamlakatlarida maktab islohoti amalga oshirildi. Bu mamlakatlarning islohotchilari quyidagi savollarga javob topishi kerak edi.

Milliy ta‘lim tizimida qanday turdagi o‘quv muassasalarini tashkil qilish kerak?

Ta‘lim tizimini nazorat qilish vakolatini kimga berish kerak-davlatgami, cherkovgami, o‘quvchilarning ota - onasigami?

Ta‘lim qay yo‘sinda moliyalashtiriladi? Mumkinmi? Markaziy va mahalliy hokimiyat bog‘liqligi qanday bo‘ladi? Turli shakldagi o‘quv muassasalari uchun o‘qituvchilar qanday tayyorlanishi kerak? Tabiiyki, hukumat va pedagogik jamiyat xorij tajribasi haqida ishonchli va batafsil ma‘lumot olishga qiziqish bildiradi. Lekin ularning bari qiyosiy-pedagogik tadqiqotlar sohasidagi dastlabki urinishlar edi, xolos.

XIX asr ishlab chiqarish inqilobi hamda ishlab chiqarish mehnati va urbanizastiya sharoitida fan va maorif yuqori sur‘atlarda rivojlana boshladi. Aynan an shu davrda fan kasbiy xususiyatga ega bo‘la boshladi. Dastlabki davriy ilmiy jumallar chop etila boshlandi, bilimlarni tizimlashtirish jarayoni ham keng quloch yozdi, dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida ensiklopediyalar chop etildi.

Ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan bolalarni maktablarga keng jalb etish va kasbiy ta‘limni tashkil etish borasida ilk qadamlar qo‘yildi, ko‘pgina davlatlarda xalq maorifining davlat asoslari yaratildi. Aynan shu davrda ko‘pgina yirik rivojlangan davlatlar – AQSH (1852), Buyuk Britaniya (1870), Fransiya (1882)da majburiy maktab ta‘limiga o‘tila boshlandi. Dastlabki qiyosiy pedagogika va qiyosiy ta‘lim markazlari – milliy va xalqaro axborot muassasalari paydo bo‘la boshladi. Bu erda turli mamlakatlardagi ta‘lim tizimi to‘g‘risida axborotlar tanlanib, tahlil qilinar edi (Vashintondagi maoriy xizmati (1866), Parijdagi pedagogika Muzeyi (1879) vab.).

XIX asrda ko‘pgina milliy ta‘lim tizimlarida islohotlar o‘tkazila boshlanadi. Ular quyidagi shart-sharoitlar bilan bog‘liq holda amalga oshiriladi: *birinchidan*, boshlang‘ich maktab ta‘limini joriy etish va takomillashtirish zarurati. Bu rivojlangan industrial davlatlarda muayyan yoshdagi bolalar uchun, ularning ijtimoiy mavqeyi va moddiy ta‘minlanganlik darajasidan qat‘iy nazar boshlang‘ich ta‘limning majburiyligi, ya‘ni boshlang‘ich ta‘lim davlat tizimini barpo etishga olib keldi. *Ikkinchidan*, turli davlatlarning maktablarida mazmuniy, tashkiliy va metodik ko‘lamdagi salmoqli o‘zgarishlarning sodir bo‘la boshlaganligi. *Uchinchidan*, jamiyat iqtisodiy imkoniyatlar dinamikasining o‘sishi bilan bog‘liq holda tez sur‘atlarda kasb tayyorgarligi ta‘limini rivojlantirish zaruratining vujudga kelganligi.

Bundan tashqari aynan XIX asrda Yevropada pedagogik fikr taraqqiyoti gullab yashnay boshladi. Pestalotsi pedagogikasi (Shvetsariya). Russoning erkin tarbiya nazariyasi (Fransiya), Kantning axloqiy tarbiya to‘g‘risidagi pedagogik- falsafiy g‘oyalari (Germaniya) G‘arbiy Yevropa va butun dunyoga o‘zining ijobiy to‘lqinlarini tarqata boshladi. Shu tariqa yangi ilmiy soha – qiyosiy pedagogikaning paydo bo‘lishi uchun obyektiv shart-sharoit vujudga keldi. Bell- Lankaster tizimi, Pestalotsi pedagogikasi, Russoning «erkin tarbiyasi», ma‘naviy tarbiya haqidagi Kant fikrlari umumYevropa miqyosida tadbiiq qilina boshlandi. Qiyosiy pedagogikaning paydo bo‘lishi va rivojlanishi masalalari to‘g‘risida olimlar turli nuqtai nazarni yo‘qlab chiqdilar.

Qiyosiy pedagogika fanining asoschisi fransuz publissisti va tadqiqotchisi Mark Antuan Julen (1775-1848) bo‘lib hisoblanadi. U birinchi bo‘lib, qiyosiy pedagogikaning maqsadi va vazifalarini aniqlash, turli mamlakatlar bo‘yicha muvofiq ashvoviy materiallarni to‘plash va tizimlashtirish, ta‘limni rivojlantirishda Jahon tajribasini o‘rganish muammosini ilmiy tadqiqotlarning alohida mustaqil sohasi sifatida ajratish masalasini o‘rtaga tashlagan edi.

Mark Antuan Julen o‘zining –Qiyosiy pedagogikaga oid ishga qo‘shimchalarl degan maqolasida Shvetsariya va Fransiya maktablarining pedagogik tajribasini qiyosiy tahlil qiladi. Keyinchalik uni Julen

Parijskiy deb atay boshladilar. Shu nom bilan u qiyosiy pedagogika tarixiga kirdi. Uning fikricha, qiyosiy pedagogikaning asosiy va bosh masalasi – turli mamlakatlarning pedagogik tajribasini o‘rganish orqali dunyo miqyosida imkon qadar ratsional ta‘lim tizimini yaratish.

Shuning uchun G‘arbiy Yevropa adabiyotlarida Julen «Qiyosiy pedagogikaning otasi» sifatida tilga olinadi.

Darhaqiqat, u ta‘lim taraqqiyotining xalqaro tajribasini alohida ilmiy tadqiqotlar yo‘nalishi sifatida o‘rganish masalasini o‘rtaga qo‘ydi. Julen faoliyati va qiziqishlari keng miqyosga ega edi. 1792 yilda 17 yoshli o‘spirin diplomatik missiya tarkibida Angliyaga jo‘natiladi. U yerdan qaytgach, Fransiya departamenti tarkibidagi inqilobiy hukumat a‘zosiga aylanadi. 1794 yilda Fransiyaga markaziy ma‘muriy ta‘lim siyosati natijasida tuzilgan «Xalq ta‘limi ijroya qo‘mitasi» faoliyatida ishtirok etadi.

XIX asr boshlarida Julen mashhur publissist sifatida yuzlab maqolalar, ijtimoiy munosabat, madaniyat va siyosatning turli masalalariga oid broshyuralar e‘lon qildi.

Julen Parijskiy Robesperning tarafdori va faol publissisti bo‘lganligi sababli tabiiy ravishda uning ta‘lim to‘g‘risidagi g‘oyalari va qadriyatlari Fransiya inqilobning g‘oya va qadriyatlari bilan mos edi. Uning uchun qiyosiy pedagogikani rivojlantirishning asosiy g‘oyasi jamiyat taraqqiyoti va shu asosda xalq farovonligini aks ettirar edi. Taraqqiyot (progress) g‘oyasi fransuz ma‘rifatparvarlarining asosiy va muhim postulati bo‘lib, u jamiyatni bosqichma- bosqich rivojlantirib borib, eng past yashash sharoitidan yuqori yashash sharoitiga ko‘tarilish. Buning uchun barcha vositalardan, shuningdek, zarur bo‘lsa inqilobiy to‘ntarishdan ham foydalanish lozimligi ko‘rsatilgan edi. Aynan maorif, ta‘lim keng ma‘noda –Aql-idrok podshohligi ijtimoiy progressni tezlashtirishning asosiy va zarur sharti hisoblangan. Shuning uchun ham turli mamlakatlardagi pedagogik voqelik birinchi navbatda, fransuz inqilobi namoyondalarini qiziqtirar edi. O‘sha paytda Yevropa mamlakatlari uchun umumiy bo‘lgan ta‘lim nazariyasini ishlab chiqish va shu orqali madaniy taraqqiyotga erishish, nisbatan yangi g‘oya sanalar edi. Bu g‘oya fransuz burjuaziya inqilobi bosh shiori bilan bog‘liq bo‘lib, bunda jamiyatni rivojlantirishning asosiy qadriyati ozodlik, tenglik va birodarlik, deb hisoblanadi. *Ozodlik, tenglik va birodarlik* (fr. Liberte`, E`galite`, Fraternite`) – Buyuk fransuz inqilobining shiori bugungi kunda Fransiyaning davlat shiori bo‘lib hisoblanadi. O‘sha paytda bu shior fransuz ta‘limini isloh qilishning asosiy g‘oyasi bo‘lib hisoblangan. Uning tashabbusi bilan «Birlashgan millatlar fransuz jamiyati» tashkil qilindi. Bu jamiyat Yevropa tarixiy adabiyotlarida zamonaviy xalqaro tashkilotlar yuzaga kelishiga asos bo‘lganligi, qayd qilinadi. Julen ta‘lim va tarbiya muammolariga juda qiziqar edi. 1810 yilda Julen Pestalotsining Iverdan Shvestariyadagi tarbiya maskanini ziyorat qilgach, uning g‘oyalarini jiddiy yoqlay boshladi.

Julen 1848 yilda vafot etdi. Deyarli bir asrga yaqin vaqt ichida uning publististik va ilmiy merosi esga olinmadi. Faqat 1935 yilda uning –Qiyosiy tarbiya bo‘yicha tadqiqotlarga oldindan eslatmalar va ocherkl nomli (1817) kichik broshyurasining Parijdagi eski kitoblar do‘koni peshtaxtasidan tasodifan topilishi, uning ismini xalq xotirasidan butunlay o‘chib ketishining oldini oldi. Uning ijodiga qiziqishni qayta uyg‘otdi. Aynan shu asarda «qiyosiy tarbiya» va «qiyosiy pedagogika» atamaları ilk bor qayd qilingan edi.

Julen 1817 yilda birinchi bo‘lib xorij davlatlardagi ta‘lim amaliyotini analitik taqqoslash natijasi sifatida ta‘lim-tarbiya mazmuni, metod-vositalari va ta‘lim nazariyasini o‘rganish jarayonini ifodalash uchun –**qiyosiy pedagogika** atamasini qo‘lladi.

Julen fikriga ko‘ra, qiyosiy pedagogikaning vazifasi Yevropada, keyinchalik esa butun dunyoda ta‘lim-tarbiyaning eng oqilona tizimini yaratish maqsadida turli mamlakatlarning pedagogik tajribasini o‘rganishdan iborat. Pedagogika ijobiy fanga aylanishi uchun - deb yozgan edi Julen, - turli mamlakatlarning dalillangan materiallari tahliliga asoslangan bo‘lishi lozim. Turli-tuman dalillar to‘planishi, tartibga keltirish va ularni tizimlashtirish usullari aniqlanishi zarur. Bu omillarsiz pedagogik faoliyat va uning natijalari subyektiv, cheklangan qarashlarga, yosh avlod ta‘lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanayotgan mutaxassislar fikri va irodasiga bog‘liq bo‘lib qolaveradi.

Julen batafsil ma'lumot olish maqsadida, katta, so'rovnoma (250 dan ko'proq savollar) tuzdi. Bu so'rovnoma maktab faoliyatining turli jihatlariga aloqador edi. So'rovnomaning Yevropaning turli davlat hokimiyatlariga yuborishni taklif qiladi. So'rovnomaning ayrim savollarida miqdoriy va daliliy ko'rsatkichlar to'plash maqsadi ko'zda tutilgan edi. (Masalan, sinf mashg'ulotlarining kunlik davomiyligi, o'quv yili necha oydan iborat, imtihon o'tkazish tartibi qanday, turli o'quv muassasalarida bitiruvchilarga qanday turdagi diplom yoki shahodatnoma beriladi kabi). Shuningdek, sezilarli darajada murakkab savollar ham mavjud bo'lib, ular bugungi kunda ham fanda muammoli masalalardan hisoblanadi. O'quvchilarning individual xususiyatlari hisobga olinishi va aniqlanishi qanday amalga oshiriladi? Mehnatsevar, itoatkor, lekin yetarli layoqatga ega bo'lmagan bolalarning dars jarayonida aytarli mashaqqatsiz saboqni o'zlashtirayotgan qobiliyatli bolalardan ortda qolishi, ularda maktabga nisbatan qoniqmaslik hissining paydo bo'lishiga sabab bo'lmaydimi? kabi savollarga javob izladi.

Julen so'rovnoma yordamida olingan ma'lumotlar qaysi davlat ta'lim taraqqiyotida yetakchilik qilmoqda, qaysilari ortda qolgan, rivojlanishga to'sqinlik qiluvchi omillar va ularni bartaraf etish yo'llari kabi muhim masalalarga oydinlik kiritishiga umid qilgan edi.

Bu g'oyalarni amalga oshirish uchun umum Yevropa ilmiy-pedagogik muassasa tashkil qilinishi kerakligini ta'kidlagan. Bu muassasalarda o'qituvchilar tayyorgarligini yaxshilashga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar o'tkazilishi va tajriba yo'li orqali yangi pedagogik usullar amaliyotda sinab ko'rilibishini nazarda tutgan. Bularning bari qiyosiy pedagogika yaratilishi va Yevropaning barcha mamlakatlarini ta'lim amaliyotida uzluksiz yaqinlashuv jarayoni yuzaga kelishiga asos bo'ladi, deb hisoblagan. Bu g'oyalar bir asrdan ortiq vaqt o'tgach, YUNESCO – ta'lim bo'yicha xalqaro byuro hamda boshqa xalqaro tashkilotlar faoliyati natijasida amalga osha boshladi.

Julenning qiyosiy pedagogikaga doir tadqiqotlari o'sha davrda keng yoyilmadi. Julen Parijskiy turli Yevropa davlatlaridagi ta'lim muassasalarida amal qiladigan ta'lim mazmuni va metodini o'zaro taqqoslash va tasnif etish uchun xalqaro tadqiqot markazi tuzishni taklif qiladi. Bundan tashqari u xalqaro pedagogik jurnal chop etish zarur ekanligini uqtiradi. Uning fikricha, pedagogika samarali fan bo'lishi uchun u turli mamlakatlardagi ta'lim to'g'risida manbalarni tahlil qilishga asoslanishi; turli dalil va faktlarni tizimlashtirish hamda ularni tahlil qilishi (interpretatsiya) lozim. Faqat shunday yondashilagina ta'lim faoliyati va uning natijalari ta'lim-tarbiya ishi bilan shug'ullanuvchi kishilarning qarashlaridagi subyektivlik va pozitsiyadagi individualligidan xoli bo'ladi.

Fransiyada samarali natijaga erishgan –pedagogik sayohatchi taniqli faylasuf, Sorbonna professori V.Kuzen (1792-1867) bo'ldi. U hukumat topshirig'i bilan 1830 yilda bir necha bor Prussiyaga sayohat qildi va pruss ta'lim tizimini o'rgandi. Bularning natijasi, pruss ta'lim muassalari, ularning tuzilishi, faoliyat usullari haqida batafsil ma'ruzalarida aks etdi. Hukumat maktab islohoti o'tkazishda bu ma'ruzalarda keltirilgan dalil va xulosalardan keng foydalandi. Keyinchalik, nemis va ingliz tiliga tarjima qilingan Kuzen ma'ruzalari boshqa mamlakatlarning pedagoglari tomonidan yakuniy hisobot tayyorlashda namuna bo'lib xizmat qildi.

XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Fransiyada xorijiy ta'limni qiyoslab o'rganish davom etdi. 1865 yilda ma'rifatparvar J.N.Boduen Belgiya, Germaniya va Shvetsariyada boshlang'ich ta'limining zamonaviy holati to'g'risida ma'ruza qildi.

Prussiya bilan bo'lgan urushdagi mag'lubiyatdan so'ng, Fransiya (1870)da nemis maktabi tajribasiga qiziqish tobora ortdi. 1880-1890 yillarda E.Dreyfus- Brissak tomonidan uch tomli –Yangi tarbiya qiyosiy-pedagogik o'rganishl asari nashr qilindi. XX asrda yaratilgan asarlar orasida Fredelning ikki asarini alohida qayd qilish mumkin. –Xorijiy mamlakatlarda muallim tayyorlashl (1903) va

–Xorijiy pedagogikal (1910). Bu kitobda 9 mamlakatning majburiy ta'lim shakllanishi qiyosiy tavsiflangan. Bu G'arb mamlakatlari (Angliya, Germaniya, Italiya, AQSH) maktablari bilan bir qatorda Yaponiya va Misrda ta'lim shakllanishining xarakterli jihatlarini yoritib bergan dastlabki asar hisoblanadi. Nemis pedagogikasida pedagogik qiyoslash elementlarini aks ettirishga uringan dastlabki asarlar XVIII

asrda paydo bo'ldi. 1784 yilda I.Brinkmanning –Qadimgi va zamonaviy tarbiyani qiyoslash va ulardan qaysi biri tabiatga ko'proq muvofiqligini ajratish asari chop etildi. 1790 yilda Frayburg gimnaziyasi direktori F.Xekt –Angliya va Germaniya maktab tizimlari qiyosi nomi ostida ma'ruzalar to'plamini lotin tilida nashr qildi.

XIX asrda Germaniyada eng yirik xorijiy pedagogik muammolar tadqiqotchisi Myunxen universiteti professori F.Trish (1774-1860) edi. O'zining xorijiy sayohatlari natijasida maktab rahbariyati topshirig'iga ko'ra, pedagogik hujjatlarni batafsil tahlil qilish asosida 3 tomlik –Germaniya, Gollandiya, Belgiya va Fransiyada zamonaviy umumiy ta'lim holatini asarini yaratdi. Bu asarda qiyoslanayotgan unsurlar juda aniq ifodalangan. Trish nemis ta'limiga o'xshash Gollandiya ta'limini tavsiflab, uni o'z belgilariga ko'ra qiyoslaydi. Fransuz va golland ta'lim tizimlari mo'tadil bo'lgan Belgiya ta'limini tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Fransiya, Angliya yoki Germaniya maktablarining o'ziga xos milliy belgiga egaligiga qaramasdan, xristian sivilizatsiyasi va yevromadaniyat tamoyillariga asoslangan –umumiy ruhl ularning barchasiga aloqador –Yevropa tarbiyasi masalasini ko'tarib chiqdi. Bu Yevropa xalqlari va mamlakatlarining yaqinlashuvida zaruriy manba ekanligini ta'kidlaydi.

XIX asrda yaratilgan asarlar sirasiga L.Shteynning –Angliya, Germaniya, Fransiya va boshqa mamlakatlarda boshlang'ich va kasbiy ta'lim (1868) asari va A.Baumeysterning –Yevropa va Shimoliy Amerikada Oliy ta'lim shakllanishi (1897) kabilarni keltirish mumkin.

AQSHda xorijiy tajribaga qiziqish, Yevropa pedagogik an'analarga tayanuvchi milliy ta'lim tizimi shakllanish davrida kuzatildi. K.Stou o'zining –Yevropada boshlang'ich umumiy ta'lim to'g'risida hisoboti nomli asarida turli mamlakatlarning maktablari rivojlanishi muammosini siyosiy tizim va ijtimoiy strukturaga bog'lab o'rganishga harakat qildi. AQSHda ta'limning xorij tajribasini o'rganishga intilgan marifatparvarlardan G.Mann (1796-1859) va G.Bernard (1811-1900) larning hissasi katta. G.Mann AQSHda davlat byudjetidan moliyalashtiruvchi bepul majburiy boshlang'ich ta'lim joriy qilinishi tashabbuskori bo'ldi. Bu masalaning samarali hal qilinishi uchun Yevropa mamlakatlari tajribasidan foydalanish zarurligini ta'kidladi. U nemis maktablarida Pestalotsi metodlarining amaliy qo'llanishiga katta qiziqish bilan qaradi. Yevropaning yetti mamlakatida bo'lib, maktab ta'lim tizimi bilan batafsil tanishib, ular asosida ma'ruza tayyorladi. Uning ma'ruzalari jamiyatda yaxshi qabul qilindi va maktab ta'limining kelgusi istiqboli to'g'risida hukumat qarori qabul qilinishiga muayyan ta'sir ko'rsatdi. Mann Massachusetts shtatida ta'lim ishlari bo'yicha kengashini boshqardi.

Aynan shu shtatda AQSHda birinchi bo'lib majburiy ta'lim haqida qonun qabul qilindi. 1853 yilda Mann tomonidan «Amerika ta'lim jurnali»ga asos solindi. Bu jurnalda milliy muammolar xorij tajribasiga qiyoslanib talqin qilindi. Shuningdek, taniqli olim G.Bernard Yevropa davlatlariga «pedagogik sayohat» uyushtirib, ta'limning xorijiy tajribalarini batafsil o'rgandi. U maktab siyosati, ta'limning markaziy va mahalliy boshqaruv organlari faoliyati va tashkillashtirilishi kabi masalalarga alohida e'tibor qaratdi. Pedagogik doirada

–Turli mamlakatlardagi xalq ta'limi tizimi, statistikasi va ro'yxatga olinishi nomli ikki tomlik monografiyasi shuhrat qozondi. 1867 yilda AQSHda marifatparvarlik federal byurosi tashkil qilindi. Bernard bu byuroning birinchi rahbari sifatida faoliyat yuritib, amerikalik pedagoglarni Yevropaga ingliz, nemis, fransuz maktablari faoliyati bilan tanishish maqsadida safar qilishini tashkillashtirga yordam berdi. 1898-1899 yilda Dj.Rassel qiyosiy pedagogika bo'yicha Kolumbiya universitetida ma'ruza o'qidi. Keyinchalik, qilingan qator tadqiqotlarda nafaqat maktab, balki ma'orif tizimining boshqa bo'g'inlari ham tadqiqot obyektiga aylandi.

Turli mamlakatlarda ta'lim taraqqiyotiga ta'sir qiluvchi omillar tahlilini M.Sedler davom ettirdi va chuqurlashtirdi. U maktab ta'limining barqaror rivojlanishi uchun maktab tashqarisidagi omillar iqtisodiyot, davlat tizimi, cherkov va oila ta'sir ko'rsatishini, aynan shu omillar nuqtai nazaridan ingliz grammatik maktabi, fransuz litseyi va nemis gimnaziyalari o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarni tavsiflaydi.

Uning 1900 yilda –Xalq taʼlimi xorijiy taʼlim tizimi bilan tanishuv qanday amaliy qiymatga ega kitobi nashr etildi:

Sedler tashabbusi bilan 1894 yili Londonda ingliz va xorijiy maktablar taraqqiyoti toʻgʻrisida axborot toʻplash, yangi maqola va kitoblar kattaligini tuzish mos ravishda analitik dokladlar tayyorlash kabi vazifalarni bajaruvchi maxsus muassasa tuzildi. Bu hujjat va materiallar 1902 yilda qabul qilingan va mamlakatning oʻrta taʼlimining bir necha oʻn yillik sturukturasini belgilab bergan Parlament akti mazmuniga sezilarli tasir oʻtkazdi.

M.L.Rodionov Rossiyada qiyosiy pedagogikaga oid dastlabki tadqiqotlar XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida paydo boʻlganligini koʻrsatadi. Ularga K.D.Ushinskiy va L.N.Tolstoyning baʼzi ishlarini kiritish mumkin. Ularning har ikkalasi ham Yevropa taʼlim tizimini tahlil qilib, uni rus taʼlim tajribasiga qoʻllashga tanqidiy yondashdilar. Ushinskiy rus milliy taʼlim tarbiya tizimining ustivor yoʻnalishlarini ajratib koʻrsatadi va Yevropa taʼlim tizimidagi alohida olingan ayrim elementlarigina rus maktablari tajribasida qoʻllash mumkinini taklif etadi. Tolstoy esa, xalq maktabining qatʼiy tarafdori sifatida Yevropa taʼlim-tarbiya tizimidan toʻliq foydalanishga qarshi chiqadi. Ulardan rus taʼlim tizimi uchun yaroqli boʻlgan ayrim elementlarni olish mumkinligini koʻrsatib oʻtadi.

Ushinskiy qator asarlarida –Shvestariya boʻylab pedagogik sayohat, –Xorijga mehnat safari boʻyicha hisobotl, –Shimoliy Amerikada maktab islohotlari xususan –Umumiy tarbiyaning xalqchilligi haqidal Fransiya, Angliya, Germaniya, Shvetsariya, Shimoliy Amerikadagi xalq taʼlimi, ularning oʻquv muassasalari faoliyati va tashkil qilinishi usullarining oʻziga xos jihatlarini batafsil yoritishga harakat qildi.

Ushinskiy fransuz taʼlim tizimini oʻrganib, unga tanqidiy baho berdi. Markazlashuv va maʼmuriy bir xillik xarakterida ekanligini qayd etdi. Fransiyaʼning oʻquv muassasalari markazlashuvi,- deb yozgan edi u, - eng soʻnggi nuqttagacha olib borilgan. Nafaqat bir bilim yurti boshqasini takrorlaydi, balki ularning bari intizomlashgan harbiy qism singari yagona buyruqqa amal qiladi. Fransuz xalq taʼlimi vazirligi har yili tasarrufida boʻlgan oʻquv muassalariga oʻquv fanlari dasturini taqdim qiladi. Unda nafaqat joriy yilda oʻqilishi lozim boʻlgan yozuv belgilanadi, balki qaysi betlar tarjima qilinishi, qaysisi yod olinishigacha qayd etiladi. Vazirlikning ixtiyoriy amaldori soatiga qarab aynan shu soatda Fransiyaning barcha gimnaziyalarida Seseron asarining aynan shu betlari tarjima qilinadi yoki aynan bir xil sharh asosida oʻqilatiladi (sharhlar ham vazirlik tomonidan tasdiqlanadi). Yoyinki, oʻn minglab oʻquvchi aynan shu mavzuda insho yozyapti, deb ishonch bilan aytishi mumkin. Bu Fransiyada tarixiy merosga aylangan xalq taʼlimi tizimiga Ushinskiy tomonidan berilgan baho edi. Ushinskiy Fransuz pedagogikasining maʼnaviy tarbiyaga daxldor jihatlarini tanqidiy baholaydi. Maktab hayotini tashkil qilishda shuhratparastlik qoʻllab-quvvatlanadi. Oʻquvchilar orasidagi nosogʻlom raqobat hamda man-manlikni fransuz pedagogikasi kuchli richag deb bildi va u bilan birga faoliyat yuritdi.

Bu maqsadda fransuz allomalari koʻplab qoyilmaqom vositalar oʻylab topdilar: tarbiyalanuvchilarga orden taqdim qiladi, ularga mansab beradi, ularning ismini gazetada chop etadi.

Shunday qilib, XIX asr va XX asr boshida xorijdagi va milliy taʼlim tizimi ahvoli toʻgʻrisida dalillar yigʻish tasniflash yoki birlamchi tahlilga tortishga qaratilgan gʻarb mamlakatlari va rus pedagoglarining tatqiqotlari hajmi kengayib bordi. Ammo bu muammo bilan shugʻullangan mualliflarning aksariyati buni yoʻl-yoʻlakay hisoblab, asosiy ish faoliyati sifatida koʻrib chiqmagan.

XIX asrning ikkinchi yarmida (1870-1900) jahondagi bir qator mamlakatlarda majburiy taʼlim haqida hukumat qarorichiqdi.

Maqsad taʼlim mazmuniga koʻra butun Gʻarbda bir xil boʻlgan maktablar bilan birga mamlakatning milliy xususiyatlarini koʻproq aks ettiradigan davlat munisipal xalq maktablari yuzaga kela boshlaydi.

Jahonning turli mamlakatlarida maorif sistemasini muammolariga qiziqish va maktabni qiyosiy oʻrganish zaruriyati ortadi. XIX asrning oxiriga kelib qiyosiy pedagogikaning ayrim nazariy asoslari va amaliy vazifalari, xususan chet eldagi pedagogika tajribalari materiallarini toʻplash va ishlab chiqish, nashr etishda

o'z mamlakatidagi ta'lim-tarbiya sistemasini takomillashtirish uchun foydali tajriba olish maqsadida, turli ta'lim sistemalarining ijobiy tomonlarini qayd etish vazifalari belgilaydi. XIX asrning ikkinchi yarmida Yevropada xalqaro tadqiqot markazlari, muzeylari yoki institutlari vujudga kelib, ular o'z mamlakatlari va chet eldagi ta'lim va tarbiyaga oid axborot materiallari va statistik ma'lumotlarni to'plab, ishlab chiqadilar va tarqatadilar. XIX asrning oxirida Turkiya va Avstro- Vengriya imperiyasi guruhiga kirgan Slavyan xalq vakillari bo'lgan pedagoglarning tadqiqotlari o'ziga xos xarakterga ega edi. Bu pedagoglar maktab orqali Slavyan xalqlarini birlashtirish va milliy ozod qilishga yordam bermoqchi bo'ldilar.

Qiyosiy pedagogika taraqqiyotining uchinchi bosqichi-rivojlanish bosqichi. XX asr boshlaridan XX asrning 60-yillarigacha.

Bu davrda xorij qiyosiy pedagogikasi juda tez rivojlana boshladi. Qiyosiy pedagogika turli ijtimoiy tuzumdagi mamlakatlar o'rtasidagi sotsial iqtisodiy va siyosiy ziddiyatlarni aks ettirdi. Chet el mamlakatiarining pedagoglari mamlakatlarda maktabning rivojlanishini tobora sinchkovlik bilan kuzata boshladilar.

Ularning ko'pchiligi qiyosiy pedagogikani o'zlarining sohalari qilib oldilar. Umumiy ta'limning rivojlanishi va majburiy ta'lim muddatlarining uzayishi va darajasining oshishi, turli yo'nalishi, tipi, darajasi, maktablarning rivojlanishi, ta'lim-tarbiya metodlarini takomillashtirish zaruriyati Yevropa va Amerikadagi ko'pgina mamlakatlar uchun bir qator umumiy muammolarni ilgari surdi.

Qiyosiy pedagogika bo'yicha tadqiqotlar olib borgan Amerikalik olim Pol Monro dunyoning turli mamlakatlar va hududlaridagi ta'lim va pedagogik nazariyani tarixiy aspektda o'rganadi va milliy ta'lim tizimlariga ijtimoiylashtirish ta'lim va tarbiyaning o'ziga xos jihatlariga alohida e'tibor qaratadi. Monroning xizmati shundaki, ta'lim va tarbiyaga turli xil yondashuvlardagi yutuq va kamchiliklarni qiyosiy-tahliliy o'rganib, ta'lim maqsadi va qadriyatlarini ajratadi. Aynan u 1911-1913-yillarda AQSHda birinchi bo'lib, yaratilgan ta'lim to'g'risidagi ensiklopediyaning ilmiy redaktori bo'ldi.

Komparativistikaning rivojlanishi turli ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tizimlardagi qizg'in o'zgarishlar, ziddiyatlarga to'g'ri keldi. Bu davrda qiyosiy pedagogikaga oid tadqiqotlar bilan shug'ullanadigan tashkilot tarmoqlari ancha kengaydi. Binobarin, *xalqaro ta'lim byurosi* tashkil etilib, u qiyosiy pedagogikaga oid tadqiqotlarni munofiqlashtiruvchi markaz sifatida faoliyat ko'rsata boshladi. Shuningdek, maxsus xalqaro davriy nashrlar: –Ta'lim va tarbiyaning xalqaro yillik nashri –Ta'lim yillik nashri (AQSh), –Xalqaro pedagogik jurnal (Germaniya) va Qiyosiy pedagogika metodologiyasi va aniq tadqiqotlar bilan I.Kendel, P.Monro, V.Rassel (AQSh), N.Xens (Angliya), F.Shnayder (Germaniya), P.Rosselo (Shvetsariya) kabilar jiddiy shug'ullandilar.

1917 yildagi rus inqilobidan keyin qiyosiy pedagogika Rossiya u bosib olgan davlatlarda rivojlana boshladi. Maorif xalq *maorif Xalq kommissariyati* tizimida faoliyat ko'rsatgan bir guruh pedagoglar xorij pedagogik nazariyasi va maktab amaliyotini o'rganish bilan shug'ullana boshladilar. Bu tahlilning ustivor yo'nalishi xorij davlatlaridagi ta'limning aynan maktab tizimi edi. Bu davrga kelib, pedagoglar va keng jamoatchilik uchun turli pedagogik jumallar chop etila boshlandi. –Boshlang'ich ta'lim (–Nachalnaya shkola), –O'qituvchi (–Uchitel),

–Tarbiya uchun jurnal (–Jurnal dlya vospitaniya) va boshqalar shular jumlasidandir. –Yangi maktab sari yo'l (–Naputyax novogo shkole) jurnalida xorij ta'lim tizimi tahliliga oid maqolalar doimiy ravishda chop etib borildi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'sha davrda pedagoglar –maorif so'zini juda ko'p va tez-tez qo'llaganlar. Zamonaviy pedagogik leksikonda esa, bu so'z kamdan-kam qo'llanadi. Maorif tushunchasi ta'lim va bilimni tarqatish ma'nosida qo'llanilib, o'sha paytda yangi ijtimoiy formastiyaga ko'tarilgan davlat uchun juda zarur edi. Chunki o'sha davrda aholining ko'p qismi, shuningdek, kattalar orasida ham savodsizlik ko'rsatkichi yuqori bo'lgan. Shuning uchun ham ta'lim boshqaruvi bilan shug'ullanuvchi kommissariyat (hozirgi sinonimi vazirlik) Xalq maorifi kommissariyati deb nomlangan.

Ular XIX asrning II yarmida maydonga kelgan maʼrifatchilik harakatining merosxoʻrlari sifatida butun oʻlkada katta obroʻga ega boʻlib, rus, ozarbayjon, tatar va boshqa qardosh xalq pedagoglarining taʼlim-tarbiya haqidagi fikrlarini hamda darsliklarini oʻrganib oʻlka maktablarida keng yoyishda jonbozlik koʻrsatdilar. Turkistonda ochilgan rus va tatar muallimlari boshchilik qilgan oʻzbek maktablarida qoʻllangan usullardan foydalanib oʻzlari tashkil qilgan maktablarda uzoq vaqt davom etgan –Hijo usuli oʻrniga –usuli savtiyalda taʼlimni tashkil qildilar va darsliklar yaratdilar.

Mamlakatimizda 20 asrning boshlarida yangi taʼlim tizimi jadallashdi, oʻzbek maʼrifatparvarlari tomonidan chet el pedagogik tajribasini oʻrganishga katta eʼtibor qaratildi. Davlatning qiyin iqtisodiy ahvoriga qaramay, pedagoglar va maorif arboblari taʼlim sohasidagi yangi konsepsiyalar va haqiqiy oʻzgarishlar bilan tanishtirish maqsadida talabalarning chet el safarlari uchun mablagʻ topar edilar. Oʻzbek maktabi amaliyotiga baʼzi gʻarbiy didaktik yangiliklarni kiritishga urinishlar boʻldi. Bu urinishlar har doim ham samarali boʻlavermas edi, ammo ular taʼlimni abstrakt xarakterini yengish uchun va oʻz maktablarida oʻquv jarayonini faollashtirish uchun chet el tajribasidan foydalanishga intilishni aks ettirar edi.

Mahmudxoʻja Behbudiy, Munavvar Qori, Sadridin Ayniy, Fitrat, Choʻlpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Hamza, Gʻozi Yunus, Xurshid va boshqa ziyolilar madaniyat, maorif sohasida jonbozlik koʻrsatdilar va yangi usuldagi maktablarning keng tarmoqlarini yaratish sohasida faoliyat olib bordilar.

Maʼrifatparvarlar 1906 yildayoq –Taraqqiy deb nomlangan gazeta nashr ettirib, oʻz gʻoyalarni tarqata boshladilar, oradan koʻp oʻtmay, Xurshid, –Shuhrat singari yangi gazetalar dunyo yuzini koʻrdi. 1922—1923 yillarda Fitrat Buxoro Xalq Respublikasining maorif noziri sifatida barcha oʻzbek, tojik va boshqa millatlarning bolalari uchun maktablar ochish, oʻquvchilarga metodik qoʻllanmalar tayyorlash sohasida katta ishlar olib bordi. Xotin-qizlar maktablarini koʻpaytirishga, xotin-qizlarni maʼrifatga tortishga alohida eʼtibor berdi.

Fitrat oʻsha yillarda Buxoro Xalq Respublikasidan Germaniyaga, Turkiyaga talabalar yuborish, u yerdagi ilgʻor Yevropa taʼlim-tarbiyasi, ilm-fan, texnika sirlarini oʻrganish, yangi Buxoro Xalq Respublikasi va Turkistonda maorif va madaniyatni rivojlantiruvchi mahalliy milliy kadrlar tayyorlash tashabbuskorlaridan biri boʻldi. Ayni chogʻda Buxoro Xalq Respublikasi raisi Fayzulla Xoʻjaev ham Turkiston Shoʻrolar Respublikasi rahbarlari Turar Risqulov, Abdullo Rahimboev, Nazir Toʻraqulovlar bilan birga Buxoro va Toshkent, Samarqand va Fargʻona, Xoʻjand va Xivadan Sattor Jabbor, Sayidali Xoʻja, Maryam Sultonmurodova, Hayriniso Majidxonova, Saida Sherahmad qizi Ahmad Shukriy, Ahmadjon Ibrohimov kabi oʻnlab mahalliy millat oʻgʻil va qizlarini Germaniyaga oʻqishga yuboradi. Ularning ahvoli, moddiy va maʼnaviy, tarbiyaviy ishlaridan xabardor boʻlib turadi. Germaniyadagi oʻzbek talabalari –Koʻmakl nomli oʻzbekcha jurnal chiqarishadi.

Oʻlkada olib borilgan siyosat tufayli oʻzbek xalqi oʻz tarixi, milliy urf- odatu anʼana, umuminsoniy qadriyatlarini bilish va oʻrganish imkoniyatlaridan mahrum boʻldi. Millat taqdiri, maorif ravnaqi uchun jon fido qilgan, erkin, hur fikrli alloma maʼrifatparvarlar—Abdurauf Fitrat, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Elbek, Otajon Hoshimov, Shokir Sulaymon, Choʻlpon, Abdulla Qodiriy qatl etildi. Usmon Nosir, Botu va boshqalar Sibirga surgun qilindi.

Turkiston oʻlkasida yuz bergan toʻntarish maʼrifatning, ijtimoiy tuzumning, ishlab chiqarishning sezilarli darajada rivojlanishida muhim rol oʻynadi. Oʻlkada juda koʻplab ziyolilar etishib chiqdi, savodsizlikka barham berildi. Lekin kezi kelganda shu narsani ham qayd etish kerakki, Oktabr toʻntarishi oʻlkada, sobiq sovet ishlarini amalga oshirishda katta ahamiyat kasb etishi bilan birga, oʻzbek milliy qadriyatlariga putur yetkazishga, milliy xalqni ruslashtirishga harakat qilingani, maʼnaviyatimizning yoʻqolayotganligiga, tariximizning toptalishiga urinishlar boʻlganligini hech kim inkor etolmaydi, albatta. Chunki har qanday xalq oʻz milliyligi, qadriyatlari va madaniyati bilan buyukdir. Oʻzbek xalqining ana shu buyukligi ruslar istilosi ostida koʻp yillar davomida toptalib, oyoq osti qilindi. Endilikda shukrlar boʻlsinki, mustaqillik sharofati bilan yoʻqotayozgan barcha milliy va maʼnaviy boyliklarimiz, qadriyatlarimiz tiklanmoqda.

Xorij davlatlari maktab tajribasi va pedagogik nazariyasi bilan yaqindan tanishish uchun chet el pedagoglari va olimlarining sobiq sovet ittifoqiga va sovet pedagoglarining xorij davlatlariga safari katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu o'sha davrda sovet pedagogikasining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. XX asrning 30- yillarida sobiq sovet ittifoqiga dunyoning turli davlatlaridan ko'pgina pedagog va psixologlar tashrif buyurardi. Ular orasida mashhur amerikalik olim, pedagog, psixolog, nazariyotchi va amaliyotchi, zamonaviy Amerika ta'limining nazariy asosini yaratgan Djon Dyu ham bor edi. Uning jahon hamjamiyati ta'lim tizimini takomillashtirish va modernizatsiya qilish uchun bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan qator asarlari va maqolalari rus tiliga tarjima qilindi.

O'sha davrda xorij pedagogik tajribasini tahlil va tadqiq qilishga oid izlanishlar bilan P.F.Kapterev, P.G.Mijuyev, A.P.Pinkevich va boshqa qator rus olimlari shug'ullandilar. Shuningdek, A.P.Pinkevich redaktorligida –Xorij pedagogikasi Byulletenil chop etila boshlandi. A.P.Pinkevich rus ta'limi muammolarini Amerika, Fransiya, Germaniya, Avstriya va boshqa davlatlar pedagogik muammolarini qiyosiy tahlil qilish barobarida o'rgandi. Shu bilan bir qatorda ijtimoiy muhit va undagi o'zgarishlarning o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasiga ta'siri muammolariga alohida e'tibor qaratdi. P.F.Kapterev esa, umuminsoniy qadriyatlar xalq va milliy qadriyatlarni umumlashtirgan bo'lib, ular tabiiy ravishda istalgan jamiyatning ijtimoiy mavqeiga ko'ra farqlanishini ta'kidlaydi. Shuning uchun ham uning fikricha, turli davlatlardagi ta'lim tizimining umumiy, universal jihatlarini o'rganib, ularni boshqa xalqlarning mental xususiyatidan qat'iy nazar qo'llash mumkin bo'lsin. Shu ma'noda uning pedagogik qarashlari kosmopolitik xarakterga ega edi. P.D.Mijuev – G'arbiy Yevropa, Amerika va Osiyo ta'limi to'g'risidagi ko'plab asarlarning muallifidir. U keng ko'lamdagi tadqiqotlar olib borgan pedagog bo'lib hisoblanadi. P.D.Mijuev taniqli chet el pedagoglarining faoliyatini tahlil qildi va umumlashtirdi, chet el ta'limi muammolariga oid qator maqola kitoblar chop etdi. P.D.Mijuevning qiziqishlari sohasiga Germaniya, Fransiya, Shvetsiya, AQSh, Angliya, Norvegiya va boshqa mamlakatlarning ta'lim tizimi ham kiradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, qiyosiy pedagogika taraqqiyotining bu bosqichida o'ziga xos jihat–bu ikki siyosiy tuzumning (sotsialistik va kapitalistik) g'oyaviy qarama-qarshiligi yaqqol aks etib turar edi. Bu esa o'z navbatida ta'lim tizimlari mazmun-mohiyatiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Bu qarama-qarshilik ayniqsa, 1929 yildan boshlab keskin tus oldi. Shundan so'ng qattiq senzurali taqiqlar xorij davlatlari ta'limi to'g'risidagi obyektiv ma'lumotlarni tadqiq qilish va nashr etishga yo'l qo'ymadi. Hatto xorij ta'limini tadqiq qilgan ba'zi olimlar repressiyaga uchragan edilar (A.P.Pinkevich).

Pedagog olimlarning xalqaro miqyosda zarurligi turli xil region va xalqaro ilmiy tadqiqot tashkilotlari tashkil topishiga olib keldi. Kolumbiya universitetining pedagogika kolleji qoshida xalqaro institut (AQSH), 1925 yildan boshlab Berlindagi ta'lim-tarbiya markaziy institutning chet el pedagogikasi va maktabi bo'limi o'zining ilmiy tadqiqot va amaliy faoliyatini kuchaytirdi. Qator vaqtli nashrlar chop qilindi. Kolumbiya institutining AQSh –Maorif yilnomasi 1934 yilgacha nemis, ingliz va fransuz tillarida chop etilgan. –Xalqaro pedagogik jurnal (Germaniya) va boshqalar. Yevropa va Amerikada ilmiy konferensiya va seminarlar tashkil qilindi. Turli mamlakatlarda ta'lim sistemasi bilan tanishish maqsadida chet ellarga borish, xalqaro uchrashuvlar va chet el maktabini o'rganishning boshqa turlari keng rivojlandi.

Qiyosiy pedagogik tadqiqotlarning amaliy vazifasi kengaydi. Qiyosiy tadqiqot ishlari ancha chuqurlashib, maqsadga yo'naldi. Mamlakatlarning madaniy-tarixiy va sotsial-iqtisodiy sharoiti tufayli XX asrda qiyosiy pedagogika pedagogikaning mustaqil sohasi bo'lib ajralib chiqdi. Qiyosiy pedagogika nazariyasi masalalariga bag'ishlangan bir qator ishlar e'lon qilindi. Yevropa va Osiyo mamlakatlarida xalq revolyutsiyalari g'alaba qozonishi, sotsialistik mamlakatlarning o'z mustaqilligini e'lon qilishi, xalq maorifi sistemasiga ta'sir ko'rsatdi.

1945 yili Parijda BMT tashkiloti (YUNESKO) tuzildi. Xalqaro pedagogika sohasidagi tadqiqotlar uchun kerakli ma'lumotlar ko'paydi. Jahon mamlakatlarida maorifning ahvoli haqida yilnoma nashr qilina boshladi. Qiyosiy pedagogika muammolari bo'yicha xalqaro anjuman uyushtirildi. 1956 yillarda AQSH

qiyosiy pedagogika jamiyati yuzaga keldi. Londonda Yevropa Qiyosiy pedagogika jamiyati tashkil qilinib, vazifalari belgilab olindi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng AQShdagi Qiyosiy pedagogika Jamiyati sohaga oid muammolarni o'rganishga kirishdi. Shunday tashkilotlar jumlasiga: Buyuk Britaniya, GFR, Belgiya, Ispaniyada bo'limlari bo'lgan Londondagi Yevropa Qiyosiy pedagogika Jamiyati, Avstriya, Kanada va Yaponiya jamiyati, Gamburgdagi pedagogika instituti, Zalsburg (Avstriya) dagi qiyosiy pedagogika instituti, Kyusyu universiteti qoshidagi qiyosiy pedagogika instituti hamda pedagogik tadqiqotlar davlat instituti (Yaponiya) va boshqalar ham kiradi. Bu davrda Yevropa qiyosiy pedagogika jamiyati hamda Butundunyo qiyosiy pedagogika jamiyati kengashi faol ish olib boradi, kongresslar tashkil etadi. Qator xalqaro jurnallar: –Qiyosiy pedagogikal, –Qiyosiy pedagogika bo'yicha axborotl, –Ta'lim dunyosil kabilar chop etila boshlandi.

Qiyosiy pedagogika taraqqiyotining to'rtinchi bosqichi – krizisli bosqich (XX asrning 60-yillaridan 80-yillarigacha).

Komparativistikaning ushbu rivojlanish bosqichi jamiyat ehtiyojlari bilan ta'lim natijalari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar pedagogika fani va amaliyotida anglanganligi davriga to'g'ri keladi. YUNESKOning xalqaro ta'limni rejalashtirish instituti direktori Filipp Kumbs 1968 yilda –Ta'lim inqirozi deb nomlangan asarini yozdi. Bu asar jahon hamjamiyati va soha mutaxassislari tomonidan e' tirof etildi. Bu kitobda muallif dunyo ta'limi inqirozi mohiyatini ochib berdi. Uning fikricha, bu asar ko'pgina rivojlangan davlatlarga daxldor edi. Asarning mashhurligi shu bilan belgilanadiki, Kumbs unda ijtimoiy hayotda ma'lum bo'lgan muammolarni aniq ko'rsatib bergan. Bu muammolarni –xippil deb nomlangan yoshlar harakatining kengayishida, –jinsiy revolyutsiyal, –ayollar harakati va boshqa ijtimoiy voqeliklarda kuzatish mumkin edi. Bularning barchasi yosh avlodning amaldagi qoida, an'ana va urf-odatlariga nisbatan qarshili namunasi edi. Yoshlar o'z ota - onalarining ijtimoiy tajriba va qadriyatlarini o'rganishdan bosh tortadilar. Bu holat ta'lim va tarbiya sohasida qiyosiy taqqoslovchi xarakterga ega bo'lgan izlanishlar sonining sezilarli darajada oshishiga turtki bo'ldi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, sobiq SSSR davlati hududidagi respublikalar ta'lim tizimi uchun bu davr boshida yuqoridagi holatlar kuzatilmadi. Ammo –qayta qurishning boshlanishi bilan sovet ta'lim tizimi inqirozga uchrab, Yevropaga yaqin bo'lgan yangi davlatlarda yuqoridagi holatning ba'zi elementlari ko'rina boshladi.

O'tgan asrning 60-70 yillarida O'zbekistonda ham ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish, fan-texnika sohasida yutuqlarga erishish maqsadida iste'dodli kadrlar tanlab olinib, yetakchi ilm dargohlari hamda ta'lim muassasalarida o'z tajribalarini oshirishlari borasida ham bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Buning natijasida yadro fizikasi, biotexnologiya, alkaloidlar kimyosi, paxtachilikni rivojlantirish kabi bir qator sohalarda o'zbek olimlari sezilarli yutuqlarga erishib, tegishli ravishda o'z ilmiy maktablarini yaratdilar.

Qiyosiy pedagogika rivojlanishining beshinchi bosqichi – integratsion bosqich (XX asrning 80-yillaridan hozirgi kungacha).

–Integratsiya turli qismlar, bo'laklarning bir tizimga birlashish, uyg'unlashish jarayonidir. Agar ushbu tushunchani madaniyatlararo aloqalarga tatbiq etsak, turli milliy madaniyatlarning umuminsoniy madaniyat atrofida birlashish jarayonidir desak bo'ladi.

Integratsion bosqichning o'ziga xosligi globallashuv va uning zamonaviy ta'lim rivojlanishiga ta'siri bilan xarakterlanadi.

Globallashuv – bu avvalo hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir. Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig'iz, shu qadar tezkorki, endi ilgari gidek: ha, bu voqea bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo'q, -deb beparvo qarab bo'lmaydi. Ana shunday kayfiyatga berilgan xalq yoki millat taraqqiyotdan yuz yillar orqada qolib ketishi hech gap emas. Bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko'proq kuchga ega. Masalaning kishini

doimo ogoh bo'lishga undovchi tomoni shundaki, agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo'lsa, buni sezish, ko'rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tayziqni, uning ta'siri va oqibatlarini tezda ilg'ab etish nihoyatda qiyin. Globallashuv jarayonining tezlashish omillaridan biri **internet**dir. Ta'lim sohasida samarali faoliyat olib borish, raqobatbardosh kadrlarni voyaga etkazish, zamonaviy texnika jihozlarini amalda qo'llay olish uchun turli rivojlangan davlatlar ta'lim sohasidagi yangiliklardan doimo xabardor bo'lib, shuningdek, axborotlarni qisqa muddatda almashish borasida internetning ahamiyati beqiyosdir.

Hozirgi ommaviy globallashuv sharoitida nafaqat ta'limni, balki madaniyat, kinematografiya, musiqa, san'at kabi inson ma'naviyatini shakllantirish hamda rivojlantirishga yordam beradigan sohalarni milliy mentalitetni saqlagan holda qiyosiy tahlil etish har tomonlama rivojlangan yoshlarni voyaga etkazish imkoniyatini beradi. Buni G'arb va Sharq hududlaridagi hozirgi kunda rivojlangan ikki davlat – Germaniya va Yaponiya misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Nemis xalqining o'ziga xos qadriyatlari va o'zigagina xos dunyoni anglash tajribasi–insoniyatning mushtarak manfaatlarini mujassamlashtira olganligi va bu tajribalarni millat taraqqiyotining asosiga qo'ya olganligi sababli XIX asrning birinchi yarmida qoloq mamlakatdan, asr oxirida Yevropa taraqqiyotining avangardiga aylangan edi. Nemis xalqiga xos yana bir fazilat o'z faoliyatlarini maqsadga muvofiqligi tomon yo'naltira olish va o'ta mehnatkashlik hisobidan bunday yuksak taraqqiyotga erisha olgan edi.

Yaponiya XIX asrning so'nggi choragida dunyoviy taraqqiyot yo'liga kirgan bo'lsa ham, lekin ularning davlat mafkurasida sharqona mustabidchilikka xos elementlar kuchli tarzda saqlanib qolgan edi, bularni biz sintoizmni umumiyapon millatining manfaatlarini ifoda etuvchi yagona mafkuraga aylantirilganligi va imperator shaxsini ilohiylashtirilishi natijasida o'ta markazlashgan hokimiyat tizimining shakllanishida ko'ramiz va bu Yaponiyaning XX asr o'rtalarigacha dunyoviy, demokratik davlat bo'lib shakllanishiga xalal beradi.

Yaponiyaning dunyo taraqqiyotidagi hozirgi mavqeiga ega bo'lishi uchun zarur eng muhim omil ularning milliy ruhida, milliy an'anasida o'z aksini topganligidadir.

Milliy ong va tafakkurning kandy mazmunda ekanligiga va uning dunyoviy taraqqiyotiga mos kelishi darajasiga qarab millatning shu bugungi xolatini aniqlash mumkin.

Demak, millatga xos belgilar, an'analar, urf-odat va marosimlar qay darajada dunyoviy taraqqiyot mezonlariga mos kelishi yoki kelmasligi saralab olinadi va millat taraqqiyotining asosiga quyiladi. Shuning uchun ham har qanday millatga xos bulgan an'ana, urf-odatlar muqarrar tarzda milliy meros tushunchasi ostiga kiradi. Lekin ana shu milliy merosning millatning keyingi dunyoviy taraqqiyotiga xizmat qila oladigan qismi *milliy qadriyatlar* sifatida e'zozlanishi zarur.

O'zbek xalqi xam Germaniya va Yaponiya tajribalarini umumlashtirib olgan holda dunyoviy taraqqiyot asoslarini yaratishdek buyuk maqsadni o'z oldiga qo'yar ekan, butun odamlar bir tanu bir jon bo'lib ishlashi, harakat qilishi zarur.

Ko'rinib turibdiki, ta'limni isloh qilish va rivojlantirish asosidagi milliy istiqloq g'oyasi biqiq hodisa emas, balki ajdodlarimiz va insoniyat erishgan eng namunali yutuqlardan oziq oladigan hayotbaxsh hodisadir.

Maktab va pedagogik muammolarni mamlakatimizda, shuningdek, butun dunyoda ro'y berayotgan voqealardan ajratgan holda muhokama qilib bo'lmaydi. Yevropa va Sharq, Yaqin va O'rta Sharqning bozor iqtisodiyotiga o'tishi, amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlar, yangi siyosiy fikrlashning vujudga kelishi, davlatlarda ichki va tashqi ziddiyatlarni muzokara va bitimlar yo'li bilan bartaraf etishga intilish, sayyoramizda ijtimoiy moddiy madaniyatning rivojlanishi yangi bosqichga kirganini ko'rsatmoqda. Insoniyatning ijtimoiy va tabiiy muhitdagi yashash muvozanati beqarorligi, uning tabiatga tushadigan og'irligi nihoyat darajada kengayotgani va tabiatga munosabat shunday davom etsa butun yer biosferasida halokatli o'zgarishlar sodir bo'lishini anglatmoqda.

Mana shu umumlashtiruvchi ijtimoiy tadqiqotlar orqali tabiat va jamiyatining o'zaro bog'liqligini, mufassal o'rganish zarur.

Hozirgi kunda qator xalqaro muammolarning yechimini topish uchun maktab va pedagogika fani yangicha yondashishi, butun dunyoda inson huquqlarining yuksak darajada ustunligini tan olishi, xalqlarning intellektual boyliklari jahon ijtimoiy fan texnika taraqqiyotining qudratli omili bo'lishi, ta'limga innovatsion yondashuv rivojlanishi lozim. Jamiyat yangilanishining hozirgi bosqichida maktab ta'limini demokratlashtirish, insonparvarlashtirish va tabaqalashtirish sohasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Maktabni qayta qurish prinsiplarini amalga oshirish har doim istalgan natijani bermaydi, ba'zan o'ziga xos ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Demokratlashtirish o'rniga o'zboshimchalik, intizomning bo'shashib ketishi, ta'lim sifatining pasayib ketishi, tabaqalanish o'rniga tor yo'nalishdagi mashqlarga alohida e'tibor berish, ayrim fanlarni afzal ko'rish va boshqa fanlarni pisand qilmaslik hollari kuzatilishi mumkin. Natijada o'qitish va tarbiyalash ishlarida tartibsizliklar sodir bo'lishi, umumiy ta'lim saviyasining pasayishi yuzaga kelishi mumkin.

Amaliyotdan ma'lumki, ta'limning dolzarb muammolarini hal qilish uchun xalqimizning madaniy me'rosini o'rganish, chet el tajribalarini o'zlashtirish talab etiladi. Shuning uchun oliy o'quv yurtida pedagogika fanining strategik yo'nalishlari: ta'lim-tarbiyada pedagogik merosni o'rganish va uni hozirgi bosqichdagi ta'lim bilan taqqoslash; o'qituvchilarning amaliy tayyorgarlik saviyasini oshirish; qobiliyatli, iste'dodli o'qituvchilarni aniqlash; umumiy yo'nalishlar va kasb-hunar ta'limini innovatsion texnologiyalar bilan boyitish zarur. Ta'lim tizimimiz va boshqa milliy ta'lim tizimlari shakllanish tarixi baynalminallikdir. Bu baynalminallik faqat pedagogik hamkorlikka emas, balki o'xshash jarayonlarga iqtisodiy, ijtimoiy voqealarga, yangi axborot texnologiyasi va ta'limning qudratli infrastrukturasi bog'liqdir.

Hozirgi pedagogika fani hamda ta'lim muassasalari oldida o'rganish, taqqoslash, xulosalash zarur bo'lgan qator muammolar turibdi. Ularni hal qilish, samaradorligini oshirish va xalq ta'limi tizimiga joriy qilish muhimdir:

1. Ta'lim tizimi rivojlanishini rag'batlantiradigan qonunlar qanday bo'lishi kerak?

2. Ta'lim va tarbiya vositalarining samaradorligini oshirish uchun nima qilish zarur?

Kelajakni ta'minlash va erishilgan yutuqlarni yo'qotmaslik uchun ta'lim mazmuni qanday bo'lishi kerak?

Yetarli darajada yuqori saviyali ilmiy bilim berish uchun nima qilish kerak?

O'qitish jarayoniga innovatsiyani joriy etish, turli xalqlarning madaniyatini o'rganish, ta'limda ulkan amaliy tajribalarni umumlashtirish zarur.

Zamonaviy ta'lim mazmunini yoritish, jahon ta'lim tizimiga integratsiyalash, ta'lim sohasidagi innovatsiyalar va yangiliklarni qo'llagan holda jamiyatning rivojlanishini ta'minlaydigan yoshlarni voyaga etkazish va tarbiyalash borasida mustaqillik yillarida bir qator o'zbek olimlari faoliyat olib borishdi. Bular qatoriga: M.Ochilov, K.Hoshimov, A.Munavvarov, R.Mavlonova, S.Nishonova, O.Musulmonova, K.Zaripov, O.Roziqov, X.Ibragimov, **TERDU rektori** va hokazolarni kiritish mumkin.

Mavzuni mustahkamlash va o'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar:

1. BMT, YUNESKO, YUNISEF tashkilotlari haqida gapiring.

2. YUNESKO tashabbusi bilan Parijda qaysi vatandoshlarimizning yubileyi bo'lib o'tdi?

3. YUNESKOning "Buyuk ipak yo'li"ni o'rganish dasturi qaysi yo'nalishlarda olib borilmoqda?

4. Jahon tarixiy yodgorliklariga O'zbekistondan qanday obidalar kiritilgan?

**5- Ma'ruza:TA'LIM SOHASINI RIVOJLANTIRISH
BO'YICHA TAJRIBALAR. MODULLI-KREDIT TIZIMI.**

Reja:

1. Modulli ta'lim mazmuni, maqsadi va vazifalari, tamoyillari va modul bloklari.
2. Modulli-kredit tizimi mohiyati. Bolonya deklaratsiyasi va Yevropa yagona ta'lim muhiti.
3. ESTS kreditlari, asosiy tamoyillari va xususiyatlari.
4. Kreditlarni taqsimlash va ESTS o'quv rejalariga o'tish metodikasi.

Tayanch iboralar: Modulli o'qitish, faoliyatlilik tamoyili, tizimli kvantlash usuli, qiziqtirish tamoyili muammolilik tamoyili, kognitiv-vizuallik tamoyili, kredit, modulli kredit tizimi, ECTS, USCS, UCTS, CATS, zacet kredit birligi, ERASMUS dasturi, TEMPUS dasturi, Bolonya deklaratsiyasi, ECTS tamoyillari, kreditlarni taqsimlash.

**2.1. MODULLI TA'LIM MAZMUNI, MAQSAD VA VAZIFALARI,
TAMOYILLARI VA MODUL BLOKLARI.**

Modulli o'qitish-o'qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u ta'lim oluvchilarning bilim imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir.

An'anaviy ta'limda o'quv maqsadlari pedagog faoliyati orqali ifodalangan ya'ni bilim berishga yo'naltirilgan bo'lsa, modulli o'qitishda ta'lim oluvchilar faoliyati orqali ifodalanib, kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan bo'ladi.

Modulli o'qitish texnologiyasining an'anaviy o'qitishdan farqli xususiyatlarini quyidagi jadvalda keltirdik.

| An'anaviy o'qitish texnologiyasiga asoslangan | Modulli o'qitish texnologiyasiga asoslangan |
|--|---|
| Bir tomonga yo'naltirilgan axborot. | Fikrlash va amaliy faoliyat orqali tahsil olishda faol ishtirok etishni rag'batlantirish. |
| Bir tomonlama muloqot (darslik→ o'qituvchi→o'quvchi) | Ikki tomonlama muloqot |
| Axborot olish xotirada saqlash ma'nosini tushunmagan holda mexanik tarzda yodlash. | Tahlil qilish orqali ma'lumotni eslab qolish bilim va ko'nikmalarni namoyish etish mazmuni tushunish va hayotga bog'lash. |

Ushbu jadvalning tahlili shuni ko'rsatadiki, modulli texnologiyaga asoslangan ta'lim an'anaviy ta'limdan o'qitish usullari va vositalari uni tashkil etish va natijalari bilan sezilarli farq qiladi.

Modulli o'qitish ta'limning quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama yechish imkoniyatini yaratadi.

- Modul-faoliyatlik asosida o'qitish mazmunini optimallashtirish va tizimlash dasturlarni o'zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta'minlaydi;
- O'qitishni individuallashtirish;
- Amaliy faoliyatga o'rgatish va kuzatiladigan xarakterlarni baholash darajasida o'qitish samaradorligini nazorat qilish;
- Kasbga qiziqtirish asosida faollashtirish mustaqillik va o'qitish imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish.

Modulli o'qitish samaradorligi quyidagi omillarga bog'liq:

- ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasi;
- malakali professor-o'qituvchilar tarkibi darajasi;

- tinglovchilar tayyorgarligi darajasiga;
- kutiladigan natijalar bahosiga;
- didaktik materiallarning ishlab chiqilishiga;
- modullar natijasi va tahliliga.

Modulli o'qitishda o'quv dasturlarini to'la qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan tabaqalash orqali bosqichma-bosqich o'qitish imkoniyati yaratiladi. Ya'ni o'qitishni individuallashtirish mumkin bo'ladi. Modulli o'qitishga o'tishda quyidagi maqsadlar ko'zlanadi:

- o'qitishning uzluksizligini ta'minlash;
- o'qitishni individuallashtirish;
- o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish uchun etarli sharoit yaratish;
- o'qitishni jadallashtirish;

fanni samarali o'zlashtirishga erishish. Modulli o'qitish fanning asosiy masalalari bo'yicha umumlashtirilgan ma'lumotlar beruvchi muammoli va yo'riqli ma'ruzalar o'qilishini taqozo etadi. Ma'ruzalar tinglovchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilmog'i lozim.

Modul amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari ma'ruzalar bilan birga tuzilishi, ular ma'ruzalar mazmunini o'rganiladigan yangi material bilan to'ldirilishi kerak.

Modulni o'qitishning samaradorligini oshirishga erishish uchun o'qitishning quyidagi usullarini qo'llash mumkin:

- muammoli muloqotlar;
- evristik suhbatlar;
- o'quv o'yinlar;
- loyihalash va yo'naltiruvchi matnlar va hokazo.

O'qitishning modul tizimi mazmunidan uning quyidagi afzalliklari aniqlanadi:

- fanlar va fanlar ichidagi modullar orasidagi o'qitish uzluksizligini ta'minlanishi;
- har bir modul ichida va ular orasida o'quv jarayonini barcha turlarining metodik jihatdan asoslangan muvofiqligini o'rnatilishi;
- fanning modulli tuzilish tarkibining moslanuvchanligi;
- tinglovchilar o'zlashtirishi muntazam va samarali nazorat (har qaysi moduldan so'ng) qilinishi;
- tinglovchilarning zudlik bilan qobiliyatiga ko'ra tabaqalanishi (dastlabki modullardan so'ng o'qituvchi ayrim tinglovchilarga fanni individullashtirishni tavsiya etishi mumkin);
- axborotni «siqib» berish natijasida o'qitishni jadallashtirish auditoriya soatlaridan samarali foydalanish va o'quv vaqti tarkibini ma'ruzaviy amaliy (tajribaviy) mashg'ulotlar individual va mustaqil ishlar uchun ajratilgan soatlarni – optimallashtirish.

Buning natijasida tinglovchi yetarli bilimlarga va ko'nikmaga ega bo'ladi. Modulli metodika asosida o'qitishda faoliyatlik, tizimli kvantlash, qiziqtirish, modullilik, muammolilik, kognitiv vizuallilik, xatoliklarga tayanish tamoyillariga muvofiq ishlab chiqilishi lozim.

1.Faoliyatlilik tamoyili: Bu tamoyil mutaxassisning kasbiy faoliyati mazmuniga muvofiq shakllanishini anglatadi. Bu tamoyilga ko'ra modullar fan bo'yicha faoliyat yondashuvi yoki tizimli faoliyat yondashuv asosida tuzilishi mumkin. Modulli o'qitish texnologiyasiga fan bo'yicha faoliyat yondashuvida modullarni o'quv rejasi va dasturlar tahlili natijasida tuzishni taqozo etadi. Tizimli faoliyat yondashuvida modullar bloki mutaxassisning kasbiy faoliyati tahlili asosida shakllantiriladi.

2.Tizimli kvantlash usuli - bu prinsip didaktik birliklar umumlashtirilgan nazariyalarining talablariga asoslanadi.

Modulda tizimli kvantlash tamoyili o'quv materialining tegishli tuzilmasini tuzish yo'li bilan erishiladi. Modul umumiy ko'rinishda quyidagi elementlardan iborat bo'lishi mumkin:

- tarixiy-bu muammo teorema masala kashfiyot va tushunchalarning tarixiga qisqacha sharh berish;
- muammoli-bu muammoni shakllantirish;
- tizimli-bu modul tarkibi tizimini namoyon etish;
- faollashtirish-bu yangi o'quv materialini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan tayanch iboralar va harakat usullarini ajratib ko'rsatish;
 - nazariy - bu asosiy o'quv materialini bo'lib, unda - didaktik maqsadlar, muammoni ifodalash, gipotezani asoslash, muammoni echish yo'llari ochib ko'rsatiladi;
 - tajribaviy-bu tajribaviy materialni (o'quv tajribasi tajribaviy ishni) bayon etish;
 - umumlashtirish-bu muammo echimini va modul mazmunini umumlashtirish;
 - joriy etish-bu harakatlarning yangi usullarini ishlab chiqish va o'rganilgan materialni amaliyotda qo'llash;
 - xatoliklar–tinglovchilarning modul mazmunini o'rganishdagi o'zlashtirishda kuzatiladigan xatoliklarini ochib tashlash, ularning sababini aniqlash va tuzatish yo'llarini ko'rsatish;
 - bog'liqlik-o'tilgan modulni boshqa modullar bilan, shu jumladan yondosh fanlar bilan bog'liqligini namoyon etish;
 - test va topshiriqlar yordamida baholash - modul mazmunini tinglovchilar tomonidan o'zlashtirish darajasini nazorat qilish va baholash.

O'quv materialining o'zlashtirilishiga mashg'ulotlar paytida modulning amaliy ahamiyati qay darajada ochib ko'rsatilganligi modul mazmunining boshqa modullar bilan bog'liqligi shu modulni o'rganishdagi tinglovchilarning bir xil xatoliklari tahlili muhim ahamiyatga ega.

3. Qiziqtirish tamoyili - bu tamoyilning mohiyati ta'lim oluvchining bilim olish faoliyatini rag'batlantirishdan iborat bo'ladi. Modulning o'quv materialiga qiziqishni uyg'otish, bilim olishga rag'batlantirish, mashg'ulotlar paytida faol ishtirok etish, ijodiy fikrlashga da'vat etish modulning tarixiy va muammoli elementlarining vazifalari hisoblanadi.

4.Modullilik tamoyili-bu tamoyil o'qitishni individuallashtirishning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Birinchi modulning dinamik tuzilmasi fan mazmunini uch xil ya'ni to'la qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan ko'rinishda namoyon etish imkoniyatini beradi. O'qitishning u yoki bu turini tanlash tinglovchining o'ziga havola qilinadi.

Ikkinchi modul mazmunini o'zlashtirishda o'qitish usuli va shakllarning turliligida ham modullilik namoyon bo'ladi. Bu esa o'qitishning faollashtirishga shakl va usullar (dialog, mustaqil o'qish,o'quv, imitatsion o'yinlar va hokazo) hamda muammoli ma'ruzalar seminarlar maslahatlar bo'lishi mumkin.

Uchinchi modulning yangi materialni pog'onasimon o'zlashtirishda ta'minlanadi, ya'ni har bir fan va har bir modulda o'qitish oddiydan murakkabga qarab yo'nalgan bo'ladi.

To'rtinchidan modulga kiruvchi o'quv elementlarining moslanuvchanligi tufayli o'quv materialini muntazam ravishda yangilab turish imkoniyati tug'iladi.

5.Muammolilik tamoyili- muammoli vaziyatlar va mashg'ulotlarni amaliy yo'naltirilganligi o'quv materialining o'zlashtirilish samaradorligini oshishiga imkon beradi.

Mashg'ulotlar paytida gipoteza qo'yiladi, uning asoslanganligi ko'rsatiladi va muammoning echimi beriladi. Ko'pchilik hollarda bizning o'qituvchilar darslarda faqatgina dalillar keltiradilar. Masalan AQSHda o'qituvchi masalani o'rganish uslubini, o'zi qo'ygan muammoning echim yo'llarini, tajriba xususiyatini, uning natijalarini ko'rsatadi va tushuntiradi. Ya'ni u tadqiqotchi yoki maslahatchi sifatida namoyon bo'ladi.

Birinchi navbatda ayniqsa ana shu narsa tinglovchini qiziqtirib qo'yadi unda ijodiy fikrlash va faollikni tug'diradi.

6.Kognitiv vizuallik (ko'z bilan kuzatiladigan) tamoyili-bu tamoyil psixologik-pedagogik qonuniyatlardan kelib chiqadi. O'qitishdagi ko'rgazmalar nafaqat so'roq vazifasini, shu bilan birga kognitiv vazifani bajargan taqdirdagina o'zlashtirish unumdorligini oshiradi. Aynan shuning uchun kognitiv grafika-sun'iy intellekt nazariyasining yangi muammoli sohasi bo'lib,murakkab ob'ektlar kompyuter sur'atchalari ko'rinishida tasvirlanadi.

Modulning tarkibiy tuzilmasi bo'lib rangli bajarilgan kognitiv-grafik o'quv elementlari xizmat qiladi. Shuning uchun rasmlar modulning asosiy bosh elementi hisoblanadi.Bu esa:

Birinchi dan tinglovchining ko'rish va fazoviy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi;

Ikkinchi dan o'quv materiali mazmunini o'zida zich joylashtirib ravshan ko'rsatuvchi rasm tinglovchida tizimli bilim shakllanishiga yordam beradi.

Uchinchi dan rangli suratlar o'quv materialini qabul qilish va eslash samarasini oshiradi hamda tinglovchilarni estetik tarbiyalash vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Ko'rgazmali ma'lumot og'zaki ma'lumotdan ko'ra ahamiyatliroq va unumliroqdir. Ko'rish mexanizmining ma'lumotni o'tkazish qobiliyati eshitishnikidan ko'ra ancha yuqoridir. Bu esa o'z navbatida, ko'rish tizimiga inson qabul qilinadigan ma'lumotning qariyb 90 foizini yetkazish imkoniyatini beradi. Undan tashqari ko'rgazmali ma'lumot bir vaqtning o'zida beriladi. Shuning uchun ma'lumotni qabul qilish va eslashga og'zaki ma'lumotdan ko'ra kam vaqt talab etiladi. Ko'rgazmali ma'lumot ishlatilganda taassurot hosil bo'lishi og'zaki bayondan ko'ra o'rtacha 5-6 marotaba tezroq kechadi.

Insonning ko'rgazmali ma'lumotga ishonchi, og'zaki ma'lumotdan ko'ra yuqori bo'ladi. Shuning uchun "yuz bor eshitgandan ko'ra, bir bor ko'rmoq afzalroqdir" deb bezij aytilmagan.

Shu bilan birga ko'rgazmali ma'lumotda qabul qilish va eslash unumi uni ko'rsatilishi orasidagi muddatni uzoqligiga bog'liq bo'lmaydi.Og'zaki ma'lumotning o'zlashtirilishi esa, bunga bog'liq bo'ladi.O'zni kelib yana bir muhim tafsilotni qayd etish lozim: simvulli-ko'rgazmali ma'lumotni qabul etish o'qitish samarasini oshiradi ya'ni o'quv-ilmiy adabiyotdan va kompyuter texnikasi vositasida olinadigan ma'lumotni ko'paytirish uchun shart-sharoit yaratish zarur. Bu esa o'qitishni individuallashtirish zarurligini ko'rsatadi.

7.Xatoliklarga tayanish tamoyili- bu tamoyil o'qitish jarayonida doimiy ravishda xatoliklarni izlash uchun vaziyatlar yaratilishiga tinglovchilarning ruhiy faoliyati funksional tizimi tarkibida oldindan payqash tuzilmasini shakllantirishga qaratilgan didaktik materiallar va vositalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Bu tamoyilning amalga oshirilishi tinglovchida tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlanishiga yordam beradi.

8.O'quv vaqtini tejash tamoyili - bu tamoyil tinglovchilarda individual va mustaqil ishlash uchun o'quv vaqtining zaxirasini yaratishga yo'naltirilgan bo'ladi. To'g'ri tashkil qilingan modulli o'qitish o'qish vaqtini 30% va undan ortiq tejash imkoniyatini beradi.

Bunga esa modulli o'qitishning barcha tamoyillari to'la amalga oshirilganda,o'quvjarayoni kompyuterlashtirilganda yondosh fanlarning o'quv dasturlari muvofiqlashtirilganda erishish mumkin.

O'tkazilgan nazariy va amaliy izlanishlar natijasida modulli o'qitish – tinglovchilarning bilim imkoniyatlarini ijodiy qobiliyatlarini va amaliy ko'nikmalarini o'rganish darajalarini rivojlantirishda ijobiy samara berishi aniqlandi. Modulli metodika asosida o'qitishda fan tarkibidagi modullar orasidagi uzviylikni ta'minlashga o'qitishni jadallashtirishga tinglovchilarning o'zlashtirishini muntazam nazorat qilishga va baholashga qiziqtirish asosida amaliy faoliyatga o'rgatishga hamda o'quv materialini bosqichma-bosqich o'qitish orqali fanni samarali o'zlashtirishga erishiladi.

2.2.MODULLI-KREDIT TIZIMI MOHIYATI. BOLONYA DEKLARATSIYASI VA YEVROPA YAGONA TA'LIM MUHITI.

XX asrning ikkinchi yarmida ilmiy-texnik taraqqiyot o'zining yuksak cho'qqilariga erishdi. Ilmiy texnik taraqqiyotining (ITT) hozirgi darajasi shundayki fan texnika va texnologiya rivojining erishilgan sur'atlarini mamlakat qay darajada rivojlangan bo'lmasin alohida olingan mamlakatda uni ta'minlab bo'lmaydi. ITT keyingi rivoji faqat turli mamlakatlardagi olim va mutaxassislarining hamkorligi ilmiy-tadqiqot ishlarning integratsiyasi natijasida amalga oshirilishi mumkin. Fan texnika va texnologiyaning taraqqiyoti ta'lim taraqqiyoti darajasi bilan chambarchas bog'liqligini e'tiborga oladigan bo'lsak ta'lim sohasidagi xalqaro integratsiyaning ustuvorligi yaqqol muammoga aylanib qoladi. Bu kredit texnologiyani yaratilishini va qo'llanishining dolzarbligini belgilaydi. Chunki ta'lim sohasidagi xalqaro integrallashuvi eng avvalo o'quv jarayonini kredit texnologiyasi asosida tashkil etishiga tayanadi.

Modulli ta'limda kredit tizimi.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimi oldidagi eng asosiy vazifa malakali mutaxassisni tayyorlash. Bunday mutaxassisni tayyorlash uchun, albatta, unga nisbatan surilayotgan talablar tizimini aniqlab olish kerak. Ushbu savolga javob qidirib, quyidagi to'rt yo'nalishdagi talablar tizimiga duch keldik:

1. O'z sohasi bo'yicha zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish.

2. Sohaga oid mavjud bilimlarini doimiy ravishda mustaqil oshirib borish, ya'ni mustaqil ta'limga tayyor bo'lish.

3. Sohaga innovatsiyalar kiritish uchun mustaqil izlanish va ijod qilish ko'nikmasiga ega bo'lish.

4. O'z vaqtini rejalashtirish, boshqarish va o'z faoliyatini tashkil etish ko'nikmasiga ega bo'lish.

Agar soha bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda mavjud reproduktiv ta'lim etarli bo'lsa, mustaqil ta'lim olish ko'nikmasini va ijodkorlikni rivojlantirish, o'z faoliyatini boshqarish masalasini hal etishda modulli yondashuv katta imkoniyatlarga ega. Modulli ta'limning maqsadi talabning aynan shu jihatlarini shakllantirishga qaratilgan. Modul shunday tuzilishi lozimki, talaba ushbu modulni mustaqil ravishda o'zlashtira olish va ko'zlangan natijaga erishish imkoniga ega bo'lsin.

Bunday natijani ta'minlash uchun modulda axborot materiali aniq, lo'nda, tushunarli, mantiqiy, tizimli bayon etilishi va ko'rgazmali bo'lishi, axborotning har bir mantiqiy bo'lagi bo'yicha o'z-o'zini tekshirish uchun topshiriqlar ishlab chilgan bo'lishi, ana shu topshiriqlarni ishlab chiqish uchun aniq tavsiyalar berilgan bo'lishi talab etiladi. Modulli ta'limda pedagog talabning o'zlashtirish jarayonini tashkil etadi, boshqaradi, maslahat beradi, tekshiradi.

Demak, modulli yondashuv yangi axborotni mustaqil o'zlashtirish, talabning mustaqil va hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish, o'zining va o'rtoqlarining faoliyatini baholashga qaratilgan. Bunday yondashuv zamonaviy talablar tizimiga mos tushadi.

Modulli yondashuv erishilgan natijani izchil nazorat qilib borishga asoslangan. Natijada modul-kredit tizimi vujudga kelgan.

Kredit – (Zachet birligiga aylanuvchi Yevropa tizimi (ECTS) (European Credit Transfer and Accumulating System)) kredit jamlash tizimidir. Ushbu tizim Yevropa universitetlarida 1989 yilda o'tkazilgan tadqiqotlardan muvafaqqiyatli o'tdi va qabul qilindi. U talabning umumiy yuklamasiga asoslanadi. Kredit tizimini kiritishdan maqsad ta'limning shaffofligini va akademik bilimlarni hamda kvalifikatsiyani tan olishni osonlashtirish bo'lib hisoblanadi. Dastlab kredit chetdan kelib o'qiyotgan talabalar uchun ishlatilgan va unga ishonch bildirilgan. Oliy ta'lim muassasalari uchun yagona kreditlarni o'rnatilishi esa talabalarining mobilligini ta'minlashga yordam berdi. Bugungi kunda Yevropa kredit tizimi Yevropaning deyarli barcha davlatlarida tan olingan va amal qiluvchi tizimdir. Talaba o'rnatilgan kredit ballarini to'plagan taqdirdagina diplom olishga muvaffaq bo'ladi. Dunyoning oliy ta'lim tizimida kredit tizimining bir necha turi mavjud.

— Yuqorida aytib o‘tilgan ECTS bilan bir qatorda, USCS -Amerikaning kredit tizimi, CATS - Britaniyaning kredit tizimi, UCTS - Osiyo davlatlari va tinch okeandagi davlatlarning kredit tizimlari mavjud.

Yevropa kredit tizimining asosini uch unsur tashkil etadi: o‘quv dasturlari haqida axborot, talabani erishgan natijalari va talaba faoliyatining hajmi.

Har bir o‘quv yili 60 qismga bo‘linadi va zachyot birligi hisoblanadi. Bir haftalik yuklama 54 soatdan oshmasligi kerak, 54 soat 1,5 kreditga teng. O‘quv yilining davomiyligi Yevropada o‘rtacha 40 xafta. Ammo Yevropaning turli davlatlarida o‘quv yilining davomiyligi turlicha bo‘lishi ma‘lum darajada muammolarni keltirib chiqaradi.

Kredit tizimi barcha o‘qitish shakllarini nazoratini o‘z ichiga oladi (auditoriya va auditoriyadan tashqari).

Kredit tizimi ta‘lim jarayonida o‘qilgan soatlar miqdorini emas, balki erishilgan natijani ko‘rsatib beruvchi o‘lchov birligidir. Ya‘ni mutaxassisni kompetentlik darajasiga baho beruvchi natijaga qaratilgan o‘lchov birligidir.

Demak, kredit nafaqat o‘quv faoliyatiga berilgan baho, balki, bajarilgan o‘quv yuklamasini ko‘rsatib turuvchi birlikdir. Bir kredit 36 akademik soatga teng (54 akademik soat 1,5 kreditni tashkil etadi). Har bir o‘quv moduli 1 yoki 1,5 kreditga mo‘ljallanadi va, odatda, uning soni uchtdan oshmasligi lozim.

Kreditning o‘quv jarayonidagi o‘rni va u bilan bog‘langan unsurlar quyidagi sxemada ko‘rsatilgan.

Yevropa kredit tizimida birinchi bosqichda (bakalavriat) talaba 180 kreditdan 240 kreditgacha to‘plashi mumkin.

Ikkinchi bosqichda (Magistr) 90-120 gacha kredit yig‘ish imkoniga ega. Kredit tizimining asosini albatta reyting ball tizimi tashkil etadi.

Ta‘lim sohasidagi integratsion jarayonlar ilk bor Yevropada boshlangan edi. 1989 yilda Yevropaning minglab tinglovchilari Yevropa hamjamiyatining ERASMUS (European Community Action Scheme for mobility of University students) TEMPUS va boshqa dasturlari asosida chet ellarda tahsil olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

ERASMUS dasturi bo‘yicha Yevropa hamjamiyati universitetlari o‘rtasidagi tinglovchilar almashinuvi sxemasi dastavval 145 oliy o‘quv yurtlarini qamrab olgan edi.

ERASMUS dasturining yutuqlaridan biri bu Yevropa universitetlaridagi o‘qitish natijalarini o‘zaro tan olish tizimi – (bu) (European Credit Transfer System (ECTS)) ni yaratish sinash va amaliyotga keng qo‘llash deb aytish lozim.

2001 yilda o‘quv jarayonini tashkil etishning kredit texnologiyasi ECTS Yevropaning 1200 ta universitetlarida allaqachon qo‘llanilgan edi.

2001 yilda 29 ta Yevropa davlatlari ta‘lim vazirlari tomonidan Bolonya deklaratsiyasining imzolanishi Yevropa ta‘lim hududini yaratilishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Bolonya deklaratsiyasiga ko‘ra diplomlarning o‘zaro tan olinishi, ya‘ni o‘qitish natijalarini yakuniy ko‘rsatkichlarning o‘zaro tan olinish muddati – 2010 yil deb belgilangan edi.

Bolonya deklaratsiyasiga kirish uchun quyidagi dastlabki talablar qo‘yiladi:

- Oliy o‘quv yurtigacha 12 yillik ta‘lim;
- ikki bosqichli oliy ta‘lim-bakalavriat va magistratura;
- o‘quv jarayoni va o‘qitish natijalarini baholash ECTS kredit texnologiyasi asosida tashkil

etilishi.

“Kredit” atamasi (ECTS- credit) – sinovdan o‘tdi, ma‘lum bir kursni o‘quv yurtida o‘tganligi haqidagi guvohnoma ma‘nosini anglatadi.

“**Kredit – shartli sinov birligi** bo‘lib, tinglovchining o‘quv fanining ma‘lum bir qismini o‘tganligi haqidagi ma‘lumot beradi. Har bir o‘quv faniga ma‘lum miqdordagi kredit birliklari ajratiladi. Kredit birliklari soni tinglovchilarning mehnat sarfiga mos holda belgilanadi.

2.3. ESTS KREDITLARI, ASOSIY TAMOYILLARI VA XUSUSIYATLARI.

ECTS kreditlari - bu yagona Yevropa ta‘lim hududini yaratishning boshlanishidir

Oran chegaralanmasdan tinglovchining to‘la yuklamasiga tayanadi. Shuning uchun ESTS kreditlarini tinglovchi mehnat sarfining o‘quv fanlari bo‘yicha shartli-sonli ifodasi deb hisoblash mumkin.

Odatda o‘quv rejasidagi fanlarga ajratiladigan kreditlar soni 3 ga teng, undan ko‘p va kam sonli fanlar ham mavjud.

ESTSda kreditlar yig‘indisi semestrda–30, o‘quv yilida–60, bakalavriatdagi o‘quv davrida–240 ni tashkil etadi.

ESTS kreditlari barcha o‘quv fanlariga ya‘ni majburiy va tinglovchi tanlovi asosida fanlarga taqsimlanadi. Ular mazkur fan bo‘yicha kurs loyihalari va ishlarining mavjudligini hisobga olishlari zarur.

O‘quv faniga ajratiladigan kreditlar miqdori, fanning murakkabligiga va o‘zlashtirishga bog‘liq bo‘ladi. Ya‘ni har qanday murakkab fan ham katta miqdordagi kreditlarga ega bo‘la olmaydi.

Agar murakkab fan bilish va tushunish darajasida o‘zlashtiriladigan bo‘lsa, kam murakkabli o‘quv fani malaka darajasida o‘zlashtirilsa tabiiyki oxirgisiga ko‘proq kreditlar ajratiladi. Shuning uchun turli ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari uchun bir fanning o‘zi turli o‘quv dasturlariga va unga muvofiq turli mehnat sarfi va kreditlarga ega bo‘lishi mumkin.

Ko‘rinib turganidek, bizning mamalakatimizda birinchi va ikkinchi talablar bajarilgan. Endi navbat uchinchi talabni bajarishda – ya‘ni o‘quv jarayonini kredit texnologiyasi asosida tashkil etish.

Ushbu texnologiya asosida o‘quv jarayonini tashkil etishdan maqsad nimadan iborat?

O‘quv jarayonini tashkil etishning ESTS kredit texnologiyasiga o‘tishda quyidagi maqsadlar ko‘zlanadi:

- xorijda o‘qishni davom ettirish uchun oliy o‘quv yurtini tanlashda shart-sharoit yaratish;
- O‘zbekistonda ta‘lim olgan muddatni xorijiy davlatlarda tan olinishini ta‘minlash;
- Yevropa oliy o‘quv yurtlari o‘quv rejalarini o‘rganish va shu asosida o‘quv jarayonini takomillashtirish;
- tinglovchilar qobiliyatini to‘laroq ochilishiga va o‘qitishning yuqori natijalariga erishish.

ESTSning asosiy tamoyillari

ESTS quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi:

1. Transferancy- bu ESTS tizimiga xohlagan shaxs yoki tashkilotning to‘siqsiz kirishiga shart-sharoit yaratish. Ushbu shart-sharoit kuchli axborot targ‘iboti vositasida yaratiladi, uning natijasida umumiy yangilik, aniqlik va ochiqlik muhiti shakllantiriladi.

Axborot targ‘iboti quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- almashish sxemasiga kiritilgan tinglovchilarning o‘qish natijalari haqida bir-biriga o‘z vaqtida axborot etkazib turish;
- oliy o‘quv yurtlarining o‘z axborot paketlari bilan muntazam almashib turishlari, ta‘lim xizmatlari doirasida bir-birini imkoniyatlarini o‘rganish;
- oliy o‘quv yurtlarida, ESTS haqida to‘la ma‘lumotlarning mavjudligi.

2. Agreement – tinglovchi bilan ikkala oliy ta'lim muassasasining ESTS koordinatorlari orasida tayyorlash mazmuni, o'quv tartibi va muddatlari, attestatsiya tadbirlari, o'quv rejalaridagi farqni bartaraf etish tartiblari haqida o'zaro kelishuvlarini anglatadi.

3. Sredits – Host universitetida (qabul qiladigan universitet) muvaffaqiyatli o'tilgan barcha fanlar Post – universitetda (tinglovchini boshqa OTMga jo'natgan universitet) hisobga olinishi zarur.

4. Ta'limning insonparvarlashuvi – bu shaxsning turli ta'lim xizmatlariga bo'lgan ehtiyojini qondirishi va ta'lim jarayonida inson qobiliyatining ochilishini anglatadi. ESTS ta'limni davom ettirish uchun oliy ta'lim muassasasini, o'quv fanlarini va o'qituvchilarni tanlash imkoniyatini beradi.

5. Ta'limning individuallashtiruv – bu har bir tinglovchining individual reja va ta'lim dasturlariga ega ekanligini ifoda etadi. Tinglovchi tanlovi asosidagi fanlar 70%ni, majburiy fanlar esa 30% dan oshmaydi. Tinglovchining mustaqil ish hajmi 70%ni, auditoriyadagi ishi esa 30%ni tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkichlar individual ta'limni tashkil qilishga asos bo'lib xizmat qiladi.

6. Ta'limning samaradorligi – guruhda individual o'qitish auditoriya mashg'ulotlari va tinglovchining mustaqil ishlarini uyg'unlashtirish orqali ta'minlanadi. Auditoriya o'quv vaqtining 70% gacha qismini individual o'qitishga, shuningdek, umumiy o'quv vaqtining 70%gacha qismini mustaqil ishga ajratilishi o'quv fanlarining tinglovchilar tomonidan o'z qobiliyatlari darajasida o'zlashtirishga imkon yaratadi. Ushbu bilan ta'limning samaradorligi ta'minlanadi.

□ *ESTS tamoyillari – shaxsning o'z qobiliyatini to'la rivojlanishi va ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoitlar yaratish zaruriyligini ko'zda tutadi.*

ESTSning xususiyatlari

Zamonaviy o'qitish texnologiyasi, oliy ta'lim muassasasining jihozlanganligi, professor-o'qituvchilar tarkibi faqat darajali, yuqori malakali kadrlardan iborat bo'lishi, o'qitishning yuqori sifatleri – ESTS uchun dastlabki zaruriy talablar hisoblanadi. O'quv jarayonini tashkil etishning ushbu tizimi, quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega.

O'quv rejasi bo'yicha:

Barcha o'quv fanlari ikki guruhga bo'linadi – majburiy va tinglovchi tanlovi asosidagi fanlar. Bu nisbatan taxminan 1:2 ga teng qabul qilinadi; Har bir tinglovchi shaxsiy o'quv rejasiga ega bo'ladi.

Asosiy hujjat transkript (transcript of records) - unifikatsiyalashgan hujjat bo'lib, yagona shaklda tuziladi, o'qitish natijalarini tan olish uchun majburiy hujjat hisoblanadi. Transkriptda, tinglovchining mazkur davlatda qabul qilingan baholash tizimida ham, xususiy tizimi bo'yicha ham olgan baholari, olingan xususiyatli kreditlari bo'yicha ma'lumotlar keltiriladi:

□ Har bir semestrda o'rganiladigan fanlarning soni 3...5ta bo'lishi;

□ Mustaqil ishga ajratilgan soatlar, auditoriya soatlaridan ko'p bo'lishi;

□ Kredit o'zida tinglovchilarning o'quv fanini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan barcha mehnat sarflarini mujassamlashtiradi. O'quv fani uchun ajratiladigan kreditlar soni, aksariyat hollarda 3 ga teng bo'ladi.

□ **O'quv fani dasturining mazmuni (syllabus) quyidagilarni o'z ichiga oladi:**

- o'quv fanining to'liq nomlanishi va uning o'quv rejasidagi tartib raqami;
- o'quv fanini o'rganish maqsadi;
- o'quv fanining qisqacha mazmuni;
- taqvimiy reja, mashg'ulotlar jadvali bilan;
- o'qitish texnologiyasi;
- tinglovchining mas'uliyati va unga qo'yilgan talablar;
- tinglovchilar bilimni baholash tartibi va mezonlari;
- asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'y xati.

□ **O'qituvchining o'quv yuklamasini hisoblashda:**

Umumiy mehnat sarfi miqdori (auditoriya va mustaqil ish soatlari) bir o'quv yilida 750-800 soatni tashkil etishi – e'tiborga olinadi.

□ **O'qitish jarayonining asosini:**

- shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari;
- tinglovchining mustaqil ishida o'qituvchi maslahatchi sifatida ishtirok etadi;
- tinglovchi o'quv fanini va o'qituvchini tanlash huquqiga ega.
- **Har bir tinglovchiga axborot paketi** beriladi. U quyidagilarni o'z ichiga oladi.
 - Oliy ta'lim muassasasi haqida ma'lumot;
 - O'quv rejasi;
 - O'quv jarayonining grafigi;
 - O'quv fanlarining mazmuni;
- Oliy ta'lim muassasasida qabul qilingan ta'lim tizimining metodik xususiyatlari haqida ma'lumotlar:
 - tinglovchilar bilimni baholash tizimi va baholar shkalasi haqida ma'lumotlar;
 - ijtimoiy-maishiy shart-sharoitlarga tegishli ma'lumotlar;
 - tarixiy va madaniy sohaga oid ma'lumotlar;
 - qo'shimcha ta'lim xizmatlari to'g'risida ma'lumotlar
- *ESTS – oliy maktabda o'quv jarayonini tashkil etishning demokratik tizimining namunasi*dir.

2.4. Kreditlarni taqsimlash va ESTS o'quv rejalariga o'tish metodikasi

Davlat ta'lim standartlariga tayanib tuzilgan o'quv rejasi o'quv jarayonini tashkil etishning asosi bo'lib xizmat qiladi. Ushbu me'yoriy hujjatlar asosida o'quv faoliyati turlari bo'yicha mehnat sarflari aniqlanadi. O'quv faoliyati turlari bo'yicha mehnat sarflarini hisoblash namunasi 1-jadvalda keltirilgan.

Kreditlarni hisoblash va ularni o'quv faoliyatlari turlari, bloklar va alohida fanlar bo'yicha taqsimlashda o'tish koeffitsientini ($K_{o't}$) aniqlash zarur

$$K_{o't} = 240 : 8262 = 0,029$$

Bu erda: 240 – bakalavriatning ESTS bo'yicha umumiy mehnat sarflari yig'indisi, soat.

Kreditlar soni mehnat sarfini o'tish koeffitsientiga (0,029) ko'paytirib boriladi. O'quv faoliyati turlari, bloklar va alohida o'quv fanlari bo'yicha kreditlarni hisoblash namunalari 1,2, 3 jadvallarda keltirilgan.

O'quv faoliyati turlari bo'yicha kreditlar taqsimoti namunasi

| 1 –jadval | | | | | |
|-----------|--|---------------|---------------------|------------------------|--------------------------|
| № | DTS asosida o'quvchilar faoliyatining nomi | Haftalar soni | Auditoriya soatlari | Umumiy o'quv yuklamasi | Kredit |
| 1 | Nazariy va amaliy ta'lim | 136 | [136·36] | 136·54=7344 | $7344 \cdot 0,029 = 213$ |
| 2 | Malakaviy amaliyot | 12 | 432 | 648 | 19 |
| 2.1. | Ishlab Chiqarish amaliyoti | 4 | 4·6·6=14 | 4·6·9=126 | 6 |
| 2.2. | Pedagogik amaliyot | 8 | 288 | 432 | 13 |
| 3. | Bitiruv ishi | 5 | 5·36=18 | 5·54=270 | 8 |
| 4. | Attestatsiya | 19 | | | |
| 5. | Ta'til | 32 | | | |
| | Jami: | 204 | 5508 | 8262 | 240 |

□ *Jadvaldagi ma'lumotlarni hisoblashda haftalik auditoriya*

- o'quv yuklamasi - 36 soat, tinglovchilarning me'yoriy haftalik mehnat sarfi – 54 soat qabul qilingan. Zamonaviy o'quv rejasi bo'yicha, ESTS bir kreditning taxminiy qiymati tinglovchining 34,4 soat mehnat sarfiga tengdir.

Fanlar bloklari bo'yicha kreditlar taqsimoti nazariyasi

| 2- jadval | | | | |
|-----------|--|----------------------------|-------------------------------|---------------|
| № | Fanlar bloklarining nomlanishi | Auditoriya soatlari | Umumiy o'quv yuklamasi | Kredit |
| 1 | Umumgumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar | 1214 (≈25%) | 1726 | 50 |
| 2 | Matematik va tabiiy- ilmiy fanlar | 846 (25% ga) | 1292 | 37 |
| 3 | Umumkasb fanlari | 2034 (50% ga) | 3682 | 89 |
| 4 | Ixtisoslik fanlar | 468 (≈10%) | 794 | 23 |
| 5 | Qo'shimcha fanlar | 334 (≈5%) | 450 | 14 |
| 6 | Malakaviy amaliyot | 432 6 | 648 9 | 19 |
| 7 | Bitiruv ishi | 180 | 270 | 8 |
| | Jami | 5508 | 8262 | 240 |

| № | Fanning nomi | Mehnat sarfi (soat) | Hisob bo'yicha kredit | Kredit |
|----------|---|----------------------------|------------------------------|---------------|
| | | | I kurs: Kuzgi semestr | |
| 1 | O'zbekiston tarixi | 110,0,29 | 3,2 | 3 |
| 2 | Iqtisodiyot nazariyasi | 85,0,29 | 2,5 | 3 |
| 3 | O'zbek (rus) tili | 55 | 1,6 | 2 |
| 4 | Chet tili | 43 | 1,3 | 1 |
| 5 | Jismoniy madaniyat | 58 | 1,7 | 2 |
| 6 | Informatika | 110 | 3,2 | 3 |
| 7 | Iqtisodiy geografiya | 80 | 2,3 | 2 |
| 8 | Iqtisodiy ta'limotlar tarixi | 86 | 2,5 | 3 |
| 9 | Iqtisod uchun matematika | 110 | 3,2 | 3 |
| 10 | Yosh davrlar fiziologiyasi va gigienasi | 54 | 1,6 | 2 |
| 11 | Tinglovchi tanlovi fanlari | 182 | 5,3 | 5 |
| | Jami: | 972 | 28,4 | 29 |

O'quv fanlari bo'yicha kreditlar taqsimoti namunasi

| 3- jadval | | | | |
|--------------------------------|-----------------------|----|-----|---|
| I kurs: bahorgi semestr | | | | |
| 1. | Huquqshunoslik | 55 | 1,6 | 2 |
| 2. | O'z.R.Konstitutsiyasi | 55 | 1,6 | 2 |

| | | | | |
|-----|---|-------------|-----------|-----------|
| 3. | Iqtisodiyot nazariyasi | 98/98 | 2,8 | 3 |
| 4. | O'zbek (rus) tili | 55 | 1,6 | 2 |
| 5. | CHet tili | 43 | 1,3 | 1 |
| 6. | Jismoniy madaniyat | 57 | 1,7 | 2 |
| 7. | Informatsion texnologiyalar va Tizimlar | 108 | 3,2 | 3 |
| 8. | Iqtisodchilar uchun | 110 | 3,2 | 3 |
| 9. | Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika | 110 | 1,8 | 3 |
| 10. | Iqtisodiy geografiya va ekologiya | 60 | 2,4 | 2 |
| 11. | Zamonaviy tabiiy fanlar konsepsiyasi | 82 | 2,9 | 2 |
| 12. | Iqtisodchilar uchun Informatsion texnologiyalar | 97 | 4,3 | 3 |
| 13. | Psixologiya | 150 | 3,2 | 4 |
| 14. | Tinglovchi tanlovi fanlari | 110 | 31,6 | 3 |
| | Jami | 1080 | 60 | 31 |
| | Hammasi: | 202 | 60 | 60 |

Kredit texnologiyasi bo'yicha tinglovchilar bilimini baholash metodikasi

O'quv jarayoni kredit texnologiyasi asosida tashkil etilganida, aksariyat hollarda 4 balli baholar shkalasini qo'llab, 100 foiz baholash tizimi ishlatiladi.

Masalan: A-4 b; V-3,5 b; S-3 b; D -2,5; E-2 b; F- 1,5 b;F-1 b.

100 foizli baholash tizimi quyidagicha taqsimlanishi mumkin: mashg'ulotlarga qatnashishi – 5%, joriy testlash – 30%, odatda 3 marta 10% dan; mustaqil ishlarni bajarish – 15%, o'rtacha 3 marta 5% dan; laboratoriya ishlarini bajarish – 10%, kurs loyihasi (ishi)ni bajarish -10%; yakuniy imtihon - 30%.

4-jadvalda keltirilgan baholash mezonlaridan 10 foizli baholash tizimida qo'llanilganida foydalanish mumkin.

Baholash mezonlari

4- jadval

| Baholar ta'rifi | Shartli belgisi | O'zlashtirish % | Baholash mezonlari | Tayyorgarlik darajasi |
|-----------------|-----------------|-----------------|---|--|
| A'lo | A | 90-100 | Bilimlarni umumlashtiradi va baholaydi,tahlil etadi,tushunadi, biladi | 4-daraja darajasi ijod |
| Juda yaxshi | V | 80-90 tahlili | Tahlil etadi,qo'llaydi, tushunadi, biladi | 3-darajasi ko'nikma,malaka va darajasi (avtomatik) |
| Yaxshi | S | 70-80 qo'llash | Qo'llaydi,tushunadi, biladi | 3-darajasi qo'nikma va malaka darajasi |
| Qoniqarli | D | Tushunish | Tushunadi, biladi | 2-daraja qayta tiklash darajasi |

| | | | | |
|--|----|--------------|-----------------|------------------------------------|
| Yetarli | E | 50-60 bilish | Biladi | 1-darajasi tasavvur etish darajasi |
| Yetarli emas, qo'shimcha yana ishlash talab qilinadi | FY | 40-50 | Yomon biladi | 0-darajasi yomon tasavvur etadi |
| Yetarli emas, qo'shimcha yana juda ham qo'p ishlash talab qilinadi | F | 40 kam | Umuman bilmaydi | 0-darajasi umuman tasavvur etmaydi |

O'quv fani materialining 90-100% o'zlashtirishi "a'lo" bahoga to'g'ri keladi. Bu tayyorgarlikni 4-darajasiga tenglashtiriladi va "ijod darajasi" deb belgilaydi.

O'quv fani dasturi kamida 50% o'zlashtirilganida "etarli" bahosi qo'yiladi, bu o'zlashtirishning tasavvur darajasi" deb belgilanadi. O'quv fanining 40%dan kam o'zlashtirishi, tayyorgarlikning 0-darajasi, ya'ni "umuman tasavvur etmaydi" deb hisoblanadi.

Nazorat savollari:

1. Modulli o'qitish tizimining mazmun mohiyatini tushuntiring.
2. Modulli o'qitish texnologiyasi va an'anaviy o'qitish texnologiyasining farqli jihatlarini ko'rsating.
3. Modulli o'qitish tamoyillari va afzalliklarini bayon eting.
4. Modulli-kredit tizimining ahamiyati va mohiyati haqida ma'lumot bering.
5. Jahon oliy ta'lim tizimida kredit tizimi turlarini tushuntiring.
6. Kredit tizimi ta'lim natijalarini ko'rsatuvchi o'lchov birligi sifatida ekanligini tushuntiring.
7. Yevropada ta'lim sohasida integratsion jarayonlar haqida ma'lumot bering.
8. ERASMUS dasturi, Bolonya deklaratsiyasi va Yevropa yagona ta'lim muhitini tushuntiring.
9. 9.ECTS kreditlarining asosiy tamoyillari va xususiyatlari haqida tushuncha bering.
10. Kreditlarni taqsimlash va kredit texnologiyasi bo'yicha talabalar bilimni baholashga oid ma'lumot bering.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Richard Arum, Melisa Velez. Improving Learning Enviroment: Schol Discipline and Comporative Perspektive. Stanford Universiy Press, USA 2012.
2. H.Fry, S. Ketteridge, S.Marshall. HandbookFor teaching and Learning in Higher Education. New York, Routledge, 2009.
3. Higher education in japan. Higher Education Bureau, Ministry of Education, Culture, Sports, Science and Technology. 3-2-2 Kasumigaseki, Chiyoda-ku, Tokyo 100-8959, Japan Tel: +81-3-5253-4111 (Reception)
4. Eduscol. education.fr./ dossiers. School Education in Franse. ISBN 978-92-9079-921-4 Available for free downloading from the CEPS website (<http://www.ceps.eu>) © CEPS, 2009
5. http://cache.media.eduscol.education.fr/file/dossiers/07/3/2013_School_Education_in_France_244073.pdf.

6-mavzu: Qiyosiy pedagogikada tadqiqotlar tipologiyasi va OO'Yularida ta'lim variativligi.

Reja:

1. Induktiv va deduktiv metodlar.

2. Deskripsiya, interpretasiya, qiyoslash

3. Davlatlararo, OO'Yurtlararo ta'lim tizimini qiyoslash bosqichlari

Ta'limning deduktiv metodini qo'llaganda, umuman, o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyati quyidagi tarzda bo'ladi: o'qituvchi avval qoida yoki qonunning umumiy jihatini so'raydi, asta-sekinlik bilan uning xususiy tomonlariga o'tadi, so'ng birgalikda ma'lum masalani yechishga kirishiladi. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligida avval umumiy holatni o'zlashtiradilar, so'ng ulardan kelib chiqadigan xususiy jihatlarni o'rganadilar. O'qituvchi adabiy ta'lim maqsadidan kelib chiqib deduktiv metodni qo'llaganda umumiy holatlardan xususiy jihatlarga o'tadi. O'qituvchi o'quvchilarga yo'nalish berishi, yo'l-yo'riqlarni taqdim etishi adabiy ta'lim maqsadiga ko'proq muvofiq keladi. Ko'rsatilgan yo'ldan o'quvchilarning o'zlari umumiylikdan xususiy jihatlarni ajratishi, ularni farqlashi, asoslashi va xulosalar chiqarishi lozim bo'ladi.

Deduktiv metod o'quv materialini nisbatan tez o'tish imkonini beradi. O'quvchini tez fikrlashga o'rgatadi. Adabiy ta'lim jarayonida sharoitdan kelib chiqib, induktiv va deduktiv metodlarni birgalikda qo'llash ham katta samara beradi. Bir darsning o'zida bir masala yuzasidan avval xususiyni aniqlab, undan umumiyga o'tish va ikkinchi bir muammo bo'yicha avval umumiyini ajratib, so'ng xususiyya, mayda tafsillarga o'tish jarayoni ham o'quvchilar tasavvuri tiniqlashuvi, xulosalari qat'iyloviga ko'mak beradi. Bugun milliy pedagogikada keng qo'llanilayotgan metodlar o'quvchi-o'qituvchidan ortiqcha aqliy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutmoqda.

Qisqa vaqt mobaynida nazariy bilimlarni o'quvchiga yetkazish, unda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma, malaka hosil qilish, shu bilan birga bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish hamda baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni talab qiladi. Bugun qator rivojlangan mamlakatlarda qo'llanilayotgan «Fikriy hujum», «6x6x6», «Klaster», «Qarorlar shajarasi» singari metodlarning ayrimlaridan adabiy ta'lim jarayonidagi badiiy asar tahlilida ham foydalanish mumkin. Aslini olganda, bu metodlarning ta'limdagi mantiqiy metodlardan farqi uncha katta emas. Ularning barchasi zahirida muammoli metodning unsurlari mavjud. Masalan, «**Fikriy hujum**» metodining maqsadi o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshirish, ularni erkin, mustaqil mulohaza yuritishga undash, hammani bir xil qolipda fikrlashda qutqarish, ma'lum mavzu yuzasidan har xil fikrlarni to'plash va masalaga ijodiy yondashuvni ta'minlashdan iborat.

Bu metoddan foydalanilganda favqulodda, kutilmagan savol yoki topshiriqlar bilan o'quvchilar loqaydlikdan, muvozanatdan chiqariladi va ular bezovta mahiyat bilan badiiy muammoga, o'quv topshirig'iga «hujum» qiladilar. Ya'ni har bir o'quvchi o'z bilimi, qobiliyati, iqtidori, dunyoqarashi va imkoniyatlari darajasida uni hal etishga kirishadi. O'quvchilar o'z oldilariga qo'yilgan muayyan masala bo'yicha mulohaza yuritadilar. Bu metoddan foydalanilganda o'qituvchidan masala atrofida ishlayotgan, mulohaza yuritayotgan har bir o'quvchi tomonidan aytilgan fikrni qayd etib borish, har bir ishtirokchining erkinligini ta'minlash, aytilgan fikrlarning asoslanishini talab qilish, toki fikrlar tugamaguncha bahsni davom ettirish talab qilinadi. O'quvchilar tomonidan aytilayotgan fikrlarni alohida baholash, ularni tanqid qilish yoki fikrlardan kulish ta'qiqlanadi.

«Fikriy hujum» - o'quv muammolarini hal qilishda keng qo'llaniladigan metod. U qatnashchilarning tasavvurlari, bor bilimi va imkoniyatlaridan unumli foydalanishga yo'naltirilgan. Mazkur metod o'quvchi oldiga qo'yilgan har qanday muammoli masalaga ko'p sonli yechimlar topishga imkon yaratadi. Fikriy hujumdan foydalanilganda quyidagi qoidalarga amal qilinadi:

1. Bu usulni qo'llash jarayonida baholashlarga yo'l qo'yilmaydi. Agar jarayonning o'zida g'oyalar baholanadigan bo'lsa, qatnashchilar o'z fikrlarini himoya qilishga berilib ketib, yangi fikr aytishdan chalg'iydilar.

2. Har bir o'quvchi bitta masala yuzasidan o'ta xilma-xil mulohazalar aytishiga yo'l qo'yiladi. O'quvchilarda kutilmagan fikr, favqulodda g'oyalar tug'ilmasa, qatnashchilar bir-birlarini takrorlashga majbur bo'ladilar.

3. G'oya va fikrlaming miqdori rag'batlantiriladi. Ma'lumki, miqdor odatda o'sib sifatni keltirib chiqaradi.

Qatnashchilarga tasavvurga erk berish imkoniyati yaratilishi kerak. Bu erkinlik natijasida betakror va kuchli g'oyalar tug'iladi.

4. Har bir o'quvchi o'zgal g'oyasiga asoslanishi va ularni o'zgartirishi mumkin. Chunki fikrdan fikr tug'iladi. Oldin taklif etilgan g'oyalarni o'zgartirish, ko'pincha, birlamchi fikrdan kuchliroq, yaxshiroq qarashlarni keltirib chiqaradi. «Fikriy hujum» metodidan foydalanish jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi: o'quvchilar erkin tartibda joylashtiriladi; g'oya va fikrlarni yozish uchun darstaxta yoki varaqlar tayyorlab qo'yiladi; hal etilishi lozim bo'lgan muammo aniqlanadi; ish jarayoni belgilab olinadi:

a) g'oyalar baholanmaydi;

b) fikrlashga to'liq erk beriladi;

v) fikrlar ko'p bo'lishiga (miqdorga) intilinadi;

g) o'quvchilar faoliyati «ilg'ab oling», «bilib oling», «g'oyalarga asoslaning», «qo'shing», «kengaytiring», «o'zgartiring» singari chaqiriqlarga asosan uyushtiriladi; qo'yilgan muammo yuzasidan fikrlar so'raladi va yozib boriladi; o'zgalarning fikrlaridan kulish, kinoyali sharhlar va mayna qilishlarga also yo'l qo'yilmaydi; varaqlar g'oya va fikrlar bilan to'lganda ular ko'rinarli yerga osib qo'yiladi; g'oyalar tugamaguncha ish davom ettirilaveriladi; shundan so'ng yangi, kuchli, asosli va original g'oyalar o'qituvchi tomonidan rag'batlantiriladi, baholanadi.

Deduksiya — mantiq qoidalariga ko'ra xulosa chiqarish. Dastlab formal mantiqda umumiylikdan xususiylik, ayrimlik tomon muhokama yuritish deduksiya deb atalgan. Masalan, "All men are mortal" va "Socrates is a man" degan ikki hukmdan deduktiv yo'l bilan «Socrates is mortal» degan yangi hukm (xulosa) chiqariladi.

Hozirgi zamon fanida «Deduksiya» termini keng ma'noda qo'llanilib, muayyan hukmdan mantiq qonunlari asosida xulosa chiqarish tushuniladi. Agar asos qilib olingan hukm haqiqiy va deduksiya qonunlariga rioya qilingan bo'lsa, undan chiqariladigan xulosa ham haqiqiy bo'ladi.

O'z-o'zidan ravshanligi, ayonligi sababli isbotsiz qabul qilinadigan holat, tasdiq, fikr *aksioma* deb atalishini eslatib o'tamiz.

Deduktiv metod turli shakllarda, xususan *aksiomatik metod*, shuningdek, gipotetik — deduktiv metod shaklida uchraydi. Mavjud faktik materiallardan deduktiv yo'l bilan nazariya yaratishda asos bo'ladigan fikrlar majmuasi (aksioma va boshqalar) tanlab olinib, mantiq qonunlari asosida ulardan boshqa bilimlar hosil qilinadi. **Deduksiya** (lot. deductio — xulosa chiqarish) — mantiq qoidalariga ko'ra xulosa chiqarish. Dastlab formal mantiqda umumiylikdan xususiylik, ayrimlik tomon muhokama yuritish deb atalgan. Mas, "Barcha metallar elektr utkazuvchidir (umumiy) va "Mis — metall" degan ikki hukm (asos)dan deduktiv yul b-n "Mis elektr o'tkazuvchidir" degan xususiy yangi hukm (xulosa) chiqariladi. Induksiyaning karama-qarshisi. Mantiqqa oid adabiyotlarda "DEDUKTIV" atamasini birinchi bor rimlik mantiqshunos faylasuf Boetsiy (480— 524) ishlatganligini ta'kidlaydilar. Biroq, bu ta'limot sillogizm shaklida birinchi bor Aristotelning "Birinchi analitika" asarida tahlil qilingan. Keyinchalik DEDUKTIV tushunchasini R. Dekart, G. Leybnits kabi faylasuflar rivojlantirdilar. O'rta asr arab falsafasida Kindiy, Roziy, G'azoliy, Ibn Rushd tomonidan DEDUKTIVga alohida e'tibor berilgan. Unga yangi bilim berish vositasi deb qaraganlar. Forobiy, Ibn Sino Aristotelning deduktiv

mantig'iga yangilik kiritib mantiqning sillogizm shaklinigina emas, balki shartli, ayiruvchi kabi shakllarini ishlab chiqdilar. Xulosa chiqarishning yangi (yuqoridagi) usullarini yaratdilar.

Hozirgi zamon fanida "DEDUKTIV" termini keng ma'noda qo'llanilib, muayyan hukmdan mantiq qonunlari asosida xulosa chiqarish tushuniladi. Agar asos qilib olingan xukm haqiqiy va DEDUKTIV qonunlariga rioya qilingan bo'lsa, undan chiqariladigan xulosa ham haqiqiy bo'ladi. DEDUKTIV— isbotnnt asosiy vositasidir. Shuning uchun fandagi nazariyalar deduktiv metod natijasida yaratiladi. Odatda, deduktiv metod ma'lum sohada faktik materiallar to'plangandan so'ng, ularni chuqur o'rganish, tizimga solish va b. maqsadlarda qo'llaniladi. DEDUKTIV psixologiya va bilish nazariyasitsa ham amal qiladi. DEDUKTIV psixologiyada shaxsning individual tafakkuri jarayonini o'rgansa, bilish nazariyasida ilmiy bilish metodi sifatida namoyon bo'ladi. Deduktiv metod turli shakllarda, xususan aksiomatik metod, shuningdek, gipotetik — deduktiv metod shaklida uchraydi. Mavjud faktik materiallardan deduktiv yo'l bilan nazariya yaratishda asos bo'ladigan fikrlar majmuasi (aksioma va b.) tanlab olinib, mantiq qonunlari asosida ulardan boshqa bilimlar hosil qilinadi. **Deduksiya**— oldindan mavjud bo'lgan bir umumiy haqiqat, umumiy prinsipning o'ziga xos tartibli fikrlash va mantiq qoidalariga asoslangan holda, maydaroq, yakka holatlarga tadbiiq qilinishiga aytiladi. Deduksiyada umumiy bir gipoteza hayotdagi mavjud yakka holatlar orqali tekshirib chiqiladi. Bu umumiy prinsip oldindan mavjud, va holatlarni faqatgina bu prinsipni tekshirish, tatbiiq qilish uchungina o'rganiladi. Bu yerda birlamchi o'rinda mantiq turadi; tajriba esa ikkilamchi hisoblanadi.

Induksiya — ayrim fikrlardan umumiy xulosalar chiqarishda va mantiqiy tadqiqotlarda qo'llaniladigan muhokama usuli. Xususiylkni o'rganib, umumiylik bilib olinadi. Umumiylik predmet va hodisalar bilan uzviy aloqada bo'ladi. Induksiya bilimlarning tashkil topishida, qonuniyatlarini ochishda, tushunchalarni maydonga chiqarish jarayonida, gipotezani olg'a surishda fan uchun muhim ahamiyatga ega.

Aksiomatik metod birinchi marta qadimgi yunon geometrlari asarlarida shakllana boshlagan. Evklidning «Negizlar» (miloddan avval 300-yillar) asarida bayon etilgan geometrik sistema aksiomatik usul bilan nazariya qurish namunasidir. Bu asar jami bo'lib 13 bobdan iborat bo'lib, uning 1-4 boblarida planimetriyaning aksiomatik nazariyasi qurilgan. Mazkur geometriyaning asosiy aksiomatik tushunchalari «nuqta», «to'g'ri chiziq», «tekislik» bo'lib, ular ideal fazoviy ob'yektlar sifatida olib qaralgan; geometriyaning o'zi esa fizikaviy fazoning xususiyatlarini o'rganuvchi ta'limot sifatida talqin qilingan. Evklid geometriyasining qolgan barcha tushunchalari ular yordamida hosil qilingan.

Shuningdek, **Gipotetik-deduktiv metod**—ilmiy bilish metodlaridan biri. Bir-biri bilan deduktiv bog'liq bo'lgan gipotezalar tizimini yaratishni nazarda tutadi. Mazkur gipotezalardan pirovard natijada empirik faktlar to'g'risida xulosalar chiqariladi. Ushbu metod gipotezalardan va haqiqiy ma'nosi ma'lum bo'lmagan boshqa farazlardan xulosalar chiqarishga (deduksiyaga) asoslanadi. Binobarin, mazkur metod yordamida chiqarilgan xulosa muqarrar tarzda ehtimoliy xususiyatga ega bo'ladi. Gipotetik-deduktiv metodning umumiy tuzilishi: nazariy tushuntirishni taqozo etuvchi material bilan tanishish va mavjud nazariyalar, qonunlar yordamida nazariy tushuntirishga harakat qilish. Agar buning iloji bo'lmasa: turli-tum an mantiqiy usullar yordamida mazkur hodisalarning sabab va qonuniyatlari to'g'risida faraz (gipoteza, taxmin)lar qilish; farazlarning asosliligi va jiddiyligiga baho berish va ularning orasidan haqiqatga eng yaqinini tanlab olish; —gipotezadan oqibatlarini (odatda, deduksiya yo'li bilan) keltirib chiqarish va uning mazmuniga aniqlik kiritish; —gipotezadan keltirib chiqarilgan oqibatlarini tajribada tekshirish. Bu yerda gipoteza yo'li tajribada isbotlanadi, yo inkor etiladi. Ammo ayrim oqibatlarining isbotlanganligi gipotezaning haqiqiyliyini (yoki soxtaligini) kafolatlamaydi. Tekshiruv natijalariga ko'ra, eng yaxshi gipoteza nazariyaga aylanadi. Matematik gipotezani gipotetik-deduktiv metodning turi deb hisoblash mumkin. Bu yerda ilgari ma'lum bo'lgan va tekshirilgan holatlarning takomillashtirilgan ko'rinishlarini ifoda etuvchi ma'lum tenglamalar gipoteza vazifasini bajaradi. Ilgari ma'lum bo'lgan va tekshirilgan holatlar o'zgartirilib, yangi hodisalarga taalluqli bo'lgan

gipotezani ifodalovchi yangi tenglama tuziladi. Gipotetik-deduktiv metod (aksiomatik metod singari) kashf etish metodidan ham ko'ra ko'proq ilmiy bilimni tuzish va asoslash metodi hisoblanadi, chunki u yangi gipotezaga qanday yo'l bilan kelish mumkinligini ko'rsatadi.

4.Mavhumdan konkretlikka yuksalish—nazariy tadqiqot va bayon etish metodi. Ilmiy fikrning dastlabki mavhumlikdan bilishni chuqurlashtirish va kengaytirish izchil bosqichlari orqali natijaga—tadqiq qilinayotgan predmetni nazariyada yaxlit aks ettirishga tomon harakatidan iborat. Muayyan hissiylikdan mavhumlikka yuksalish, tafakkurda predmetning alohida jihatlarini ajratish va ularni tegishli mavhum ta'riflarda «mustahkamlash» mazkur metodning shartlaridir. Bilishning muayyan hissiylikdan mavhuma tomon harakati xususiydan umumiyga tomon harakat demakdir. Bu yerda tahlil va induksiya singari mantiqiy usullar yetakchilik qiladi. Mavhumdan muayyan hissiylikka yuksalish—ayrim umumiy mavhumliklardan ularning yagonaligiga, muayyan umumiyga tomon harakat jarayonidir. Bu yerda sintez va deduksiya usullari yetakchilik qiladi. Bilishning bunday harakati formal, texnik protsedura emas, balki predmetning rivojlanishidagi qarama-qarshilikni, ichki qarama-qarshiliklarga muvofiq uning bir darajadan boshqa darajaga o'tishini aks ettiruvchi dialektik ziddiyatli harakatdir. 3.Tadqiqotning umumiy mantiqiy metodi va usullari.

1.Analiz—obyektni amalda yoki fikran tarkibiy qismlarga ajratish; *sintez*~qismlardan butunni, xuddi shunday tarzda, qayta birlashtirish. Sintez natijasida mutlaqo yangi obyekt hosil bo'ladi. Analiz (tahlil qilish faoliyati) jarayonida fikr murakkablikdan oddiylikka, tasodifdan zaruratga qarab, xilma-xillikdan ayniyatga va birlikka qarab harakat qiladi. Analiz qilishning maqsadi qismlarni, murakkab butunning unsurlari sifatida bilish va ular o'rtasidagi aloqa va qonuniyatlarni aniqlashdan iboratdir. Biroq analiz mohiyatni ajratib qarashga olib keladiki, mavhum holda qolayotgan birlik, xilma-xillikdagi birlik sifatida hali ochilmagan bo'madi. Sintez, aksincha, analiz vositasi bilan ajratilgan qismlar, xossalari, munosabatlarni yagona bir butunga birlashtirish jarayonidan iborat. Sintez birlikdan tafovutga va xilma-xillikka qarab yo'naltirilgan bo'lib, umumiylik va ayrimlikni, birlik va xilma-xillikni muayyan jonli butunga birlashtiradi. Analiz va sintez chambarchas bog'liq holda amal qiladi.

Mavhumlashtirish—o'rganilayotgan hodisaning bir qancha xossalari va nisbatlaridan fikran uzoqlashtirish, ayni paytda tadqiqotchini qiziqtirgan xossalarni (eng avvalo, muhim, umumiy xossalarni) ajratish jarayoni. Mazkur jarayon natijasida har xil «mavhum predmetlar» olinadi. Bunda «mavhum predmetlar» deganda alohida tushunchalar va kategoriyalar («rivojlanish», «qarama-qarshilik», «fikrlash» va b.) hamda ularning tizimlari tushuniladi. Matematika, mantiq, dialektika va falsafa eng rivojlangan tizimlardir. Ko'rib chiqilayotgan xossalarning qay biri muhim, qaysinisi ikkinchi darajali ekanligini aniqlash mavhumlashtirishning bosh masalasidir. Mazkur masala har bir muayyan holatda, eng avvalo, o'rganilayotgan predmetning tabiatiga, shuningdek, tadqiqotning muayyan vazifalariga qarab hal qilinadi.

Interpretasiya-Tushuntirish nazariy va kognitiv kategoriya; talqin qilinayotgan ob'ektning ichki tarkibini uning tashqi ko'rinishlarini (belgilar, imo-ishoralar, tovushlar va boshqalar) o'rganish orqali anglashga qaratilgan ilmiy bilish usuli. Tushuntirish gumanitar fanlar metodologiyasining markazida bo'lib, unda o'rganilayotgan ob'ektning ma'nosi va ahamiyatini aniqlash tartibi tadqiqotchining asosiy strategiyasi hisoblanadi. Asosiy yo'nalish - tilshunoslik.

Qiyosiylash metodi, umuman olganda, umumiy ilmiy tadqiqot usullarini anglatadi. Funktsional maqsadi va foydalanish usullari bo'yicha u empirikdir. Amaliyotda uning bir qator shakllari ajralib turadi. Masalan, geterogen jismlarning tabiatini ochib beradigan qiyosiy usul; qiyosiy-tarixiy-tipologik, kelib chiqishi bilan bog'liq bo'lmagan hodisalarni genesis va rivojlanishning bir xil sharoitlari bilan o'xshashligini ochib beradigan; qiyosiy-tarixiy-genetik, hodisalarning kelib chiqishi bo'yicha o'zaro bog'liqligi natijasida o'xshashligini ko'rsatuvchi; taqqoslash, turli xil narsalar va hodisalarning o'zaro ta'sirini belgilash.

Amaliy tadqiqotlarda qiyosiy usul tasniflash, tipologiya, baholash, umumlashtirishda asosiy usul sifatida qo'llaniladi. O'rganilayotgan ob'ektlarning umumiy va o'ziga xos xususiyatlari va xususiyatlarini va ularning rivojlanish jarayonlarini ajratishga imkon beradi.

Qiyosiy usulning muvaffaqiyatli qo'llanilishi kuzatish usullarini, shu jumladan dastlabki ma'lumotlarni standartlashtirish va olingan natijalarni birlashtirishni nazarda tutadi.

Kamchiliklari:

Qiyosiy usulning nochorligi, uni ishlatish jarayonida tekshirilayotgan ob'ektning haqiqatdan ham "mustaqil" o'zgaruvchilarini noma'lum usullar bilan to'g'ridan-to'g'ri sabab yoki konkomitatsion munosabatlar qabul qilinadigan muhim ko'rsatkichlarga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqarishning mumkin emasligidir.

Qiyosiy usuldan foydalanishning ba'zi misollari:

Ilmiy tadqiqotlarda qiyosiy usulning keng qo'llanilishi unga asoslangan fanlar ro'yxati bilan tasvirlangan. Bularga quyidagilar kiradi:

Qiyosiy anatomiya bu organlar va ularning tizimlarining tuzilishi va rivojlanishining umumiy xususiyatlarini o'rganadigan biologik fan.

Qiyosiy ilohiyot, ekumenik kengashlar tugagan davrdan boshlab, heterodoks xristian jamiyatlarining ta'limoti va axloqiy buzilishlarini tanqidiy o'rganish bilan shug'ullanadigan teologiyaning bir qismidir.

Qiyosiy tarixiy tilshunoslik-bu tillararo munosabatlarga bag'ishlangan, tarixiy va genetik jihatdan tushunilgan, ya'ni umumiy proto tilidan kelib chiqish fakti sifatida tilshunoslik sohasi hisoblanadi.

Qiyosiy adabiyotshunoslik adabiy tarixning xalqaro adabiy aloqalar va munosabatlarni, turli mamlakatlardagi adabiy va badiiy hodisalar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni o'rganadigan qismidir.

Qiyosiy mifologiya - bu Maks Myuller tomonidan afsonaviy hikoyalarni va ular bilan bog'liq turli xalqlarning diniy e'tiqodlarini qiyosiy o'rganish bilan shug'ullanadigan fanni anglatadi.

Qiyosiy siyosatshunoslik turli siyosiy tizimlardagi bir xil siyosiy hodisalarni taqqoslash va taqqoslash orqali siyosatni o'rganadigan fan.

Qiyosiy huquqshunoslik - bu turli davlatlarning huquqiy tizimlarini xuddi shu nomdagi davlat va yuridik institutlarni, ularning asosiy printsiplari va toifalarini taqqoslash orqali o'rganadigan huquqshunoslik bo'limi.

Qiyosiy psixologiya psixikaning rivojlanishi bilan shug'ullanadigan psixologiyaning bir sohasidir.

Qiyosiy dinshunoslik dinlarni umumiy shakllarini, turlarini, hodisalar morfologiyasini, umumbashariy munosabatlar, qoidalar va qonunlarni aniqlash maqsadida o'rganiladigan fan.

Qiyosiy jinoyat huquqi - bu turli davlatlarning jinoyat huquqi tizimlarini, xuddi shu nomdagi jinoyat huquqi institutlarini, ularning asosiy printsiplari va toifalarini taqqoslash, ularning tarixi va rivojlanish shakllarini o'rganish orqali o'rganadigan huquqshunoslik sohasi.

Qiyosiy falsafa tarixiy, falsafiy va falsafiy tadqiqotlar sohasi, G'arbiy, Sharqiy, Lotin Amerikasi, Afrikaning falsafiy an'alarini, shu jumladan falsafiy maktablar, ta'limotlar, tizimlar, kategoriya apparatlari va individual tushunchalarni o'rganish.

Deskripsiya-(lotin) dan-tasvirlash uchun - to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lgan tavsif, tavsiflovchi bayon; tavsiflovchi - tavsiflovchi. Buning aksi-retsept. Masalan, tavsif etikasi axloqiy hayotning sof tavsifini beradigan va K.- L ni shakllantirmagan axloqdir. Normalar fanda tavsiflash usuli faqat tavsiflash usulidir.

Mantiqda dialektika deganda yakka ob'ektlarni ularning xususiyatlarini yoki boshqa ob'ektlarga bo'lgan munosabatlarini tavsiflash uchun xizmat qiladigan til ifodasi tushuniladi. Deskripsiya, masalan,

"Yerdagi eng ahmoq odam", "g'ildirak ixtirochisi", "Iliad va Odissey mualliflari deb hisoblangan qadimgi yunon shoiri va boshqalar.

Deskripsiya mulkni nomlash bilan bir xil funktsiyani bajaradigan umumiy tushunchalar (nomlar, xususiyatlar va munosabatlar) yordamida yagona ob'ektlarning tavsifiy ta'rifi (tavsifi) (lotincha descriptio - ta'rifdan). nomi.

Mantiqda dialektikadan foydalanish tabiatdagi ("masalan" so'zda tezkor bo'lgan, kamdan-kam hollarda nizoli bo'lgan") maqola yoki iboralar o'rni bosadigan maqola yoki iboralarni ishlatishga o'xshaydi. tillari. Biroq, mantiqan. Dealiktik tavsifdan farq qiladi. Tabiatni ifodalash shakllari. kengaytma kontekstining aniqligiga qarab til (ob'ekt mantiqiy). Dealiktik majburiy ravishda mavjud va har doim noyobdir. Aynan shu narsa, qoida tariqasida, dialektikani u yoki bu rasmiy tizim yoki hisob-kitoblarning tiliga kiritish uchun yetarli shartni tashkil etadi, bu ularni boyitadi va imkoniyatlarni ifoda etadi. Natijada paydo bo'lgan tizimlarning kengayishi (klassik yoki sezgi) ahamiyatsiz, chunki ushbu sharoitda kiritilgan dialektikani (tavsifli iboralarni) har doim yo'q qilish mumkin.

Innovatsion yutuq uchun mamlakat barcha darajadagi yuqori sifatli ta'lim tizimiga ega bo'lishi kerak. Bu haqda 12 iyul kuni jamoatchilik muhokamasiga taqdim etilgan innovatsion rivojlanish strategiyasi loyihasida aytilgan.

Hujjatda O'zbekistondagi inson kapitali darajasi va sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan bir qator muammolar ro'yxati keltirilgan.

Maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishning pastligi uzoq muddatli salbiy oqibatlarga olib keladi. 2017 yilda mamlakatda maktabgacha yoshdagi bolalarning atigi 30 foizi bolalar bog'chalariga qabul qilindi.

O'zbekiston ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro dasturlarda qatnashmaydi. Global reyting va talabalar bilimni monitoring qilish davlatlar o'rtasidagi sog'lom raqobatni qo'llab-quvvatlaydi va ta'lim siyosatini takomillashtirishga hissa qo'shadi.

O'zbekistonda talabalar yoshidagi aholining oliy ta'lim tizimi bilan qamrab olinishi 9,5 foizni tashkil etadi va mintaqaviy va xalqaro standartlarga nisbatan past, bu esa aholining deyarli 100 foizini qamrab oladigan ta'lim tizimining boshlang'ich va o'rta darajalaridagi vaziyatdan keskin farq qiladi. Agar global tendentsiya aholining oliy ma'lumot bilan qamrab olinishini oshirishga qaratilgan bo'lsa, O'zbekistonda buning aksi kuzatilmoqda: so'nggi 25 yil ichida 9 foizga pasayish. Taqqoslash uchun: Koreya Respublikasida oliy ma'lumot bilan qamrab olish 95%, Xitoyda - 39%, Rossiyada - 79%, Qozog'istonda - 46%.

Ta'lim tizimi va iqtisodiyot ehtiyojlari o'rtasidagi tafovut jiddiy muammo hisoblanadi. Jahon banki tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, O'zbekistondagi kompaniyalarning 35 foizi oliy ma'lumotli malakali mutaxassislarini topishda qiynalmoqda. Sanoat korxonalarida taqchilik deyarli 50% ga yetadi. Ish beruvchilarning fikriga ko'ra, ushbu qiyinchilikning asosiy sababi mehnat bozorida "mutaxassislarining yetishmasligi" dir.

O'rta maktab va biznes o'rtasidagi zaif o'zaro munosabatlar. Oliy ta'limga qabul qilishning past darajasi, egallab olingan bilim va ko'nikmalarning sifati va ularning innovatsion rivojlanish talablariga muvofiqligi darajasi, ish beruvchilar, real sektor va biznes o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik innovatsiyalarni joriy etish va yangi texnologiyalarni moslashtirish imkoniyatlarini cheklaydi.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasi, kirish imkoniyatlarini kengaytirish va yangi o'qitish usullaridan foydalanish darajasi bo'yicha ham past darajada. AKT vositalaridan keng foydalanish juda moslashuvchan va arzon narxlardagi o'qitish kurslarini tanlashga, oliy ta'lim tomonidan taqdim etiladigan tegishli mutaxassisliklar tarkibini o'zlashtirishga imkon beradi.

Oliy o'quv yurtlarida ishlaydigan o'qituvchilarning ilmiy salohiyati yetarli emasligi. O'zbekistonda o'qituvchilar tarkibida yuqori malakali kadrlar (fan nomzodlari va fan doktorlari) atigi 37,9 foizni tashkil etadi, qolgan 62,1 foizi ilmiy darajaga ega bo'lmagan o'qituvchilardir. So'nggi

yillarda tendentsiya ilmiy daraja va unvonga ega bo'lgan ilmiy va pedagogik kadrlarning qarishi, yoshlarning esa kamayishi hisoblanadi. Pensiya va pensiya yoshidagi o'qituvchilar yuqori malakali mutaxassislarning 31,3 foizini tashkil qiladi.

O'quv dasturlarini belgilash, talabalarni qabul qilish va mablag'larni taqsimlashda universitetlarning mustaqilligi yo'qligi.

Ta'lim tizimini takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar taklif etilmoqda, xususan:

Yuqori malakali o'qituvchilar va mutaxassislarni shakllantirish, oliy ma'lumotli o'qituvchilar va o'qituvchilar sonining ko'payishi.

Raqobatli davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini yaratish orqali bolalarni maktabgacha ta'lim bilan to'liq qamrab olishni bosqichma-bosqich ta'minlash.

O'qituvchilarning mavqeini oshirish, o'qituvchilar faoliyati natijalariga qarab ish haqini to'lashning moslashuvchan tizimini joriy etish, byurokratik yukni kamaytirish orqali asosiy ish uchun bo'sh vaqtni bo'shatish

Ta'lim sifatini baholash uchun O'zbekistonning xalqaro qiyosiy tadqiqotlardagi ishtirokini ta'minlash: 15-16 yoshli o'quvchilarning o'quv yutuqlarini baholash xalqaro dasturi (PISA-o'qish va fanning matematik savodxonligi va savodxonligini baholash), 4 va 8-o'quvchilarning matematik va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligini baholash. sinflar (TIMSS) va o'qish sifati va matnni tushunishni xalqaro o'rganish (PIRLS).

Zamonaviy o'quv dasturlari, pedagogik va aqlli texnologiyalarni o'quv jarayoniga (elektron modullar va masofaviy o'qitish dasturlarini shakllantirish) joriy etish orqali ta'lim sifatini tubdan yaxshilash.

Nogiron bolalarni o'qitish va tarbiyalashda teng sharoitlarni ta'minlash uchun inklyuziv ta'limni rivojlantirish, shu jumladan to'siqsiz muhitni yaratish (ko'tarish moslamalari, pampalar, sanitariya xonalarida maxsus jihozlar, tutqichlar, maxsus stol, stol bilan jihozlash; nogiron bolalar uchun integratsiyalashgan o'quv dasturlarini yaratish; o'qituvchilar-defektologlar va bolalarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash bo'yicha mutaxassislar bilan ta'minlash).

Tempus dasturi Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtirilib, Sharqiy Yevropa, Markaziy Osiyo, G'arbiy Bolqon va O'rta er dengizi mintaqasidagi hamkor mamlakatlarda oliy ta'limni modernizatsiyalashni, asosan universitetlararo hamkorlik loyihalari orqali qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Ushbu dastur hamkor-davlatlarning oliy ta'lim tizimlarini oliy ta'lim sohasidagi yevropalik jarayonlar bilan ixtiyoriy ravishda birlashtirishga yordam beradi. Universitetlararo hamkorlikni rivojlantirish bilan bir qatorda Tempus ham shaxslararo aloqalarni o'rnatishga yordam beradi.

Tempus loyihalari asosan universitetlar yoki universitetlar birlashmalaridan tashkil topgan konsortsiumlarni qo'llab-quvvatlaydi. Akademik bo'lmagan hamkorlar ham konsortsiumlarning bir qismi bo'lishi mumkin.

Tempus dasturi oliy o'quv yurtlari va davlat idoralari, shuningdek, oliy ta'lim sohasiga bevosita aloqador bo'lgan barcha tashkilot va korxonalarining ishtirokida ochiq edi.

Tempus IV (2007-2013) tomonidan har yili amalga oshiriladigan qo'shma loyihalar (QK) va tarkibiy tuzilmalar (CM) tomonidan moliyalashtiriladi, ularning natijalari dasturning veb-saytida mavjud deduktiv 2013 yil dekabr oyida boshlangan Tempus 4 dasturining so'nggi oltinchi bosqichida tanlangan uch yillik loyihalar 2016 yil dekabrgacha davom etadi.

1994 yildan buyon O'zbekiston Tempus dasturida faol ishtirok etib kelmoqda. Tempus loyihalari turli xil fanlar bo'yicha o'quv dasturlarini modernizatsiyalashga qaratilgan bo'lib, mahalliy mehnat bozori ehtiyojlarini qondirishda, shuningdek, universitet menejmentini modernizatsiya qilishda va universitetlar va korxonalar o'rtasida sheriklik aloqalarini o'rnatishda muhim hissa qo'shdi. Tempus

oliy ta'lim bo'yicha mutaxassislar milliy guruhini tuzish va qo'llab-quvvatlash orqali milliy darajada oliy ta'lim tizimini takomillashtirishga hissa qo'shadi.

1994 yildan beri Tempus dasturining 87 dan ortiq loyihalarini amalga oshirish uchun O'zbekistonning 55 ta universiteti, shu jumladan viloyatlardagi 30 ta universitet ishtirok etgan.

Tempus IV dasturining to'rtinchi bosqichining oltita tanlovi doirasida 30 ta loyihani, shu jumladan o'quv rejasini isloh qilish bo'yicha 14 qo'shma loyihani, 7 ta "oliy ta'lim va jamiyat" qo'shma loyihalarini, 1 ta QKn moliyalashtirish uchun 16,6 million evro miqdoridagi byudjet ajratildi. boshqaruv islohoti va 8 tarkibiy chora.

1-tanlovning 3 ta loyihasi (2008): AIDA, PERSEUS, NMPLIS

2-tanlovning 4 ta loyihasi (2009): CANDI, HEICA, SWAN, UNIQTOOL

3-chi tanlovning 3 ta loyihasi (2010 y.): PROMENG, UnIvEnt, CIBELES

4-tanlovning 4 ta loyihasi (2011 yil): QAPD, EPASAT, TERSID, ISMU

5-tanlovning 5 ta loyihasi (2012): QUEECA, GE-UZ, UZWATER, TuCAHEA, ENGITEC

6-tanlovning 11 ta loyihasi (2013 yil): ITEDU, INOCAST, MACH, HIGHVEC, UNIWORK, DeTEL, SAMUZ, PROMIS, MATCHES, UZDOC, UZHELTH.

Tempus IV loyihalari faoliyatining asosiy yo'nalishi qator fanlar bo'yicha o'quv dasturlarini modernizatsiya qilish (axborot va kutubxona fanlari, informatika, suv resurslarini boshqarish, elektron ta'lim, muhandislik-pedagogik kompetentsiyalar, qishloq xo'jaligi texnologiyalari, atrof-muhit fanlari, qishloq xo'jaligini boshqarish, mexatronika va boshqalar). universitetlarning ishlab chiqarish bilan aloqalari, Boloniya jarayoni tamoyillarini ilgari surish.

Tempus IV loyihalari faoliyati O'zbekistonning 47 ta oliy o'quv yurtlarini qamrab oldi, shu jumladan 18 ta poytaxt universitetlari va 29 ta respublikaning 10 ta viloyatidan (Samarqand, Buxoro, Xorazm, Qashqadaryo, Navoiy, Jizzax, Namangan, Surxondaryo, Andijon, Farg'ona viloyatlari) va Qoraqalpog'iston Respublikasidan.

Tempus IV loyihalari Yevropa Ittifoqiga a'zo 17 davlatning 70 ta universiteti va 6 noakademik muassasalari bilan uzoq muddatli hamkorlik uchun zamin yaratadi.

Tempus dasturining samaradorligi va uning erishgan yutuqlari 2014 yildan boshlab kelgusi 6 yil ichida Yevropa Ittifoqining ta'lim sohasidagi tashqi hamkorlik dasturlarini ishlab chiqishda muhokama qilindi. 2011 yil 23 noyabrda yangi dasturning loyihasi - Erasmus All for (Erasmus for All) birinchi marta Yevropa Kengashi muhokamasiga Yevropa Komissiyasi tomonidan taqdim etildi. Taklifni tayyorlashda Tempus loyihasi formatidan foydalanishni davom ettirishga qaror qilindi, u hamkor-davlatlarning oliy o'quv yurtlariga yordam berish uchun keng imkoniyatlarga ega. Potentsialni oshirish loyihalari tomonidan taklif etiladigan institutsional hamkorlikning turlaridan biri Tempus formatiga bog'liq.

7-mavzu. Oliy ta'lim tizimining tipologik-tasnifiy mezonlari va ta'lim muassasalari nufuzi.

Reja:

1. Oliy ta'lim tizimining tarixiy rivojlanishiga ko'ra.

2. Ixtisoslik kesimiga, tanlov tamoyillariga, ta'lim oluvchilar tarkibiga, ta'lim shaklining ustunligiga ko'ra tipologik mezonlari.

3. Ta'limning an'anaviy va noan'anaviy shakllari

Oliy ta'lim—turli oliy maktablarda yuqori, oliy malakali mutaxassislar tayyorlash. Oliy ta'lim oliy o'quv yurtlari tomonidan xalq xo'jaligi, fan va madaniyatning turli sohalari bo'yicha oliy malakali mutaxassis bo'lishni istagan va tegishli talablarni bajargan o'rta maxsus yoki kasb-hunar ta'limini

olgan kishilarga ilmiy-nazariy bilim berish hamda muayyan ko'nikmalar shakllantirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim jarayonida talabaga oliy ma'lumot beriladi. Oliy ma'lumot tushunchasi muayyan ixtisoslik bo'yicha mutaxassis oldida turgan nazariy va amaliy muammolarni mustaqil hal qilish imkonini beradigan darajadagi bilim va malakalar yig'indisini anglatadi.

Oliy ta'lim uzoq tarixga ega bo'lib, u dastlab Qadimiy Sharq mamlakatlarida paydo bo'lgan. Misr, Bobil, Xitoy singari mamlakatlarda mil.dan bir necha ming yillar burun Oliy ta'lim tizimi dunyoga kelgan. Oliy bosqichdagi maktablarda talabalar olimlarning tabiat va jamiyatning rivojlanish qonuniyatlari, davlatni boshqarish yo'llari haqidagi asarlarini o'rganar edilar. Platon (miloddan avvalgi 428—348 yil), Aristotel (miloddan avvalgi 384—322 yil) singari mutafakkirlar har bir shaxsning jismoniy va aqliy imkoniyatlari 3 bosqichli ta'limda to'la namoyon bo'lishini asoslaganlar. Shuning uchun ham Yunoniston va Qad.Rimda ozod kishilar hamda aslzodalarning farzandlari uchun ta'limning uchinchi — oliy bosqichi zarurligi tan olingan. Antik Oliy ta'limda falsafa, filologiya, musiqa, notiqlik, tibbiyot, matematika fanlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilgan.

Musulmon Sharqining ko'p mamlakatlaridagi kabi Turkistonda ham dastlabki Oliy ta'lim madrasalarda berilgan. Insoniyat tarixida musulmon Renes-sansi degan bosqichning yuzaga kelishida madrasalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan.

G'arb mamlakatlarida XI —XII asrlarga kelib zamonaviy ma'nodagi Oliy ta'lim tizimining dastlabki ko'rinishlari vujudga kela boshladi. Uyg'onish davrida matematika, mexanika, astronomiya, navigatsiya, tibbiyot kabi sohalaridagi o'lgan ilmiy kashfiyotlar oliy ta'limning mazmuni chuqurlashuvi hamda qamrovi kengayishiga sabab bo'ldi. Fan, texnika, madaniyat va san'atning rivojlanishiga mutanosib ravishda Oliy ta'lim ham taraqqiy etib bordi.

O'zbekistonning mahalliy aholisiga hozirgi tushunchadagi Oliy ta'lim O'rta Osiyo jadidchilik harakati asoschisi Munavvarqori rahbarligida 1918 yil 12 mayda Toshkentda tashkil etilgan Xalq dorilfununida berila boshlangan. Sho'rolar davrida Oliy ta'lim tarmog'i bir qadar kengaygan bo'lsada, mahalliy aholidan oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash ustuvor mavqeda bo'lmagan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin Oliy ta'lim tez sur'atlar bilan rivojlana boshladi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni (1997)ga muvofiq, Oliy ta'lim o'rta maxsus yoki kasb-hunar ta'limi negiziga asoslanadi hamda ikki—bakalavriat va magistratura bosqichiga ega. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro'yobga chiqarishning ma'lum davriga qadar Oliy ta'lim o'n bir yillik umumiy o'rta ta'lim negizida ham amalga oshiriladi. E'tiqod erkinligiga amal qilinadigan O'zRda dunyoviy oliy o'quv yurtlari bilan birgalikda oliy diniy o'quv yurtlari ham bor. O'zbekistonda Oliy ta'lim davlat qaramog'idadir. Mamlakatda universitet Oliy ta'limi ustuvor maqomga ega. Bu tayyorlanayotgan mutaxassislarning jahon darajasida nazariy bilim va amaliy tayyorgarlikka ega bo'lish imkonini beradi.

Oliy ta'lim rasmiy davlat hujjatlari asosida amalga oshiriladi. Bunda ta'limning davlat standartlari, o'quv rejalari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ularda o'rganilishi majburiy va ixtiyoriy bo'lgan fanlar, ixtisoslik kurslari, ularning o'qitilish tartibi, miqdori, vaqti, nazariy va amaliy ta'lim o'rtasidagi nisbat, nazariy mashg'ulotlar, o'quv va ishlab chiqarish amaliyotlari, reyting davri, ta'til, bakalavrlarning malakaviy bitiruv ishlari, magistrnlarning dissertatsiyalarni yoqlash muddati asosiy pedagogik hujjat—o'quv rejasida belgilab beriladi. O'quv rejasida o'rganiladigan fanlar gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy, matematik va tabiiy-ilmiy, umumkasbiy, ixtisoslik fanlari va ta'limning qo'shimcha turlari singari qismlarga bo'linadi. O'quv rejasidagi fanlar majburiy, maxsus, tanlov va fakultativ ko'rinishlarida olib borilishi ko'zda tutilgan.

Talabalarga ishlab chiqarishdan ajralmagan holda oliy ma'lumot berish ta'limning sirtqi shakli orqali amalga oshiriladi (Sirtqi ta'lim). O'zRda Oliy ta'lim tizimida bir qancha ixtisoslik bo'yicha mutaxassislar tayyorlanadi. Kunduzgi Oliy ta'limda o'qish kurs tizimida olib boriladi: talaba barcha

o'quv mashg'ulotlariga qatnashishi majburiy. Sirtqi Oliy ta'limda ta'limning fan-kurs tizimi joriy etilgan. Bunga ko'ra, talaba imtihon sessiyasidagina mashg'ulotlarga kelishga majbur. Sirtqi Oliy ta'limning imtihon sessiyalari har bir o'quv yurtining imkoniyatiga qarab, bir yilda ikki martadan ortiq bo'lmagan yo'sinda tashkil etiladi. Sirtqi Oliy ta'lim muddati kunduzgi o'qishdagi tegishli mutaxassislikka qaraganda yarim yoki bir yil ortiq davom etadi.

”Oliy ta'lim” atamasi zaminida iqtisod, fan, texnika va madaniyat sohasida faoliyat olib boruvchi, ish mobaynida ilm-fan, madaniyat, texnika yangiliklarini qo'llagan va o'z ustida ishlagan holda nazariy va amaliy muammolarni bartaraf etuvchi yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash tushuniladi.

Oliy ta'limning asosiy maqsadi zamon talablariga javob bera oladigan malakali, raqobatbardosh, yuksak bilimli, oliy ta'lim mutaxassisi talablariga o'zi tanlagan yo'nalishi yuzasidan talabga javob bera oladigan respublikaning ilm-fan, madaniyat, iqtisod, ijtimoiy sohalarini rivojlantirishda o'z hissasini qo'shadigan, mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma'naviyatga bo'lgan yuqori salohiyatli mutaxassislarni tayyorlashdir.

Oliy ta'lim muassasalari

Oliy ta'lim muassasalari yuridik maqomga ega. **Respublikamizda oliy ta'lim muassasalarining quyidagi ko'rinishlari bor:**

- universitet — oliy ta'lim dasturini bajarishda talabalarga egallayotgan sohasi bo'yicha yoki keyinchalik o'qishlarini davom ettirishlari uchun keng qamrovli bilim berishga e'tibor qaratiladi;
- akademiya — oliy ta'lim dasturini bajarishda oliy ta'lim berish bilan bir qatorda keyinchalik o'qishlarini davom ettirishlari uchun aniq bir yo'nalishga tayyorlaydi;
- institut — barcha oliy ta'lim muassasalari kabi oliy ta'lim dasturini bajaradi, bilim berishda bir yo'nalishga qaratilgan bilim beriladi.

Oliy ta'lim olish uchun nodavlat muassasalarini tuzishga qonunchilik ruxsat beradi. Ushbu muassasaga davlat akkretaditatsiyani attestatsiyadan tegishli tartibda o'tgachgina bersa u o'qitish huquqiga ega.

Oliy ta'lim muassasalarining Attestatsiya u davlatga tegishli yoki xususiyligidan qat'iy nazar, kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish Boshqarmasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan, Davlat test markazi tomonidan qabul qilingan pedagogik kadrlar va ta'lim muassasalarining attestatsiyadan o'tkazish Nizomi asosida oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilar jamoasi attestatsiyasidan o'tkaziladi. Attestatsiya natijalariga ko'ra istalgan oliy o'quv muassasasi davlat akkreditatsiyasidan mahrum etilishi mumkin.

Eksternat— oliy ta'lim dasturiga muvofiq oliy ta'lim muassasasining o'qitiluvchi tartibini keyingi(joriy va kuniy) attestatsiyagacha tanlangan yo'nalish (mutaxassislik) bo'yicha mustaqil o'rganish.

Masofaviy ta'lim— asosiy faoliyatdan uzilmagan holda ta'lim muassasasidan uzoqda o'quv dasturidagi mavjud bilimlarni o'zlashtirish. U zamonaviy axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyaning texnik vositalaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Kunduzgi o'qitish bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashning yo'nalishlari ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Oliy ta'limning maqsad va vazifalari

Oliy ta'limning asosiy maqsadi zamon talablariga javob bera oladigan malakali, raqobatbardosh, yuksak bilimli, oliy ta'lim mutaxassisi talablariga o'zi tanlagan yo'nalishi yuzasidan talabga javob bera oladigan respublikaning ilm-fan, madaniyat, iqtisod, ijtimoiy sohalarini rivojlantirishda o'z hissasini qo'shadigan mustaqil fikrlay oladigan, yuksak ma'naviyatga bo'lgan yuqori salohiyatli mutaxassislarni tayyorlashdir.

Oliy ta'limning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- davlat ta`lim standartiga muvofiq zamonaviy dasturlar asosida o`qitishning sifatini ta`minlash;
- oliy malakali ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash;
- ilm-fan, madaniyat, iqtisodning zamonaviy tuqlari, mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy istiqbolini yutuqlarini hisobga olgan holda kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish;
- oliy ta`limning insonparvarligini ta`minlash maqsadida yoshlar tarbiyasiga milliy istiqbol g`oyasi asosida milliy va umuminsoniy qadriyatlar, Vatanga, oilaga, atrof-muhitga muhabbatni singdirish;
- o`qitishning interfaol usullarini, pedagogik innovasion hamda axborot kompyuter texnologiyalarini, mustaqil ta`lim olish, masofaviy ta`lim tizimini amaliyotga joriy qilish;
- oliy ta`limda fan va ishlab chiqarish mexanizmlarining uyg`unligi mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotda qo`llash;
- ilmiy-pedagogik kadrlar va talim oluvchilarning ilmiy-ijodiy faoliyati, ilmiy tadqiqotlari yordamida fan, texnika, texnologiyalarni rivojlantirish, ta`lim jarayoni orqali mamlakat iqtisodining rivojlanishiga hissa qo`shish;
- davlat va nodavlat oliy o`quv muassasalarini rivojlantirish asosida ta`lim xizmatlari bozorida raqobatni yuzaga keltirish;
- oliy o`quv muassasalarini boshqarish va kengaytirishni takomillashtirish uchun jamoat boshqaruvining vasiylik va kuzaetuvchi kengashlarni kiritish;
- ta`lim va kadrlar tayyorlash sifatini tekshirish uchun marketing tadqiqotlarini olib borish yo`nalishi bo`yicha belgilangan mehnat bilan ta`minlash monitoringini tuzish;
- oliy ta`lim sohasida ikki tomonlama foydali xalqaro aloqalarni rivojlantirish.

Oliy ta`lim tuzilishi

Oliy ta`lim tizimi quyidagicha tuzilgan:

- davlat va nodavlat oliy ta`lim muassasalarida ta`lim dasturining bajarilishi davlat ta`lim standartiga muvofiq yo`nalishlar va mutaxassisliklar asosida olib boriladi;
- ilmiy-tadqiqot muassasalari ilmiy tadqiqot ishlarini oliy ta`limni huquqiy-normativ va ilmiy-metodik jihatdan ta`minlash uchun yuritishadi;
- oliy ta`limni boshqarish davlat organlarining vakillari, shuningdek, ularga tegishli korxonalar, muassasa, tashkilotlar orqali amalga oshiriladi.

O`zbekiston Respublikasida oliy ta`lim muassasalarining quyidagi turlari mavjud: universitet, akademiya, institut (ular bilan teng mavqegayaga bo`lgan o`quv muassasalari).

Universitet:

- oliy va undan keyingi ta`lim uchun ta`limni bir necha yo`nalishda beradi;
- turli sohalardagi mutaxassislarning malakasini oshiradi va qayta tayyorlaydi;
- fanning turli yo`nalishlarida fundamental va amaliy tadqiqotlarni olib boradi;
- ilm sohasi bilan chambarchas bog`liq ilmiy va metodik markaz hisoblanadi.

Akademiya:

- ta`lim sohasida ma`lum belgilangan oliy va oliy ta`limdan so`nggi ta`lim berishga mo`ljallangan o`quv dasturini bajaradi;
- mutaxassislarning bilimlarini belgilangan tartibda malakasini oshiradi va qayta tayyorlaydi;
- fan, madaniyat, san`at sohasida fundamental va amaliy ilmiy tadqiqot ishlarini olib boradi;
- o`z faoliyati doirasida yetakchi ilmiy, metodik markazi hisoblanadi.

Institut:

- oliy va oliy ta`limdan keyingi o`quv dasturlarini bajarishni ta`lim va fanning ma`lum bir me`yorida amalga oshiradi;
- mutaxassislarni ma`lum bir sohada qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan shug`ullanadi;
- fundamental va amaliy tadqiqot ishlarini olib boradi.

Oliy ta'lim muassasasining davlat ta'lim standartini mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha bajarilishini, kadrlar tayyorlash sifati davlat tomonidan tayinlangan organ oliy ta'lim boshqarmasi tomonidan nazorat qilinadi. Pedagogik kadrlar va o'quv muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish, kadrlar tayyorgarligi sifatini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Davlat test markazi bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim ikki bosqichdan iborat: bakalavriat va magistratura.

Bakalavriat

“Ta'lim to'g'risida” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni qabul qilish tartibi “Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni qabul qilish tartibi to'g'risida Nizom” bilan, oliy ta'lim muassasalari talabalari o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi “Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risida Nizom” bilan belgilanadi.

Bakalavriat – fundamental bilimlar beriladigan asosiy oliy ta'lim bo'lib, to'rt yil davom etuvchi oliy ta'limning yo'nalishlaridan biri. Bakalavriyatda ishlab chiqarishdan ajratmagan holda ta'lim jarayonining davom etish muddati bir yildan kam bo'lmagan vaqtga uzayadi.

Bitiruvchilarga davlat attestatsiya natijalariga ko'ra, bakalavriyat ta'lim daturining oxirida tayyorlov yo'nalishiga ko'ra “bakalavr” akademiyak unvoni, munosib ko'krak nishoni va davlat namunasidagi diplom va uning ilovasi beriladi.

Ta'lim daturining tarkibiy qismiga, bakalavr tayyorlashning kerakli darajasiga, o'quv vazifalarning maksimal hajmiga, kadrlar tayyorlash sifat nazoratining prosedura va mexanizmlariga umumiy talablar, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 16 avgust 2001 yilda tasdiqlangan № 343-chi “Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari. Asosiy nizomlar” qarori bilan belgilanadi. (№ 15-16, O'zbekiston Respublikasi qonunlar majmuasi, 104 bet).

Bakalavrning professional faoliyat sohasi va turi xarakteristikasi, kvalifikatsion talablar va o'quv fanlari bo'yicha talablar, ta'lim daturining struktura va tarkibi, uni amalga oshirish mexanizmi va sifatini nazorat qilish aniq tayyorlov yo'nalishi bo'yicha davlat ta'lim standartlari orqali belgilanadi.

Bakalavriyatning mos yo'nalishlari uchun, davlat ta'lim standartlari asosida, oliy ta'limni boshqarish bo'yicha davlatning vakolatli organi tomonidan tasdiqlangan o'quv reja va dasturlar, o'quv fanlari ishlab chiqiladi.

Bakalavriyatda bir xil profilli (umumiy kasb-hunar tayyorgarligi o'xshash) o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga ega bo'lgan shaxslarga, oliy ta'limning shu yo'nalishidagi o'quv rejalariga bog'liq (ketma-ketlikni ta'minlovchi) ta'lim daturini to'liq egallashning tezkor imkoniyatlari beriladi.

O'quv rejasiga bog'liq yo'nalish ro'yxati va kadrlar tayyorlash sharoitlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilanadi.

Bakalavr:

- yo'nalish bo'yicha lavozimga tayyorlangan oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar bilan almashtirilishi kerak bo'lgan ishga;
- bakalavriyatning mos keluvchi yo'nalishlar doirasida tanlagan mutaxassislik bo'yicha magistraturada oliy ta'limni davom ettirishga;
- qo'shimcha professional ta'limni kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida olishga tayyor.

Bakalavrlarning yo'nalishlari bo'yicha tayyorlash huquqi oliy ta'lim muassasalarining oliy ta'limni boshqarish bo'yicha davlat vakolatli organi rasmiy iltimosiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga belgilangan tartibda taqdim etiladi.

Magistratura

“Ta’lim to’g’risida” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq, O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarining magistraturasiga talabalarni qabul qilish tartibi “Oliy ta’lim muassasalarining magistraturasiga qabul qilish tartibi to’g’risida Nizom” bilan belgilanadi.

Magistratura–bakalavriyat asosidagi ikki yildan kam bo’lmagan aniq mutaxassislik bo’yicha oliy ta’limning davomi hisoblanadi. Magistraturada o’qishning davomiyligi ishlab chiqarishdan ajralmagan holda olti oydan kam bo’lmagan vaqtga uzaytiriladi.

Bitiruvchilarga davlat attestatsiya natijalariga ko’ra, magistratura ta’lim dasturining oxirida aniq mutaxassislik bo’yicha “magistr” akademik unvoni, munosib ko’krak nishoni va davlat namunasidagi diplom va uning ilovasi beriladi.

Ta’lim dasturining tarkibiy qismiga, magistr tayyorlashning kerakli darajasiga, o’quv vazifalarning maksimal hajmiga, kadrlar tayyorlash sifat nazoratining protsedura va mexanizmlariga umumiy talablar, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 16 avgust 2001 yilda tasdiqlangan № 343-chi “Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlari. Asosiy nizomlar” qarori bilan belgilanadi. (№ 15-16, O’zbekiston Respublikasi qonunlar majmuasi, 2001 yil, 104 bet).

Magistrning professional faoliyat sohasi va turi xarakteristikasi, kvalifikatsion talablar va o’quv fanlari bo’yicha talablar, ta’lim dasturining struktura va tarkibi, uni amalga oshirish mexanizmi va sifatini nazorat qilish magistraturaning aniq mutaxassisligi bo’yicha davlat ta’lim standartlari orqali belgilanadi.

Magistraturaning mos mutaxassisligi uchun, davlat ta’lim standartlari asosida, oliy ta’limni boshqarish bo’yicha davlatning vakolatli organi tomonidan tasdiqlangan o’quv reja va dasturlar, o’quv fanlari ishlab chiqiladi.

Magistr:

- aniq mutaxassislik bo’yicha mustaqil ilmiy tadqiqot, ilmiy pedagogik va boshqaruv, professional faoliyatini olib borishga;
- magistraturaning mos keluvchi mutaxassisligi doirasida oliy ta’limdan keyingi aspiranturada davom ettirishga;
- qo’shimcha professional ta’limni kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida olishga tayyor.

Oliy ta’lim muassasasida magistratura yo’nalishini ochishning asosiy sharti – bu o’quv tarbiyaviy jarayon bilan bog’liq va yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlanishini ta’minlovchi mos kafedralarning ilmiy pedagogik potentsiali mavjudligi va ilmiy tadqiqot ishlarini yuqori darajada olib borish imkoniyatining bo’lishi.

Magistrlarni yangi mutaxassisliklari bo’yicha tayyorlash huquqi oliy ta’lim muassasalarining oliy ta’limni boshqarish bo’yicha davlat vakolatli organi rasmiy iltimosiga binoan O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasiga belgilangan tartibda taqdim etiladi.

Oliy ta’lim muassasasi strukturasi magistraturaning maxsus bo’limi (fakul’tet, markaz) ochiladi va unga quyidagi vazifalar beriladi:

- talabalarining o’quv-tarbiyaviy jarayonini tashkillashtirish va nazorat qilish, o’quv-uslubiy xujjatlar va o’quv-uslubiy ta’minotni ishlab chiqish;
- magistrlar yetishtirib beruvchi kafedralar faoliyatini koordinatsiyalash;
- magistrlar tayyorlash prosesining monitoringi.

Oliy ta’lim tizimini boshqarish

O’zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimining boshqaruvi Vazirlar Mahkamasi va O’zbekiston Respublikasi qonunchiligi doirasida oliy ta’limni boshqarish davlat vakolatli organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim boshqaruv organi- O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligi hisoblanadi.

Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligiga, tarkibida oliy ta'lim muassasalari mavjud bo'lgan vazirliklar va boshqarmalar bilan birgalikda quyidagi vazifalar beriladi:

- bakalavr yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun davlat ta'lim standartlarini, o'quv reja va o'quv fanlari dasturlarini ishlab chiqish, tasdiqlash va bosqichma-boqich kiritib borish, hamda respublika oliy ta'lim muassalarini ular bilan ta'minlash;
- oliy ta'lim yo'nalish va mutaxassislik Klasifikatoriga zarur bo'lganda O'zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish;
- oliy ta'lim muassasi faoliyatining normativ-huquqiy ta'minotini ishlab chiqish va o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish;
- O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari o'quv-uslubiy boshqaruvini amalga oshirish;
- oliy va o'rta maxsus kasb hunar ta'limi kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish masalalarini muvoqlashtirish;
- Ta'lim, fan va ishlab chiqarishning normativ-uslubiy integratsiyasini ta'minlash.

Oliy ta'lim sifatini boshqarishning ijtimoiy shakllarini rivojlantirish maqsadida oliy ta'lim muassasalarining rektorlar kengashi tashkil qilingan bo'lib, uning faoliyati belgilangan nizom bilan tartibga solinadi.

Oliy ta'lim muassasalarining boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va mazkur nizom asosida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim muassasining bevosita boshqaruvi rektor tomonidan amalga oshiriladi. Davlat oliy ta'lim muassasasi rektori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan, nodavlat oliy ta'lim muassasalari rektorlari ta'sischi tomonidan tayinlanadi.

Oliy ta'lim muassasasining ish natijalari uchun to'liq javobgarlik rektor zimmasida turadi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va oliy ta'lim muassasa Nizomiga ko'ra, rektor oliy ta'lim muassasasi nomidan barcha organ va tashkilotlarda faoliyat yuritadi, mol-mulkga belgilangan tartibda egalik qiladi, shartnomalar tuzadi, ishonchnomalarni taqdim etadi, bankda oliy ta'lim muassasasining hisob raqamini ochadi va kreditlar boshqaruvchisi hisoblanadi.

Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini amalga oshirilishining alohida javobgarligi rektor zimmasiga yuklatilgan.

Oliy ta'lim muassasasi vakolatlari doirasida rektor:

- oliy ta'lim muassasasi ishchilar va talabalari uchun majburiy bo'lgan buyruq va topshiriqlarni chiqaradi;
- prorektorlarning aniq majburiyatlarini va mas'uliyatlarini belgilab beradi;
- ishchi va xizmatchilarni, hamda ilmiy pedagogik xizmatchilarni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilagan tartibda ishga qabul qiladi va ishdan bo'shatadi;
- oliy ta'lim muassasasi tarkibiga kiruvchi boshqa tashkilotlar va bo'limlarining ilmiy tadqiqot, tajribiy-eksperimental kompetentsiyasini aniqlab beradi, va ularning nizomlarini tasdiqlaydi;
- oliy ta'lim muassasalari ishchilari lavozimli maoshlarini orttiradi yoki qo'shimcha to'lovlarni belgilab beradi;
- kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki boshqa davlat organi bilan kelishilgan holda ishchilarning ichki tartib qonun qoidalarini tasdiqlaydi;
- Qonunchilikda ko'rsatilgan boshqa vakolatlarni bajaradi.

Rektor byudjetdan ajratilgan va oylik maosh fondi mablag'lari chegarasida, oliy ta'lim muassasasi xizmatchilarining lavozim maoshlari tarif setkasi va oyliklarga o'rnatilgan limitlardan kelib chiqqan holda:

- oliy ta'limni boshqarish bo'yicha davlatning vakolatli organi bilan kelishilgan holda ilmiy kengashning maslahatiga ko'ra fakultetlarni ochish va yopish huquqiga ega;
- O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalariga ajratilgan shtatlarga dekan va dekan o'rinbosarlarini tayinlash huquqiga ega.

Oliy ta'lim muassasasi faoliyatining asosiy masalalarini ko'rib chiqish uchun ilmiy kengash tashkil qilinadi.

Ilmiy kengashning tarkibi, vakolatlari, tartibi va faoliyati oliy ta'limni boshqarish bo'yicha davlatning vakolatli organi tomonidan tasdiqlangan Tipovoy qarori bilan tartibga solinadi.

Oliy ta'lim muassasasida ijtimoiy boshqaruv organi bo'lgan vasiylar kengashi tashkil qilinadi. Uning tarkibiga ta'sischi, mahalliy hokimiyat organlari, vazirlik va idora sohalari, muassasa va tashkilotlar, boshqa ta'lim muassasalari, ijtimoiy tashkilotlar, fondlar va homiylarning vakillari kiradi.

Oliy ta'lim muassasasi shu oliy ta'lim muassasasi qoshida tashkil topgan akademik litseylarning boshqaruvini va bir xil profilli kasb-hunar kollejlarning homiyligini amalga oshiradi.

Oliy ta'lim muassasasi haqidagi amaldagi qonunchiligiga va Nizomiga ko'ra unda ijtimoiy tashkilotlar, ilmiy va ko'ngilli jamiyatlar, dissertatsiyani himoya qilish kengashlari, ilmiy-uslubiy va ilmiy-texnik kengashlar, hamda yosh olimlar kengashini va shunga o'xshashlarni tashkil qilinishi taqiqlanadi.

Oliy ta'lim muassasasi tasdiqlangan ishchilar miqdori va byudjet chegarasida (davlat byudjeti va byudjetdan tashqari mablag'lar), talabalarning miqdoridan kelib chiqqan holda belgilangan tartibda o'z strukturasi shakllantiradi.

Dars tiplari. **Dars turlari**- darsning maqsadi va mazmuni, o'quvchining yosh xususiyatiga qarab, darsning tuzilishi har xil bo'ladi.

1. Darslarning asosiy maqsad va mazmuniga qarab turlariga bo'lish.
2. Darslarni o'qitish jarayonining analiziga qarab turlarga bo'lish.
3. Darslarni tuzilishiga qarab turlarga bo'lish.

Darslarni turlarga ajratishda birinchi qoida eng ob'ektiv va ma'quldir. Darsning mazmuni dasturda ko'rsatilgan bo'ladi.

Ta'lim tizimida tajribadan o'tgan dars turlari quyidagilardan iborat.

1. Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.
2. O'quv materiallarini mustahkamlash.
3. Takrorlash va bilimlarni umumlashtirish darslari.
4. O'quvchilarning o'zlashtirishini nazorat qilish va baholash darslari.
5. Dars turlari uyg'unlashgan (aralash)darslar.

Yangi mavzuni o'tish darsida yangi mavzuni o'tish kerak ekan deb mashq qildirish yoki o'tgan mavzularni qaytarish mumkin emas deganlari noto'g'ri. O'quvchilarga biron nazariy mavzuni amaliyotga tadbqiqini o'rgatganimizda, shu ishni qanday bajarilishini o'quvchilarning o'zlariga taklif etamiz. Bu ishlarni bir necha bor o'zlari sekin - asta shu ishni bajarishga ko'nikma hosil qiladilar.

Shunday qilib oxirgi tegishli natijaga erishamiz. O'tilgan mavzuni qaytarish mashq qildirish darsi o'qitilgan bilimlarnigina emas o'rgatilgan ishni qaytarish, mehnat malakalarini beradigan malakalarni o'tkazishdan iborat bo'lmog'i lozim.

O'quvchining bilimi, malaka va ko'nikmalarini tekshirish va ularga baho berish darsi bunda o'quvchilarning olgan bilimi tekshirilib ular qanchalik o'zlashtirilganligiga qarab baho qo'yiladi.

Yuqoridagi asosiy turlardan boshqa yana qo'shimcha darslar turi ham mavjud. Bu dars turida yuqoridagi saralash nuqtai nazaridan olinganda, o'quvchilarni o'zlashtirishini tekshirish, yangi mavzuni o'tish va uni pishiqtirish uchun qaytarish kabi turli ishlar qo'shilsa ham lekin qo'shimcha darslarning asosini bu ishlarning bittasi, qo'shimcha darslarning maqsadga to'laroq javob bera oladigani tashkil qiladi qo'shma darsdagi boshqa ishlar esa shu asosiy ishga yordamchilik vazifasini bajaradi.

Ta'lim tizimida takrorlash va bilimlarni mustahkamlash darslari ham ko'p qo'llaniladi. O'qituvchi darsning ma'lum bir qismi, yirik mavzularni o'tib bo'lganidan so'ng bunday darslar uyushtiriladi. Bu darslar oraliq nazorat baholashda ham xizmat qiladi. Har bir darsning muvaffaqiyati ko'p jihatdan mashg'ulotni to'g'ri tashkil qilishga bog'liqdir. Bu davrda sinfning tayyorgarligini sinchiklab kuzatish, bolalarni darsni tinglashga ruhiy jihatdan tayyor ekanliklarini o'rganish darkor. Shundan so'ng mahoratli pedagog fursatni qo'ldan boy bermay, shogirdlarini diqqatini chalg'itmay darsning asosiy qismini boshlab yuboradilar, chunki sinf o'quvchilarini tezlik bilan mashg'ulotga faol kirishishlarini ta'minlash lozim.

Dars o'qituvchi va o'quvchining ijodiy hamkorligiga asoslanishi lozim. Shundagina o'quvchilarda mustaqil fikrlay olish, iroda tarbiyalanadi. Nutq madaniyati rivojlanadi. Muammoli vaziyat orqali o'z yo'lini topa oladilar.

O'quv mashg'ulotlarining sinfdagi shakli darsdan tashqari yana qo'shimcha qator ta'lim shakllari mavjud bo'lib, bular amaliy - tajriba mashg'ulotlari, qo'shimcha darslar, fakultativlar, ekskursiya kabilardir.

Bular darsda berilgan bilimlarni to'ldirish, mustahkamlash, amaliyot bilan bog'lash uchun uyushtirilgan qo'shimcha mashg'ulotlardir.

Bulardan tashqari o'quv yurtlari tajribasida fan tugaraklari, ishlab chiqarish amaliyoti, o'yin shaklidagi mashg'ulotlardan ham foydalanmoqda.

Laboratoriya mashg'ulotlarida bolalar turli o'quv predmetlari bo'yicha tajribalar, turli qurilmalar yordamida sinov ishlari o'tkazishadi. Laboratoriya mashg'ulotlari amaliy dars ham deb yuritiladi. Amaliy darslarda o'quvchilar guruhlariga ajralib, turli esperimental topshiriqlarni bajarishadi.

Seminar mashg'ulotlari nazariy muammolarni faol o'rganish shakli hisoblanadi. O'rta umumta'lim maktablarida seminarlar quyidagicha o'tkaziladi: seminar uchun mavzu tanlanadi; mavzu buyicha reja, ko'rsatmalar beriladi; tayyorganlik uchun yetarli vaqt ajratiladi; asosiy manbalar, ularning betlari aytiladi; maslahatlar beriladi. Seminarga barcha o'quvchilar tayyorgarlik ko'rishadi. Seminarining oxirida o'qituvchi yakunlovchi suhbat o'tkazib, kelgusi seminarida qilinadigan ishlarni belgilaydi.

Uzluksiz ta'limning hamma bosqichlarida ta'limning o'ziga xos tashkiliy shakllari mavjud. Jumladan: ikki bosqichli oliy ta'lim tizimida o'ziga xos ta'lim shakllari mavjud. Bularga: ma'ruzalar, seminar va amaliy mashg'ulotlar, kafedra o'qituvchilarining ochiq ma'ruzalarida qatnashish, ma'ruza matnini tayyorlash va muhokama qilish, o'quv kurslari bo'yicha dasturlar tayyorlash ishlari kabilar kiradi.

Oliy ta'lim tizimida ma'ruza o'quv jarayonining ham usuli, ham shakli hisoblanib, u talabalarga fan asoslarini og'zaki, uzviy va muntazam singdirishga xizmat qiladi. Ma'ruza tufayli talaba shu fanning mohiyatini tushunib boradi hamda ularni erkin fikrlashga, fan ustida o'ylashga majbur etadi. Shu sababli ma'ruza ilmiy tafakkurni rivojlantirishning o'ziga xos maktabiga aylanadi.

Ma'ruzani shunday o'qish lozimki, uning ta'sirida talabalarda shu fanga, uning vazifa va kelajagiga nisbatan turli qarashlar, ilmiy e'tiqod, g'oya va milliy mafkura asoslari shakllansin. Buning uchun o'qituvchi har bir ma'ruzaning mazmunini, fandagi yangiliklar bilan boyitishi va tanlay bilishi lozim.

Ma'ruza ijobiy hamkorlikka tayanib tashkil qilingandagina samarali natija beradi. Buning uchun ma'ruza jarayonida ham ta'limiy ham tarbiyaviy vazifalarni samarali amalga oshirish yo'llaridan biri - o'qituvchilar bilan talabalar o'rtasidagi do'stona, faol munosabatlarni tiklab olishdan iborat.

Bundan tashqari dars va ma'ruzaning samarali natijasi o'quvchi talabalarining o'quv jarayonidagi ruhiy holatlarini qay darajada hisobga olinishiga ham bog'liq. Shunday ekan ta'limni samarali tashkil etish, uning dars, ma'ruza va boshqa shakllaridan o'qitish jarayonida foydalanishlari

uchun shubhasiz, o'qituvchining pedagogik mahorati, pedagogik madaniyati, o'z fanini puxta bilishligi va o'quvchi - talabalar bilan umumiy til topa olishlari g'oyat katta ahamiyatga ega.

Ta'limni tashkil etishning zamonaviy shakllari. Mustaqil O'zbekistonda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ni amalga oshirishda ta'lim tizimiga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish bilan bog'liq ishlar qilinmoqda. Ta'limni KVN, munozara, disput, konferensiya, mushoira, sud o'yinlari va boshqa shakllarda tashkil etishga harakat qilinmoqda. O'quvchilar faolligini oshiruvchi turli interfaol usullar keng qo'llanilmoqda. Bularga misol tariqasida Sinkveyn, Klaster, Aqliy hujum, T-Chizma, Insert jadvali, B-B-B jadvali, Venn diagrammasi, Konseptual jadval, Semantik xususiyatlar tahlili va boshqalarni keltirish mumkin.

An'anaviy metodlarning afzalliklari:

- Ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lgan va aniq ma'lum tushunchalarni, fanni o'rganishda foydali.
- O'qituvchi tomonidan o'qitish jarayonini va o'qitish muhitini yuqori darajada nazorat qilinishi.
- Vaqtdan unumli foydalanish.
- Aniq, ilmiy bilimlarga tayanish.

Kamchiliklari:

- O'quvchilar passiv ishtirokchi bo'lib qoladilar.
- O'qituvchining to'la nazorati barcha o'quvchilar uchun motivatsiyani vujudga keltirmaydi.
- O'quvchilar o'qituvchi bilan bevosita muloqatga kirisha olmaydi.
- Eslab qolish darajasi hamma o'quvchilarda bir xil bulmaganligi sababali, sinf bo'yicha o'zlashtirish darajasi past bulib kolishi mumkin.
- Mustaqil o'rganish va yechimlar qabul qilish uchun sharoitlar yaratilmaydi.

Noan'anaviy o'qitish metodlarining afzalliklari:

- O'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib kelishi.
- O'z vaqtida aloqalarning ta'minlanishi.
- Tushunchalarni amaliyotda qo'llash uchun sharoitlar yaratilishi.
- O'qitish usullarining turli xil ko'rinishlari taklif etilishi.
- Motivatsiyani yuqori darajada bo'lishi.
- O'tilgan materialning yaxshi eslab qolinishi.
- Muloqatga kirishish ko'nikmasining takomillashishi.
- O'z-o'zini baholashning o'sishi.
- O'quvchilarning predmetning mazmuniga, o'qitish jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabati.
- Mustaqil fikrlay oladigan o'quvchining shakllanishiga yordam berishi.
- Tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishi.
- Muammolar yechish ko'nikmalarining shakllanishi.

Kamchiliklari:

Ko'p vaqt talab etilishi.

- O'quvchilarni har doim ham kerakli nazorat qilish imkoniyatining pastligi.
- Juda murakkab mazmundagi material o'rganilayotganda ham o'qituvchi rolining past bo'lishi.
- «Kuchsiz» o'quvchilar bo'lganligi sababali «kuchli» o'quvchilarning ham past baho olishi.
- O'qituvchining o'zi ham yaxshi rivojlangan fikrlash qobiliyatiga va muammolar yechish ko'nikmalariga ega bulishining talab etilishi

XULOSA: Ko'p yillar davomida an'anaviy dars o'tish ta'limning asosiy shakllaridan biri bo'lib keldi.

An'anaviy dars o'tish modelida ko'prok ma'ruza, savol-javob, amaliy mashq kabi metodlardan foydalaniladi.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv

materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda baxs, munozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, tadqiqot rolli o'yinlar metodlarini qo'llash, rang-barang qiziqtiruvchi misollarning keltirilishi, o'quvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash, rang-barang baholash usullaridan foydalanish, ta'lim vositalaridan urinli foydalanish talab etiladi.

Modellashtirish-real hayotda va jamiyatda yuz berayotgan hodisa va jarayonlarni ixchamlashtirilgan va soddalashtirilgan ko'rinishini (modelini) sinfxonada yaratish va ularda o'quvchilarni shaxsan katnashishi va faoliyat evaziga ta'lim olishini ko'zda tutuvchi metod.

Hamkorlikda o'rganish modeli-o'quvchilarning mustaqil guruhlarda ishlashi evaziga ta'lim olishini ko'zda tutadigan metod.

O'rganishning tadqiqot modeli-o'quvchilarni muayyan muammoni yechishga yo'naltirilgan, mustaqil tadqiqot olib borishini ko'zda tutuvchi metod.

Yoshlarni mustaqil bilim olishga o'rgatish bugungi kunning eng muhim va dolzarb vazifalaridan biridir. Shuning uchun ham Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sesiyasida so'zlagan nutqida "Faqatgina chinakam ma'rifatli odam inson qadrini, millat qadrini, bir so'z bilan aytganda o'zligini angalash, erkin va ozod jamiyatda yashash mustaqil jamiyatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib, obro'li o'rin egallash uchun fidokorlik bilan kurashishi mumkin"¹ degan edi. Shu o'rinda ta'kidlamoq lozimki bugungi kunda yoshlarni ma'naviy - intellektual rag'batlantirishning ahamiyati kattadir.

O'quvchi va talabalarning bilimini, aqliy kamolotlarini nazorat qilish va baholash davlat miqiyosida muhim ahamiyatga egadir. Shu bilan birga nazorat va baholash jarayoni o'quvchi shaxsini rivojlantirishga va tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadi.

Bilimlarni nazorat qilishda qo'yilgan ball va baholar o'quvchi va talabada qanday taassurotlar qoldirganini, ular o'rtoqlarining o'qishdagi yutuq va kamchiliklariga qanday munosabatda bo'lishlarini doim kuzatib borish lozim.

Nazorat jarayonida uning yozma, og'zaki va amaliy usullaridan keng foydalanilmoqda. Bu jarayonda og'zaki so'rash orqali o'zlashtirishni nazorat qilish keng tarqalgan. Bu asosan savol-javoblar orqali olib boriladi. Bunda yakka so'rash, frontal so'rash kabi turlari qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "O'zbekiston kelajagi buyuk davlat" va "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li", "Istiqlol va ma'naviyat" kabi asarlarida mustaqil O'zbekistonning ma'naviy hayotining kelajagi haqida asosiy yo'nalishlar belgilab berilgan. Jumladan, mutaxassislar tayyorlashda ularni intellektual rivojlantirish zarurligini alohida qayd qilingandi.

Yoshlarni tarbiyalash jarayoni ma'naviy - intellektual rivojlanish sifatlarini aniqlashning aniq maqsadi va vazifalari ishlab chiqilgan.

Boshlang'ich sinfdan boshlab, o'quvchidagi bor imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish ustida muntazam ishlansa, bolaning intellektual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga asos solinadi. O'quvchilar tafakkurini rivojlantirishning eng samarali yo'li o'quvchilarda ongli bilim, mustahkam ko'nikma va malakalarni shakllanish jarayonini ularning tarbiyasi bilan birga tashkil etishdir. Buning uchun o'qituvchi tinimsiz izlanishi, o'qitishning yangi texnologiyalaridan samarali foydalanishi lozim.

O'quvchilarning intellektual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish ularning bilim faoliyatining psixologo-pedagogik qonuniyatlarini chuqur bilishni taqozo etadi.

Nazorat qilishning reyting tizimi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida ishlab chiqilgan davlat ta'lim standartlarida ta'limning har bir bosqichida o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning minimal darajasi belgilab berilgan. Lekin bu bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish jarayoni bolaning intellektual imkoniyatlarini hisobga olib tashkil etilsa, yuqori samaradorlik ta'minlanadi.

Ma'naviy - intellektual shakllanish sifatlarini zamonaviy usullarda aniqlash tarbiya jarayoniga samarali o'zgartirishlar kiritadi. O'quvchi yoshlarning, talabalarning ma'naviy - intellektual shakllanish sifatlardagi yutuq va kamchiliklarni rag'batlantirish, tuzatish tarbiya mazmuni usullari va tashkiliy shakllarini yaxshilashga mos tuzatishlar kiritish lozim bo'ladi.

Qo'yilayotgan talablar bilan har tomonlama intellektual rivojlantirishning pedagogik sharoitlarining mufassal emasligi orasida tafovut yaratadi. Ayniqsa, mutaxassis tayyorlashda maktabdan boshlab oliy o'quv yurtlarini bitirib chiqqunlarigacha nazorat shaklining to'liq bo'lmaganligi ta'lim - tarbiya jarayonining asosiy muammolarini tashkil etadi. Masalani muhim tomoni shundaki, mutaxassislar ommaviy tusda tayyorlanganda tarbiyachilarning har bir talaba bilan yetarli darajada yakkama - yakka muloqot qilishga vaqti yetmaydi. Muloqot tezkor savol - javob tarzida o'tsa, tabiatan bunday muloqot talabani ham tarbiyachini ham qanoatlantirmaydi. O'quvchi va talabalar bilimni nazorat qilish va baholash o'quv yili davomida har doim muntazam amalga oshirilishi uchun reyting tizimi joriy qilinib, u ba'zan o'tkaziladigan tasodifiy tekshirishlarni oldini oladi va tartibli doimiy baholash uchun imkoniyatlar ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.O'zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat mafkura. Islom Karimov.
- 2.O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida yohud Sho'rolarning so'nggi talvasasi. Islom Karimov so'zlagan nutqi, 1991.
- 3.O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. Karimov I.A. T, 1992y, 13 bet.
- 4.O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisodiyot, siyosat mafkura. T. 1996y, 82-bet.
- 5.O'zbekistonda ta'lim statistikasi. 2015y.
- 6.mfa.uz, dtm.uz

8-Mavzu: Qiyosiy pedagogika fani rivojlanishida xalqaro tashkilotlar va ularning faoliyati

Reja:

1.YUNESKO tashkilotining ta'lim sohasidagi faoliyati.

2.YUNISEF, MOT(XMT) xalqaro tashkilotlarining vazifalari va ta'lim-tarbiya jarayonlari yuksalishidagi o'rni.

3.AQSH ning "Tinchlik korpusi" va uning ish faoliyati.

Tayanch so'zlar: BMT; YUNESKO; YUNISEF; MOT(XTM); "Tinchlik korpusi"

YUNESKO-bu tashkilot Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'lim, fan, madaniyat masalalarini rivojlantirishga ixtisoslashtirilgan tashkiloti bo'lib, u 1946 yilda tashkil etilgan.

1992 yilgi ma'lumotlarga qaraganda, bu xalqaro tashkilotga jahonning 171 davlati, shu jumladan, O'zbekiston ham a'zodir.

Bu tashkilotning qarorgohi Fransiyaning poytaxti Parij shahrida bo'lib, uning oliy boshqaruv organi — Bosh direktordir.

Bu xalqaro tashkilotga a'zo bo'lgan mamlakatlarning vakillari 2 yilda bir marta o'zlarining Bosh konferensiyalariga to'planadilar. Bu anjumanda ular YUNESKOning keyingi 2 yillik faoliyatining dasturini qabul qiladilar. Ushbu dasturni amalga oshirish uchun unga a'zo bo'lgan davlatlar mablag'— byudjet ajratadilar.

YUNESKO faoliyatida xalqaro hamkorlik, tinchlikni saqlash masalalari asosiy o'rinni egallaydi. Shu tufayli ham uning Nizomida "Urush haqidagi fikrlar odamlar aqlida paydo bo'ladi, binobarin, urush vasvasasini ularning ongidan chiqarib, tinchlikni himoya qilish g'oyasini tarbiyalamoq kerak"- deb yozib qo'yilgan.

YUNESKO faoliyati o'ta xilma-xil va ko'p qirralidir. Loaqal uning ta'lim bo'yicha faoliyatiga nazar tashlaylik. Bu boradagi ishlar juda ko'p yo'nalishlarda olib boriladi va bu yo'nalishlar bir-biridan muhimdir. Bu rivojlanayotgan mamlakatlarda savodsizlikni tugatish, jahon ta'limi rivojlanishidagi tendensiyalarni tahlil qilish va uni ommalashtirish, u yoki bu mamlakatda ta'lim bo'yicha olib borilayotgan siyosatni ham moddiy ham ma'naviy rag'batlantirish va xokazolar.

YUNESKO mazmunli ta'limining hamma uchun birday imkoniyat doirasida bo'lishini ta'minlash, uning uzluksizligini qaror toptirish, ta'limni va uning shaklini kelajakda rivojlanishi tamoyillaridan kelib chiqadi.

O'qituvchi kadrlar tayyorlash, ularni nazariy-metodik saviyasini muttasil oshirib borish, jahonning ba'zi mamlakatlarida muammo bo'lib hisoblangan xotin-qizlarning erkaklar bilan bab-barobar bilim olish haq-xuquqlarini ta'minlash, ekologik ta'limni yo'lga qo'yish darslik va dasturlarni takomillashtirish, mamlakatlar o'rtasida ta'lim bo'yicha hamkorlikni butun choralar bilan rivojlantirish va juda ko'p boshqa masalalarni hal etadi.

Bu sahovatli faoliyatning barchasi yoshlarga jahon talablari ruhida ta'lim berish ularni xalqaro hamkorlik, o'zaro ishonch, do'stlik, birodarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgandir.

Fan va texnologiyani rivojlantirish borasida YUNESKO bir qator davlatlararo dasturni amalga oshirdi. Bu dastur asosan ekologik muhitni yaxshilash, atrof-muhitni muhofaza etish bilan bog'liqdir. Shuningdek, mazkur yo'nalishda muvofiqlashtirilgan, birgalikdagi ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish, jahon ilmiy markazlari, universitetlar, olimlar hamkorligini rivojlantirish bilan bog'liq muhim ishlar ham yo'lga qo'yiladi.

Ma'lumki, hozirgi dunyoda millatlar va xalqlarning madaniy, tarixiy meroslarini, osori atiqalarini asrash, avaylash, kelajak avlodlar uchun uni saqlash, ta'mirlash ishlari katta ahamiyatga molikdir.

Bu jahonshumul masalada YUNESKO asosiy o'rinni egallaydi. Uning ro'yxatiga jahon tarixiy yodgorliklarining iftixori hisoblangan buyuk Xitoy devori, London Taueri, Klimentjarodagi milliy park va boshqa minglab ob'ektlar kiradi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, 1993 yildan boshlab O'zbekistonning Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon, Toshkent va boshqa joylaridagi ko'plab tarixiy obidalar ana shu ro'yxatga kiritildi.

Har yili bu ro'yxatga yangi-yangi tarixiy obidalar, yodgorliklar nomi qayd etib boriladi.

YUNESKO faoliyati tarkibiga yana xalq og'zaki ijodiyoti, folklor, o'lanlar, aytishuvlar, maqomlar, xalq kuylari, laparlarni saqlash ham kiradi.

Adabiyot bo'yicha YUNESKOning roli ayniqsa salmoqlidir. Jahon adabiyoti, uning shox asarlari, adabiy meros ayniqsa u tomondan e'zozlanib, ular to'planadi va jahonning turli tillariga tarjima qilinib, bosmadan chiqariladi va tarqatiladi. Shuningdek, YUNESKO ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish, jahon ahlini voqea va xodisalardan voqif qilish masalalariga ham faol qatnashib uning rivojlanishiga ko'maklashadi.

Bu xalqaro muassasa ko'plab vaqtli matbuot va nashrlarga homiylik qiladi.

1992 yil 2 martda O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining a'ziligiga qabul qilingach, BMTning barcha tashkilotlariga xaqli a'zo bo'lib kira olish xuquqiga ega bo'ldi. Shu bois Respublikamiz 1993 yil 26 oktyabridan boshlab YUNESKOGa a'zo bo'lib kirdi.

Yuqoridagi sanalardan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston YUNESKOGa a'zo bo'lganiga yigirma yetti yildan ko'proq vaqt o'tdi. Lekin shu qisqa vaqt ichida ko'p narsa qilib ulgurildi.

1993 yilda yuqorida YUNESKOning ko'zga ko'ringan ekspertlari yurtimizga tashrif buyurib, Samarqand, Buxoro Xiva shaharlarining tarixiy obidalarini borib ko'rdilar va o'rgandilar. Ularda bu

shahardagi betakror tarixiy obidalar katta taassurot qoldirdi. Natija shu bo'ldiki, xalqimizning bu o'chmas yodgorliklari qayta tiklanib, ta'mirlash dasturi tuzildi va bu dasturni 1995-yil boshlaridan amalga oshirishga kirishiladigan bo'ldi.

1994 yilning aprel oyida YUNESKONing barcha bo'limlarining vakillari Toshkentga kelishdi. Ularning bu tashrifidan maqsad Markaziy Osiyo respublikalarida YUNESKONing vazifalarini aniqlab olishdan iborat edi.

Shu yilning oktyabr oyida Samarqand shahrida Markaziy Osiyo va jahon olimlari uchrashib, bu shaharda YUNESKO tasarrufidagi Markaziy Osiyo respublikalarini o'rganish instituti tashkil etishga qaror qilindi.

Bu institut jahonning shu mintaqasida o'rganish bo'yicha, eng yirik markaz bo'lib qoladi, binobarin, Samarqand o'rta asrlarda bo'lganidek, hozir ham jahonning eng ko'zga ko'ringan ilmiy markazlaridan biri bo'lib qoladi.

YUNESKO tashabbusi bilan Fransiyaning Parij shahrida, samarqandlik olim, davlat arbobi Muxammad Tarag'ay Ulug'bek tavalludining 600 yillik yubiley tantanalari bo'lib o'tdi. Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlarining butun jahon tarixiy obidalar shaharlari ro'yxatiga kiritish bo'yicha ham ko'pgina ishlar qilindi.

YUNESKO Markaziy Osiyoda ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish istiqbollari o'rganish ishida ham katta amaliy yordam ko'rsatmoqda. Bu ish shunisi bilan katta ahamiyatga molikki, butun Markaziy Osiyo Respublikalari Orol dengizining qurib borayotganligi munosabati bilan jiddiy ekologik tanglikka, sanoat chiqindilaridan atrof-muhitni ifloslanishi kabi muammolarga duch kelmoqdalar.

YUNESKO ana shu muammolarni, boshqa xalqaro va hududiy hamjamiyat tashkilotlari bilan hamkorlikda bartaraf etish yo'lida ishlashga o'zining tayyor ekanligini izhor etdi.

Ma'lumki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti jahon madaniyati va ma'rifatini rivojlantirish o'n yilligini (1988- 1997) o'tkazishga qaror qilgan edi.

YUNESKO ham shu doirada faoliyat ko'rsatib, bir paytlar jahon iqtisodiy, madaniy va ma'rifiy rivojlanishida muhim o'rin tutgan «Buyuk Ipak Yo'li»ni kompleks o'rganish dasturini qabul qildi. Bu dasturning maqsadi Sharq bilan G'arb o'rtasidagi bu quruqlikdagi va dengizdagi savdo yo'lini salohiyatini aniqlash, tiklashdan iborat bo'lsa, ikkinchi tomondan bu yo'l Sharq bilan G'arbnig madaniy va ma'rifiy hamkorligini ham bir-biriga bog'lovchi muhim ko'prik ekanligini ochib berish, uni tiklashdan iboratdir.

Endilikda bu o'lgan tadqiqotlar to'rt asosiy yo'nalishda olib borilmoqda:

1. Ipak yo'li mamlakatlariga kiruvchi xalqlarning tili va yozuvini o'rganish;
2. Karvonsaroylar o'rni aniqlash va ularni qayta tiklash, pochta aloqalarini yo'lga qo'yish;
3. Kosmik arxeologiyani qayta jonlantirish;

4. Jahon turistlar tashkiloti bilan hamkorlikda ipak yo'li bo'ylab turistik yo'nalishlarni ochish va uni harakatga keltirishdan iboratdir.

Hozirgi kunda Respublikada YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy komissiyasi tashkil etildi. Bu komissiya tarkibiga davlat arboblari, olimlar, taniqli madaniyat hodimlari bilan bir qatorda ta'lim muassasalarining ham vakillari kiritildi.

YUNISEF 1946 yilning 11 dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining birinchi sessiyasidayoq bir ovozdan YUNISEF — BMTning Favqulodda Bolalar Fondi nomi bilan tarkib topdi.

YUNISEF tashkil topgan dastlabki yillarda uni mablag'i urushdan qattiq jabrlangan Yevropa va Xitoyda bolalarga oziq-ovqat, dori-darmonlar uchun sarf qila boshladi. 1950 yil dekabrda BMT Bosh Assambleyasi YUNISEF vakolatini yanada kengaytirdi. Uning mablag'lari rivojlanayotgan davlatlardagi son-sanoqsiz bolalar uchun sarflana boshlandi.

1953 yilning oktyabridan BMT Bosh Assambleyasi YUNSEFni o'zining doimiy organiga aylantirdi. Endi u Birlashgan Millatlar Tashkilotining bolalar fondiga aylantirildi. Lekin uning kafolatlari va vazifalari to'raligi saqlab qolindi. 1960 yillardan boshlab YUNISEF bolalar manfaatini global himoya qiluvchi zabardast organga aylandi.

1965 yilda YUNISEFning Nobel mukofotiga sazovor bo'lishi xalqaro bolalar hayotida naqadar xayriya va sahovat manbai bo'lib shakllanganligining to'la e'tirof etilish bo'ldi.

Hozirgi davrda ham YUNISEF bolalar manfaatini himoya qilishga, ularni sog'lom, o'qimishli bo'lib o'sishlariga ko'malashish, bolalar o'limini oldini olish, ommaviy qirg'in keltiruvchi va boshqa xavfli kasalliklardan muhofaza qilish onalik va bolalikni himoya qilish, loaqal qizlar hamda o'g'il bolalarga bepul boshlang'ich ma'lumot berish, ular farovonligini ta'minlash ishlariga asosiy e'tiborni qaratmoqda.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, bu sahovatli tashkilot bizning mamlakatimizda ham insonparvarlik faoliyatini boshlab yubordi.

Uning Respublikamizdagi faoliyatining asosiy yo'nalishlari onalik va bolalikni himoya qilish, ularga kerak, tibbiy yordam ko'rsatish, to'la qonli ta'lim berish, turmush sharoitini yaxshilash, ijtimoiy kafolatlarini himoya qilishdan iboratdir. Shuningdek YUNISEF respublikamizda onalar va bolalar kasalliklarini oldini olish, ularni 100 foiz immunizatsiya qilish bolalarni chechak, ich terlama, difteriya, poliomielit, ko'k yo'tal, quturish kabi kasalliklardan himoya qilish kabi amaliy ishlarni bajarmoqda. Xuddi shu maqsadlarda mana ikki yildan buyon O'zbekistonlik bolalarga vaksinalar keltirilmoqda.

Mana shu dasturga asosan dori-darmonlar, tibbiyot anjomlari va boshqa zarur narsalar olib kelinmoqda, ommaviy tushuntirish ishlari olib borilmoqda, turli plakatlari, yo'riqnomalar, qo'llanmalar nashr qilinmoqda.

YUNISEF ta'limni amalga oshirishga ko'maklashishda ham faol qatnashmoqda. Ayniqsa bu tashkilot maktabgacha tarbiya va boshlang'ich ta'limga ko'proq yo'naltirilgan.

Albatta, YUNISEFning ta'lim bo'yicha dasturida ko'zda tutilgan bir qator ishlar ham loyiha bosqichida turibdi.

1990 yilda jahonning 71 davlati boshliqlarining oliy darajadagi tarixiy uchrashuvi bo'lib o'tdi. Bu uchrashuvda bolalar manfaatlarini himoya qilish masalasi ham ko'rib chiqildi. Bolalar sog'lig'ini ta'minlash ularga bilim berish, ular huquqlarini himoya qilish, to'q va farovon bolalikni ta'minlash bo'yicha 2000 yilga mo'ljallangan 27 aniq maqsadni ko'zlovchi qaror qabul qilindi. Hozirgacha bu qaror 153 mamlakatda ma'qullandi. Bizning Respublikamizda ham bu xalqaro xujjatni amalga oshirish bo'yicha «Milliy harakat dasturi ishlab chiqishga kirishilgan.

MOT (XMT) inson huquqlarini hurmat qilish, ularning mehnat turmush sharoitini yaxshilash, ish bilan ta'minlashni yo'lga qo'yish, mehnatkashlarning jamiyat talablariga mos kasb bilan ta'minlash ularning kasb mahoratlarini oshirish, iqtisodiy ahvolini yaxshilash kabi ijtimoiy adolat tamoyillarini amalga oshiruvchi xalqaro tashkilot — MOT (xalqaro mehnat tashkiloti) birinchi jahon urushidan keyinroq tashkil etilgan edi.

Uning tashkil etilishiga birinchi jahon urushi oqibati, jahonda yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy holat sabab bo'ldi. Chunki jahonda ro'y berayotgan barcha ijtimoiy iqtisodiy islohotlar jahon miqyosida aks etmog'i ko'zda tutilgan edi.

XMTning eng noyob xususiyati shundaki, unda ish beruvchilar va mehnatkashlar iqtisodiyotda ijtimoiy hamkorligini shakllantiradi davlat muassasalari bilan teng huquq, tashkilotning siyosati va faoliyati dasturini ishlab chiqishda ishtirok etadi.

Oradan 25 yil o'tgandan keyin XMTning Filadelfiya Konferensiyasida uning maqsad va vazifalari kengaytirildi, jahonning rivojlangan, rivojlanayotgan davlatlari o'rtasida aholini mehnat va mehnatga tayyorlash bo'yicha keng hamkorligini yo'lga qo'yish masalalari eng dolzarb masala deb qabul qilindi.

1946 yildan XMT Birlashgan Millatlar Tashkilotini birinchi ixtisoslashtirilgan muassasasiga aylantirildi. 1969 yilda uning faoliyati Nobel mukofoti bilan taqdirlash loyiq deb topildi. Unga 1993 yil hisobi bilan 168 mamlakat a'zo bo'ldi.

U hozir quyidagi vazifalarni bajarmoqda:

1.Mehnatkashlarning ish sharoitini va turmush tarzini yaxshilash, ishga joylasha olish qobiliyatini oshirish;

2.Xalqaro mehnat normativlarini joriy etish, uni qo'llanishini nazorat qilish;

3.Keng ko'lamda xalqaro texnik-texnologik hamkorlikni yo'lga qo'yish, bu sohada davlatlar o'rtasida faol hamkorlikni va bu siyosatni samarali amalga oshirishni yo'lga qo'yish;

4.Professional tayyorgarlik, hunar-texnika ta'limi umumiy tadqiqotlar, nashriyotlar sohasida faoliyat ko'rsatish va xokazolar.

Bundan tashqari XMT o'zining qudratli o'quv markaziga ham ega. Bu o'quv markazi Italiyaning Turin shahrida bo'lib, yiliga unda 170 mamlakatdan 60 mingga yaqin kishilar mehnatga tayyorlash, ta'lim, tashkil etish kabi eng zamonaviy va dolzarb sohalarda o'qitiladi.

Shuningdek XMT tasarrufida Jeneva shahrida ijtimoiy mehnat bo'yicha tadqiqotlar olib boruvchi xalqaro institut ishlab turibdi.

XMTning oliy organi har yili o'tkaziladigan xalqaro Konferensiyadir. Unda mehnatni tashkil qilish, uning xalqaro huquqiy asoslarini takomillashtirish, mehnat ta'limini amalga oshirish va boshqa dolzarb masalalar ko'rib chiqiladi. Konferensiya ishiga ma'muriy kengash rahbarlik qiladi. Bu kengash tarkibida 28 hukumat, 14 mehnatkashlar, 14 ish bilan ta'minlovchilar vakillari bor. Unga doimiy rahbarlikni xalqaro mehnat byurosi amalga oshiradi. Byuroga esa bosh direktor rahbarlik qiladi. Bu lavozimda Belgiyalik Mishel Xansenn faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi XMTga 1992 yil 13 iyulda a'zo bo'gan. O'zaro munosabatlar yaxshi rivojlanmoqda. Bu hamkorlik:

a).O'zbekiston fuqarolarini o'z-o'zini ish bilan ta'minlash;

b).Mehnat taqsimoti, ish bilan ta'minlash, kasblarga o'qitish masalalarida chet ellarda malaka oshirish;

v).Aholini kam ta'minlangan qismini ijtimoiy himoya qilish;

g).Kasb ta'limini yo'lga qo'yish yo'nalishlarida rivojlanmoqda.

Respublika ishchi kuchlarini xalqaro me'yorga olib chiqish, kasb ta'limini takomillashtirishga bag'ishlangan bir qator seminar-kengashlar XMT, Respublika xalq ta'limi va mehnat vazirliklari bilan hamkorlikda o'tkazildi. XMT bilan hamkorlikning yangi bosqich va yo'nalishlarda rivojlantirish choralari ko'rilmoqda.

Prezident Jon F.Kennedi 1961 yilning 1 martida o'zining maxsus farmoni bilan Tinchlik korpusini tashkil etdi. Uning vazifasi esa, bir-birini o'zaro tushunish orqali har xil millat kishilarining o'rtasida tinchlik va totuvlikni mustahkamlashdir. Tinchlik Korpusi—Amerika Qo'shma Shtatlarining mustaqil hukumat muassasasi, Prezident Ijroiya komitetiga hisob beruvchi hukumat tashkilotidir.

Bu tashkilot siyosiy tashkilot emas. Uni mablag' bilan AQSH Kongressi ta'minlaydi. Tinchlik Korpusining rahbari Prezident tomonidan tayinlanadi, uning ko'rsatmalariga muvofiq ishlaydi, unga hisob beradi.

TINCHLIK KORPUSINING UCH MAQSADI

1.Muhtoj mamlakatlar va ularning fuqarolariga yuqori malakali mutaxassislar bilan yordam berish;

2.Jaxondagi boshqa mamlakatlar va odamlarning AQSH va uning odamlarini yaxshiroq tushunib olishiga ko'maklashish;

3.Amerikaliklarga ba'zi mamlakatlar va uning kishilarini yaqindan tanishtirish. Shu asosda insonlarning bir biriga yaqinlashuvini ta'minlashdan iboratdir.

TINCHLIK KORPUSINING ISH FAOLIYATI

Chet ellarda ko'ngillilarni qo'llab-quvvatlash maqsadida ofislar tuzilib, unga vakolatli rahbar tayinlanadi. Ko'ngillilarga shaxsiy yordam, nazoratchi, rahbarning bir nechta texnik jihatdan assistentlari xizmat qiladi, o'sha hududda profilaktik va tibbiy yordam ko'rsatiladi.

Ko'p mamlakatlarda Tinchlik Korpusi ikki tomonlama bitim asosida ishlaydi. Bitimning asosiy punktlari huquqiy holatga tegishli ko'ngillini, Amerika Qo'shma Shtatlari xodimini, shuningdek, faoliyat ko'rsatayotgan mamlakat munosabatlarini qamrab oladi.

Qabul qilayotgan mamlakatning rasmiy shaxslar bilan muzokaralari, kutilayotgan dasturlar, ko'ngillilarni taqsimlash, uy-joy va boshqa jihatlar bilan ta'minlashga oid masalalar Tinchlik Korpusi dasturining bajarilishiga yordam beradi.

O'zbekistondagi Tinchlik Korpusi 1992 yilning 4 noyabrida Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi va Qo'shma shtatlar Tinchlik Korpusi davlatlararo shartnomasiga imzo chekdilar. Shu yili respublikamiz hukumati Tinchlik Korpusi ko'ngillilarini oliy va o'rta o'quv-yurtlarida ingliz tilidan dars berishga, shuningdek, kichik biznesni rivojlantirishda yordam berishga taklif qildi.

1992 yilning 20 dekabrda Toshkentga boshlang'ich uch oylik o'qish uchun 54 nafar ko'ngilli xizmatchilar keldilar. Bu davr mobaynida ular rus va o'zbek tillarini, o'zbek madaniyati, o'z sohasi dasturini o'rganishdi. Umumiy tabiiy tayyorgarlik bo'yicha mashg'ulotlarga qatnashishdi. Tayyorgarlikni muvaffaqiyatli o'tagach, 1993 yil mart oyida viloyatlardagi ish joylariga keldilar.

Tinchlik Korpusining bapcha ko'ngillilari oliy ma'lumotlilardir. Ko'pchiligi boy ish tajribasiga ega, asosiy maqsadi—o'zbek xalqiga yordam ko'rsatishdir. Ko'ngillilarga taalluqli bo'lgan ko'chish, tibbiy yordam ko'rsatish, o'qitish xarajatlarini va moddiy nafaqalarini to'ladi. Ko'ngillilarni qabul qilgan tashkilot va muassasalar har bir xizmatchini uy-joy, ish va ijtimoiy va kasbiy qulayliklar bilan ta'minlaydilar. Hozir ular shu mamlakatdagi hamkasblari bilan turli masalalar ustida ishlamoqdalar. Ko'ngillilar mazkur mamlakat pulida maosh oladilar. Bu maosh oziq-ovqat, transport va boshqa zarur xarajatlarga sarflanadi. Nafaqa miqdori mahalliy hamkasblarining maoshiga teng bo'ladi.

Tinchlik Korpusi O'zbekistonda ikkita dasturni amalga oshira boshladi. Bular kichik biznes va metodik manbalar asosida ingliz tilini o'qitishni takomillashtirishdir. Kichik biznesni rivojlantirish dasturining asosiy vazifasi erkin bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida mamlakat kuchlarini qo'llab-quvvatlashdan iborat. Bu soha maslahatchilari marketing, bozor tahlili, moliyaviy rejalashtirish, byudjet, buxgalterlik hisobi, bank va axborot tizimlari bo'yicha ish tarjibalariga egalar. Tuzilgan shartnomaga muvofiq, maslahatchilar bepul xizmat ko'rsatishadi. Bu dastur ikkita sohada — xususiyashtirish va xotin qizlarni biznesda qatnashishga jalb etishdan iborat.

Metodik manbalar asosida ingliz tilini o'qitish dasturining asosiy maqsadi esa quyidagicha:

Birinchi, zamonaviy usul bo'yicha tayyorgarlikni o'tagan amerikalik o'qituvchining maktab o'qituvchilari va oliy o'quv yurti talabalariga yuqori saviyada dars berishiga erishish;

Ikkinchi, ingliz tili o'qituvchilarining nutq va texnik malakasini oshirish, pedagogik materiallarni puxta egallashda oliy va o'rta maxsus ta'lim hamda xalq ta'limi vazirliklariga yordam berish;

Uchinchi, ko'ngilli ingliz tili o'qituvchilari o'z mahalliy hamkasblariga kasb bo'yicha axborotlar almashtirish birlashmasini tashkil etishga qaror qildilar.

Nazorat savollari:

1. Qiyosiy pedagogika fani taraqqiyotida YUNESKO tashkilotining faoliyati nimalardan iborat?
2. YUNISEF tashkilotining ta'lim sohasidagi vakolatlarini qanday izohlaysiz?
3. "Xalqaro mehnat tashkiloti"ning kadrlar va ularni ish bilan ta'minlash masalasi doirasidagi vazifalarni qanday amalga oshiradi?

4. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi qanday imkoniyatlarni yaratib beradi?

Adabiyotlar:

1. J.G‘. Yo‘ldoshev “Xorijda ta’lim” T., 1995y.
2. B.F. Vulfson “Sravnitel’naya pedagogika” M., 2003 y.
3. N.X. Takanaev «CHet ellar pedagogikasi tarixi»-T, 1959 y.
4. M.A. Sokolova va boshqalar «Qiyosiy pedagogika»-T, 1983 y.
5. “The word book enceclopedia”, 1994 y. 1-jild.
6. “The word book enceclopedia”, 2-jild.
7. “The word book enceclopedia”, 3-jild.

9-Mavzu: Osiyo mamlakatlarida ta’lim-tarbiya jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari.

Reja:

1. Yaponiya ta’lim tizimi va uning tarkibi.
2. Boshlang‘ich, o‘rta ta’lim jarayonini tashkil qilish mazmuni.
3. O‘rta maxsus va hunar-texnika ta’limi.
4. Koreya Xalq Demokratik Respublikasi ta’lim tizimi haqida qisqacha ma’lumot

Iqtisodiy qudrati jihatidan Yaponiya jahonda Amerika Qo‘shma Shtatlaridan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Jahonning ko‘zga ko‘ringan ruxshunoslari va iqtisodchilari Yaponiya rivojlanishidagi bu o‘lkan parvozni mamlakatda ta’lim tizimlari taraqqiyotiga berilgan Yuqori darajadagi e’tibor samarasi, deya qayd etadilar. Bu bejiz emas. Kun chiqish mamlakati deb yuritiladigan bu o‘lkada ta’lim tizimlarini bosqichma-bosqich takomillashtirib borilishiga hukumat, xususiy kompaniyalar, jamoat tashkilotlari, ota-onalar qanchalik omilkorlik bilan yondashayotganliklarini hisobga olsak, jahon ilmiy tadqiqotchilarining yuqoridagi xulosalari asosli ekanligining guvohi bo‘lamiz.

Tabiiyki, Yaponiya ta’lim tizimlarining yuksak parvozi o‘z-o‘zidan bo‘lgani yo‘q. Uning ham o‘ziga xos inqirozi va muammolari bo‘lgan. Bularni to‘liqroq tasavvur qilish uchun mamlakat pedagogik tamoyillari va taraqqiyotining tarixiy bosqichlariga nazar tashlash maqsadga muvofiq.

Yapon ta’limining mumtoz shakllanishi 1867 — 1868 yillardagi mamlakat hukmdori Meydzi tomonidan amalga oshirilgan islohotlarga borib taqaladi. Bu hukmdorning o‘z oldiga qo‘ygan ikki qat’iy shiori bo‘lib, biri «Fukoku- kioxsi» — boyish, mamlakatni mustahkamlash va harbiylashtirish, ikkinchisi esa «Siokusan kogio» — ilg‘or G‘arb ishlab chiqarish texnologiyasi asosida mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish edi. Meydzi bu ikki maqsadni amalga oshirishning bosh omili ta’lim tizimlarini tubdan o‘zgartirish va yangilashda deb hisoblardi.

Davlat boshlig‘ining bu xulosalari Yaponiyada 1872 yilda «Ta’lim haqida Qonun» qabul qilinishiga olib keldi. Qonunga muvofiq tez orada eski uslubdagi ta’lim tizimi o‘rnida mamlakat rivojlanishini ta’minlashga samarali xizmat qiluvchi yangi yo‘nalishdagi 53750 ta boshlang‘ich 256 ta o‘rta maktab, 8 ta dorilfunun tashkil etildi. Bu o‘quv yurtlaridagi ta’lim shakllari ma’rifatli G‘arb ta’lim uslublari bilan uyg‘unlashtirildi, 1890 yilga kelib ilgari 3.4-yillik boshlang‘ich maktablar muntazam 4 yillikka aylantirildi va u bepul amalga oshirila boshlandi.

1908 yildan boshlab Yaponiyada boshlang‘ich ta’lim majburiy 6 yillikka aylantirildi. O‘quv-tarbiya ishlari bepul amalga oshiriladigan bo‘ldi. 1893 yildan e’tiboran Yaponiyada kasb yo‘nalishidagi dastlabki kollejlarda paydo bo‘la boshladi.

Birinchi dorilfunun 1886 yilda Tokioda tashkil etildi. Lekin bu dorilfununga oliy tabaqali aslzodalarning bolalari qabul qilinardi. Asr boshida mamlakatda ayollar uchun ham dorilfununlar

tashkil etildi. Lekin bu bilim maskanlarida xotin-kizlar uchun faqat xo'jalik yuritish, oila iqtisodiyotidagina ta'lim berilardi.

1897 yilda Kiatoda ikkinchi dorilfunun ochildi. Ikkinchi jahon urushida Yaponiya mag'lubiyatga uchragandan keyin mamlakat maorifi tizimlariga Amerika Qo'shma Shtatlari ta'lim tamoyillari kirib kela boshladi.

1946 yilda qabul qilingan Konstitutsiya Yaponiya fuqarolarining ta'lim sohasidagi huquq va burchlarini belgilab berdi. Unda «Layoqatiga ko'ra barcha fuqarolar bilim olish huquqiga ega. Barcha bolalar bepul umumiy ta'lim olishlari shart» ekanligi belgilab qo'yilgan.

1947 yilda qabul qilingan «Ta'lim haqida Qonun» Yaponiya Konstitutsiyasi ruhiga uyg'un bo'lib, mamlakatda ta'limning maqsad va vazifalarini to'la ifoda etadi. Unda, jumladan, shunday deyiladi: «Biz shaxsiy g'ururi bor, o'zining qobiliyati va imkoniyatiga ishonuvchi, haqiqat va tinchlikni sevuvchi odamlarni tarbiyalaymiz, toki ular ko'p qirrali madaniyat sohibi bo'lsinlar». SHunday qilib, Yaponiyaning Ta'lim, fan va madaniyat vazirligi boshqaruvi hozirgi paytda qat'iy markazlashdi, ilg'or xalqaro standartlar darajasidagi Yapon ta'lim tizimlari qaror topdi.

TA'LIM TIZIMINING TARKIBI

Hozirgi zamon Yapon ta'lim tizimlarining tarkibi quyidagicha:

-bolalar bog'chalari;

-boshlang'ich maktab;

-kichik o'rta maktab;

-Yuqori o'rga maktab;

-oliy ta'lim tizimlariga kiruvchi o'quv yurtlari. Bu ta'lim bosqichlarining o'ziga xos jihatlari birma-bir ko'rib chiqamiz.

Bolalar bog'chalari. Talimning bu bosqichiga 3-5 yoshli bolalar qabul qilinadi. Bolalar yosh xususiyatlariga muvofiq ravishda 3, 2, 1 yillik ta'lim kurslariga jalb qilinadilar. Yaponiyada maktabgacha ta'lim muassasalarining 59,9 foizi xususiydir. 40,8 foizi esa munitsipial (tuman) kengashlari tasarrufida, qolgan 0,3 foizi davlatnikidir.

Majburiy ta'lim. Ta'limning bu pog'onasiga 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb qilinib, ular shu muddat ichida 6 yillik boshlang'ich maktab va 3 yillik kichik o'rta maktab kursini o'taydilar. 9 yillik bu ta'lim majburiy bo'lib, barcha bolalar bepul o'qitiladilar va tekin darsliklardan foydalanadilar.

Muhtoj oilalarning bolalari mahalliy va milliy boshqaruv tashkilotlari tomonidan ajratilgan mablag'lar hisobiga bepul nonushta qilish, o'quv qurollari olish, tibbiy xizmatdan bepul bahramand bo'lish imtiyozlariga egadirlar. Bundan tashqari, ularga bepul sayohatlar va boshqa ko'ngilochar tadbirlar uyushtiriladi. Zarur bo'lib qolgan taqdirda muhtoj o'quvchilar uchun moddiy yordam ko'rsatiladi. Bu bosqichdagi maktablarga qabul uchun maxsus qonun yoki cheklashlar yo'q. Faqat jismonan, ruhan nosog'lom bolalar unga qabul qilinmaydilar.

Ota-onalar o'z bolalarini xususiy maktablarga berish huquqiga ham egadirlar. Lekin xususiy maktablarning o'ziga xos shart-sharoitlari va talablari mavjud.

Yuqori bosqich o'rta maktabi. Yaponiyada bunday bosqich maktablarining kunduzgi, kechki va sirtqi bo'limlari mavjud. Kunduzgi Yuqori bosqich maktablarida o'qish muddati 3 yil. O'quvchilarning 95 foizi kunduzgi maktablarda ta'lim oladilar. By turdagi maktablarda o'qish ixtiyoriydir. Unda quyi o'rta maktablarni bitirgan, Yuqori bosqich o'rta maktablariga kirish sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan o'quvchi yoshlar qabul qilinadilar. Unda umumiy ta'lim (akademik) fanlari, texnik bilimlar, tijorat, mahalliy sanoat, sqshloq xo'jaligi, chorvachilik, baliqchilik, kemasozlik va boshqa sohalarga oid bilimlar o'rgatiladi. Bunday turdagi o'rta maktablarda umumiy va xususiy tarmoqlarni qo'shib hisoblaganda 98 foiz yosh bilim oladi.

Dorilfununlar, kichik kollejlari, texnik kollejlari, maxsus ixtisoslashtirilgan kollejlari Yaponiyada oliy ta'lim tizimini tashkil etadi.

Bu mamlakatda boshlang'ich, o'rta va oliy o'quv yurtlaridan tashqari, bir-biridan farq qiluvchi «Ixtisos maktablari» va «turli» maktablar mavjud. Ularning ko'pchiligi xususiy bo'lib, turli firma, konsern va sindikatlar uchun qisqa vaqtli kurslarda bichuvchi, tikuvchi, to'quvchi, oshpaz, hisobchi, mashinkada yozuvchi, avtotexnik, elektron hisoblash mashinkalari uchun dastur tuzuvchi va boshqa zaruriy kasblar o'rgatiladi. Maktablarning ayrimlari chet tillarini o'rgatish bo'yicha ixtisoslashtirilgan.

1976 yildan-e'tiboran vazirlikning aniq talablarini bajarayotgan «turli maktablar» ixtisoslashtirilgan maktablarga aylantirildi.

BOSHLANG'ICH, O'RTA TA'LIM — O'QUV JARAYONINI TASHKIL QILISH, TA'LIM MAZMUNI

Boshqa joylardagidan farqli o'laroq, Yaponiya maktablarida o'qish 1- apreldan boshlanib, kelasi yilning 31 martida nihoyasiga yetadi.

Boshlang'ich va kichik o'rta maktablarda o'quv yili uch semestrga bo'linadi: aprel-iyul, sentyabr dekabr, yanvar- mart. Katta o'rta maktablarda esa o'quv yili 2 yoki 3 semestrga bo'linadi.

Ta'tillar yozda, qishda (yangi yildan oldin va keyin) va bahorda bo'ladi. Yozgi ta'tillarning boshlanishi va tugashi munitsipalitetlardagi vaziyat, ya'ni yuzaga kelgan holatlarga va o'quv yurtlari xususiyatlariga qarab belgilanadi.

Ko'pchilik boshlang'ich va kichik o'rta maktablarda ta'tillar iyun oyi oxirida boshlanib, avgust oylarida tugaydi. Qishloqlarda esa qishloq xo'jalik ishlarini bajarishdagi dolzarb holatlardan kelib chiqib, bahor va kuzgi ta'tillar yozgi ta'tillar hisobidan uzaytiriladi.

O'quv yili Yaponiyada 240 kun yoki Amerika Qo'shma Shtatlaridan 60 kun ko'pdir. Darslar 7 soat. Ko'pchilik maktablarda darslar ertalab soat sakkiz yarimda boshlanib, uchdan keyin tugaydi.

O'quvchilar haftasiga 2-3 soat sinfdan tashqari klub ishlarida, 7 soat ixtisos bo'yicha mashg'ulotlarda yoki repititorlar ixtiyorida bo'ladilar.

Yuqori bosqich o'rta maktablarida butun o'quv jarayonida o'quvchilar 80 ta sinov topshirishadi. O'quvchilar majburiy asosiy fanlardan tashqari o'z xohishlariga ko'ra ingliz tili, texnik ta'lim va maxsus fanlardan sinovlarga jalb etiladilar.

Yapon maktablari elektron hisoblash mashinalari va boshqa o'quv texnika vositalari bilan to'la ta'minlanganligiga qaramay, mutaxassislarining fikricha, asosiy e'tibor o'qituvchi faoliyati va darslikka qaratilmog'i kerak. Ularning fikricha, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi jonli muloqot o'rnini har qancha, takomillashgan mashina ham bosa olmaydi.

Deyarli barcha darsliklar xususiy bosmaxonalarda chop etiladi. Ularni chop etishga mablag'ni vazirlik ajratadi. Yuqorida qayd etilganidek, darsliklar boshlang'ich va quyi o'rta maktablarda bepul, Yuqori o'rta maktablarda esa pullidir. Darsliklar narxi shundayki, ularni xarid qilishga hammaning imkoniyati bor. Foydalanilgan darsliklar pullik bo'lsa ham, tekin bo'lsa ham o'quvchining o'zida qoldiriladi.

Yaponiyada o'qituvchi kadrlar tayyorlash sifatiga juda katta talablar qo'yiladi. Bu talablar shundayki, mazkur kasbga iqtidorsiz va yo'nalishi to'g'ri kelmaydigan tasodifiy kishilarning kirib qolishi amalda mumkin emas.

O'qituvchilar 4 yillik dorilfununlarda va 2 yillik kollejlarda tayyorlanadi. Bu o'quv yurtlarining bitiruvchilariga birinchi va ikkinchi darajali guvohnomalar beriladi.

Maktab direktori bo'lish uchun 1-darajali guvohnomaga ega bo'lish shart.

Yapon o'qituvchilarining jamiyatda tutgan obro'-e'tibori katta. Binobarin, ularning maoshlari ham Yuqori, 74 foiz o'qituvchi jamoa va kasaba assotsiatsiyasiga a'zo. Bu ularga ta'lim mazmunini va uslubini muhokama qila olish imkoniyatini beradi. O'qituvchilarning ilk maoshi dorilfununni tugallagan mutaxassislar maoshi bilan teng.

Ular o'z kasb mahoratlarini takomillashtirish ustida, tinimsiz izlanishlar olib boradilar, ishga tushishdan oldin 7-10 kun kunduzgi tayyorlov kurslaridan o'tadilar. Yapon o'qituvchilari har 5 yilda malaka oshirish kurslarida o'qib qaytadilar. Malaka oshirish o'qituvchilarning o'zlari uchun katta ehtiyojdir. Chunki Yaponiya maktablari dasturi 10 yilda davr taqozosiga ko'ra o'zgaradi. Dasturlardagi yillik o'zgarishlar esa anjumanlar o'tkazish yo'li bilan o'qituvchilarga etkazib boriladi.

O'qituvchilar o'zlariga ishonib topshirilgan 35-40 o'quvchining bilimi va tarbiyasi uchun javobgardirlar. Shu bois ular darsdan bo'sh vaqtlarini o'quvchilar, ularning ota-onalari bilan suhbatlarga, xonadonlarga tashrif ishlariga bag'ishlaydilar.

Yaponiyada oilaviy byudjetning katta qismi bolalarning sara maktablarda puxta bilim olishlarini ta'minlashga, universitetlarga kirib bilim olishlariga sarflanadi. Oilada bola yaxshi bilim olishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratib beriladi. Imtihon paytlarida esa bolalar uy yumushlaridan ozod etiladilar. Ota-onalar maktab hayotining barcha sohalarida faol ishtirok etadilar, o'z farzandlariga barcha sohada o'rnak-namunadirlar. Ular bolalari o'qishida yordam berish uchun juda ko'p o'qiydilar, maktab o'quv dasturini mukammal o'rganib oladilar.

Bolalar tarbiyasida onalarning roli va mas'uliyati ayniqsa kattadir. Ular farzandlarining oqil, dono, muloyim, odil va mehnatsevar bo'lib o'sishlari uchun oila sulolasi va davlat oldida o'zlarini mas'ul deb hisoblaydi"lar. Yaponiyada oilaviy tarbiya xususida ko'plab metodik qo'llanmalar va tavsiyanomalar nashr etiladi, radio va televidenie orqali ko'plab pedagogik maslahatlar berib boriladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun ota-onalar oyiga o'rtacha 2-3 kitob sotib olishadi. Shu yoshdagi bolalar uchun oyiga 40 ta jurnal nashr etiladi, ota-onalarning mutloq ko'pchiligi bu jurnallariga obuna bo'lishadi. Bola maktabga borgunga qadar o'qishni, yozishni, oddiy hisoblash ko'nikmalarini egallashi zarur.

Yaponiya oilalaridagi uy partalari diqqatga sazovordir. U mukammal, yon tomonidan muhofazalangan qurilma bo'lib parta ustida kitob javoni, yoritqich, soat, qalam qog'oz mikrokalkulyator va boshqa zaruriy ashyolar, shuningdek, kerak bo'lib qolgan taqdirda ota-onasini chaqiradigan signal tugmachalarigacha o'rnatilgan.

Turli talimiy ko'nikmalarni bolalar ongiga singdirish Yapon maktablariga xos fazilatdir. Masalan, 2sinf o'quvchisi ko'pchilik oldida nutq so'zlash qobiliyatiga ega bo'lishi, 6-sinf o'quvchisi kamida 2 ta cholg'u asbobida kuy chala bilishi, boshlang'ich sinf o'quvchisi suvda bemalol suza olishi kerak. Mana shulardan Yapon muallimi o'z kasbiga qo'shimcha ravishda yana nimalarni o'rganishi lozimligini bilish qiyin emas. O'qituvchi qo'shiq aytishi, cholg'u asboblarida kuy chala olishi, notiqlik san'atini bilishi, yaxshi sportchi bo'lishi kerak...

Yaponiyaliklar to'g'ri va halol turmush tarzini qadrlaydilar. 1-sinf dan to 9-sinfgacha ahloq tarbiyasi maktab faoliyatining zaruriy shartidir. O'qituvchi o'z o'quvchilari bilan doimo birga bo'ladi.

Yapon bolalari tashkilotchilik ishlariga ham maxsus o'rgatiladilar. Bolalarning o'zlari ekskursiyalar uyushtiradilar, majlislar tayyorlaydilar va o'tkazadilar. Bolalar xulq-atvoridagi barqarorlik Yaponiyada bebaho boylik hisoblanadi. Bolalarning o'zlari o'qish na o'zlashtirishni, o'z-o'zini tarbiyalashni muhokama qiladilar.

Ahloq normalari aniq ishlab chiqilib, uni ruyobga chiqarish uchun darslarning ma'lum bir qismi ajratiladi. Ahloqiy jihatdan aybdor bola uchun eng oliy jazo o'qituvchining o'quvchidan ixlosi qaytishi bo'lib, bu ixlosni qaytadan barpo qilish uchun o'quvchi va uning ota-onasi ancha-muncha ishlashi kerak.

Yapon o'qituvchisi o'quvchining eng yaqin maslakdoshi, maslahatgo'yi, murabbiysidir. O'qituvchi o'z o'quvchisi bilan xatto ta'til paytlarida ham aloqasini uzmaydi. Ta'lim tizimini sinchiklab o'rgangan kishi AQSH, Fransiya, Germaniya ta'lim tizimlaridagi barcha yaxshi va ibratli jihatlarni Yaponlar ijodiy o'zlashtirganliklariga guvoh bo'ladi. SHuning uchun bo'lsa kerak, Yaponiya o'rta maktablarining saviyasi AQSH o'rta maktablari saviyasidan birmuncha Yuqori turadi.

O'RTA MAXSUS VA HUNAR-TEXNIKA TA'LIMI

O'rta maxsus va hunar-texnika ta'limi tizimiga kiruvchi bilim maskanlari Yaponiyada garchi oliy ta'lim tizimiga - kiritilsada, u bizdagi hunar-texnika bilim yurtlariga to'g'ri keladi. Ular asosan kichik kollej, texnik kollej, maxsus tayyorgarlik kollejlari bo'linadi.

Kichik kollejlarda ham maqomiga ko'ra o'ziga xos dorilfunundir. Ularda kasbga yo'naltirish jarayoni juda chuqur va puxta. O'qish muddati 2-3 yil, bitirgach, «bakalavr» nomi berilmaydi.

1984 yilda Yaponiyada 336 ta shunday kichik maktab bo'lib, ularning 37 tasi davlat tasarrufida, 51 tasi munitsipal, 448 tasi xususiy kollejlardir.

Texnik kollejlarda 5 yil o'qitiladi, unga kichik o'rta maktabni bitirganlar qabul qilinadilar. Bunday kollejlarda yoshlarga o'rta texnik ta'limni beradilar. Bu bilim maskanida katta maktab dasturi asosida mexanika, elektronika, ximiya, texnologiya, qurilish, metallurgiya kabi maxsus texnik fanlar o'qitiladi. Kollejni bitirgan o'quvchilar dorilfununning 2-yoki 3-kursiga kirib o'qishlari mumkin.

Maxsus tayyorgarlik kolleji. 1976 yilda tashkil etilgan yalpi tipdagi o'quv yurtidir. U faqat Yuqori malakali mutaxassis tayyorlabgina qolmay, balki talabalarning madaniy saviyasini o'stirishni ta'minlaydi. O'qish muddati 1 yil, kurs 800 soatdan iborat. Bu kollej bitiruvchilari dorilfununning tegishli kurslariga qabul qilinmaydilar.

Koreya Xalq Demokratik Respublikasi ta'lim tizimi haqida qisqacha ma'lumot:

Ta'lim tizimi tarixi:

Ma'lumki Koreya 1910 yildan to 1945- yilgacha yapon mustamlakasi hisoblangan. Koreyani yoppasiga savodsizga aylantirish siyosati natijasi o'laroq, 1944 yilgi Koreya Umumiy Arxiv qo'mitasi ma'lumotlariga qaraganda o'sha paytda Koreyaning savodxonlik darajasi bor-yo'g'i 13,8%ni tashkil etgan. 1945 yili Ikkinchi Jahon urushi bilan birga Koreyadagi Yaponiya mustamlakachiligi ham tugadi. Endilikda Koreada tabiiyki boshqa soxalar qatori ta'lim tizimini o'zgartirish vazifasi turardi. Eng avvalo "Ta'limni rivojlantirish qo'mitasi" tashkil etildi va qo'mita oldiga darsliklar yaratish majburiyati qo'yildi. Ta'lim tizimi tadqiq etilishi davom ettirilib, axloq, etika, texnikaga oid fanlar kiritildi. 1963 yillardan boshlab esa ta'lim tizimida tabiiy va ijtimoiy fanlarga e'tibor kuchaydi. 1981 yili Prezident Chon Du Xvan mamlakatda shaxsiy ta'lim berish va xususiy ta'lim maskanlari faoliyatini qonunan ta'qiqlab qo'ydi. Lekin maktabda mustaqil shug'ullanish uchun imkoniyatlar yaratib berdi. 1992 yilga kelib esa boshlang'ich maktablar faoliyati yanada rivojlanishi uchun xukumat tomonidan bir qancha imtiyozlar berilgan.

Koreya ta'lim tizimining umumiy sxemasi:

| <i>Bosqichlar</i> | <i>Ta'limning davomiyligi</i> | <i>Majburiyligi</i> |
|-----------------------------------|-------------------------------|---------------------|
| <i>Boshlang'ich Maktab</i> | <i>6 yil</i> | <i>Ha</i> |
| <i>O'rta maktab</i> | <i>3 yil</i> | <i>Ha</i> |
| <i>Yuqori maktab</i> | <i>3 yil</i> | <i>Yo'q</i> |
| <i>(Kasbiy ta'lim) Kollej</i> | <i>2 yil</i> | <i>Yo'q</i> |
| <i>(Oliy ta'lim) tUniversitet</i> | <i>4 yil</i> | <i>Yo'q</i> |

Maktabgacha ta'lim muassasasi.

Koreys bog'chalari ta'lim tizimining bir qismi hisoblanmaydi. Bolalar xususiy muassasalarda qabul qilinadi. Ular asosan koreys tilida, biroq ingliz tilida faoliyat yuritadigan bog'chalar ham anchagina. Bog'chalarga bolalar 3 yoshdan 5 yoshgacha qabul qilinadi. Ko'pchilik bolalar maktabga tayyorgarlik ko'rishmaydi va shunchaki o'z tengqurlari bilan bog'chalarga qatnab yuraverishadi. Bog'chaning asosiy vazifasi bolalarni har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratish. Bog'chalarda asosan musiqa, rasm, hisoblash darslari o'tiladi. Koreys bog'chalari bolalarda mustaqillikni shakllantirishga katta etibor beriladi. Bolalar yoshi orasidagi farq 3 yoshgacha bo'lishi mumkin.

Boshlang'ich maktab

Koreyada boshlang'ich ta'lim uchun o'quv yilida 1 martga qadar 6 yoshdan yuqori bo'lgan bolalar qabul qilinadi. Lekin 5 yoshli bolalar ham o'qishga kirishga xuquqli bo'lib, buning uchun maktab mas'ul shaxsining ruxsatnomasini olishi lozim bo'ladi. Ular 13 (12) yoshgacha boshlang'ich maktablarda ta'lim oladilar. O'quv yili esa 1 mart Koreya respublikasida davlat bayrami munosabati bilan 2 martdan boshlanadi. 6 yil davom etadigan boshlang'ich ta'lim majburiy etib belgilangan. Boshlang'ich ta'limda 1 yil ikki semestrda bo'lingan holda olib boriladi. Boshlang'ich ta'limda o'qitiladigan fanlar qatoriga:

- n Koreys tili
- n Matematika
- n Aniq fanlar
- n Jamiyat haqidagi fanlar
- n Chet tili
- n Tasviriy san'at
- n Musiqa kiradi.

O'rta ta'lim

O'rta ta'lim Koreya respublikasida 3 yil davom etadi. Ko'pchilik o'quvchilar o'rta maktabga 12 yoshda kelishadi va 15 yoshgacha shu yerda ta'lim olishadi. O'rta ta'lim ham majburiy bo'lib, bir o'quv yili 1 martdan keyingi yil mart oyiga qadar davom etadi. Darslar 45 daqiqadan etib belgilangan bo'lib, bir yilda 1222 soatni tashkil etadi. O'rta ta'lim maktablarida davlat tili, axloq, ijtimoiy fan, matematika, jismoniy tarbiya, musiqa, san'at, chet tili kabi 10 ga yaqin fanlar o'qitiladi. Shuningdek, o'rta maktabda o'quvchi uchun tanlov fanlar mavjud. Bular qatoriga axborot, chet tili (ko'pincha nemis, fransuz, ispan, xitoy, yapon, rus, arab tillari) kabilarni kiritish mumkin. O'rta maktabda o'quvchilar qattiq nazorat qilinadi o'quvchilarning formasi, soch turmagi va maktabdan tashqari faoliyatlari ham nazorat qilinadi. Boshlang'ich maktabdagi kabi o'rta maktabda ham o'quvchilar asosan bir sinfda o'tirishadi, ammo fanlar turli o'qituvchilar tomonidan olib boriladi. O'quvchilar har kuni 6 ta o'quv predmeti bo'yicha dars o'tishadi.

Yuqori maktab

Yuqori maktabning 1- kursiga o'quvchilar 17 yoshdan qabul qilinib 19 yoshgacha tahsil oladilar.

Yuqori maktablar bir necha turlarga bo'linadi: davlat yuqori maktablari (Koreya Ta'lim va Texnika fanlari vazirligi, Madaniyat, Jismoniy tarbiya va sayyohlik vazirligi boshqaradi), Umumiy yuqori maktablar (Har bir viloyatdagi yuqori tashkilotlar tomonidan boshqariladi), xususiy yuqori maktablar. Shuningdek, yuqori maktablar o'qitish fanlariga ko'ra ham bir qancha turlarga bo'linadi: umumiy maktablar, ixtisoslashtirilgan maktablar (qishloq xo'jaligi, sanoat, dengiz xo'jaligi, axborot), maxsus maktablar (litsey shaklidagi maktab), texnika maktablari, chet tili maktabi, jismoniy tarbiya maktabi, san'at maktablari. Koreya Respublikasida Ta'lim vazirligi maxsus tashkil etgan yuqori maktablar ham bor. Bular asosan qishloq xo'jaligi, baliqchilik, sanoat, xalqaro tillarga ixtisoslashgan bo'ladi. Yuqori maktab o'rta maktab kabi majburiy emas biroq 2005 yilgi

ma'lumotlarga qaraganda 97% koreys yoshlari yuqori maktabni tamomlaganlar. Bu juda yuqori ko'rsatkichdir.

Oliy ta'lim

| <i>Muassasa</i> | <i>Beriladigan ma'lumot</i> |
|---------------------|-----------------------------|
| <i>Kollej</i> | <i>Kasbiy ma'lumot</i> |
| <i>Universitet</i> | <i>Oliy ma'lumot</i> |
| <i>Magistratura</i> | <i>Magistr (2 yil)</i> |

Koreyaning eng mashxur Universitetlari:

Seul Milliy Universiteti, Korea Advanced Institute of Science and Technology, Pusan milliy Universiteti, shuningdek xususiy universitetlardan: Koreys Universiteti, Pohang Universiteti, Yonsei Universiteti, Sogang Universiteti, Hanyang Universiteti, Sungkyunkwan Universiteti va Ewha Womans Universiteti.

Mavzu yuzasidan topshiriq

Yaponiyaning oliy ta'lim tizimidagi sizga ma'qul bo'lgan jihatlarni gapirib berishga tayyorlaning.

Nazorat savollari:

1. Yaponiya ta'lim tizimi va uning tarkibini izohlang.
2. Boshlang'ich, o'rta ta'lim jarayonini tashkil qilish qanday amalga oshiriladi?
3. O'rta maxsus va hunar-texnika ta'limining mazmunini yoritib bering.

Adabiyotlar:

1. J.G'. Yo'ldoshev "Xorijda ta'lim" T., 1995y.
2. B.F. Vulfson "Sravnitelnaya pedagogika" M., 2003 y.
3. N.X. Takanaev «Chet ellar pedagogikasi tarixi»-T, 1959 y.
4. M.A. Sokolova va boshqalar «Qiyosiy pedagogika»-T, 1983 y.
5. "The word book encyclopedia", 1994 y. 1-jild.
6. "The word book encyclopedia", 2-jild.
7. "The word book encyclopedia", 3-jild.

10-mavzu. AQSH va Yevropa mamlakatlarida ta'lim-tarbiya m asalarining olib borilishi va qiyosiy tahlil.

Reja:

1. O'zbekiston va AQSH ta'lim tizimining qiyosiy tahlili.
2. Yevropa davlatlarida ta'lim-tarbiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari.
3. Pedagogika fani taraqqiyotidagi o'ziga xosliklar: umumiylik va tafovut.

Iqtisodiy va boshqa jihatlardan mustaqil bo'lishni xohlagan davlat uchun ta'lim hal qiluvchi o'rin tutadi. Fikrimizcha, ushbu maqsadga erishish uchun O'zbekistonning oldida hali uzoq safar turibdi. Mamlakatda yaqin o'tmishda sodir bo'lgan siyosiy o'zgarishlar natijasida hukumat ta'lim

tizimining muhimligini tushunib yetdi. Shunga qaramay, buni isbot qilish bu sohada uchun biroz ilgari surilish bo'ldi xolos. Ilgari siljishning yo'qligi bugungi kun o'rganuvchilar avlodining talab-ehtiyojlaridan tushunmaslik va bexabarlik natijasidan kelib chiqadi. Maktab va universitetlar ma'muriyatlari yechilishi lozim bo'lgan ustuvor masalalarni ta'limning asosiy maqsadidan uzoqlashtirib yuborishgan. Natijada o'qituvchining roli, obro'si tushib ketdi, va buning oqibatlari yaqqol ko'rinib turibdi.

Ta'lim tizimimizni takomillashtirish yo'llarining boshqa mamlakat ta'lim tizimida biz topgan usullaridan biri boshqa tizimni olib kirib, joriy qilishdan iborat bo'ldi. Biroq chet mamlakat ta'lim tizimida mavjud asosiy kamchiliklarini tahlil qila olmaslik yoki ko'ra bilmaslik bizning asosiy muammomizdir. Ta'limni joriy qilib, biz yana o'sha muammo takrorlaymiz va maqsadlarimizga erisha olmaymiz.

AQShda ta'lim tizimida mavjud bir qator muammolar tufayli nazarda kutilgandagiday samarador emas. Ta'lim siyosati va qaror qabul qilish ishlarida siyosiy va ijtimoiy farqlar muammolarining singib ketganligi tufayli o'quvchi-talabalarga xilma-xillik bilan qanday murojaat qilish, o'rganish yoki ziddiyatlarni qanday yengib o'tishning to'g'ri, foydali usullari taklif qilinmaydi. Buning ustiga, ijtimoiy-siyosiy masalalar atrofida o'tkazilayotgan keng qamrovli bahslarning orasida, maktablarda firibgarlik masalasi va hatto baholash tizimidagi nomutanosibliklar va ehtimoliy adolatsizlik masalalari kabi hal qilinmayotgan ko'proq aniq, qat'iy muammolar mavjud.

Ko'p hollarda maktablarda mavjud muammolar Amerika ta'lim tizimining kelajagi haqida qabul qilinishi kerak bo'lgan muhim qarorlarni qabul qilishga xohish, imkoniyatning yo'qligi bilan bog'liqday tuyuladi. Haqiqiy va joriy vaqtda jiddiy ahamiyatga va qimmatga ega bo'lgan masalalarga e'tibor qaratishning o'rniga, ichki nizolar va qarorlarning yo'qligi bilan vaqt behuda sarflanmoqda. Bahs-munozarlarda vaqtni bekor o'tkazishning o'rniga umumiy ma'noda tizimga ta'sir qiluvchi va bilimli yoshlarni tayyorlash kabi natija beruvchi kattaroq masalalarni hal qilish va boshqa mavzular haqida bahs-munozaralar Amerikada ta'lim sifati yaxshilangandan keyingi vaqtlargacha saqlab qo'yilishi lozim.

Amerika ta'lim tizimi muammolari va zaif tomonlari:

Har bir shtatda o'z o'quv dasturlari va standartlari mavjud va bu ko'p hollarda talabalar orasida standartlarning bir-biridan farq qilishiga olib keladi Bu kattaroq muammo tug'diruvchi masala, chunki Amerikada umumiy yagona ta'lim tizimi mavjud emas;

Ba'zi talabalar "maktabdan — qamoqqa" tizimi domiga tushib ketadi. Afsuski, katta shaharlarda yuqori sinflar maktablariga qatnagan qora tanli yigitlarning yarmidan ko'pi diplom ola olmaydi;

Maktabda bandlik bilan o'tkazadigan vaqt ularning xitoylik tengdoshlarinikidan achinarli tarzda kam;

Ota-onalar yetarlicha jalb qilinmaydi. Ehtimol, o'qituvchilarga bog'liq bo'lmagan masalalarning eng ayanchlisi shu bo'lsa kerak. O'quv jarayonida ota-onalarning qatnasha olmasligi kasbiy karera-o'sish talablari va maktabga haddan ortiq tobelik, bog'liqlik yuqori sinf maktablari o'quvchilarini ham xavf ostiga qo'yadi;

Maktablarda o'quvchilar soni haddan ortiq ko'p. Sinfda bolalar soni qancha kam bo'lsa, talabalarning individual ta'lim olishi shuncha yaxshi bo'ladi. Muvaffaqiyatga erishish uchun bolalarga avvalgidan ko'proq e'tibor talab qilingan vaqtda, sinfda bolalarning juda ko'pligi o'qish, ta'lim olishni yanada mushkullashtirib yubormoqda va o'qituvchilarning samarali ishlashlarini bundanda qiyinlashtirmoqda;

O'qituvchilar ta'limga yangiliklar kiritishi kuzatilmaydi. Buning sababi oddiy: agar talabalar o'zgarayotgan bo'lsa, o'qituvchilar ham o'zgarishlari kerak. Amerikada davlat ta'limi tizimiga muayyan talabalar guruhlarining talab-ehtiyojlariga mos keladigan, masofali o'rganishning zarur rolini

tushunadigan, va sinfda o'zgarishlarni amalga oshirishga yordam berish uchun ovozlarni baralla qo'yib talab qila oladigan, yaxshi tayyorlangan o'qituvchilar kerak;

Talabalarning 80 foizi yuqori sinf maktablarini bitirishmoqda biroq ularning yarimidan kamrog'igina ta'limning bundan keyingi bosqichiga o'tishga tayyor xolos. Muammoning mazmuni talabalarning orqada olib qolib turish lozim bo'lgan bir paytda, ularning keyingi sinfga o'tkazilishi, va undan keyin ushbu sinf darajasiga mos ishlarni bajara olmasdan va sinfdoshlarining bilim darajalaridan orqada qolib ketishlaridan iborat;

Standartlashtirilgan testlar va o'quv kitoblari mamlakat miqyosida tegishli tarzda me'yorlashtirib, baho qo'yilganda, davlat o'quv dasturlari va davlat test-imtihonlari maqsadga muvofiq bo'la olmaydi;

Bugungi kunda xalq ta'limi natijalarga yo'naltirilmagan;

Mavjud bahslarga ko'ra, talabalardan yuqori standartlar talablariga javob berish talab qilinmaydi, va ta'lim jarayoni siyosatdonlar doirasida ta'lim natijalarini tahlil qilishda muhimroq;

Universitetda tahsil olishga intilmaydigan talabalarning ta'lim olishiga ko'proq e'tibor berish talab qilinadi;

Ba'zan baholash tizimi talabaning haqiqiy kuchli va zaif tomonlari holatini ko'rsatib bera olmaydi;

Yuqori sinf maktablarida ta'lim olish narxining tobora oshib borishi universitetlarda tahsil olishni xohlaydigan Amerika talabalarining sonining pasayishiga olib keldi.

Zamonaviy Amerika ta'lim tizimida jiddiy muammolar mavjudligi voqelik. Agar biz zamonaviy ta'lim tizimi bizning ta'lim tizimimizni o'zgartirishini xohlasak, boshqa mamlakatlarning ta'lim tizimi, o'zimizning ta'lim tizimimizning xaloskori bo'ladi deb hisoblashni bas qilishimiz kerak. Biz amalda mavjud tizimlarni to'laligicha emas, balki eng yaxshi amaliyotlarni tahlil qilib, joriy qilishimiz lozim, chunki chet mamlakatning ta'lim tizimiga jiddiy bog'liq bo'lish noto'g'ri bo'lishi mumkin, chunki bizda xodim-kadrlar, inson kapitali, logistik ko'mak, moliyaviy zahiralalar va texnologiyalar kabi sharoitlar ularniki bilan bir xil bo'lmasligi mumkin.

AQSHda universitetga kirish haqida o'ylayapsizmi? Bu holda, Amerika ta'lim tizimining asosiy xususiyatlari haqida bilish sizga katta foyda berishi mumkin. Ushbu maqola siz bilish kerak bo'lgan Amerika universitetlari haqida taxminan 5 faktlarni o'z ichiga oladi

Maktabda olingan a'lo baholar oq'ishga kirishga kafolat bera olmaydi

Amerika universitetlarida tanlov mezonlari Rossiya va MDH mamlakatlaridan farq qiladi, chunki AQSH universitetlari eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan abituriyentni emas, universitetga ko'proq foyda keltiradigan kuchli motivatsiyaga ega bo'lgan abituriyentni afzal ko'radi. Motivatsiyaning isboti ixtiyoriy ish, diplom, sport yutuqlari, shuningdek, yaxshi motivatsion xat bo'ladi. Bundan tashqari, xorijiy talabalar yaxshi TOEFL/IELTS reytingini olgan holda ingliz tilini yuqori darajada tasdiqlashlari kerak.

Fakt: xalqaro qabul mezonlari mahalliy talabalardan farq qiladi. Ko'pgina universitetlar xalqaro talabalarni SAT topshirishni talab qilmaydi, ba'zilari esa o'qituvchilarning motivatsion maktubi va tavsiyalarini so'ramaydi.

Rivojlangan xorijiy davlatlardagi ta'lim tarbiya-maktab va maorif ishlarining yo'lga qo'yilishi

Jahonning yuksak darajada taraqqiy etgan davlatlarda ta'lim-tarbiya ishlarining yo'lga qo'yilishi, maktablarda amalga oshirilganini o'rganish orqali biz mustaqil respublikamiz milliy ta'lim tizimlarini yangitdan tashkil qilishda, ta'lim tarbiyada, maktab ishini tashkil etishda eskirib, o'z dolzarbligini yo'qotib borayotgan faoliyat shakllari va usullaridan tezroq xalos bo'lish, uni munosib tarzda yangilashda qo'shimcha boy manbalarga ham ega bo'lamiz. Zotan, hozirgi zamon ta'limida davlat va jamiyat talabi va manfaatlari aks etib turishi kerak.

Ilmiy-texnika taraqqiyoti, yangi texnologik revolyutsiya sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata oladigan jamiyat a'zolarini yetishtirib berish, yosh avlodni kasb-hunarga yo'naltirish hamda o'rta-ta'limning ko'p variantli uchinchi bosqichini joriy etish, ta'lim-tarbiya berishda yengil pedagogik vositalarni qo'llash, ta'limda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yo'l ochish, uning eng maqbul tizimlarini yaratish kabi chet el-tajribalarini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda keng ko'lamdagi islohotlarni o'z boshidan kechirayotgan bizning ta'limimiz uchun bu katta ahamiyatga ega.

Keyingi yillarda chet-el ta'limi bo'yicha ko'pgina maqolalar, broshyuralar, qo'llanmalar chop etildi, unga bag'ishlab seminarlar, anjumanlar, o'quvlar, uchrashuvlar o'tkazildi.

Bu bizning ta'lim tizimlarimizda, chet-ellarda o'quv tarbiya ishlarining qo'yilishiga etibor va qiziqishning tez sur'atlar bilan o'sib borayotganligidan dalolatdir.

Xalq ta'limi tizimlarida chet-el ta'limini o'rganish bilan shug'ullanuvchi muassasalar ham tashkil topmoqda. Xalq ta'limi vazirligidan tashqari bu masala bilan Respublika o'quv-metodika markazida, pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti tarkibida maxsus bo'limlar faoliyat ko'rsatmoqda, malaka oshirish markaziy institutida bir qator kafedralarish bilan shug'ullanmoqdalar.

Chet-el ta'limi tizimlaridan bizning mutaxassislarni voqif qilishda BMTning O'zbekistondagi vakolatxonasi, elchixonalar, AQSHning Tinchilik Korpusi mutaxassislari, Germaniya xalqaro rivojlanish fondi, AKSELS markazi, Adenauer jamg'armasi, Fransiya madaniyat markazi, Britaniya Kengashi, Gyote instituti, «Silm A. SH.» firmasi, YuNESKO va YuNISEFning vakolatxonalari va boshqa ko'plab tashkilotlar yaqindan yordam bermoqdalar.

Darhaqiqat rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'limning, mamlakat ichki siyosatiga faol ta'sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, e'tirof qilingan haqiqatdir. Shu tufayli ham chet mamlakatlarida maktab ehtiyojini iqtisodiy ta'minlashga ajratilayotgan mablag'ni miqdori yildan-yilga oshib bormoqda.

Yaponlarda, masalan, «maktab muvaffaqiyat va farovonlik timsoli»gina bo'lib qolmay, «u insonlarni yaxshilaydi», degan fikr ishonch va e'tiqodga aylangan.

Ta'lim to'g'risidagi g'amxo'rlik taniqli siyosatchilarning ham hamisha diqqat e'tiborida bo'lgan. Shuning uchun ham AQSHning sobiq Prezidenti R.Reyganni, Buyuk Britaniya Bosh vaziri M.Techcherni, Fransiya Prezidenti F. Mitteranlarni maktab isloxotining tashabbuskorlari deb, bejiz aytishmaydi. F.Mitteran maktabni «Jamiyatni hxarakatlantiruvchi kuch» deb hisoblagan.

Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik tadqiqotlarni amalga oshiradigan ko'p sonli ilmiy muassasalar ishlab turibdi. Germaniyada ularning soni 2 mingdan ortiq. Fransiya, AQSH, Yaponiya ta'lim-tarbiya nazariyasi muammolari bilan yuzlab davlat va xususiy tashkilotlar, universitetlar, pedagogik tadqiqot markazlari shug'ullanmoqdalar. Ular faoliyatini esa xalqaro ta'lim markazlari, masalan, AQSHda halqaro ta'lim instituti muvofiqlashtirib bormoqda. Ko'pchiligining faoliyati o'quv dasturini takomillashtirish va qayta qurishga qaratilgan.

—yillardan boshlab Buyuk Britaniyada ham AQSHdagi singari o'rganilishi majburiy bo'lgan fanlar doirasi kengaytirildi. Ingliz tili va adabiyoti, matematika va tabiiy fanlar o'quv setkasining yadrosini tashkil etadigan bo'ldi. Qolgan predmetlarni tanlab olish o'quvchilar va ota — onalar ixtiyoridadir.

«Yangi dunyo»ning pedagogik g'oyalari Fransiya va Germaniya ta'limiga ham sezilarli ta'sir etayotir.

Germaniya to'liqsiz o'rta maktablarida asosiy predmetlar bilan bir qatorda tanlab olinadigan kimyo, fizika, chet-tillari kiritilgan o'quv dasturlari hamma amalga oshirilayotir. Bu o'quv dasturi tobora to'liqsiz o'rta maktab doirasidan chiqib, o'rta maktablar va gimnaziyalarni ham qamrab olmoqda.

Yaponiya maktablari ikkinchi jahon urushidan keyinoq Amerika ta'limi yo'lidan bordi. Lekin shunga qaramay, bu ikki mamlaka to'quv dasturida bir qator farqlar ko'zga tashlanadi. Yaponiyada o'quv dasturlari jiddiy murakkablashtirilgan, asosiy fanlar majmui ancha keng, bir qator yangi maxsus va fakul'tativ kurslar kiritilgan. Masalan, umumiy ta'lim maktablarining yangi muqika ta'limi o'quv

dasturiga milliy va jaxon mumtoz musiqasini o'rganish ham kiritilgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, iqtisodiy rivojlangan davlatlarda 60-80-yillarda tabiiy ilmiy ta'lim dasturi tarkibiga fizika, ximiya, biologiya, bazi hollarda astranomiya, geologiya, mineralogiya, fiziologiya, ekologiya elementlari kiritilib, u AQSH va Fransiyada 4 yil, Buyuk Britaniyada 6 yil, Germaniyada 2 yil o'qitiladi. O'quv predmetlarining integratsiyalash jarayonida yangi-yangi kurslar paydo bo'la boshladi. Fransiyada 70-80-yillarda to'liqsiz o'rta-maktablar o'quv dasturidagi tabiiy-ilmiy va gumanitar turkumiga eksperimental, iqtisodiy gumanitar kurslar kiritiladi.

Hozirgi paytlarda rivojlangan mamlakatlar o'quv dasturiga integratsiyalashtirilgan kurslarni kiritish to'la amalga oshirildi-Fransiya maktablarida ularga 6-10 foiz, Buyuk Britaniya maktablarida 15 foiz o'quv soatlari ajratildi.

Maktablarda amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim ishini tabaqalashtirish muammolarini keltirib chiqardi.

Iqtisodiy rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta'limni tabaqalashtirish eng dolzarb masalaga aylangan o'quvchilarni tabaqalashtirib o'qitish xorijiy mamlakatlarda asosan boshlang'ich ta'lim kursidan keyin amalga oshiriladi. Masalan, Fransuz pedagoglari ta'lim jarayonida sinf o'quvchilarini uchtabaqaga ajratib o'qitishni afzal ko'radilar. Bular quyidagilar :

1.Gomogenlar matematika va gumanitar yo'nalishda isholib borsa bo'ladigan o'quvchilar.

2.Yarim gomogen—tabiiy turkumdagi fanlarni o'zlashtira olishga moyil o'quvchilar.

3.Gegeron—barcha predmetlarni har xil saviyada o'zlashtiradigan o'quvchilar va hokazo.

Tabaqalashtirish jarayoninig yangi muhim yo'nalishi to'ldiruvchi ta'limni rivojlantirish bo'lib qolmoqda.

To'ldiruvchi maktablar paydo bo'lishining sababi, AQSH va G'arbiy Yevropada o'zlashtirmovchi hamda ulgurmovchi o'quvchilarning ko'payib borayotganligi, funksional savodsizlik avj olayotganligidir.

80 — yillarda AQSH o'quvchilarinig 50 — yillarga nisbatan reyting ko'rsatkichi 973 dan 893 ga tushdi. Fransiyada xar uch litseychidan biri bu salbiy xolatni bartaraf etish to'ldiruvchi ta'lim zimmasiga tushadi.

To'ldiruvchi ta'lim maktabgacha tarbiya muassasalarida, maktab va litseylarda amalga oshirilmoqda. AQSHda bu xizmatga ommaviy axborot vositalarinig imkoniyatlari xam safarbar etilgan, Milliy telekompaniya maxsus o'quv kanali orqali 130 soatlik o'quv ko'rsatuvlari tashkil etildi.

O'quv jarayonlarini tabaqalashtirib olib borish bo'yicha chet mamlakatlarnig ko'pchiligida tadqiqotlar davom ettirilmoqda.

Rivojlangan davlatlarda iqtidorli bolalarga e'tibor tobora ortib bormoqda.

Keyingi davrlarda o'z tengdoshlariga nisbatan qobiliyatda bir necha bora ilgari ketgan bolalar ko'plab topilmoqda. Ular o'quvni juda erta boshlab ta'lim kurslarini o'zlashtirishda katta shov — shuvlarga sabab bo'ladigan darajada muvaffaqiyatlarga erishadilar.

Shunday iqtidorlar maktabi G'arbda 60-yillardayoq paydo bo'lgan edi. Bunday maktablarning o'quv dasturlari bolalar qobiliyati va imkoniyatini to'la ro'yobga chiqarishni ta'minlab berish darajasida murakkab tuzilgan.

Iqtidorli bolalarga qarama—qarshi qutbda turgan aqli zaif o'quvchilarning taqdiri ham chet-ellik xamkasblarni tobora tashvishlantirmoqda, bunday xolni kelib chiqish sabablarini o'rganish, oldini olish bo'yicha ko'pgina profilaktik ishlar olib borilmoqda va ular uchun maxsus maktablar ochilmoqda. Lekin statistik ma'lumotlar bunday bolalar soni tobora oshib borayotganligini ko'rsatayotir.

70-yillarda AQSHda kelajak maktabi umummilliy loyahasini amalga oshirishga kirishildi. Bu eksperiment mazmuni o'qituvchi buyrug'I bilan ish tutish, ko'proq o'quvchilarga mustaqil ishlash imkoniyatini berishdan iborat. Ta'lim tarkibi sinfda ishlash, mustaqil mashg'ulot, o'qituvchi konsultatsiyasini o'zichiga oladi.

Germaniya maktablarida sinfda o'quvchilar sonini qisqartirish sari yo'l tutilgan. Bunday o'quvchilarning har biriga individual paketlar (topshiriqlar) tarqatiladi. Toshiriqlarni o'quvchi mustaqil bajaradi, lozim bo'lganda u o'qituvchidan konsultatsiya oladi.

Yuqorida bayon qilinganlardan ko'zda tutilgan maqsadlari :

-maktablarning insonparvarlik, umuminsoniylik yo'nalishlarini kuchaytirish.

-o'quvchi shaxsini shakllantirishning eng samarali yo'llarini qidirib topish.

-tarbiyaning yangi formalarida-o'quvchilar kengashi, maktab kengashlaridan, tarbiyaviy o'yinlardan foydalanish.

-Maktab o'quv dasturlarini ixtisoslashtirish, fanlarning o'zaro aloqasini mustahkamlash, takomillashtirish.

-Maktabni mehnat, insoniy faoliyat bilan yakinlashtirish, kasbga yo'naltirish ishlarini qayta tashkil etish.

-Tabaqalashtirib o'qitishni yo'lga qo'yish, maxsus o'quv muassasalarini (xam talantlar, xam aqliy, jismoniy zaif o'quvchilar uchun) rivojlantirish.

-Yangi, ya'ni o'quv texnik vositalarini ta'limdagi salmog'ni oshirish, o'qituvchilar korpusida kompyuter ta'limini yo'lga qo'yish.

-Pedagogik g'oyalarni amalga oshirishda keng qamrovli eksperiment— tadqiqotlarni amalga oshirishdan iboratdir.

Chet el ta'limidagi bunday ibratli jihatlarni Vatanimiz ta'lim tizimlarida qo'llash yosh, mustaqil Respublikamizda o'quv—tarbiya ishlarini isloh qilish jarayonini tezlashtiradi.

11-mavzu. Avstriya, Avstraliya va Shveysariya davlatlaridagi ta'lim tizimining qiyosiy tahlili.

Reja:

1. Avstriya davlati oily ta'lim tizimi.

2. Avstraliya va Shveysariya davlatlari.

3. Avstraliya va Shveysariya davlatarning ta'lim tizimi va qiyosiy tahlili.

Avstriya davlati haqida tushuncha.

Poytaxti Kanberra

Rasmiy tili Ingliz tili

Mustaqillik 1 yanvar 1901 yil

Maydoni 7.682.300 km²

Aholisi 20.293.325 (52 urin)

Dini Nasroniy

Yirik shaharlari Sidney

Boshqaruv shakli konstitutsion monarxiya

Pul birligi Avstraliya dollari (APV kod 036)

Ma'muriy taqsimlanishi.

Avstraliya 6 ta shtatdan iboratdir. Bular:

Yangi Janubiy Uels, Kvinslend, Janubiy Avstraliya, Tasmaniya, Viktoriya, G'arbiy Avstraliya. Bugungi kunda Avstraliyada 10 mingga yaqin maktab bo'lib, ularda 3 milliarddan ortiq o'quvchi taxsil oladi. Maktablarning 71 foizi davlatga qarashli, qolganlari xususiydir. Buyuk Britaniya an'alarini saqlab qolgan mamlakatda hamon o'g'il va qiz bolalar alohida maktablarda o'qishadi. Ammo keyingi davrlarda ular ajratilmaydigan maktablar ham faoliyat ko'rsata boshladi. Avstraliya maktablarida 15 nafar o'quvchiga o'rtacha, 1 nafar o'qituvchi to'g'ri keladi.

5 yoshidan boshlab tayyorlov sinflariga borishadi. Lekin bu majburiy emas va keng tarqalgan odat ham emas. O'rta hisobda, bolalar maktabga 6 yoshidan boradilar. Avstraliyada ota-onalar maktab bilan doimiy aloqada bo'lishadi. Ular yiliga 1-2 marta o'qituvchilar bilan o'tkaziladigan uchrashuvlarga borishadi va farzandlarining o'qishlari, o'zlashtirish darajasi bilan tanishadilar. Bundan tashqari, maktab ularga har chorak oxirida o'quvchilarning o'qish natijalari va o'zlashtirishlari to'g'risidagi hisobotlarni jo'natib turadi.

Avstraliyaning ba'zi shtatlarida maktabgacha ta'lim boshlang'ich ta'lim tizimiga kiritilgan Boshlang'ich maktabga 4 yoshdan beriladi.

Maktabgacha ta'lim: Bog'chalar, Oila bog'chalari va xususiy tarbiyachilardan iborat

Avstraliya ta'lim tizimi Britanacha model negizida qurilgan. Avstraliyada maktab tizimi 10 yillik majburiy ta'limni o'z ichiga oladi. Universitetga kirishni xohlovchilar esa yana ikki yil o'qib, to'liq o'rta ta'lim to'g'risida attestat oladi. 12 yillik ta'lim boshlang'ich va o'rta ta'limga bo'linadi. 12 yillik maktabni tugatgach bolalar Australian Ear 12 attestatini olishadi, bu Britanacha A-Level bilan teng. Bolalar 6 yoshdan maktabga borishadi.

Avstraliyada maktab ta'lim tizimi 3 ga bo'linadi

1. Boshlang'ich (maktab dasturi bog'liq) 6-7 yosh

2. O'rta – 6-7 yoshdan 10 sinfgacha

3. Oliy o'rta ta'lim yoki katta o'rta maktab 11-12 sinf Avtraliyada o'quv yili yanvarda boshlanib dekabrda tugaydi

KASBIY TA'LIM–Avstraliyada kollejlarda keng yo'nalishda kasbiy ta'lim beradi. Davlat va xususiy kollejlarda mavjud. Davlatga qarashli o'quv yurtlari TAFE (Texnicheskaya i dopolnitelnaya obrozovaniya) tizimiga birlashgan. TAFE dasturlari sanoat va ijtimoiy soxa vakillari bilan hamkorlikda zamon talablari asosida ishlab chiqiladi. Ta'lim muddatiga qarab talabalar 1,2,3,4-darajalardagi sertifikatlar yoki diplomga ega bo'lishadi.

OLIY TA'LIM Bakalavriyat–3 yil Magistratura- 2 yil (Bakalavrni a'lo tugatganlar uchun 1 yil) Doktorantura – 3-4 yil

Avtraliya universitetlarida –ilmiy okeanologiya va tropik meditsina bo'yicha darslar o'tiladigan dunyoda yagona davlat.

AVSTRALIYA TA'LIM TIZIMI

Avstraliya ta'lim tizimi Britaniya ta'lim tizimi modeli bo'yicha tashkillashtirilgan. Bugungi kunda mamlakatda 40 ta universitet, bir milliondan ortiq talaba ta'lim olayotgan 450 dan ortiq kollejlarda, 550 ga yaqin ingliz tili o'rgatiladigan kurslar mavjud. Ushbu ta'lim muassasalarining hammasi ta'lim tizimi bo'yicha yuzaga kelgan savollarga javob beruvchi kurslarni taklif qiladi. Oxirgi vaqtda ta'lim tizimi ingliz va qisman Amerika ta'lim tizimi sxemasi bilan aloqadorlikda faoliyat yuritgan holda universitet va kollejdada ta'lim olayotgan chet el talabalari uchun maxsus ta'lim tizimini o'z ichiga oladi.

Odatda, ta'lim tizimi 5 sektordan iborat(oxirgisi chet el talabalari uchun maxsus):

-boshlang'ich maktab

-o'rta maktab

-kollej/TAFE o'quv muassasasi

-universitet

-til o'rgatuvchi kurslar

BOSHLANG'ICH VA O'RTA MAKTAB

Avstraliyaliklar maktabda 12 yil o'qishadi. Bolalar 5 yoshidan boshlang'ich maktabga borishadi va 6-7 yildan keyin o'rta maktabga o'tishadi. O'rta maktabda yana 6-7 yil o'qishadi. Bitiruvchilar High School Certificate nomli davlat sertifikatini olishadi. Barcha xususiy va davlat maktablari shtat ta'lim tizimi Departamenti nazoratida turadi. 70% maktab o'quvchilari davlat maktablarida, qolganlari

xususiy maktablarda ta'lim oladilar. Ko'pgina xususiy maktablar chet el talabalariga Avstraliya, Yangi Zelandiya va Kanadaning eng yaxshi universitetlarga kirishlarini kafolatlovchi ta'lim tizimini taklif etadi. Ko'pgina chet ellik talabalar ta'lim olishlari uchun o'rta maktabning oxirgi 2 yiliga keladilar. Bu ularga ushbu dasturni muvaffaqiyatli tugatgandan so'ng bakalavr yo'nalishiga imtihonsiz va maxsus tayyorlov kurslarisiz kirish imkonini beradi. Fanlarning miqdori maktab turiga qarab aniqlanadi, qoidaga ko'ra 1 yilda 8 ta fan ingliz tili, matematika, fizika, tarix va boshqa fanlar xar bir maktabda o'tilishi shart. Xususiy maktablar o'g'il bolalar va qiz bolalar uchun maxsus va aralash maktablarga bo'linadi, davlat maktablari esa faqatgina aralash bo'ladi.

O'quv yili 4 ta semestrda bo'lingan (fevral, aprel, iyul, oktyabr). CHet ellik talabalar istisno tariqasida o'quv yilining xoxlagan semestridan ta'limni boshlashlari mumkin.

INGLIZ TILI KURSLARI

Bu chet ellik talabalar uchun asosiy ta'lim bo'g'ini hisoblanadi. Avstraliyada ko'p miqdorda xususiy til o'rgatuvchi markazlar va kollej xamda universitetlar qoshida tashkil etilgan maxsus til o'rgatuvchi bo'limlar mavjud. Kurslarni tanlash ixtiyoriy:

- akademik maqsadlar uchun ingliz tili;
- o'rta maktablar uchun ingliz tili;
- rasmiy muloqot uchun ingliz tili;
- 40 yoshdan oshganlar uchun ingliz tili;
- IELTS, TOEFL imtihonlari uchun tayyorlov kursi.

Qoidaga ko'ra, umumiy kursda mashg'ulotning boshlanishi har dushanba. Ushbu kurslarga qabul qilinish uchun talaba etarli tayyorgarlikka ega bo'lishi zarur. Universitetdagi til o'rgatuvchi bo'limlar ta'lim protsessini 5 haftalik blok asosida tashkil etiladi. Mashg'ulotlarning borishi talabaning rejalaridan kelib chiqadi va haftasiga 15 soatdan 30 soatgacha o'zgartiriladi. Kursning davomiyligi 2 haftadan 52 haftagacha bo'lishi mumkin.

BIZNES KOLLEJLAR

Avstraliyaliklar TAFE (Technical and Further Education) sistemasidagi davlat kollejaridan va Avstraliya ta'lim Ministrligidan ruxsatnoma bilan kasb tanlashadi.

Bu o'quv muassasalarda biznes, axborot texnologiya, menejment, ishlab chiqarish, qurilish kabilarni o'rganish mumkin. O'quv programmalari kollejlarda turli kvalifikatsiyalarni egallashga olib keladi. O'rta ma'lumotli sertifikatga ega bo'lish muddati 12 hafta, diplomga ega bo'lish muddati 40 haftadan ko'p muddatni talab qiladi.

UNIVERSITETLAR

Hozirgi kunda mamlakatda 38 ta davlat va 2 ta xususiy universitet mavjud. Bu universitetlarda umumiy miqdori 700mingdan ko'proq talaba ta'lim oladi. Biznes va iqtisod bilan bog'liq bo'lgan mutaxassisliklar keng tarqalgan. CHet ellik talabalarining yarmidan ko'pi aynan shu mutaxassisliklarga topshirishadi. Ulardan keyin tabiiy, gumanitar va umumiy fanlar, san'at, ulardan so'ng injenerlik mutaxassisliklar turadi. Ko'pchilik universitetlarda tayyorlov bo'limlari faoliyat yuritadi. Bu o'z o'rnida xorij o'quv muassasasidagi o'rta ta'lim bilan Avstraliya universitetidagi ta'lim o'rtasida ko'prik vazifasini bajaradi. Bu xorij talabalariga universitetda o'qishni muvaffaqiyatli davom ettirish uchun bilim va ko'nikmalarni beradi. Avstraliyadagi tayyorlov bo'limlarining asosiy xususiyati shundan iboratki, universitetlar 1-kurs tinglovchilari uchun oldindan joy band qilib qo'yishadi. Tayyorlov bo'limlariga qabul yilda 2 marta tashkillashtiriladi – yil boshida va yil o'rtasida (ba'zilarida 3marta).

Qabul uchun o'rta ta'lim ma'lumoti haqidagi attestat va ingliz tilini yaxshi bilish talab qilinadi (IELTS bo'yicha 6.0ball, TOEFL bo'yicha 550-570ball).

Avstraliyada tibbiyot, huquq, injenerlik ishi, tabiiy fanlar bo'yicha bilimlarni egallashdan tashqari bakalavr darajasi 3 yilda egallanadi. Mutaxassisligidan kelib chiqib magistrlik dasturi 1-2 yil davom etadi.

AVSTRALIYA O'RTA MAKTABLARI

Maktablarning ajralib turuvchi asosiy xususiyati shundan iboratki, o'quv dasturlarida faqatgina akadem fanlar o'tilmaydi, balki san'at (chizmachilik, musiqa) va sportga ham ko'p e'tibor beriladi. Bitiruvchi sinflarda o'quvchilar oliy o'quv yurtlariga tayyorlanib bir necha fanlarni chuqur o'rganishadi.

Universitet qabul komissiyasining qarori salbiy yoki ijobiy bo'lishiga mana shu fanlardan olingan baholar va imtihondan olingan baholar asos bo'ladi. Masalan, injenerlik fakultetiga kirish uchun matematika, fizika, ximiyadan yaxshi baholvr olgan bo'lishi kerak.

Maktab 3 darajaga bo'linadi:

- boshlang'ich maktab (1-6-7 sinfgacha);
- o'рта maktab (6-7-10 sinfgacha);
- yuqori sinflar (11-12 sinf).

Avstraliya qonunlari bo'yicha 6 yoshdan katta bolalar maktabga borishi shart. Amaliyotda esa ko'pchilik ota-onalar bolalarini boshlang'ich maktabga 5 yoshdan keyin berishadi, u erda ular 12-13 yoshgacha bo'lishadi. Boshlang'ich maktabni tugatgandan keyin talabalar o'рта bosqichga o'tishadi. U erda ular shartli ravishda 16 yoshgacha bo'lishadi.

Boshlang'ich va o'рта maktabda ingliz tili, matematika, tarix, geografiya, biologiya, kimyo, fizika, chet tili, jismoniy tarbiya o'qitiladi. Tanlovga ko'ra bu fanlarga musiqa va chizmachilik fanlari qo'shiladi.

Yuqori sinflarda o'quvchilar bo'lajak mutaxassisliklari uchun asos bo'ladigan informatsion texnologiyalar, iqtisod kabi fanlarni o'qishlari mumkin.

Materialni o'zlashtirganlik darajasini tekshirish yozma testlar, insho va og'zaki ma'ruzalar orqali amalga oshiriladi. Ularning natijalaridan o'rtacha ball chiqariladi.

Har bir o'quv choragida imtihon topshiriladi va uning natijasiga reyting chiqariladi. Avstraliyaning barcha universitetlari maktab bitiruvchilariga har yili o'quvchilar kirish imtihoni uchun to'plashi kerak bo'lgan reyting ballarini e'lon qiladi.

Avstraliyadagi 50 dan ortiq maktablarning bitiruvchi sinflarida xalqaro dastur bo'yicha ta'lim olish imkoniyati mavjud.

Avstraliya maktablarining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, maktab bitiruvchilari boshqa maktablardan farqli ravishda hech qanday tayyorlov kurslari yoki kollejlarda o'qimasdan to'g'ridan-to'g'ri Avstraliya universitetlariga kirishlari mumkin.

AVSTRALIYA MAKTABLARINING TURLARI

Davlat va xususiy maktablar farqlanadi. Xususiy maktablar aralash (qiz va o'g'il bolalar uchun) va alohida o'qitiladigan maktab (qizlar uchun va o'g'il bolalar uchun alohida) larga bo'linadi. Bundan tashqari bu maktablar yotoqxonali, yotoqxonasiz va oilada yashaydigan turlarga bo'linadi. CHet el o'quvchilari o'quv yili davomida oilada yashash huquqiga egalar. Ko'pgina maktablar o'z til markazlariga ega. U erda o'quvchilar ingliz tilini o'rganadilar. Davlat maktablarida ta'lim olish xususiy maktablardan 20-25 %ga arzon.

MAKTABGA QABUL QILISH TARTIBI:

O'qishga kirishdan oldin qabul qilinuvchilar ingliz tilidan test topshirishadi, bundan tashqari o'z yurtida oxirgi 3 yil davomida olingan baholar inobatga olinadi, ayniqsa, matematika, geografiya, ingliz tili fanlariga e'tibor beriladi.

Ayrim hollarda suhbat telefon orqali yoki xat orqali olinadi. YAgona Davlat imtihoni natijalari Avstraliya maktablariga qabul qilinayotganda e'tiborga olinmaydi.

TIL MAKTABLARI

Avstraliyada ingliz tilini o'rganish chet el talabalari uchun ommaviy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ingliz tilini xususiy ingliz tili maktablarida yoki universitet, institut, kollejlarda tashkil qilingan til markazlarida o'rganish mumkin.

Ularning hammasi ELICOS assotsiatsiyasiga birlashtirilgan va mamlakat ta'lim vazirligi tomonidan nazorat qilinadi. Avstraliya til markazlari ta'lim oluvchilarning turli toifalari uchun kurslarning keng qamrovli tanlovini taklif qiladi. Siz ulardan o'z maqsadingizga va ingliz tilini bilish darajasiga qarab hojlaganingizni tanlashingiz mumkin. Ta'limning davomiyligi 2 haftadan 1 o'quv yili(40-52 hafta)gacha bo'lgan vaqtni tashkil etishi mumkin.

BIZNES KOLLEJLAR

Avstraliya biznes kollejlari – bu keng spektrdagi mutaxassislarni professional darajada tayyorlashni amalga oshiruvchi o'quv muassasasi hisoblanadi. Bu chet el talabalari uchun Avstraliyada yuqori sifatli ta'lim olishning yana bir usulidir. Asosan, xar bir kollej axborot texnologiyalari, marketing, menejment, biznes dasturlari bo'yicha tuzilgan to'plamlarni taklif qiladi. Bu fanlarga sayyohlik va mehmonxona menejmenti qo'shiladi.

Avstraliya kollejlarning asosiy xususiyati shundan iboratki, ularning dasturlari biridan ikkinchisiga o'tish imkoniyatini beradi. Masalan, 2-darajali sertifikat beruvchi dasturga kirishingiz mumkin, undan so'ng 3-darajali sertifikat olishingiz mumkin, ta'limni davom ettirib diplom olishingiz mumkin. Keyingi darajalar bu oliy diplom va universitet bakalavr darajasiga o'tish.

Universitet bakalavr dasturlari bilan solishtirganda kollejga kirish qator afzalliklarga ega:

-o'quv guruhlar kam va o'qituvchilar har bir talabaga alohida e'tibor beradilar;

-qabul qilish talablari bakalavr va magistrlikka qaraganda osonroq;

-ta'lim olish davomida siz ma'lum bosqichlardan o'tasiz va navbatdagi sertifikatni olgach, o'qishni tugatishingiz mumkin va qo'lingizda ishlashingiz uchun xujjatingiz bo'ladi. Agar siz universitetda bakalavr darajasida o'qiyotgan bo'lsangiz, u erda siz o'qishni tugatmaguncha yoki bakalavrlik darajasini egallamaguncha hech qanday xujjat ololmaysiz.

O'qishni bitirgandan so'ng ta'limni universitetda davom ettirishingiz mumkin.

DASTUR TURLARI: Quyidagi dastur turlari farqlanadi:

-Sertifikat beruvchi qisqa dasturlar. I, II, III va IV darajali sertifikatlar farqlanadi. Bu tip dasturining davomiyligi odatda 12-52 haftani tashkil qiladi. Bu vaqtda tinglovchilar o'z sohalari bo'yicha quyiroq lavozimlarda ishlash imkonini beruvchi ko'nikmalarni egallaydilar(masalan, mehmonxona restoran/barda, sayyohlik kompaniyasida operator).

-Diplom dasturlari. Bu dasturlar o'rta muddatda davom etadi va kompleks tayyorgarlikni talab qiladi. Ular 1-2 yilgi ta'lim davomida oddiy yoki oliy diplom olishni ko'zda tutadi. Bu xujjat o'rta jarajali ishga kirishga imkon beradi.

-Bakalavr dasturlari. 3 yil o'qishga mo'ljallangan, oxirgi yilini talaba shartnoma tuzilgan universitetda davom ettiradi, u erda unga ilmiy daraja beriladi. Ba'zi mehmonxona menejmentli kollej va maktablar diplomdan keyingi darajadagi dasturni taklif etishadi. Boshqa yo'nalishdagi oliy ma'lumotga ega bo'lganlar uchun maxsus kurslar bor, ularda o'qish 1-1.5 yil davom etadi.

MASHG'ULOTLARNING BOSHLANISHI

Mashg'ulotlarning boshlanishi ko'pchilik kollejlarda yilda 2 martadan kam bo'lmaydi – fevral va iyul oylarida. Yana shunday o'quv muassasalari borki, ularda qabul qilish yilda 4 marta, xattoki, 8 martagacha bo'ladi.

QABUL TARTIBI:

Odatda qabul talablari quyidagicha:

- 1) O'rta ma'lumot attestati;

- 2) YOshi 18 yoshdan yuqori bo'lishi;
- 3) Ingliz tili bo'yicha bilim darajasi TOEFL bo'yicha 500 ball yoki IELTS bo'yicha 5.5ball.

UNIVERSITETLAR

Avstraliya universitetlari butun kontinent bo'ylab joylashgan. Lekin tanlash imkoniyati Avstraliyaning yirik shaxarlari Sidney va Melburnda ko'proq, bundan tashqari boshqa shtatlar poytaxtlari – Brizban, Perta va Adelaidada xam. SHuning uchun xalqaro darajadagi ta'limni va katta kompaniyalarda ishlashni mo'ljallaganlarga aynan shu shaxarlarga o'qishga borishni maslaxat berish mumkin. Kichik va markazdan uzoqda joylashgan universitetlarga ma'lum kasblarni egallash uchun o'qishga borish mumkin, masalan, veterinar yoki ekologiya sohasi bo'yicha.

O'tgan asrning boshi va undan oldingi asrning o'rtalarida tuzilgan eng qadimgi universitetlar shtatlar va shaxarlar nomi bilan atalgan: Sidney Universiteti (1850), Melburn Universiteti (1855), Adelaida Universiteti, Kvinslend Universiteti, G'arbiy Avstraliya Universiteti. Barcha Avstraliya Universitetlari Akademik darajaga ega, shu bilan birga ular ta'limning amaliy tomonlariga katta e'tibor berishadi.

TAXMINLAR

- 1) Diplom dasturlari. 2 yillik ta'limga mo'ljallangan.
- 2) Bakalavr dasturlari. Ta'lim yo'nalishiga qarab 3-6 yilga mo'ljallangan (masalan, injenerlikka o'qish ko'proq vaqt talab qiladi).
- 3) So'nggi paytlarda ikkitali darajaga ega bo'lgan dasturlar ommabopdir (masalan, biznes va huquq, menejment va axborot texnologiyalari yo'nalishlari). Ularda o'qish 4-6 yil davom etadi.
- 4) Magistrlik dasturlari. Magistrlik darajasi o'qishni 1-2 yilidan keyin yoki tadqiqot ishlarining 2-3 yilida taqdim etiladi.
- 5) Doktorlik unvoni – yuqori malakadagi akademik unvon nazariy kursni bitirib, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganda taqdim etiladi.

TALABALARNING YASHASHI VA JOYLASHISHI.

Chet el talabalarining Avstraliyada yashashi uchun turli variantlar tanlash uchun taklif etiladi. Ko'pincha talabalar yashash uchun Avstraliya oilalarini tanlashadi. Bu ingliz tilini o'rganish, Avstraliya kundalik hayoti haqida bilish va mamlakat madaniyatini yaqindan o'rganish imkoniyatini beradi. Oilada yashashni ichiga alohida jihozlangan xona va ovqatlanish kiradi. Odatda, oilalar chet el talabalariga o'quv muassasalar tomonidan talabani va oilaning qiziqishi va yo'nalishiga qarab tanlab beradilar. Bunday yashash narx-navosi Avstraliyaning xududlari va yaratib beriladigan sharoitlariga qarab belgilanadi. O'rtacha yashash narxi 170-230 Avstraliya dollarini tashkil qiladi.

Ko'pgina o'quv muassasalari turar joy taqdim etadi, ular o'quv muassasalari hududida yoki yon atrofida joylashgan xonalarning maydoniga qarab narxlar belgilanadi. Ko'pgina yotoqxonalarda umumiy oshxona, hammom, kir yuvish xonasi mavjud. Muassasa tashqarisida ham ijaraga uy olish mumkin. Uning narxlari uyning joylashgan xududiga qarab belgilanadi. Katta shaxarlarning uylarning narxi baland bo'ladi. Ko'pgina talabalar uylarni bir necha kishi bo'lib ijaraga olingan uylarning narxi 1 haftaga 150 Avstraliya dollarini tashkil qiladi.

Shvetsariya ta'lim tizimi

Shvetsariya ta'limi dunyodagi eng yaxshilardan biri hisoblanadi. Shvetsariya maktablari, kollejlari va oliy o'quv yurtlari tomonidan berilgan guvohnoma va diplomlar butun dunyoda tan olinadi hamda qadrlanadi. Shvetsariya ta'lim muassasalarini tamomlagan bitiruvchilar nufuzli va sifatli ta'lim olgan inson hisoblanadilar.

Ma'lumot o'rnida qiziq bir faktni aytib o'tish joiz. Qanchalik g'alati tuyulmasin, Shvetsariyada yagona ta'lim dasturi yo'q, ta'lim tizimi esa juda murakkab. Vaholanki, bu mamlakatda dunyoda eng aniq ishlaydigan soatlar ishlab chiqariladi, buning ustiga mamlakat Yevropaning qoq markazida joylashgan.

Buning sababi nimada? Javob Shvetsariyaning Federativ tuzilishida yashiringan. Mamlakat 26 hududiy – administrativ birliklar — kantonlarga bo'lingan. Har bir kantonning o'z ta'lim standarti, talablari va qoidalari mavjud. Bundan tashqari, mamlakatda tarixan qaror topgan uch til ham ta'limga o'zining sezilarli ta'sirini ko'rsatgan. Bu tillar – nemis, fransuz va italyan tillaridir. Undan tashqari yana bir rasmiy til – roman yoki retorman tili mavjud bo'lib, bu tilda aholining 1 %i gaplashadi. Mamlakatning bunday ma'muriy – hududiy bo'linishi Shvetsariya ta'lim tizimini parchalab tashlagan. Kantonlar va ularni tashkil etuvchi munitsipalitetlar ta'limga aloqador barcha masalalarda mustaqillikka ega. Faqat Federal miqyosda o'rnatilgan an'analar bundan mustasno.

Maktablar

Shvetsariyada maktablar ikki bosqichdan iborat. Mamlakatda faqatgina o'rta ta'limgina majburiy. Ularning ham ikki tipi mavjud: davlat (bepul) maktablarida aholining ko'pchilik qismi tahsil oladi. Ikkinchi tipdagi maktablar xususiy (pullik) bo'lib, unda ko'pincha chet elliklar ta'lim olishadi. Bundan tashqari Shvetsariyada pansion – xususiy maktablar ham bor, ular avvalgilarga qaraganda ancha nufuzli ta'lim beradilar.

Butun mamlakatda o'rta ta'lim ikki bosqichga bo'linadi:

- Boshlang'ich maktab (7 yoshdan 13 yoshgacha o'qitiladi);
- Kichik – o'rta maktab (14 yoshdan 16 yoshgacha).

Shvetsariyadagi boshlang'ich ta'limning aniq daturi bo'lmaganligi sababli bir kantondagi qoidalar ro'yxati boshqa kantonnikidan farq qiladi. Biroq barcha dasturlarda ona – tili, chet – tili va matematikani o'rganish ko'zda tutiladi.

Kichik - o'rta maktabda esa bu fanlar qatoriga italyan va ingliz tili ham qo'shiladi.

Kollejlar va gimnaziyalar

O'rta ta'lim maktabi bitiruvchilari ta'lim olishni kollejlarda davom ettirishlari mumkin. Kollejlarda kasbiy – texnik ma'lumot olib, ko'plab kasblardan, masalan, avtomexanikdan to kotibgacha yoki sayyohlik biznesi menejerigacha bo'lgan kasblardan birini egallashlari mumkin. Ta'lim odatda ikki – uch yil davom etadi va o'quvchilar tanlagan kasblari bo'yicha har hafta ikki marta amaliyotga chiqishadi. Ta'limning bunday shakli Shvetsariyada “Berufslöhre” yoki “Apperentic e ship” ataluvchi norasmiy nomga ham ega. Uni o'zbekchaga “shogirdlik” yoki “usta qo'lida ta'lim” deb tarjima qilsa bo'ladi. O'qishni davom ettirishning yana bir yo'li – gimnaziyada o'qishdir. U yerda ta'lim to'rt yarim yil davom etadi. Gimnaziyalarda asosan: klassik fanlar – ona – tili va chet tili, matematika, geografiya, tarix, biologiya, kimyo o'qitiladi. Gimnaziyalar ikki chet tili: fransuz yoki italyan va ingliz tiliga sezilarli miqdorda soat ajratadilar. Matura deb ataluvchi umummilliy shveysar dasturi juda mashhur va undan ko'pchilik milliy litseylarda foydalaniladi.

Bu litseylarda beriladigan guvohnomalar Shvetsariyaning barcha oliy o'quv yurtlari va ko'pgina Yevropa mamlakatlari universitetlarida o'tadi.

Bu dasturning afzalligi uning egiluvchanligidadir. O'quvchi xoxlagan fanlarini va ularning intensivligini o'zi tanlaydi. Shuningdek, shunday litseylar ham borki, o'quvchilar asosiy fan sifatida san'at yoki sportni tanlashlari mumkin.

Oliy o'quv yurtlari

Shvetsariyada o'nta oliy o'quv yurti bor va ular kantonlar tarkibiga kiradi. Nemis tilli kantonlarga – Bazal, Bern, Lyutsern, Sant – Gallen va Syurix kiradi. Fransuz tillilarga esa – Jeneva, Lozanna va Nevmatel shaharlari kiradi.

Har bir oliy o'quv yurtida darslar o'zi joylashgan hududiy joylashuvga mos tilda olib boriladi. Qolgan ikki oliy o'quv yurtining biri Friburg universiteti bo'lib, unda darslar ikki – fransuz va nemis tillarida olib boriladi. Ikkinchisi esa hali yosh Universiteta del Svizzera Italiano bo'lib, ochilganiga 16 yil bo'ldi. Bu universitet Italyan – Shvetsariya oliy o'quv yurti hisoblanadi. Shvetsariya universitetlariga kirish mamlakat fuqarolari uchun imtihonsiz amalga oshiriladi, o'rta ma'lumot haqida

guvohnoma taqdim etilsa kifoya. Faqatgina Sant – Gallen universitetida imtihon ko'zda tutilgan. Bu universitetda chet ellik talabalar ham o'qishi mumkin. Yagona shart chet ellik talabalar soni universitet barcha talabalar sonining 25% idan oshmasligi lozim. Agar abituriyent (ajnabiy abituriyent) o'rta ma'lumot to'g'risidagi hujjatga ega bo'lmasa, unga VKHS (Vorbereitungs Kurse auf das Hoch Schulstudium – o'qishga tayyorlov kursi) tashkiloti tomonidan taklif etiladigan va iyun, avgust, sentyabr oylarida o'tkaziladigan o'ziga xos tipdagi imtihon taklif etiladi. Bu imtihon Friburgda bo'lib o'tadi. Nomidan ham ko'rinib turibdiki, bu tashkilot Shvetsariya oliy ta'lim olishni istagan barcha chet ellik abituriyentlarni o'qishga tayyorlaydi. Bu kursda ta'lim bir yil davom etadi va 5200 shvetsar frankiga tushadi. Bu kuslardan o'tish uchun nemis tilini B₁/B₂ darajada bilish talab etiladi.

Ijodiy kasblarga o'qitish amaliy fanlar universitetlari deb ataluvchi 9 ta oliy o'quv yurti va 14 ta pedagogik oliy o'quv yurtlarida amalga oshiriladi. 2001 yilda Shvetsariya ta'lim sohasini isloh qilish boshlandi. Buning oqibatida ingliz tiliga ixtisoslashgan dasturlar, xususan, magistratura yo'nalishida ko'payib bormoqda. Bu islohot sharofati bilan Shvetsariya va G'arbiy Yevropa mamlakatlari semestrlari bir vaqtga to'g'ri keladi. Shu sababli Shvetsariya talabasi o'quv davomida boshqa (Yevropa) mamlakat oliy o'quv yurtiga ko'chib o'tishi mumkin.

12-Mavzu: Germaniya, Fransiya davlatlarining ta'lim tizimi

Reja:

1. Germaniyada maktabgacha tarbiya va maktab ta'limi.
2. Germaniyada hunar-texnika ta'limi.
3. Germaniyada oliy ta'lim va xalq universitetlari.
4. Fransiya ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari.
5. Maktabgacha ta'lim va uning mazmuni.
6. O'rta va oliy ta'lim. Sirtqi ta'lim va kadrlar bilan ta'minlanish.

Germaniya Federativ Respublikasi 16 ta mustaqil Federativ yerlar (viloyatlar)dan iborat bo'lib, har biri shakliga ko'ra turlicha bo'lgan ta'lim tizimiga ega. Ta'lim muassasalari asosan davlat tasarrufida bo'lib, ular uchun ta'lim dasturiga tegishli bo'lgan davlat ko'rsatmalari mavjud.

Ta'limni joriy qilish va boshqarish Federal yerlar (FE) hukumatining kompetensiyasiga kiradi, lekin markaz tomonidan umumiy rahbarlik ham bor: ta'lim vazirligi ta'lim siyosati konsepsiyasini ishlab chiqadi, OO'YUlarini kengaytirishga mablag' ajratadi.

GFR konstitutsiyasiga ko'ra har bir Federal yer o'z hududidagi maktab va oliy ta'limni rejalashtirish va amaliyotga tadbiiq etish bo'yicha o'zi javob berishga qaramay, barcha Federal yerlar va Federal hukumat umumta'lim va oliy ta'lim muassasalarida o'qitish kurslarida birlikni ta'minlash maqsadida hamkorlik qiladilar. Federal organlar va Federal yerlarning ta'lim sohasi bo'yicha siyosati kelishilgan: ta'limning davomiyligi, ta'tillar, o'quv dasturi, imtixonlarni o'zaro tan olish, attestatlar, maktabni tugatganligi xaqida guvohnoma, diplomlar, unvonlar shular jumlasidandir.

Federal hukumatning huquqlari asosiy qonunlarni qabul qilishda, jumladan moliyalashtirish masalalarida chegaralangan. Ta'limdagi xarajatlar haqida quyidagilarni aytish mumkin:

- n birorta Federal yerlar davlat umumta'lim, kasbiy o'quv yurtlarida o'qish uchun pul olmaydi;
- n barcha Federal yerlarda o'quvchilarni uydin maktabga, maktabdan uyga tashuvchi avtobuslarni o'z hisobidan beradi;
- n deyarli barcha o'quvchilarga darslik va o'quv qo'llanmalarni qiymatining ozgina qismiga beriladi;
- n ma'lum toifadagi o'quvchilar va talabalarga mavjud federal qonunlarga ko'ra davlat moddiy yordam ko'rsatadi.

Germaniyada xususiy maktablarga ruxsat berilgan, ular orasida diniy maktablar ham bor. Bu maktablarda taxminan 8% o'quvchilar tahsil oladilar. Xususiy maktablar o'quv dasturlarini tanlashda

davlat maktablariga nisbatan erkin bo'lganligi bois turli pedagogik muqobillarning aprobativiyasi o'tkazilib turiladi.

Sekin asta differensiyalashgan ta'lim tizimi, ya'ni har bir o'quvchiga uning qobiliyati va o'qishdagi turlicha yo'nalishiga ko'ra moslashuvchan yondashuv kiritilmoqda.

Umuman olganda Germaniya ta'lim tizimi bir necha bosqichni o'z ichiga oladi:

n Elementar ta'lim: maktab ta'limining 1-bosqichiga tegishli bo'lib, maktabgacha muassasalar kiradi. Asosan bular bolalar bog'chalari, tayyorlov sinflari va kirish guruhlari bo'lib, bu erlarga bolalarning qatnashishi 3 yil davomida ota-onalar xohishiga ko'ra ixtiyoriydir.

2. Ta'limning birinchi bosqichi. (Primastufe) boshlang'ich maktab, unga 6 yoshdan qatnay boshlaydi. O'qish muddati 4 yil, Berlin va Brandenburgda 6 yil. Bu bosqichdagi ta'limning maqsadi-bolalarga ta'lim Ining ikkinchi bosqichidagi u yoki bu maktabda ta'limni davom ettirishga imkon beruvchi asosiy bilimlarni berishdan iborat.

3. Ta'lim I ning ikkinchi bosqichi (Sekundastufe I) —yo'nalishli bosqichlari deb nomlanuvchi bosqichdir, unda bolalarni ularning iqtidoriga ko'ra o'quv muassasalarining kerakli turiga yo'naltiradi: asosiy maktablar, real maktablar, gimnaziyalar, kompleks maktablar. O'quvchilar ta'lim xaqidagi attestatni real va asosiy maktablarni bitirgachgina olishadi.

4. Ta'lim II ning ikkinchi bosqichi (Sekundastufe II)ga gimnaziyaning yuqori sinflari, shuningdek kasbiy ta'lim va muassasalarda kasbiy ta'lim kiradi. Muassasalarda kasbiy ta'lim —dual tiziml deb ham ataladi, unda ta'lim va ishlab chiqarishda amaliyot 2 yil davomida olib boriladi, bu o'qishni tugatish o'rta ta'limni tugatish bilan teng bo'lib, yakunida faqat kasbiy sohada o'qishni davom ettirish mumkin. Gimnaziyada 3 yil o'qib, o'quvchilar umumiy shahodatnoma —etuklik attestati-abitur oladilar, bu ularga istagan oliy o'quv yurtiga kirishga imkon beradi.

5. Ta'limning uchinchi bosqichi oliy ma'lumot haqida diplom beruvchi oliy o'quv yurtlari va malaka oshirish o'quv muassasalari.

Germaniyada oliy ta'lim. *Germaniya oliy o'quv yurtlari o'zining ko'p asrlik an'analari va buyuk ma'rifatparvarlari bilan faxrlanadi. Universitet ta'limining reformatori Vilgelm fon Humboldt joriy qilgan "ilm-fan va ta'lim birligi" tamoyili hanuz amalda bo'lib, bu o'z navbatida ilmiy izlanishlar bilan o'qituvchilar ham, talabalar ham shug'ullanishi lozimligini ko'rsatadi. Bugungi kunda mazkur ideal qarash birmuncha o'zgargan bo'lib, talabalar foydali kasb va amaliy ko'nikmalar egallash tarafdoridirlar. Shu bois ham Germaniyada "oliy maxsus maktablar" (Fachhochschulen) juda ommalashgan, unda o'qish muddati kam, o'quv dasturi universitetlarga qaraganda amaliyotga yaqinroq.* 5 GFR ta'lim tizimi umumevropa ta'lim tizimiga integratsiyalashgan: o'quv muassasalarining barcha turlari Evropa Ittifoqi (EI) dasturini amalga oshirishga mo'ljallangan, EI davlatlari ta'lim standartlari unifikatsiya (bir xillashtirish) qilingan, diplomlar bu davlatlarda kuchga ega.

Germaniya uzoq davrlardan beri fan va madaniyat markazi sifatida mashhurdir. SHiller, Gyote, Shneger, Humboldt, Kant, Gegel va boshqalar kabi buyuk shoirlar, yozuvchilar, filosoflar va jamoat arboblari hammaga tanish. Germaniyada o'rta asrlarda tashkil topgan 1-universitet mavjud. Eng qadimiy universitet bu Geydelberg universiteti bo'lib, 1386 yil tashkil topgan. 1388 yil tashkil topgan Kyoln universiteti qadimiy universitetlardan sanaladi. Bu o'quv muassasalari qadimiy an'analari va klassik ta'limi bilan mashhurdir.

Hozirgi kunda universitetlar va boshqa oliy o'quv yurtlari soni sezilarli darajada ortdi, ta'lim tizimi ham o'zgardi. Avvalgiday gumanitar ta'lim an'analari muhim o'rinni egallaydi, lekin texnik ta'lim, nazariya bilan amaliyot birligi, fanlararo ta'lim ham birinchi o'ringa chiqmoqda. Oliy o'quv yurtlari fan va texnikaning oxirgi yutuqlari-yo'nalishlarni aks ettiruvchi dasturlarni kiritmoqdalar. Shu maqsadda o'quv rejalari qayta ko'rib chiqilmoqda.

Germaniyada 300dan ortiq oliy maktablar bo'lib, ular 16ta Federal yerlarda joylashgan. Shulardan Geydelberg universiteti eng qadimiy bo'lib, 1385 yil tashkil topgan. Turli mutaxassisliklar

bo'yicha 400dan oshiq o'quv dasturlari juda keng tanlash imkonini beradi, bunda istagan mutaxassislikni egallash va fanlararo tadqiqotlar o'tkazish mumkin.

Germaniya OO'YUlarida "akademik erkinlik" hukmron, ya'ni qat'iy o'quv reja yo'q, majburiy ma'ruzalar kam, talabalarning tanlov imkoniyati ko'p. Shu bois ham o'z yurtida qat'iy tartibga o'rgangan chet ellik talabalar o'quv yilining boshida birmuncha qiynaladilar. Bu haqda AQSHning Viskonsin shtatidan kelgan Djon Vulf "Mustaqil ishlashga o'zingni tayyorla. Bu erda professorlarni AQSHdagiga nisbatan kamroq ko'rasan. Ustingdan nazorat ham yo'q. Men bu erda bilimni o'qituvchi uchun emas, o'zim uchun egallash lozimligini o'rgandim"-deydi.⁶

Germaniya Federativ Respublikasining—Ta'lim to'g'risidagi asosiy qonuniga ko'ra har bir fuqaro o'z shaxsini erkin rivojlantirish, o'z iqtidori, moyilligi va qobiliyatiga qarab maktab, o'qish joyi va kasb tanlash xuquqiga ega. Ta'lim sohasidagi bunday siyosatning maqsadi har bir shaxsning qiziqishi va talablarga javob beradigan malakali tayyorgarlikni olish imkonini berishida imkon qadar ko'proq yordam berishdan iboratdir.

Germaniyaing har bir fuqarosi butun hayoti davomida umumiy, oliy va kasbiy ta'lim olish imkoniyatiga ega. Chunki Germaniya yuqori rivojlangan sanoat davlatlaridan biri bo'lib, yuqori malakali mutaxassislarga ehtiyoj katta. Germaniya hukumati turli sohalarda sifatli mutaxassis kadrlarni tayyorlashga manfaatdor. SHu bois nemis ta'lim tizimining rivojlanishiga katta miqdorda mablag' ajratiladi.

Maktabgacha ta'lim tizimi Germaniya ta'lim tizimida muhim bosqich hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim bolalar bog'chasi (Kindergarten)da amalga oshiriladi. Bolalar bog'chasiga 3-6 yoshdan maktab yoshigacha borishadi. Rivojlanishdan orqada qolgan yoki yoshi mos bosqichga etmagan bolalar maktabgacha sinflarda (nem. Vorklassen) va maktablar qoshidagi bolalar bog'chasida (nem. Schulkindergarten) taxsil oladilar. Bu bog'chalar alohida FE qoidasiga ko'ra yoki maktabgacha sektorga yoki boshlang'ich ta'lim sektoriga bo'ysinadi.

Maktabgacha ta'lim majburiy emas, lekin ko'pgina FEda rivojlanishda orqada qolgan bolalar uchun majburiy hisoblanadi. Bolalar bog'chalari ta'limning quyi bosqichi hisoblansada, lekin u davlat tizimi tarkibiga kirmaydi. Bog'chalarni mablag' bilan ta'minlash turli jamoat tashkilotlari, xayriya birlashmalari, korxonalari, xususiy shaxslar, diniy muassasalar zimmasida. Germaniyada 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarning 80% bog'chalarga qatnaydilar.

Bolalar bog'chasi olmonlar boshlab bergan va ko'pgina xorijiy mamlakatlar tomonida o'rganilib, qabul qilingan muassasadir. U yuqorida ta'kidlaganimizday, davlat tizimiga emas, balki yosh avlodni qo'llab-quvvatlash muassasalari tizimiga kiradi. 1996 yildan boshlab bolalar bog'chasiga qatnash uchun xuquqiy me'yorlar ishlab chiqildi. Bolalar bog'chasiga farzandlarni berish ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi. Bolalar bog'chasiga qatnash uchun ota-onalardan ularning daromadiga qarab ma'lum miqdorda to'lov olinadi.

Maktabgacha bolalar bog'chasi tayyorlov sinflari va kirish guruhlari maktab ta'limining birinchi bosqichiga kiradi.

Germaniya boshlang'ich sinf o'quvchisiga ilk o'qish kuni shirinliklar va kerakli maktab qurollaridan iborat —maktab sovg'asi (kulyok) beriladi.

Germaniyada majburiy maktab ta'limi 6 yildan 19 yilni o'z ichiga oladi, demak maktabda ta'lim umuman olganda 13 yilni tashkil etadi. Bu muddat tugagach, imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirib bo'lib, o'quvchi bitiruv guvohnomasini oladi va oliy o'quv yurtiga kirish xuquqiga ega bo'ladi. Germaniyada har bir maktab o'z Federal Eri hokimiyatiga bo'ysunadi. Shu bois dasturlar, qoidalar va hatto o'qitish davomiyligi mamlakatning turli Federal Erida turlicha.

Germaniyada maktab ta'lim tizimi ikki bosqichli tizim bo'lib, boshlang'ich maktab (Primastufe) va o'rta ta'lim muassasalari (Sekundastufe)dan iborat. Kunduzgi maktabga 9 yil, ba'zi Federal yerlarda

10 yil o'qish majburiy. Bu muddat tugagach, kunduzgi maktabning keyingi bosqichida o'qishni davom ettirishni istamagan 18 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar kasbiy ta'lim maktablarida o'qishlari shart.

GFRda Federal yerlar ta'lim tizimining asosiy tarkibiy qismlari uchun javob beradi. Barcha davlat maktablarida o'qish bepul. O'quvchilarga qisman bepul o'quv qo'llanmalar va darsliklar beriladi. Diniy fanlarni o'qitish majburiy emas. O'quvchi 14 yoshida bu fanni o'qish yoki o'qimaslikni o'zi tanlaydi. Ta'lim spektri Federal yerlarning moliyaviy yordamidan foydalanuvchi turli tashkilotlarning xususiy maktablari bilan to'ldirib boriladi.

Germaniyada maktab ta'limi quyidagi maktab tiplariga bo'linadi:7

1. Boshlang'ich maktab (Grundschule)
2. Yo'nalish maktablari (Orientierungstufe)
3. Asosiy maktab (Hauptschule)
4. Real maktab (Realschule)
5. Gimnaziya
6. Umumiy maktab (Gesamtschule)
7. Maxsus maktab (Sonderschule)

Boshlang'ich maktab-ta'lim tizimining poydevori hisoblanadi. Bu ta'lim bosqichining vazifasi-bolalarga ta'limni davom ettirishga imkon beruvchi bilimlar asosini berishdir. Boshlang'ich maktabdan so'ng o'quvchilar yo'nalish bosqichidagi maktablarga o'tadilar.

Germaniyada o'rta maktab tiplari: asosiy, real, aralash maktablar va gimnaziyalar.

Nemis o'quvchilari boshlang'ich maktabni bitirganlaridan so'ng umumta'lim maktabining 2-pog'onasiga boradilar. 5 va 6-sinflar, ularning tashkiliy jihatidan qat'iy nazar, avvalambor, bola kamol topadigan davr bo'lib hisoblanadi, bolalarning keyingi o'qish shakliga yo'naltirish maqsadida kuzatuv olib boriladi.

GFRning ba'zi Federal yerlarida mavjud bo'lgan yo'nalishli bosqich (—Orientierungsstufe) otionalarga, o'quvchi va o'qituvchilarga II bosqichdagi maktabga o'tishni hal qiluvchi ishonarli asosni berishga mo'ljallangan. Yo'naltiruvchi bosqich mustaqil o'quv muassasasi yoki II bosqichdagi maktabning 1 qismi sifatida tashkil etilgan. Berlinda bu bosqich boshlang'ich maktabning 5-6-sinf shaklida olib boriladi. GFRda o'rta maktablar 4ta tipga bo'linadi: gimnaziyalar, real maktablar, asosiy maktablar, umumlashgan maktablar.

Asosiy maktab. Asosiy yoki to'liq xalq maktabi boshlang'ich maktabni bitirib, real maktab yoki gimnaziya bormagan barcha o'quvchilar uchun majburiydir. Bu maktabda oxirgi majburiy sinf 9-sinf, ba'zi FELarda 10-sinf hisoblanadi. Ko'pchilik FELarda o'quvchilarga qo'shimcha 10-sinfga erkin qatnash imkoni berilgan.

Asosiy maktabning maqsadi-o'quvchilarni ikkinchi bosqich I doirasidagi ta'lim va kasbiy ta'limni davom ettirishga tayyorlash va umumta'lim kurslariga qatnashishdir. Asosiy maktablarda o'quvchilarni ishchi kasbi olami bilan tanishtirish orqali kasb tanlashga yordamlashishga e'tibor qaratiladi. Asosiy maktabdagi o'qituvchilar o'zlari o'qimagan sohalar bilan ham shug'ullanishga majbur bo'ladilar. Masalan nemis va ingliz tili o'qituvchilari texnikani ham o'zlashtiradilar. Bunday kasbiy aralashuvning pedagogik vazifasi ham bor: sinf rahbari bolalar uchun ishonchli shaxsga aylanishi va o'z tarbiyalanuvchilari bilan imkon boricha ko'p vaqt birga bo'lishidir.

Asosiy maktab o'qituvchilari o'zlarini o'qituvchi emas, ijtimoiy pedagog deb his qiladilar. Lekin asosiy maktabdagi o'quvchilar yomon o'zlashtirishiga qaramasdan ko'pchiligi kasbiy ta'lim olishga muvaffaq bo'lishadi.

Hozirgi kunda Ta'lim vazirligi asosiy maktabni isloh qilish zarurati xaqida fikr bildirmoqda. Bunda asosiy maktab o'qituvchilari boshlang'ich maktab o'qituvchilari kabi ixtisoslikka ega bo'lishlari kerak deyiladi.

Real maktablar. Real maktablar ikkinchi bosqich I ga qarashli bo‘lib, odatda 5-10 sinflarni o‘z ichiga oladi. 7-sinfni bitirib, real maktabga o‘tishni hoxlagan asosiy maktab o‘quvchilari uchun real maktabning alohida 3 sinf varianti mavjud. Real maktab yuqori darajali kengaytirilgan umumiy ta‘lim beradi va o‘quvchilarni mustaqil fikrlash, mas’uliyat hissi, insonlarga raxbarlik qilish ko‘nikmalariga, yuqori talab qo‘yadigan kasb egalari bo‘lishi uchun kasbiy ta‘lim kurslariga tayyorlaydi.

O‘quvchilar ularga tavsiya etilgan o‘quv yo‘nalishlaridan bitta asosiysini tanlab olish imkoniga ega. Bu tabiiy-matematik, texnik, lingvistik, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-tibbiy, musiqiy-badiiy yo‘nalish bo‘lishi mumkin. Har bir maktabda tavsiya qilinayotgan fanlar aniq. U maktablararo va FElararo farqlanadi. Real maktabni yetarli yuqori darajadagi baholar bilan bitirgan bitiruvchi II bosqichdagi o‘quv muassasasiga kirish huquqiga ega.

Barcha o‘quvchilar chet tilini bilishlari shart. Asosiy maktablarda chet tilini tanlash huquqi yo‘q, faqat ingliz tili o‘rganiladi. Real maktablarda esa bir necha chet tilini tanlash tavsiya etiladi, o‘quvchi bittasini tanlaydi. Real maktablarda o‘qish yuqori darajada olib boriladi, fanlarni tizimlashtirishga katta e‘tibor beriladi. Haftasiga darslari soni 30dan 34gacha bo‘ladi.

Boshlang‘ich va asosiy maktab o‘qituvchisi ixtisosligini olganlar malaka oshirish kursiga qatnashib, imtihon topshirib real maktablarda dars berish imkoniga ega bo‘ladilar.

Gimnaziya

Gimnaziyalar umumta‘lim o‘quv muassasalari hisoblanadi. Unda o‘qish 5-13-sinfgacha 9 yil davom etadi. 11-13gacha o‘qiydiganlar gimnaziyaning yuqori bosqichi deb ataladi. Imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirgan gimnaziya bitiruvchisi oliy o‘quv yurtiga kirish huquqini beruvchi etuklik attestati oladi.

Umumiy etuklik attestati beruvchi, hohlagan yo‘nalishdagi oliy o‘quv yurtiga kirish huquqini beruvchi gimnaziyalar va —fan gimnaziya lari mavjud. Bunday tipdagi maktablar ta‘limning ikkinchi bosqichi IIga tegishlidir. Bu gimnaziyalarda aniq kasblar sohasiga zarur bo‘lgan bilimlarni berishga alohida e‘tibor qaratiladi.

Fan gimnaziylariga real maktabni bitirganlik haqidagi attestat bo‘lsagina qabul qilinadi. Bu gimnaziyalarda ta‘lim davomiyligi 3 yil. Bitiruvchilar fan etuklik attestatini oladilar, bu esa ma‘lum doiradagi fanlarni o‘rganish uchun oliy o‘quv yurtiga kirish huquqini beradi.

Gimnaziyada o‘qitishdan maqsad: umumta‘lim bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish va shular asosida o‘quvchilarni zamonaviy ma‘lumotlarni olish va qayta ishlashning ilmiy metodlari bilan tanishtirish, oliy o‘quv yurtida muvaffaqiyatli o‘qish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. 5-10sinflar 11-sinfda boshlangan individuallashtirilgan ta‘lim dasturi uchun poydevor yaratish vazifasini bajarishga mo‘ljallangan. Gimnaziyaning o‘ziga xos xususiyati fanlarning differensial tuzilgani bo‘lib, o‘quvchiga tanlash imkoni beriladi. Masalan, chet tillar soni va ularni navbatma-navbat o‘rganish, 9-sinfda o‘quvchiga aniq yo‘nalishdagi fanlarni (tabiiy-matematik, ilmiy-iqtisodiy, musiqiy-badiiy) tanlash imkoni beriladi. Shunga ko‘ra gimnaziyalar maxsus xarakterga ega bo‘ladi va an’anaviy klassik, tabiiy-matematik va zamonaviy tillar turlariga bo‘linadi. Undan tashqari iqtisodiy, pedagogik, qishloq xo‘jaligi, texnik- texnologik, ijtimoiy-ilmiy, musiqiy gimnaziyalar va kommunal xo‘jalik gimnaziyalar bor.

Klassik gimnaziyalarda albatta lotin, yunon va birorta zamonaviy til o‘rganilishi shart. Tabiiy-matematik gimnaziyalarda matematika, fizika, ximiya chuqur o‘rganiladi. Gimnaziyaning yuqori sinflarida asosiy, ya‘ni xamma uchun majburiy kurslar, hamda individual tanlangan o‘ta qiyin (yuqori) kurslar kiritilgan. **Birlashgan (umumiy) maktab.**

Birlashgan maktab 5-10 (7-10) sinflarni o‘z ichiga oladi. U ikkinchi bosqich Iga qarashli. Birlashgan umumiy maktabning maqsadi: barcha ikkinchi bosqich I maktablari fanlari, kurslarini bitiruv attestati talablari bilan birlashtirishdir. U o‘quv muassasalari va ikkinchi bosqich II kasbiy ta‘lim kurslariga o‘tuvchi bitiruvchilarni tayyorlaydi. Undan tashqari, aksariyat umumiy maktablarda

o'qitish kurslari mavjud, uni muvaffaqiyatli yakunlagan o'quvchi oliy o'quv yurtiga kirish xuquqini oladi. Umumiy maktabning ikkita tipi bor: kooperativ, integratsiyalashgan maktab.

Kooperativ umumiy maktabda asosiy maktab, real maktab va gimnaziyalar birgalikda ishlaydi. Tashkiliy, metodik va didaktik jihatdan ular bir biriga qaram bo'lmagan bo'limlar sifatida faoliyat yuritadi. Bu bo'limlar o'zaro xamkorligining turi va darajasi yosh davrlar guruhlariga bog'liq. Kooperativ umumiy maktab barcha bo'limlar uchun umumiy pedagogik rahbariyatga ega.

Integratsiyalashgan umumiy maktab 10-sinfgacha alohida maktab tipini ajratmaydi. Sinflarni tashkil qilishning yagona mezonini yosh bilan bog'liq. Alohida fanlarni o'qitish kurs tizimi bo'yicha olib boriladi.

Umumiy maktabda mutaxassislar tomonidan —fanlardan yutuqlari bo'yicha differensiyalash deb nomlangan guruhlariga bo'lish joriy qilingan. Differensiyalashdan kutilgan maqsad: har bir o'quvchiga uning qobiliyatlariga ko'ra talablar qo'yish, har biriga individual yondashish. O'zlashtirish o'zgarishi natijasida bir guruhdan ikkinchi guruhga o'tish mumkin.

Germaniyada kasbiy va oliy ta'lim tizimi.

Germaniya ta'lim tizimida hunar ta'limi muhim ahamiyatga ega, chunki yuqori malakali ishchilarga bo'lgan talab kuchlidir. To'liqsiz o'rta maktabni bitiruvchilarning 20% hunar ta'limi tizimida bilim olishni davom ettiradilar. Aksariyat hollarda o'qish muddati 3-3,5 yilni tashkil etadi. O'qish 3 bosqichdan iborat bo'lib, birinchi yil asosiy hunar ta'limi beriladi. Bunga o'qitilayotgan kasbga taalluqli maxsus fanlardan nazariy asoslar berilib, yirik korxonalarda amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi. Ikkinchi yil davomida maxsus hunar ta'limi beriladi. O'quvchining birinchi yildan ikkinchi yilga o'tishida sinov imtihonlari o'tkazilib, o'qishni davom ettiruvchi yoshlar tanlab olinadi. Uchinchi yil davomida maxsus hunar ta'limi yanada chuqurlashtirilib boriladi. Bitiruv imtihonlari maxsus komissiya tomonidan qabul qilinadi. Komissiya a'zolari korxonalarining etakchi mutaxassislari, Federal yerlardagi sanoat palatasi, hunarmandchilik palatasi vakillaridan tashkil topadi. Hunar maktablarining diplomlari oliy o'quv yurtlariga kirish uchun huquq bermaydi. Buning uchun 1 yillik tayyorlov kurslarini tugatish talab etiladi. O'qishga qabul qilish imtihonsiz, maktab ta'limi to'g'risidagi hujjatga asosan amalga oshiriladi.

Xalqaro ta'lim dasturlari va diplomlar (International Degree Programmes). Germaniyada chet ellik talabalar juda ham ko'p. Xorijlik talabalar manfaatini ko'zlab, nemis OO'YUlarida xalqaro o'quv dasturlari kiritilgan. Unga ko'ra Germaniyada bakalavr va master darajalarini olish mumkin.

Talabalar (Undergraduates) uchun o'quv dasturlari 6-8 semestr davom etadi, shundan 1-2 semestr davomida chet eldagi partner oliy o'quv yurtlarida tahsil olish imkoniyatiga ega. O'qish oxirida bakalavr (Bachelor) darajasini oladi. Biror-bir diplom yoki ilmiy darajasi bor bo'lgan bakalavrlar (Postgraduates) 3-5 semestr tahsil olishadi va master (Master) darajasiga ega bo'ladi. Ayrim o'quv dasturlari doirasida 6-semestrda so'ng dissertatsiya himoya qilib "doktor" bo'lish mumkin. Bunday xalqaro dasturlarning akademik darajasi juda yuqori. Bunda talabalarni tyutorlar va kuratorlar o'z maslahatlari bilan doimo kuzatib turishadi.⁸

Oliy maktab o'z-o'zini boshqarish huquqiga ega. Oliy o'quv yurtini shtatdagi rektor yoki bir necha yilga saylangan Prezident boshqaradi. O'z-o'zini boshqarishda vazifalari aniq taqsimlab berilgan bir necha guruhlarining bosqichma-bosqich ishtiroki prinsipiga amal qilinadi.

Davlat malaka oshirganlarni rag'batlantiradi va bu uchun har yili 5,5 mln. marka mablag' ajratadi. Malaka oshirish kurslarida o'qish davrida tinglovchilarga mablag' bilan moliyaviy yordam beradilar. Asosan ishsizlar o'z malakasini oshirish imkoniyatlaridan ko'proq foydalanadilar va bu bilan ish topish yo'llari tezlashadi. Yarim yil davomida malaka oshirgan ishchilarning 75% ish bilan ta'minlanadi.

Cherkovlar ham fuqarolarning bilim darajalarini oshirishda faol ishtirok etadi. Evangel cherkovi o'zining 15ta akademiyasida dolzarb mavzular bo'yicha anjumanlar tashkil etadi. Katoliklar malaka

oshirishda nikoh, oila masalalariga, teologiya va madaniyat sohalariga katta ahamiyat beradilar. Oliy o'quv yurtlarida tadqiqot bilan shug'ullanish ularning qadimiy an'alaridan biri. O'tgan asr boshlarida Vilgelm fon Gumboldt pruss universitetlarini isloh qildi, o'shandan beri —Tadqiqot va o'qitish birligil ularning hayotiy prinsiplariga aylanib qolgan. Oliy o'quv yurtlari tadqiqotlarining asosiy yo'nalishi-fundamental amaliy tadqiqot bo'lib, ularga boshqa ilmiy-tekshirish institutlari, sanoat laboratoriyalari yaqindan yordam beradi. Germaniya ta'limi o'ziga xos yo'nalishga, juda murakkab tizimga ega. Shu bilan bir qatorda hozirda Germaniyada ta'lim tizimini isloh etish yo'lida yangi izlanishlar olib borilmoqda.

12 Studying in Germany. A Practical Guide for International Students. DAAD, 2014 R.

Germaniyada ilm-fan.

Germaniyada ilmiy-tadqiqotlar universitetlar va ilmiy tashkilotlar hamda korporativ tadqiqot markazlarida olib boriladi. Universitetlardagi ilmiy tadqiqotlar federal byudjet, FE byudjeti tomonidan va tashkilotlar ajratgan mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi. Germaniyada ilmiy-tadqiqotlar shuningdek, 4ta yirik ilmiy tashkilotlarda olib boriladi. Bular Maks Plank jamiyati, Gelmgols jamiyati, Fraungofer jamiyati va Leybnits jamiyatlaridir.

Maks Planka jamiyatida 13000 xodim ishlaydi, undan 5000 tasi olimlar bo'lib, jamiyatning yillik byudjeti 1,4 mlrdni tashkil etadi. **Gelmgols jamiyatida** 26,5 ming xodim ishlaydi, undan 8000 tasi olimlar bo'lib, jamiyatning yillik byudjeti 2,35 mlrdni tashkil etadi. **Fraungofer jamiyatida** 26,5 ming xodim ishlaydi, jamiyatning yillik byudjeti 1,2 mlrdni tashkil etadi. **Leybnits jamiyatida** 13,7 ming xodim ishlaydi, jamiyatning yillik byudjeti 1,1 mlrdni tashkil etadi.

Universitetlar bir yilda ilmiy tadqiqotlarga 9,2 mlrd evro sarflaydi.

Yirik nemis va chet el kompaniyalari Germaniya hududidagi tadqiqot markazlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlaydi.

Germaniya universitetlari talabalari o'rganadigan fanlar va dars jadvalini o'zlari tanlaydilar, ya'ni har bir semestr uchun mustaqil dastur tuzadilar. O'quv yili 15 oktyabrdan boshlanib, 2ta semestrda iborat. Har bir semestr oxirida talaba o'zi qatnashgan maxsus kurs va ma'ruzalarning maxsus sertifikatini yig'adi, sertifikatlarning kerakli sonini to'plagach, imtihon topshirishga ruxsat so'raydi.

Oliy o'quv yurtlarining ikkinchi tipi-maxsus oliy maktablarda o'qish tizimli tashkil etilgan. Bunda talabalar aniq o'quv rejasi va imtihonlar jadvaliga amal qiladilar, shu tariqa oliy ta'limni 4 yilda tugatishlari mumkin.

DAAD dasturi haqida.

DAAD-tashqi siyosatning madaniyat, fan, ta'lim va rivojlanish masalalari bo'yicha muhim dastur hisoblaadi. Qariyb 90 yil davomida DAAD yosh tadqiqotchilarga dunyo bo'yicha xalqaro tajriba almashish imkonini berdi. Turli stipendiyalar bilan taqdirlash mazkur dasturning serqirra aspektlaridan biridir.DAAD nemis universitetlarida turli millat vakillari tahsil olishini, chet davlatlarda nemis tadqiqotlari va nemis tilining yoyilishini, xorijda yangi nufuzli universitetlarning ochilishini ta'minlaydi. DAAD xodimlar xalqaro tajribaga ega va turli grant sohiblaridir.

Bugungi kunda Nemis almashish akademik xizmati (DAAD) dunyodagi eng katta tashkilot hisoblanadi. U turli vazirliklar, xususan, Tashqi ishlar vazirligi, Ta'lim va tadqiqot Federal vazirligi, iqtisodiy kooperativ va rivojlanish Federal vazirligi tomonidan moliyalashtiriladi. Evropa Ittifoqi tashkilotning eng yirik moliyaviy homiylaridan biri. DAADning to'liq byudjeti 2010 yil 384 million bo'lsa, 2013 yilga kelib 430 million evroni tashkil etdi.

2013 yil DAADning 250ta dasturini 79 000 nemislar va xorijliklar qo'llab-quvvatladilar.

DAAD uchta maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan:

1.Qobiliyatlar stipendiyasi: eng a'lochi va qobiliyatli nemis hamda xorijlik talabalarni va tadqiqotchilarni stipendiya bilan taqdirlash.

2. Millatlararo hamkorlik tizimi: Germaniyada va xorijda xalqaro kvalifikatsiyaga mos keluvchi oliy ta'lim tizimini yaratish (daraja olish uchun xalqaro dasturlar, ikki taraflama asoslangan universitetlar, akademik tarmoq va h.)

3. Akademik hamkorlik uchun ekspertiza. Dunyoda samarali hamkorlikni rivojlantirish uchun ta'lim madaniyati va oliy ta'lim tizimida ekspertizani tizimlashtirish, rivojlantirish va ta'minlash.

Fransiya jahondagi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar ichida etakchi o'rinlardan birini egallaydi. Uning ta'lim tizimi ham qadimiy va boy tarixga ega. Fransiya davlatining hozirgi davrda amal qilinayotgan «Ta'lim haqidagi qonun»i 1989 yil 10 iyulda qabul qilingan bo'lib, uning o'zgartirilishiga ta'lim strategiyasida ro'y bergan o'zgarishlar, mamlakatning ichki tashqi siyosatidagi islohotlar natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy sharoitlar, chet el pedagogikasidagi ilg'or texnologiyalarning mamlakat ta'lim tizimlariga kirib kelishi, o'quv predmetlarining integratsiyalari va boshqalar sabab bo'ldi.

Fransiyada ta'limning asosiy maqsadi shaxsni har tomonlama kamol topishini ta'minlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlari sharoitida o'quvchilarni tadbirkorlikka, ishbilarmonlik va omilkorlikka o'rgatish, shunga yarasha kasb-korga ega qilishdan iboratdir. Bu erda davlat maktablari, xususiy maktablar, oraliq maktablar mavjud.

O'qitiladigan predmetlar ichida fransuz tili va adabiyoti, o'qish va yozuv alohida ahamiyatga molik bo'lib hisoblanadi. O'quv yili 5 chorakka bo'linadi. Fransuz maktablari boshlang'ich sinflarda o'qish ertalab bo'ladi, tushdan keyin esa matematika va boshqa predmetlardan qo'shimcha saboq oladilar.

Matematika, ona tili va adabiyoti bazaviy fan, tarix, geografiya, mehnat, jismoniy tarbiya kabi fanlar esa rivojlantiruvchi predmetlar hisoblanadi.

Fransiya ta'limida bolalarning go'daklik chog'idanoq maktabda o'qitish uchun tayyor holda olib kelish g'oyat muhim masala hisoblanadi. Bu bosqichda tarbiyalanuvchilar quyidagicha tabaqalashtirilgan: kichik guruh (2-4 yosh), o'rta guruh (4-5 yosh), katta guruh (5-6 yosh). Maktabga tayyorlov guruhi (5-6 yosh) bo'lib, ularga Fransiyada 100% shu yoshdagi bolalar qamrab olingan. Bolalarni maktabga tayyorlash uchun alohida dastur va darsliklar mavjud.

Fransiya boshlang'ich ta'lim maktablariga 6 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb qilinadilar. Boshlang'ich maktab bepul va majburiy. Uning vazifasi o'qish, yozish hisoblash malakasini berishdir. O'quv mashg'ulotlari ertalab soat 9 dan 12 gacha hamda soat 14 dan 16 gacha 5 soat davom etadi. Maktabda ovqatlanish pullik, lekin juda arzonlashtirilgan narxlarda. Boshlang'ich sinflarda o'qish 5 yil bo'lib, uch bosqichda amalga oshiriladi:

5. Tayyorlov bosqichi;
6. Elementar kurs (bu bosqich ikki yil davom etadi);
7. Chuqurlashtirilgan bosqich.

Tayyorlov bosqichi - 1 yilga mo'ljallangan. Bunda bolalar hisoblashga, o'qish va yozishga, kuylashga, o'ylashga, tabiat manzaralarini tomosha qilishga va undan bahra olishga, jismoniy mashqlar bilan mashg'ul bo'lishga, maktabning turli sport tadbirlarida ishtirok etishga, musiqa va mehnatga o'rgatiladi.

Navbatdagi bosqich - elementar kurs bo'lib bu bosqichda o'qish 2 yil davom etadi. Bunda o'quvchilarning tayyorlov siklida predmetlar bo'yicha olingan bilimlari yanada takomillashtiriladi.

Boshlang'ich maktabning 3 - bosqichi - chuqurlashtirish bosqichidir. Bunda o'quvchilarning tayyorlov va elementar bosqichdagi bilimlari yanada chuqurlashtiriladi. Fransuz maktablarining boshlang'ich bosqichida «Fuqarolik ta'limi», «Nafosat ta'limi» ham o'qitiladi. Nafosat ta'limiga musiqa, tasviriy san'at, sport kiritilgan. O'quvchilar bilan yakka tartibda ishlash, ularni rag'batlantirish, shaxsiy qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, ta'limda uzluksiz va vorislikni ta'minlab berish boshlang'ich sinf o'quvchilariga ko'yilgan bosh talabdir.

O'quv dasturining mazmunini bevosita o'qituvchining o'zi belgilaydi. Bir so'z bilan aytganda, o'qituvchi bolalar bilimiga to'la mas'ul ekan uning uslub tanlashiga mustaqil harakat qilishiga ham to'la erkinliklar beriladi.

1990 yildagi hukumat qaroriga muvofiq maktabgacha tarbiya va boshlang'ich ta'limiga modullashtirish, bolalarning bilimiga u yoki bu fanga moyilligiga qarab differensiyalashtirish, ya'ni tabaqalashtirish, dars jadvalini ham shu asosda tuzish huquqi berildi. Bunday dars jadvallari yillik, yarim yillik, choraklik asosida tuzilishi ham mumkin.

O'quvchilar 11 yoshda boshlang'ich maktabni tugallab o'rta maktabga o'tadilar. O'rta ta'lim esa kollejlar va litseylarda amalga oshiriladi. O'rta ta'lim ikki bosqichda bo'lib, birinchi bosqichda fransuz tili va adabiyoti, chet tili (ingliz, nemis, ispan, italyan tillari), tarix, Fransiya geografiyasi, matematika, tibbiy fanlar o'rgatiladi.

6-5-sinflar umumiy o'rta ta'lim beradi; 4-3-sinflarda esa o'quvchilarga qobiliyati va moyilligiga qarab bilim beriladi. Birinchi bosqich yakunlangach, o'quvchilar kasbiy yo'nalishlari bo'yicha guvohnoma oladilar.

SHundan keyin o'quvchilar 15 yoshdan 18 yoshgacha ta'lim oladilar. O'qish 3 yil davom etib 2- sinf kichik, 1- sinf o'rta va yakunlovchi sinflarga bo'linadi.

O'quvchilar umumiy ta'lim va texnik litseylarni tugatganlaridan so'ng bakalavr unvoni va diplom ishi uchun imtihon topshiradilar. Ana shunday diplomga ega bo'lganlarga oliy o'quv yurtlariga kirish huquqini qo'lga kiritadilar.

Fransiyada talabalar pedagogika, politexnika instituti, oliy ma'muriy maktablarga kirish uchungina imtihon topshiradilar. Bundan tashqari shu kasbga moyilligi ham alohida sinab ko'riladi. Boshqa oliygozlarga va universitetlarga esa bakalavr diplomi bo'lgan yoshlar imtihonsiz qabul qilinaveradi.

Fransiyada oliy ma'lumot va ixtisos beruvchi oliy texnologik institutlar mingdan ortiq. Ular odatda sanoat maishiy xizmat ko'rsatish informatika mutaxassisliklariga ixtisoslashgan. O'qish muddati 2 yil bo'lib sakkiz haftalik ishlab chiqarish amaliyotini ham ko'zda tutadi.

Sirtqi ta'lim

Sirtqi ta'lim xususiy yoki davlat ta'lim shoxobchalarida amalga oshirilishi mumkin. Mamlakatda milliy sirtqi ta'lim markazi faoliyat ko'rsatmoqda, u 500 turdagi o'rta, oliy professional ma'lumot berishni tavsiya eta oladi. Odatda ta'limning bu turi oilaviy sharoit, iqtisodiy sharoitlar tufayli maktabda o'qishni davom ettirish imkoniyati bo'lmagan kishilar uchun mo'ljallangan. Sirtqi ta'lim katta yoshlilar uchun uzluksiz ta'limning muhim shoxobchasi bo'lib qolgan.

Ular o'z ixtiyorlari bilan, o'z mablag'lariga yoki korxonalar mablag'i hisobiga o'qiydilar. Fransiyada sirtqi ta'lim 1 mln kishini qamrab olishi mumkin.

Fransiyada maktab rahbarligi lavozimiga erishmoq uchun ta'limga rahbarlik qilishdan saboq beruvchi maxsus markazlarda o'qiydilar. Bunday markazlarda ular rahbarlik qilish, maktab iqtisodiyotini boshqarish, ta'limdagi yuridik masalalar, qonunchilik, ota-onalar bilan ishlash, madaniy oqartuv ishlarini tashkil etish, jamoada yaxshi psixologik muhitni barpo etish kabi jihatlarni o'rganadi, o'qish yakunlangach, suhbatdan, test imtihonlaridan o'tadilar.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar.

- 1.Germaniya Federal yerlarida ta'lim tizimining umumiy va farqli jihatlarini ko'rsating.
- 2.Germaniyada ta'lim tizimi bosqichlari haqida gapiring.
- 3.Germaniyada maktab tiplari: boshlang'ich ta'lim, yo'nalishli ta'lim, asosiy, real maktablar, gimnaziya, fan va klassik gimnaziyalarning farqini tushuntiring.
- 4.Germaniyada birlashgan (umumiy) maktab turlari: kooperativ va integratsiyalashgan maktablar haqida ma'lumot bering
- 5.Germaniyada maktab ta'limi qanday maktab tiplarga bo'linadi?

6. Fransiyada ta'lim tizimi turlari.
7. Fransiyada maktabgacha ta'lim
8. Fransiyada ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari.
9. Maktabgacha ta'lim va uning mazmuni.
10. O'rta va oliy ta'lim.
11. Sirtqi ta'lim va kadrlar bilan ta'minlanish.

13-mavzu. Fenlandiya ta'lim tizimi

Reja:

1. Fenlandiya ta'lim tizimi haqida umumiy e'tibor

2. Fin ta'limining asoslari haqida

3. Maktab hayotiga doir boshqa muhim ma'lumotlar

Mutaxassislar fikriga ko'ra, dunyoning eng yaxshi ta'lim tizimi Finlandiyada ekan. Finlandiya Yevropaning rivojlangan mamlakatlaridan biri hisoblanadi.

Xo'sh, dunyoda eng yaxshi hisoblanadigan Finlandiya ta'lim tizimi, boshqalardan nimasi bilan ajralib turadi?

- Finlandiyada nufuzli yoki oddiy maktab tushunchasi yo'q. Hamma maktab davlatga tegishli bo'lib, ular bir xil moliyalanadi va bir xil asbob-uskuna va imkoniyatlarga ega;

- Kichik sinflarda bolalarga uy vazifasi berilmaydi, imtihon topshirmaydi va ularga baho qo'yilmaydi;

- Fin maktablarida bolalar juda ko'p insho yozadi: mustaqil ishlash bolaga har bir masala haqida o'z fikriga ega bo'lishni va fikrini badiiy tilda izohlashni o'rgatadi;

- Bir fanni boshqa fanlar o'rnida chuqurroq o'rganish ma'qullanmaydi. Masalan finlar matematikani san'atdan ko'ra chuqurroq o'rganish kerak deb hisoblamaydi;

- Bir o'quvchini boshqa o'quvchibilan qiyoslash ta'qiqlangan. Nogiron va qobiliyatlari bolalar bir sinfda o'qishadi;

- Fin maktablari shiori shunday: Biz bolani yo hayotga tayyorlaymiz, yo – imtihonga. Biz birinchisini tanladik". Shuning uchun ham fin maktablarida faqat bir marta – o'quvchi 16 yoshga to'lganda imtihon topshiriladi;

- Fin maktablarida eng asosiysi— o'quvchini mustaqil hayotga tayyorlashi, deb hisoblanadi. Shuning uchun ham ularga mustaqil bilim olishni o'rgatishadi. Bolalar yodlab olingan formulalar o'rniga, spravochnik, kalkulyator va internetdan foydalanishni o'rganadi;

- O'qituvchilar bir kunda sinf xonasida 4 soat dars beradi va haftaga 2 soat o'qituvchi malaka oshirishiga sarflanadi;

- Finlandiyada "o'qituvchi" kasbi – obro'li kasb hisoblanadi. Oliy ta'lim maskanlarida o'qituvchi bo'lish ishlashga juda katta konkurs mavjud;

- Finlandiyada umumiy o'rta ta'lim – bepul. Buning ichiga bepul tushlik, ekskursiya, maktab avtobuslari va kitoblar kiradi. Ota-onalardan pul yig'ish ta'qiqlangan;

Ma'lumki, Finlandiya Yevropa shimolida joylashgan kichik mamlakat. Katta tabiiy boyliklar, savdo imtiyozlari yoki boshqa sezilarli daromad manbaalariga ega emas. 20 asr boshlarida Finlandiya Yevropaning eng qashshoq mamlakatlaridan biri bo'lgan. O'sha yillarda minglab finlar AQSh, Angliya, Germaniya va Fransiyaga borib oddiy ishchi sifatida (mehnat migranti) ishlagan. O'sha vaqtlarda amerikada uy xizmatchisini "finka" deb atashgan.

Bugungi kunda esa, Finlandiya dunyoning nufuzli tahliliy markazlar fikriga ko'ra, "Dunyoning eng yaxshi mamlakati", "Erkaklar va ayollar huquqlari teng mamlakat", "Dunyoning eng stabil mamlakati", "Dunyoning eng xavfsiz mamlakati", "Dunyoning eng qulay mamlakati" degan nomlariga sazovor bo'lgan.

Ma'lumki, so'nggi paytlarda Finlyandiyadagi ta'lim tizimi dunyodagi eng yaxshi tizim ekanligi va mazkur tizimning bunday maqomga erishishda yordam beradigan radikal (Buyuk Britaniya va AQSh ta'lim tizimi bilan solishtirganda) g'oyalar qanday ishlayotgani haqida fikrlar matbuotda keng muhokama qilinmoqda.

Xo'sh, Finlyandiya ta'lim tizimi bunday muvofaqqiyatga qanday erishdi? Zero, aksariyat hollarda fin talabalari AQSh va Buyuk Britaniya talablaridan yuqoriroq natijalar qayd etishadi.

Ma'lumki, Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti (OECD) tomonidan har uch yilda bir marta o'tkazildigan Xalqaro Talabalarni Baholash Dasturi (PICA), muntazam ravishda amerikaliklar va britaniyalik talabalarning ta'lim samaradorligini baholashda jiddiy ravishda ortda qolayotganligini ko'rsatib turadi. Bugun shu haqida gaplashamiz.

1. Finlyandiya bolalari ta'limni boshqa mamlakatlarnikiga qaraganda kechroq boshlaydilar. Ular 7 yoshdan boshlab maktabga qabul qilinadi. «Bolalarni haddan ziyod erta maktabga berish ilmiy jihatdan foydali emasligi tasdiqlangan», deyiladi fin tizimida.

2. 7 yoshgacha bo'lgan bolalar kunduzgi bolalar bog'chalariga qatnaydilar, ammo u yerda darslar o'rniga ijodiy o'yinlarga e'tibor berishadi. «Bu yoshdagi bolalarga o'ynash va jismoniy faol bo'lish uchun vaqt kerak. Bu yosh ijodkorlik davri», deydi Xelsinki shahridagi Franseniya kunduzgi davolash markazi rahbari Tina Marjoniemi.

3. O'qishning har 45-daqiqasida talabalar 15 daqiqa tanaffus qilib, turli o'yinlar o'ynashadi.

4. Finlandiyada majburiy ta'lim 9 yil davom etadi, o'quvchilar 16 yoshdan o'qishni tark etishlari mumkin. Ushbu g'oya Finlyandiya talabalarini haqiqiy hayotga tayyorlashga qaratilgan.

5. Finlyandiyada talabalar faqat 16 yoshida markazlashtirilgan imtihon (Milliy Matriculation Test) dan o'tishlari talab qilinadi.

6. Finlyandiya talabalari rivojlangan mamlakatlar ichida eng kam dars soatlarini o'qiydilar (darslar 8-9 oralig'ida boshlanib, kunduzgi 2 gacha yakunlanadi), shunga qaramay juda yaxshi natijalar qayd etadilar.

Finlyandiyadagi maktablar hech qanday tartibda joylashmagan, maktablar, mintaqalar, o'qituvchilar va hatto talabalar o'rtasida taqqoslashlar mavjud emas. Ular raqobat emas, aynan hamkorlik muvaffaqiyat kalitidir, deb hisoblashadi.

8. Fin o'qituvchilari dunyodagi eng malakali mutaxassislardir. Finlyandiyada o'qituvchilikka bo'lgan talablar juda yuqori.

9. Finlyandiya o'qituvchilari xuddi shifokorlar va yuristlar kabi maqomga ega. Ularning ijtimoiy mavqeisi ham juda yuqori.

10. Fin o'qituvchilarining bu qadar o'lgan mavqega egaliklari o'qituvchi kasbiga bo'lgan talabning yuqoriligi hamda malaka imtixonlarining murakkabligi bilan izohlanadi. Shuning uchun Finlyandiyada ular o'z o'qituvchilarini doimiy ravishda baholash va baholab borish zaruratini sezmaydilar. Agar o'qituvchidan qandaydir xato yoki kamchilik o'tadigan bo'ls, u bilan maktab direktorining o'zi shug'ullanib qo'ya qoladi.

11. Finlandiyada maktablar tekshirilmaydi. 1990 yillarning boshlarida Finlyandiyada maktablarni maxsus komissiyalar tomonidan tekshirilish amaliyoti bekor qilindi. Finlandiyaliklar o'qituvchilar va maktab rahbarlarining professionalligiga ishonadilar. Maktablar o'z-o'zini baholashga da'vat etiladi.

12. Finlandiyada xususiy maktablar mavjud emas. Fin maktablari o'rtasida raqobat yo'qligining sabablaridan biri shundaki, barcha maktablar davlat mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi. Shu bois qaerdadir yaxshi, qaerdadir sustroq ta'lim berilishiga yo'l qo'yilmaydi.

13. Finlyandiya maktablarining barcha o'quvchilarining tushligi davlat tomonidan qoplab beriladi. 1943 yildan buyon mazkur amaliyotga amal qilib kelinmoqda.

14. Finlyandiya ta'lim tizimi test natijalarini ko'paytirish va matematika, tabiiy fanlar va ingliz tillariga ustuvorlik berish o'rniga, o'qish uchun sog'lom va uyg'un muhit yaratishga e'tibor qaratildi. Bunda ta'lim «ijtimoiy tengsizlikni muvozanatlash vositasi bo'lishi kerak», degan mafkuraga amal qilinadi.

15. Finlyandiya talabalari ko'proq tillarni o'rganishadi. Ular fin tilini maktabdagi birinchi kundan o'rganishadi. 9 yoshida ular shved tilini o'rganishni boshlaydilar. 11 yoshida ular uchinchi tilni (odatda ingliz tilini) o'rganishga rag'batlantiriladi. Ko'plab o'quvchilar 13 yoshida to'rtinchi tilni o'rganayotgan bo'ladi.

16. O'qituvchilar odatda kuniga 4 soatdan mashg'ulot o'tkazishadi va har hafta ularga kasbiy rivojlanish uchun 2 soat vaqt ajratiladi. Bu esa, o'z navbatida muallimlarga tushadigan stressni kamaytiradi.

17. Finlyandiya milliy o'quv dasturi keng qo'llanma bo'lib, o'qituvchilarga o'z uslubi va fikrlarini sinfda ishlatishiga imkon beradi. Bu Finlyandiya ta'lim tizimining o'z o'qituvchilariga bo'lgan ishonchiga asoslanadi.

18. O'rta maktab o'quvchilarining 66% qo'shimcha ta'limga (kollej yoki kasb-hunar kurslariga) qatnaydilar.

Finlyandiya har bir talabaga AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya va Germaniyaga qaraganda taxminan 30% kamroq mablag' sarflaydi (OECD statistikasi).

PISA nufuzli xalqaro tashkiloti har 3 yilda o'tkaziladigan xalqaro tadqiqotlar natijalariga ko'ra, fin maktab o'quvchilari dunyodagi eng yuqori darajadagi bilimlarni namoyish qilishdi. Ular sayyoramizning eng ko'p o'qigan bolalari sifatida e'tirof etildi. Ahamiyatli tomoni, finlyandiyalik o'quvchilar boshqa mamlakatlardagi tengdoshlariga nisbatan maktabda kamroq vaqt o'tkazib, kuniga eng ko'pi bilan yarim soat dars qilishar ekan. Xo'sh, fin ta'lim tizimi dunyoning eng muvaffaqiyatli ta'lim tizimi sifatida e'tirof etilayotganining sababi nimada? Maktabda kamroq bo'lib, kam dars qilgan o'quvchilar qanday qilib sayyoraning eng yaxshi o'quvchilari sifatida tan olindi? Ana shu savollar bizni qiziqitirdi. Finlyandiya ta'limini o'rgandik, mutaxassislarning fikrlarini tingladik. Manba izlash davomida shu bo'yicha bizga o'zimiz xohlagan ma'lumotni bera oladigan mutaxassis ham topdik. "ConnectUz" konsalting kompaniyasining asoschisi, ta'lim va tadqiqotlar sohasida jamoat arbobi, Finlyandiya yoshlari loyihasining muallifi, universiteti ma'ruzachisi, Buyuk kelajak maslahat kengashi a'zosi, hozirgi kunda Finlyandiya yashaydigan vatandoshimiz Kamilla Sultanova bilan bog'landik. U Finlyandiya ta'limi to'g'risida bizga ma'lumot berdi.

Fin ta'limining asoslari haqida

Bu erda bolalar haftada besh kun, faqat kunduzi va juma kuni qisqartirilgan maktab kunida o'qishadi. Dars vaqti har bir maktabning o'z ixtiyoriga ko'ra, 8 dan 16 gacha. Bu mamlakatning eng katta maktabida 960 ta o'quvchi bor. Eng kichik maktabda esa 11 nafar o'quvchi ta'lim oladi. Deyarli barcha maktablar – davlat maktablaridir. SHuningdek, xususiy maktablarham bor.

Finlyandiya yuqori darajadagi ta'limga ega. Dastlabki tayyorgarlik, o'rta ta'lim va ikkinchi bosqichni o'qitish bepul bo'lib, ko'p hollarda qo'shimcha ta'lim ham bepuldir. Daromad darajasidan qat'i nazar, har bir oila sifatli ta'lim olish va mamlakatning faol fuqarosi bo'lish uchun teng imkoniyatga ega. Bu erda bolalar haftada besh kun, faqat kunduzi va juma kuni qisqartirilgan maktab kunida o'qishadi. Dars vaqti har bir maktabning o'z ixtiyoriga ko'ra, 8 dan 16 gacha. Bu mamlakatning

eng katta maktabida 960 ta o'quvchi bor. Eng kichik maktabda esa 11 nafar o'quvchi ta'lim oladi. Deyarli barcha maktablar – davlat maktablaridir. SHuningdek, xususi maktablar ham bor.

O'quv yili avgustda boshlanib, may oyi oxirida yakunlanadi

Fin ta'limi muvaffaqiyatini ta'minlaydigan 7 ta asos bor. SHular haqida to'xtalamiz: hamma narsada tenglik kerak:

Bu har bir narsada tenglik tamoyilini ilgari suradi. Keling izohlaymiz. Masalan, eng yaxshi maktab yoki eng yomon maktab degan tushuncha yo'q. Barcha ta'lim muassasalari bir xil jihozlanadi, bir xil moliyalashtiriladi. Tenglik tamoyili maktabning har bir yo'nalishida aks ettirilgan, desak to'g'ri bo'ladi. Masalan, hamma fan-lar birdek o'qitiladi, biri boshqasiga qaraganda chuqurroq o'rgatilmaydi. O'quvchining ota-onasi qaerda, kim bo'lib ishlashi muhim emas, hamma o'quvchi tengdir, degan qarash ham bor. O'qituvchilarga o'quvchilardan ota-onasi, ularning ish joyi haqida so'rashi taqiqlangan. Bundan tashqari, o'quvchilar bir-biriga taqqoslanmaydi ham. YA'ni, yaxshi o'qiydigan bola ham, fanlarni yomon o'zlashtiradigan o'quvchi ham hammasi birga o'qiydi.

Bepul ta'lim: Finlyandiya maktablari mutlaqo bepul. Bundan tashqari, ovqatlanish, ekskursiyalar, maktab taksisi, darsliklar, ofis, jihozlar va hatto planshet-noutbuklar ham bepul.

Individuallik: Fin maktabida har bir bola individual o'quv dasturiga muvofiq o'rganadi. Har bir o'quvchining o'z darsliklari, vazifalari, mashqlari mavjud bo'ladi. Bitta sinfning o'zida, bir darsda bolalar bir xil emas, aynan har xil murakkablikdagi mashqni bajarishadi. Har bir bola o'z vazifasini bajaradi va alohida baholanadi. Bolalarni o'zaro taqqoslashga yo'l qo'yilmaydi.

Amaliylik: Bu narsa ko'proq hayotga tayyorlov yondashuvidan kelib chiqadi. YA'ni maktablarda nafaqat turli fanlardan saboq beriladi, balki hayotga foydali bo'lgan narsalar ham o'rgatiladi. Masalan, ular meros solig'i yoki ish haqi miqdorini hisoblab, bir necha chegirmalardan so'ng mahsulot narxi qancha bo'lishini taqqoslab ham berishadi.

Ishonch: Mamlakatda ta'lim dasturi bir xil. U faqat umumiy tavsiyalarni ifodalaydi. Har bir o'qituvchi o'ziga tegishli bo'lgan, o'zi qaysi birini ma'qul ko'rgan bo'lsa, o'sha uslubni qo'llagan holda dars o'tadi. Ishonch tamoyili bevosita o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarda ham aks etadi. Qanday qilib deysizmi? Masalan, dars davomida o'quvchi o'zini qiziqtirgan mashg'ulot bilan shug'ullanishi mumkin. Eng muhimi, u o'ziga nima kerakligi, qaysi biri foydali ekanligini yaxshi biladi.

Ixtiyoriy ta'lim: Fin ta'lim tizimida bola o'qishi, o'rganishi uchun majburlash yondashuvi yo'q. To'g'ri, pedagoglar o'quvchining e'tiborini tortishga harakat qilishadi. Lekin qiziqish, o'rganishga ishtiyoq bo'lmasa, u majburlanmaydi, balki amaliy jihatdan foydali bo'lgan, o'zi qiziqqan kasbga yo'naltiriladi. Bolaning nimaga qiziqishi, qaysi kasbga moyilligi "kelajak o'qituvchisi" tomonidan test va suhbat yo'li orqali aniqlanadi.

Mustaqillik: Finlar har bir narsada mustaqillik, maktab bolasiga eng muhim narsani – mustaqil istiqbolli hayotni o'rgatish kerak, deb hisoblashadi. O'qituvchi kitoblarda bor mavzular haqida uzundan-uzoq gapirib o'tirmaydi. Axir ularning hammasi kitobda bor-ku. Eng muhimi, mavjud bo'lgan muammolarni hal qilish uchun zarur resurslarni bilish kerak. Ya'ni internet, kalkulyatordan foydalanish qobiliyatini o'stirish kerak.

Maktab hayotiga doir boshqa muhim ma'lumotlar:

Men o'zbek ayoli sifatida finlyandiyalik yoshlarga, o'qituvchilar va o'quvchilarga kerakli qadriyatlarini etkazib berishimga ishonaman. To'g'ri, Finlyandiya ta'lim olish borasida imkoniyatlar ko'p. SHu bilan birga muammolar ham bor. Masalan, O'zbekistonda bitta ta'lim yo'nalishini tanlaysiz. Finlyandiya esa juda ko'p narsa bor va ba'zan tanlash juda qiyin bo'ladi. Xelsinki shahrida joylashgan 2 ta umumta'lim maktablarida professional yo'nalish bo'yicha hamkorlik qilib kelaman. 2 yildirki "Global Dignity Girls & Boys Ry" firmasi bilan ish olib boryapmiz. Ularning asosiy maqsadi – yoshlarga o'z qadr-qimmatini bilan ishonchli, jasoratli va xatosiz, qo'rqmasdan yashashni boshlash

uchun namuna modellaridan ilhom berishdir. Finlyandiya poytaxti hududida 7, 8 hamda 9 sinflar uchun 2 soat davomida ilhomlantiruvchi tadbirlar o'tkaziladi. Maktab, o'qituvchi va talabalarning hamkasblari bo'lish men uchun ham katta mas'uliyatdir. 2015 yil boshida tashkil etilgan "Global Dignity Girls & Boys Ry" tashkiloti tadbirlarida va turli xil san'at loyihalarida Xelsinki qariyb 4000 nafar yigit-qiz ishtirok etdi. Ko'cha-ko'ya badiiy loyihalar, seminarlar, munozaralar va forumlar o'tkazildi. Esa Rantamo Taivallahti va Yhtenäiskoulu maktabi talabalarni jalb qilishga mas'ul edi. Bunda 2 ta foydali loyiha bor edi. "Hyvän mielen lounas" bu – keksa odamlarga yaxshi tabassum va tushlik dasturi. Biz yoshlarni ular bilan suhbatlashish loyihasini yaratdik. YOshlar bilan ishlash loyihasini yoshlar bilan birgalikda yaratdik va sinovdan o'tkazdik. 2018 yil may oyida Esa Rantamo (o'qituvchi, professional yo'naltiruvchi shaxs) men

Dunyoning aksariyat ta'lim muassasalari o'z kiyimiga ega. Ayniqsa, bu maktablarga tegishli. Lekin Finlyandiya bunday emas. Finlar maktab kiyimi kerak emas, deb hisoblashadi. Poyabzal ham ixtiyoriy.

Fin maktablari yuqoridan tekshirilmaydi (1970 yillarda ta'lim sohasida ko'plab nazorat qiluvchi organlar bekor qilindi). Maktablar oliy organlarga hisobot berishi shart emas. Bu bilan maktablardan ko'plab hujjatlarni olib tashlash, ular bilan ishlash tizimiga barham berildi. Ular uchun asosiy narsa bu emas, eng muhimi ta'lim sifati, bolalar bilan ishlashda vaqtni boy bermaslikdir.

Finlyandiya asosiy ta'limda talabalar uchun milliy testlar yo'q. Buning o'rniga o'qituvchilar o'quv dasturida o'z mavzusini baholash uchun mas'uldirlar. Sertifikatning bahosi ham o'qituvchi tomonidan beriladi. Ushbu baho asosida talabalar kelgusida o'qish uchun tanlanadi. SHunday qilib, milliy o'quv dasturi bo'yicha keng tarqalgan mavzularni baholash ko'rsatmalari taqdim etiladi.

O'qituvchi o'qitish usullarini erkin tanlaydi

Finlyandiya barcha o'qituvchilar magistr darajasini olishi kerak. Kasb-hunar ta'limi bo'yicha o'qituvchilar ustoz yoki bakalavr darajasiga ega bo'lishi lozim. Ta'limning yuqori darajasi, Finlyandiya o'qituvchilari talabiga binoan, juda avtonom professionaldir. Ularga o'qitish usullarini tanlashda to'liq erkinlik beriladi. Har bir o'qituvchi mustaqil ravishda uni o'rganish uchun o'quv dasturini yaratishi mumkin. (Abiturientlardan faqatgina 10 foizi studentlikka qabul qilinadi).

O'QISH BOSQICHLARI: 1- sinflar. Bolalar odatdagiday o'qituvchi bilan bir xonada o'tirishadi. Eng kichik (1-2 sinflar) o'qish, fin, matematika, ish, rasm, musiqa va jismoniy tarbiya darslari o'tiladi. Finlyandiya boshlang'ich maktab bir vaqtning o'zida bir nechta kurslarni o'qitish mumkin. Biroz vaqtgacha (3-6 sinflar) bolalar ingliz tilini mukammal o'rganishadi. To'rtinchi kursda yana bir chet tilini tanlashadi. SHu bilan birga qo'shimcha fanlarni o'z ichiga oladi: kompyuter, xor va yog'och ishlari. Ijodiy rivojlanishga katta e'tibor qaratiladi. O'quvchilar turli xil musiqa asboblari o'rganishadi. O'quv mashg'ulotining beshinchi yilida fanga ta'rix, kimyo, fizika va geografiya qo'shiladi. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari haftasiga 1-3 marta o'tkaziladi. O'rta maktab: 7-9 sinf. Bu yillarda asosiy fanlarga o'z tanlovlariga parallel sub'ektlar qo'shiladi. 9-sinf o'quvchilari haqiqiy ish bilan tanishishadi.

Ular ish joyini tanlashadi va o'zlarini qiziqtirgan kasbni egallashadi. o'shimcha daraja: 10 sinf. Bu daraja o'quvchilarning natijalarini yaxshilash imkoniyatini beradi. Kollej, litsey: 11-12 sinflar. 10-sinfni tamomlagach, maktab o'quvchilari litseyda o'qishni davom ettirishadi. YOki kasb-hunar kollejiga borishadi. Bitirgandan so'ng, barcha imtihonlarni topshirgandan keyin tantanali muhitda oq shapka olishadi. Bundan buyon ular mamlakatdagi har qanday universitetga o'qishga kirishlari mumkin.

Finlarga dars berayotgan o'zbek qizi

– 2006 yilda Global Dignity tashkiloti ta'asis etildi. U Norvegiya shahzodasi Xokonom, falsafa fanlari professori Pekka Ximanen (Finlyandiya) va HOPE tashkilotining asoschisi Jon Xoup Brayant (AQSH) tomonidan tashkil etildi. Hozir 70 ga yaqin mamlakatlarda bo'lgan 1,5 million yosh bu

tashkilotga a'zo hisoblanadi. Men 2014 yildan beri Finlyandiya filialining asoschilaridan biri bo'lib ishlayapman. Bu menga maktab tizimining qanday ishlashi borasida juda katta tajriba berdi.

Men o'zbek ayoli sifatida finlyandiyalik yoshlarga, o'qituvchilar va o'quvchilarga kerakli qadriyatlarni etkazib berishimga ishonaman. To'g'ri, Finlyandiyada ta'lim olish borasida imkoniyatlar ko'p. Shu bilan birga muammolar ham bor. Masalan, O'zbekistonda bitta ta'lim yo'nalishini tanlaysiz. Finlyandiyada esa juda ko'p narsa bor va ba'zan tanlash juda qiyin bo'ladi. Xelsinki shahrida joylashgan 2 ta umumta'lim maktablarida professional yo'nalish bo'yicha hamkorlik qilib kelaman. 2 yildirki "Global Dignity Girls & Boys Ry" firmasi bilan ish olib boryapmiz. Ularning asosiy maqsadi – yoshlarga o'z qadr-qimmatini bilan ishonchli, jasoratli va xatosiz, qo'rqmasdan yashashni boshlash uchun namuna modellaridan ilhom berishdir.

Finlyandiya poytaxti hududida 7, 8 hamda 9 sinflar uchun 2 soat davomida ilhomlantiruvchi tadbirlar o'tkaziladi. Maktab, o'qituvchi va talabalarning hamkasblari bo'lish men uchun ham katta mas'uliyatdir. 2015 yil boshida tashkil etilgan "Global Dignity Girls & Boys Ry" tashkiloti tadbirlarida va turli xil san'at loyihalarida Xelsinki qariyb 4000 nafar yigit-qiz ishtirok etdi. Ko'cha-ko'yda badiiy loyihalar, seminarlar, munozaralar va forumlar o'tkazildi. Esa Rantamo Taivallahti va Yhtenäiskoulu maktabi talabalarni jalb qilishga mas'ul edi. Bunda 2 ta foydali loyiha bor edi. "Hyvän mielen lounas" bu – keksa odamlarga yaxshi tabassum va tushlik dasturi. Biz yoshlarni ular bilan suhbatlashish loyhasini yaratdik. YOshlar bilan ishlash loyhasini yoshlar bilan birgalikda yaratdik va sinovdan o'tkazdik.

2018 yil may oyida Esa Rantamo (o'qituvchi, professional yo'naltiruvchi shaxs) men bilan birgalikda yoshlar forumida birga ishladi. Talabalar bilan suhbatlashdik, ular haqida doskada yozishdik va ijtimoiy tarmoqlarda baham ko'rishdi. Esa Rantamo bizning konsepsiyamizga bo'lgan g'ayrati, o'quvchilarga eng yaxshisini berish istagi, talabalarga ko'ngilli bo'lish imkoniyatini berdi. Turli forumlarda o'zlarini amalda sinab ko'rdi. Bu mas'uliyatni o'ziga singdirish uchun yaxshi imkoniyat edi. YOshlar tad- birlarni qanday tashkil qilish, logistika masalalarini hal qilish va birgalikda yangi loyihalar qilish borasida katta ko'nikmaga ega bo'lishdi. Eng muhimi, ushbu tadbirlar orqali o'quvchilar o'zida shaxsiy liderlik tuyg'usini shakllantirdi. Hamkorligimiz tufayli odamlarda haqiqiy muloqot tajribasi shakllandi va talabalarni jamoaga yaqinlashtirdi.

O'tgan yilda O'zbekiston bilan ham ishladik. 400 ga yaqin yoshlarga Global Dignity to'g'risida master klass o'tdik. Ya'ni o'z qadr-qimmatini hurmat qilish tamoyillari bilan tanishtirildi. Ishonamanki, 2019 yilda faoliyatimiz yaxshi samara beradi. Xususan, jamoada ishlash va o'zingizni qadrlashni o'rganish – bularning barchasi finlardan o'rganadigan asosiy tamoyildir. Eng muhimi, o'qish qiziqarli bo'lishi kerak. Maktabning 4 devorida o'ynash va o'qish kerak emas. O'quvchilar muzeylar, tadbirkorlar bilan loyihalar va xususiy sektor bilan yaqin hamkorlik qilib, talabalar o'zlarini kelajakdagi kasbi yoki maktabda ko'rishlari kerak. Finlyandiya bilan nimani o'rganishimiz mumkin? Ta'limga davlat yondashuvi va kelajakdagi o'qituvchilarni tayyorlashni.

So'nggi 40 yil ichida ta'limga bo'lgan ulkan sarmoyani ham. Bolada o'ziga xoslik hissini shakllan- tirish, kasbiy yo'nalishlarga yo'naltirilgan loyihalarda faol ishtirok etishga undash kerak. Talabalarda mustaqillik va mas'uliyatni erta yoshdan o'rganishi uchun sharoit yaratish lozim. Vladimir Pozner o'z dasturida aytadi- ki, fin maktabi kichkina oila farzandi va nogironga sirtmoqqa suzish, muvaffaqiyat qozonish, gimnaziya yoki litseyga ro'yxatdan o'tish va keyinchalik oliy ma'lumot olish uchun yordam beradigan ijtimoiy tashkilot hisoblanadi. Bu fin jamiyatining eng muhim elementi. Fin maktabida iqtidorli bola- larni qo'llab-quvvatlanmasligi haqidagi shikoyatlarni tushunishning iloji yo'q. Biroq bu sizning farzandingizning ma'lum bir maktabda bo'lishiga doir jiddiy tavsiyalar beradigan o'qituvchilar va psixologlar bilan hamkorlik qilish zarurligini istisno qilmaydi.

Muammolar ham bor...

Finlyandiyada 15-29 yoshdagi 70 000 yigit-qiz ta'limdan, amaliyotdan yoki ishdan tashqarida yashaydi. Ya'ni ijtimoiy hayotda emas. Buning sabablari har xil. Albatta, eng muhimi ishsizlik, mehnat bozori talablariga nisbatan ta'limning etishmasligi, shuningdek, sog'lik muammolari ham bor. Bundan tashqari, sevimli mashg'ulotlar- ning etishmasligi va bo'sh vaqtning boshqa turlari ham bunga sabab bo'lyapti. Bu borada ayniqsa, o'g'il bolalar qolib ketish xavfi mavjud. Statistik xulosalar shuni ko'rsatyapti. Olimlar kelajakda ayollar ham ish, ham oila uchun yanada ko'proq mas'uliyat olishidan ogohlantirmoqda. Ta'limdagi dolzarb muammolarga to'xtaladigan bo'lsak, etnik jihatdan turli xil o'quvchilarni sinflarga va ta'limga integratsiyalashtirish, kelajakda ish kuchiga nisbatan noaniqlik bilan yumshoq (ijtimoiy) ko'nikmalarni rivojlantirish, deb hisoblayman. SHuningdek, o'qituvchilar mutaxassisligiga ham e'tibor qaratish kerak. CHunki ular mamlakatdagi innovatsiyalar va inson ongi rivojining kafolati bo'lishi mumkin.

Tadqiqotlarga ko'ra, fin o'quvchilari sayyoraning eng yaxshi o'quvchilaridan biri ekan. Qiziq jihati shundaki, finlyandiyalik o'quvchilar boshqa mamlakatlardagi tengdoshlariga nisbatan maktabda kamroq vaqt o'tkazadi va kuniga eng ko'pi bilan yarim soat dars qilishadi.

SHunday bo'lsa-da, fin ta'lim tizimi dunyoning eng muvaffaqiyatli ta'lim tizimi sifatida e'tirof etilmoqda.

Bepul ta'lim

Finlyandiyada ta'lim bepul. Maktabda tushlik, maktab uyushtiradigan ekskursiyalar va darsliklar ham mutlaqo bepul. Agar o'quvchilar maktabdan 2 km uzoqda yashaydigan bo'lsa, maktab avtobuslari ularni olib kelish va darslar tugagach, uylariga eltib qo'yishni o'z zimmasiga oladi. Barcha xarajatlar davlat tarafidan ajratiladigan byudjet mablag'lari hisobidan qoplanadi. Davlat o'z byudjetining 12,2 foizini ta'lim tizimiga sarflaydi.

Har bir o'quvchiga individual yondashuv

Fin maktablarida o'quvchilar o'z salohiyatidan kelib chiqqan holda murakkabligi turlicha bo'lgan vazifalarni hal qiladi. Jismoniy va aqliy salohiyati turli bo'lgan bolalar birgalikda ta'lim oladi va o'ynaydi. Agar o'quvchi o'zlashtirishda qiyinchilikka duch kelsa, unga qo'shimcha mashg'ulotlar olib borish uchun alohida o'qituvchi tayinlanadi. Muhojir bolalar fin tilidan ham qo'shimcha mashg'ulot olib borishlari uchun barcha narsa muhayyo qilinadi.

Fin ta'lim tizimining yana bir jihati shundaki, o'quvchi o'zi foydali deb topgan fanni o'rganishi mumkin. Agar dars o'quvchiga qiziqarli bo'lmasa, u kitob o'qishi yoki bichish-tikish bilan shug'ullanishi mumkin.

Baholar o'quvchining o'ziga bildiriladi

Fin ta'limida 10 ballik baholash tizimi amal qiladi. O'quvchilarga 3-sinfgacha baho qo'yilmaydi. 3-sinfdan 7-sinfgacha baholar og'zaki tartibda qo'yiladi, ular "o'rta"dan "a'lo" gacha bo'lishi mumkin. U yoki bu fandan o'quvchi olgan baho faqatgina uning o'ziga xabar qilinadi. O'zlashtirishi yomon bo'lib, past baho olgan o'quvchilarni koyish fin ta'lim tizimida tatbiq etilmaydi. Baholar fin maktablarida rag'batlantirish, o'quvchi bilimini oshirish va o'quvchining shaxsiy o'quv rejasini to'g'rilash uchun joriy etilgan.

Topganingni kiyib kel

Fin maktablarida aniq bir maktab formasi mavjud emas. Maktabga istalgan kiyimda borish mumkin va buning uchun maktab ma'muriyati o'quvchiga hech ham tanbeh bermaydi. Fin pedagoglari ta'biri bilan aytganda, "maktab ilm beradigan va o'quvchi ilm olishga keladigan maskan". Ko'p holatlarda o'quvchilar sinfxonalarda poyabzalini echib, paypoqda yuradi.

Erkinlik maskani

Maktab deyilganda ko'pchilikni ko'z o'ngida partalar mavjud bo'lgan xonalar tushuniladi. Finlyandiya maktablarida esa o'quvchi bilim olishi uchun albatta partada o'tirishi talab qilinmaydi. Darsni kuzatgani kirsangiz, ayrim o'quvchilarning divanda yotgani yoki gilamda o'tirganiga guvoh

bo'lishingiz mumkin. Quyoshli kunlarda darslar ochiq havoda yoki maxsus amfiteatrlarda ham olib borilishi mumkin.

Uyga vazifalar

Fin o'qituvchilarining nazdida o'quvchilar ko'proq vaqtini maktabda emas, ota-onalari bilan o'tkazishi kerak. Uyga vazifalarni bajarish ko'p vaqt talab etmaydi va qiziqarli bo'ladi. Misol uchun, tarix darsida o'quvchiga bobosi yoki buvasidan 50-yillardagi hayot qanday bo'lganligi haqida intervyu olib kelish hamda 50-yillar va hozirgi davr o'rtasidagi farqlar haqida gapirib berish vazifasi topshirilishi mumkin.

Imtihon olinmaydigan ta'lim tizimi

Fin ta'lim tizimidagi yangi o'qitish usullaridan biri – muayyan fanni emas, balki hodisalarni o'rganishning (phenomenon based learning) tatbiq etilishidir. O'quvchilar uchun an'anaviy darslar o'rniga 6 haftalik "bo'limlar" tashkil etilgan bo'lib, o'quvchilar bir mavzuni turli tarafdin o'rganishadi. Misol uchun, muhojirlar mavzui geografiya nuqtai nazaridan ular qaerdan kelganligi, tarix nuqtai nazaridan muhojirlar kelishidan oldin nima sodir bo'lgani, madaniyat fani nuqtai nazaridan muhojirlarning madaniyati o'rganiladi. Bolalarning o'zlari savollar beradi va o'zlari shu savollarga javob topadi.

Uzoq tanaffuslar

O'qish qanchalik maroqli jarayon bo'lishidan qat'i nazar, bola uchun eng quvonarlisi tanaffusdir. Fin maktablaridagi bolalar 45 daqiqali darsdan so'ng 15 daqiqa tanaffus qiladi.

Fin o'qituvchilari dunyoning eng zo'r o'qituvchilaridir

Helsinki universiteti pedagogika fakultetiga o'qishga kirish uchun raqobat o'ta kuchli. Bir o'ringa 20 nafar abituriyent to'g'ri keladi. Bolalarga ta'lim berish istagida bo'lganlarning soni esa ish o'rniga qaraganda 10 barobar ko'pdir. Finlyandiyada o'qituvchining o'rtacha maoshi 3500 evroni tashkil qiladi. Finlyandiyada o'qituvchi bo'lish nufuzli kasblardan sanaladi, bolalarni o'qitish esa sharaflig' ish.

Maktablarda qat'iy belgilangan o'quv dasturi mavjud emas. Qanday metodika va o'quv dasturidan foydalanishni o'qituvchining o'zi hal qiladi. O'qituvchidan tashqari fin maktablarida o'qituvchi assistenti faoliyat olib boradi. Uning asosiy vazifasi dars borishini kuzatish va bolalarga dars tayyorlashda yordam berishdan iborat.

Hayotga tayyorlovchi ta'lim tizimi

Fin maktablarida o'quvchilar katta va haqiqiy hayotga tayyorlanadilar. Suzish darslarida o'quvchilar cho'kayotgan odam belgilarini, uy xo'jaligi darslarida esa ovqat tayyorlash, bichish va tikish o'rgatiladi. Fin maktablarida ko'proq e'tibor tabiatga do'stona munosabatda bo'lishga, tabiatni asrab-avaylashga qaratiladi. Fin o'quvchilari uchun portfolio tayyorlash yoki shaxsiy sayt yaratish bir zumlik vazifadir. Eng asosiysi fin maktablaridagi ta'lim tizimi, o'quvchilarni yangi va o'zgarib borayotgan dunyo muhitiga moslashib ketishga o'rgatadi. Qiyin formulalarni yod olish yoki sanalarni eslab qolishga o'rgatilmaydi, chunki bularni har doim internetdan ko'rib olsa bo'ladi.

Eng yaxshi maktab tanloving mavjud emasligi

Fin o'quvchilarining ota-onalari eng yaxshi maktab qaysi, deb izlab yurmaydi. O'quvchilar, odatda, o'z uylariga yaqin maktabga qatnaydi. Finlyandiyada elita maktablari yo'q. O'quvchi qaerda yashashidan qat'i nazar, birday kerakli zamonaviy jihozlar, o'quv darsliklari, yuqori malakali o'qituvchilar va bekamu ko'st maktab oshxonasi bilan ta'minlangan.

Tushlikka nima iste'mol qilishni o'quvchining o'zi tanlaydi

Fin maktablaridagi ovqatlanish xilma-xil va bepul "shved stoli" bor. Maktab veb-sahifasida oshxona menyusi e'lon qilib boriladi va o'quvchi istalgan paytda sahifaga kirib, o'ziga yoqqan taomni "savatchaga" saqlab qo'yishi mumkin. Menyuda parhez taomlardan tortib, vegetarianlarbop taomlargacha kiritilgan.

Maktabda yotib qolsa bo‘ladi

Ba’zida o‘quvchilar maktabga yostiq bilan kelishi ham odatiy hol. Ular maktabda o‘z o‘qituvchilari bilan yotib qolishadi, birgalikda kino tomosha qiladilar va o‘ynaydilar, sport zali bo‘yrasida uxlaydilar. Ertalab esa to‘planishib muzqaymoq bilan nonushta qiladilar. Bunday maktabni yomon ko‘rib bo‘ladimi? SHuning uchun ham fin o‘quvchilari uyidan ham ko‘proq maktabini yaxshi ko‘radi.

Kuchuklargacha “kitobxon”

Fin maktablaridagi kutubxonalarda maxsus o‘rgatilgan kuchuklar ham bor va ularga o‘quvchilar “kitobxon” kuchuklar deb nom qo‘ygan. “Kitobxon” kuchuklar kitobga mehr qo‘yishni bolalarga o‘rgatadi, chunki ularga kitob o‘qib berganda yoki qiziqarli hikoyalar so‘zlab berganda diqqat bilan tinglaydi.

Nazorat uchun savollar

1. Finlandiya ta’lim tizmi haqida nimalarni bilasiz?
2. Finlandiya ta’lim tizimining afzalliklari haqida.
3. Finlandiyaning bepul ta’lim tizimi haqida gapirib bering.

14-Mavzu: Singapur va Turkiyada davlatlari ta’lim tizimining o‘ziga xosliklari

Reja:

- 1. Turkiya talim tizimining mamlakat Konstitutsiyasida ifodalanishi.**
- 2. Turkiya ta’lim tizimi va uning turlari.**
- 3. Turkiya litseylari va ularda ta’lim dasturlarining bajarilishi.**
- 4. Singapurda oily ta’lim**

Tayanch so‘zlar: maktabgacha tarbiya; boshlang‘ich maktab; o‘rta maktab; dastur; litsey; oliy ta’lim.

O‘zbekiston Respublikasi istiqloлга erishgach, uning mustaqilligini birinchi bo‘lib qardosh Turkiya Respublikasi tan oldi. Mamlakatlarimiz o‘rtasida iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar, shu jumladan, ta’lim bo‘yicha hamkorlik tez rivojlanib bordi va u bizning xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarimizda etakchi o‘rinlardan birini egalladi.

Bu hamkorlikning natijasi o‘laroq, Respublikamizda 20 dan ortiq o‘zbek-turk hamkorligidagi litseylar tashkil etildi va ular yaxshi faoliyat ko‘rsatmoqdalar. Har yili yuzlab o‘zbekistonlik o‘quvchilar va talabalar ta’lim olish uchun Turkiyaga jo‘natilmoqda. Ayni vaqtda turkiyalik yoshlar ham Respublikamiz o‘quv muassasalarida bilim olmoqdalar.

Shuningdek, bu mamlakat bilan keng ko‘lamda ta’lim bo‘yicha mutaxassislar almashish yo‘lga qo‘yilgan. Hap ikki mamlakatdan ta’limni boshqarish muassasalarining, o‘quv yurtlarining hamda ta’lim bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar va ilmiy-metodik ishlar olib boruvchi mutaxassislar, o‘qituvchilar va tarbiyachilar bir-birlariga tashriflar uyushtirib o‘zaro tajribalar almashmoqdalar. Bularning barchasi ikki mamlakat maorifchilarining umumiy maqsad yo‘lidagi ishlarni rivojlantirishga hissa bo‘lib qo‘shilyapti. Turkiya Respublikasida ta’limning qo‘yilishining o‘ziga xos tomonlari borligini hisobga olib, u haqda to‘laroq ma’lumotlar berish o‘rinli deb hisoblaymiz.

Respublikada hozir amaldagi ta’lim tizimlariga turk xalkining asl farzandi Kamol Otaturk asos solgan. Turkiya ta’lim tizimlari mamlakat Konstitutsiyasi, ta’lim-tarbiya to‘g‘risidagi qonunlar, «Milliy maorif vazirligining tuzilishi va vazifalari haqidagi 179, 208, 385- sonli qonunlarda hamda hukumat dasturlarida har tomonlama chuqur ifodalangan.

Respublika Konstitutsiyasining 42-moddasida “Barcha kishilar talim-tarbiya olish huquqiga egadirlar” deb yozib qo‘yilgan va fuqarolarning bilim olish huquqlari kafolatlangan. Turkiya Respublikasida barcha tipdagi ta‘lim to‘la davlat nazoratida bo‘lib, bunday nazoratga kirmaydigan ta‘lim-tarbiya maskanlarini ochish mumkin emas. Xususiy maktablar ham davlat ta‘lim standartlari talabiga mos kelishi va davlat dasturlarini to‘la bajarishga majbur.

Boshlang‘ich ta‘lim barcha kishilar uchun majburiy, davlat maktablarida bepul o‘qitiladi. Majburiy ta‘limdan so‘ng, uning keyingi bosqichlarida o‘qishni davom ettirish istagini bildirgan, kam ta‘minlangan oilalardan chiqqan bolalar davlat tomonidan stipendiyalar bilan ta‘minlanadilar, ularga boshqa tegishli imtiyozlar ham belgilangan.

Ta‘lim muassasalarida faqat o‘quv-tarbiya ishlari, uni takomillashtirish bilan bog‘liq vazifalarnigina bajaradilar. Undan tashqari faoliyatlarga yo‘l qo‘yilmaydi.

Turk millatiga mansub kishilarga ona tili sifatida boshqa biror xorijiy davlat tilini o‘rgatish mumkin emas. Turkiya milliy maorifi tizimlarining umumiy tuzilishi quyidagicha: ta‘lim tizimi bu mamlakatda ikki asosiy qismga bo‘linadi. Ulardan birinchi qismi maktab ta‘limi bo‘lib, uning tarkibiga maktabgacha tarbiya, boshlang‘ich ta‘lim, o‘rta va oliy ta‘lim kiradi. Uning tarkibi quyidagicha:

1. Maktabgacha tarbiya bosqichiga maktab yoshiga yetmagan bolalarni qabul qilish ixtiyoriydir. Maktabgacha ta‘lim-tarbiyaning maqsadi bolalarni jismoniy, aqliy va ahlokiy rivojlanishini ta‘minlash, ularni maktab bosqichiga puxta tayyorlab berish, kam ta‘minlangan o‘quvchilarga sharoit yaratish, turk tilida to‘g‘ri va chiroyli gapirishni o‘rgatishdan iboratdir.

1992 yilda Turkiyada 131023 bolani qamrab olgan 7763 bog‘cha ishladi. Bu maktabgacha tarbiya ishidagi umumiy bolalar sonining 5 foizini tashkil etadi.

2. Boshlang‘ich maktabda esa bolalar 6 yoshdan 14 yoshgacha ta‘lim oladilar. Bu bosqichdagi maktab quyidagi maqsad va vazifalarni ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi;

a) har bir turk farzandiga yaxshi inson bo‘lib kamol topish, bilimli bo‘lish, uni milliy iftixor ruhida tarbiyalash va fikrlashga o‘rgatish;

b) har bir turk farzandiga qiziqishi, qobiliyati va iste‘dodlariga ko‘ra ta‘lim berish, ularni hayotga, o‘qishning keyingi bosqichlariga puxta tayyorlashdan iborat.

Boshlang‘ich ta‘lim muassasalari maktabgacha tarbiya bosqichidan so‘ng ikki qismga: 5 yillik boshlang‘ich va 3 yillik o‘rta maktablar bosqichiga bo‘linadi. Har ikki bosqich maktabini bitirganlik haqida o‘quvchilarga attestat beriladi.

Bu ikki bosqich maktab sharoitiga qarab bir maktab bazasida yoki alohida-alohida ikki maktab tarkibida tashkil qilinishi mumkin.

Aholi siyrak va tarqoq qishloqlarda maktab markaziy qishloqlardan birida ochiladi, guruhlashtirish imkoniyati bo‘lmagan tumanlarda esa bu ta‘lim bosqichi internatlar tipidagi o‘quv muassasalari shaklida amalga oshiriladi.

3. O‘rta ta‘lim boshlang‘ich ta‘limga tayanib, kamida uch yillik ta‘lim beruvchi umumiy, kasbiy va texnik ta‘lim muassasalarini o‘z ichiga oladi.

Uning asosiy maqsadi barcha o‘quvchilarga umumiy o‘rta ta‘lim va shunga muvofiq umumiy madaniyat, inson va jamiyat muammolarini o‘rgatish, ularni oliy ta‘lim bosqichiga, hayotga, kasb-kor sohalariga tayyorlashdir.

Bu maqsadlar o‘rta umumiy ta‘lim, turli dasturlarda kasb-kor o‘rgatuvchi texnik-qurilish qishloq xo‘jaligi yo‘nalishlaridagi litseylarda amalga oshiriladi.

O‘quvning har bir bosqichi bo‘yicha alohida-alohida dasturlar mavjud.

By dasturlar quyidagilardir:

— ta‘limning oliy bosqichiga tayyorlash dasturi;

— kasbga va oliy ta‘limga tayyorlash dasturi;

— hayotga, ishlab chiqarishga tayyorlash dasturi va xokazolar.

Litseylar o'z turlariga va jumhuriyat ehtiyojiga ko'ra quyidagicha ixtisoslashtirilgan:

— umumiy litseylar — o'quvchilarni oliy ta'limga tayyorlaydi, 3 yil;

— fan litseylari — alohida fanlardan iqtidorli va ijodkor o'quvchilar bilimini va qobiliyatini takomillashtiradi, 5 yil;

— kichik litseylar — kunduzgi litseylarda o'qish imkoniyati bo'lmaganlar uchun, o'qish 4 yil;

— kasb-hunar litseylari — o'quvchilarga o'z qiziqishlari bo'yicha turli kasb-hunar o'rgatadi, o'qish muddati 3 yil;

— nafis san'at litseyi — ona tili va adabiyoti, rasm, musiqa kabi bo'limlarga ega;

— o'qituvchilar litseylari — boshlang'ich ta'lim bo'yicha o'qituvchilar tayyorlaydi. O'qish muddati 1 yil tayyorlov kursini hisobga olganda 4 yil;

— tijorat va turizm ta'limi litseylari — maishiy xizmat ko'rsatish, savdo, umumiy ovqatlanish shahobchalariga va boshqa sohalarga mutaxassislar tayyorlab beradi;

— diniy ta'lim maktablari — imom-xatib hamda din darsini o'tuvchi o'qituvchilar tayyorlaydi;

— maxsus ta'lim maktablari — ular korreksion maktablar bo'lib, jismoniy-aqliy jihatdan nuqsoni bor bolalar uchun mo'ljallangan;

— texnik litseylar — o'quvchilarga umumiy fanlar bilan bir qatorda industrial kasb-hunar ta'limini beradi.

Bundan tashqari Turkiyada qizlar kasb litseyi, qizlar texnik litseyi, qizlar san'at o'rta maktablari, qizlar, o'g'il bolalar xususiy maktablari mavjud.

4. Oliy ta'lim — mamlakatda oliy malakali turli kasb mutaxassisliklarini, ilmiy tadqiqot ishlari olib borishga qodir kishilarni etishtirib beradi.

Turkiyada bunday mutaxassisliklar bo'yicha hozir 235' universitetlar va oliy tsxnologik institutlar ishlab turibdi. Bu universitetlardan 2 tasi diniy mahkamalar tasarrufidadir.

Mamlakatdan tashqarida yashovchi turk millatiga mansub kishilarning (ular 2,5 mln. dan ortiq) ta'lim-tarbiyasiga ham katta ahamiyat beriladi. Hozir shunday toifadagi kishilarni o'qitish uchun Turkiya hukumati tomonidan 1,236ta o'qituvchi ajratilgan. Ularning barchasiga davlat tomonidan haq to'lanadi.

Turkiya hukumati «Milliy maorifining asosiy Qonuni»da maktab ta'limi bilan bir qatorda maktabdan tashqari ta'limga ham katta e'tibor berilgan.

Maktabdan tashqari ta'limga qo'yilgan asosiy talab katta yoshdagilarni o'qish va yozishga o'rgatish; ularga umumiy va kasb-kor bilimlarini berish; savodxonlikdagi nuqsonlarini bartaraf etish kabi vazifalarni bajaradi, shuningdek, bunday muassasalar fuqarolarga, birinchi galda yoshlarga ijtimoiy hayotning ilmiy, texnologik, iqtisodiy, madaniy hayotiga to'la moslashish uchun shart-sharoitlar yaratib beradi. SHuningdek, MTMLar turli sohalarda mehnat qilayotgan kishilarning ishdan ajralmagan holda kasb malakalarini oshirishga imkoniyat tug'diradi. Turkiya Respublikasida maktabdan tashqari ta'lim ikki manba orqali beriladi. Ulardan biri maktab bo'lsa, ikkinchisi ustoz-shogirdlik yo'nalishidir.

Ularning sohalar bo'yicha dasturlari quyidagilar:

1. Umumiy ta'lim dasturlari;
2. Kasb-hunar, texnik ta'lim dasturlari;
3. Shogirdlik va ustalik ta'limi dasturlari;
4. Ochiq ta'lim dasturlari va hokazolar.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalari tarkibiga bulardan tashqari amaliy san'at maktablari, qizlar amaliy san'at maktablari, etuklik institutlari na etuklik texnik ta'lim markazlari ham kiritilgan.

Shuningdek, keyingi yillarda o'quvchilar va talabalarning bo'sh vaqtlarini ko'ngilli va sermazmun o'tkazishga katta ahamiyat berilmoqda.

Shu maqsadda til o'rgatish markazlari musiqa, xalq o'yinlari, foto, teatr studiyalari, shaxmat-shashka klublari, turli sayohatlar uyushtirish, lagerda dam olishni tashkil qilish hamshiralik, rassomchilik to'garaklari yo'lga qo'yilayotir, ular orqali turli tanlovlar o'tkazishni amalga oshirilmoqda.

Talabalar va o'quvchilar uchun sportning turli sohalari bo'yicha seksiyalar tashkil etilgan, ularda sportning ommaviy turlari bo'yicha turnirlar, musobaqalar tashkil etilmoqda. Qizlar uchun esa qo'lda to'qish, bichish-tikish, pazandalik yo'nalishlaridagi to'garaklar mavjud. Ular tomonidan to'qilgan, tikilgan, tayyorlangan mahsulotlar har yili Anqaradagi katta ko'rgazmada namoyish etiladi.

II. SINGAPURDA OLIY TA'LIM

Singapur Sharqning madaniy qadriyatlarini va G'arb hayotining yuqori darajasini birlashtira olgan ajoyib mamlakat, bu juda ko'p chet ellik abituriyentlarni ushbu mamlakatda oliy ma'lumot olish uchun e'tiborini qaratishni boshlaydi

Agar biz ushbu mamlakatda o'qishning afzalliklari haqida gapiradigan bo'lsak, avvalambor:2 ta tilda o'qish imkoniyati. Mamlakat qonunlariga ko'ra, Singapurning barcha fuqarolari o'z xalqining madaniy qadriyatlarini yaxshiroq tushunishi uchun o'z ona tilini o'rganishlari kerak, lekin ayni paytda ingliz tilida ham xuddi shunday imloniyatlarga ega. Hattoki armiyadagi dasturlar va buyruqlar ingliz tilida beriladi. Umuman olganda, har bir abituriyent mamlakatda o'qishni, istagan tilda tanlash huquqiga ega.

Tanlagan yo'nalishingizga qarab, faqat shu yo'nalishga tegishli va kerakli bo'lgan fanlarni chuqur o'rganishni taklif qiladi. Bu, ehtimol, Singapur ta'limining eng muhim xususiyatidir.

Mamlakatimizda asosiy e'tibor tabiiy fanlardan iborat bo'lib, ushbu mavzularda yuqori darajadagi treninglar haqida gapirishga imkon beradi. Bundan tashqari, Singapur — ingliz, matematika va ilm-fanni turli usullar bilan o'rgatish uchun ajoyib joy. Aytgancha, so'nggi bir necha yil ichida ushbu ro'yxatga tibbiyot ham qo'shildi.

Mustaqil ta'lim muassasalarining mavjudligi. Bunday yondashuv tufayli universitetlar har doim o'zlari tomonidan taklif etilgan tanlov bo'yicha yangiliklarni kuzatadilar, bu esa har yili ta'lim dasturini bugungi talablarga moslashtirishga imkon beradi va bu bitiruvchilar tezda ish joyi topishlari kafolatidir. Aytgancha, Singapur o'zining oldiga Sharqda Sharqiy Bostonga aylanishi uchun juda jiddiy vazifani qo'yganini ta'kidlab o'tish kerak, bu mamlakatdagi dasturlarning juda jiddiy ekanligiga yana bir dalildir.

Davlat madaniyatini tushunish qobiliyati. Singapur o'zining madaniy qadriyatlariga juda jiddiy yondashadi, mamlakat tarixini va madaniyatini o'rgatish muhim davlat vazifalariga aylangan. Aytgancha, mamlakatdagi har qanday bitiruvchining hayoti mobaynida o'z-o'zini yaxshilash ehtiyojini aniq belgilab beradi va bu kabi nuqtai nazarga ega mutaxassislar dunyoning har qanday burchagida mamnuniyat bilan ishga qabul qilinadi. Chet ellik talabalar Edusave fondi orqali stipendiya olish imkoniyatiga ega. Shuni ta'kidlash joizki, agar talaba grant olmagan bo'lsa, mamlakatdagi oliy ta'limning narxi nafaqat sharq, balki yevropaning ko'plab rivojlangan davlatlariga qaraganda kamroq. Shunga qaramasdan, talabalik vizasi bilan o'qiyotgan chet ellik talaba ishlash huquqiga ega emas, hatto ko'ngillilar safida ham, barcha vaqtini faqat o'qish uchun bag'ishlashi kerak.

Muhim afzallik shuki, turli mamlakatlardagi ko'plab universitetlar talabalar almashinuvi bo'yicha Singapur bilan shartnoma tuzishgan va bu bitiruvchilarga imtihonsiz dunyoning barcha nufuzli universitetlariga kirish imkoniyatini beradi.

Aytgandek, agar ariza beruvchi ingliz tilini yaxshi bilmasa, unda u o'zining universitetida til kurslarini olishi mumkin, ammo ingliz tili mamlakatning to'rtta rasmiy tillaridan biri bo'lgani uchun siz xoxlagan til kurslariga qatnashingiz mumkin.

Nazorat savollari:

1.Turkiya milliy maorifi tizimlarining umumiy tuzilishi haqida nimalarni bilasiz?

2. Turkiya Respublikasida maktabdan tashqari ta'lim qanday olib boriladi?
3. Turkiyada litseylar qanday ixtisosliklar bo'yicha faoliyat ko'rsatadi?
4. Turkiya oliy ta'lim bosqichini izohlang.
5. Turkiyada ta'limga oid qanday qonunlar mavjud?
6. Singapur ta'lim tizimi haqida nimalarni bilasiz?

Adabiyotlar:

1. J.G'. Yo'ldoshev "Xorijda ta'lim" T., 1995y.
2. "Turk ta'lim tizimi" T., 1994y.

15-MAVZU: ROSSIYA DAVLATI TA'LIM TIZIMINING O'ZIGA XOSLIKLARI

Reja:

1. Rossiyada umumiy o'rta ta'lim tizimi
2. Kasbiy ta'lim
3. Oliy ta'limdan keyingi o'qish
4. "Rossiya Federatsiyasida ta'lim to'g'risida" yangi qonun

Rossiyada umumiy o'rta ta'lim tizimi quyidagilardan iborat.

Rossiya Federatsiyasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuniga binoan, rus ta'limi doimiy, izchil darajadagi tizim bo'lib, ularning har birida turli xil va turdagi davlat, nodavlat, shahar ta'lim muassasalari mavjud.

Institutlar Rossiya Federatsiyasi ta'lim tizimining asosiy bo'g'inidir. O'quv muassasalarida o'quv ishlari olib boriladi. Qisqacha aytganda, Rossiya Federatsiyasida ta'lim tizimini ta'riflash juda qiyin, chunki u turli xil va turli xil tarkibiy qismlarga asoslangan. Ta'lim muassasalari va barcha turdagi o'qitish quyidagi ta'lim turlarini birlashtirgan Rossiya uzluksiz ta'lim tizimida shakllantirilgan:

Davlat; Qo'shimcha; O'z-o'zini tarbiyalash.

Ta'lim tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi: 1) federal davlat ta'lim standartlari va talablari; 2) o'quv faoliyati bilan shug'ullanadigan tashkilotlar, o'qituvchilar, talabalar va voyaga etmagan o'quvchilarning ota-onalari (qonuniy vakillari); 3) federal davlat organlari va Rossiya Federatsiyasining ta'lim sohasida davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi ta'lim sub'ektlarining davlat hokimiyati organlari va mahalliy hokimiyatlar; 4) o'quv faoliyatini olib boradigan, ta'lim sifatini baholaydigan tashkilotlar; 5) ta'lim faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar, ish beruvchilar va ularning birlashmalari, jamoat birlashmalari.

Ta'lim umumiy ta'lim, kasb-hunar ta'limi, qo'shimcha ta'lim bo'limlariga bo'linadi, bu butun hayot davomida ta'lim olish huquqini amalga oshirish imkoniyatini beradi (umr bo'yi o'qish).

3. Umumiy ta'lim va kasb-hunar ta'limi ta'lim darajalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Rossiya Federatsiyasida quyidagi umumiy ta'limning darajalari o'rnatiladi:

- 1) maktabgacha ta'lim;
- 2) boshlang'ich umumiy ta'lim;
- 3) asosiy umumiy ta'lim;
- 4) o'rta umumiy ma'lumot.

Rossiya Federatsiyasida quyidagi kasbiy ta'lim bosqichlari o'rnatiladi:

- 1) o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi;
- 2) oliy ma'lumot - magistrant;

3) oliy ma'lumot - mutaxassislik, magistratura;

4) oliy ma'lumot - yuqori malakali kadrlar tayyorlash.

Rossiya Federatsiyasida ta'lim tizimi - bu davlat ta'lim standartlari va ularni amalga oshiradigan ta'lim tizimlari tomonidan tartibga solinadigan, bir-biridan mustaqil, nazorat qiluvchi va boshqaruvchi organlarga bo'ysunadigan muassasalardan iborat bo'lgan o'quv dasturlari majmui.

Qanday ishlaydi

Rossiya ta'lim tizimi to'rtta hamkorlikdagi tuzilmalarning kuchli to'plamidir.

Ta'lim dasturlarining axborot tarkibiy qismini belgilaydigan federal standartlar va ta'lim talablari. Mamlakatda ikki xil dastur amalga oshiriladi - umumiy ta'lim va ixtisoslashgan, ya'ni kasbiy. Ikkala tur ham asosiy va qo'shimcha turlarga bo'linadi.

Asosiy umumiy ta'lim dasturlariga quyidagilar kiradi:

- maktabgacha;
- boshlang'ich;
- asosiy;
- o'rta (to'liq).

Asosiy kasbiy dasturlar quyidagicha bo'linadi:

- o'rta maxsus;
- oliy kasbiy (bakalavr, mutaxassislik, magistr);
- oliy o'quv yurtidan keyingi kasbiy tayyorgarlik.

Rossiyadagi zamonaviy ta'lim tizimi ta'limning bir necha shakllarini o'z ichiga oladi:

- sinf xonalari devorlarida (kunduzgi, yarim kunlik (kechki), sirtqi);
- haddan tashqari;
- o'z-o'zini tarbiyalash;
- tashqi ko'rinish.

Ro'yxatdagi o'quv shakllarining kombinatsiyasiga ham ruxsat beriladi.

Ilmiy va o'quv muassasalari. Ular o'quv dasturlarini amalga oshirish uchun ishlaydi.

Ta'lim muassasasi - bu o'quv jarayonini amalga oshirish, ya'ni bir yoki bir nechta o'quv dasturlarini amalga oshirish bilan shug'ullanadigan tuzilma. Ta'lim muassasasi talabalarni saqlash va ta'lim olishni ham ta'minlaydi.

Rossiya Federatsiyasida ta'lim tizimining sxemasi quyidagicha ko'rinadi:

Ta'lim muassasalari:

- davlat (mintaqaviy va federal bo'ysunish);
- munitsipal;
- nodavlat, bu xususiy.

Ularning barchasi yuridik shaxslardir.

O'quv muassasalarining turlari:

- maktabgacha;
- umumiy ta'lim;
- boshlang'ich, umumiy, oliy kasbiy ta'lim va oliy o'quv yurtidan keyingi kasbiy ta'lim;
- harbiy oliy ma'lumot;
- qo'shimcha ta'lim;
- sanatoriya turidagi maxsus va tuzatish mashg'ulotlari.

III. Boshqarish va boshqarish funktsiyalarini bajaradigan tuzilmalar.

IV. Rossiya Federatsiyasining ta'lim tizimida ishlaydigan yuridik shaxslar, jamoat guruhlari va davlat kompaniyalari uyushmalari.

Tuzilishi

Institutlar Rossiya Federatsiyasi ta'lim tizimining asosiy bo'g'inidir. Ta'lim muassasalari o'quv-tarbiya ishlarini maxsus ishlab chiqilgan rejalar va amaliyot qoidalari asosida olib boradilar.

Qisqasi, Rossiya Federatsiyasidagi ta'lim tizimini tavsiflab bo'lmaydi, chunki u xilma-xil va turli qismlardan iborat. Ammo ularning barchasi har bir ta'lim darajasida shaxsning individual va kasbiy sifat ko'rsatkichlarini izchil rivojlantirish uchun chaqiriladigan kompleksga kiritilgan. Ta'lim muassasalari va barcha turdagi o'qitish quyidagi ta'lim turlarini birlashtirgan Rossiya uzluksiz ta'lim tizimini tashkil etadi:

- davlat
- qo'shimcha
- o'z-o'zini tarbiyalash.

Komponentlar

Rossiya Federatsiyasining pedagogik tizimidagi ta'lim dasturlari quyidagilarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan yaxlit hujjatlardir.

- Ta'lim dasturlarining 70% dan ko'prog'ini tashkil etadigan GEF;
- milliy-mintaqaviy so'rovlar.

GEF-Federal Davlat Ta'lim Standartlari-davlat akkreditatsiyasiga ega muassasalar uchun bajarilishi majburiy bo'lgan talablarni o'z ichiga oladi.

Kasbiy ta'lim

Davlat sektori (state school) – o'quvchilarning 93%.

Xususiy sektor (private school) - o'quvchilarining 7%.

1988 yilda Buyuk Britaniyada yagona davlat ta'lim standartlari kiritilgan

5 yoshdan 16 yoshgacha barcha bolalar majburiy ta'lim olishlari shart.

* Boshlang'ich maktab 5-11 yosh

* O'rta maktab

* 11-16 yosh GCSE

* Kollejda maktabdan keyin ta'lim 16-18 yosh Sixth Form

* Oliy ta'lim 18 yoshdan keyin

Maktabgacha ta'lim

3 yoshdan 5 yoshgacha bolalar bolalar bog'chalari va maktabgacha sinflarga borishi mumkin : davlat (*nursery school playgroup*) yoki xususiy (*kindergarten*)

Boshlang'ich ta'lim

5 yoshdan 7 yoshgacha kichik bolalar uchun maktab (*infant-school* yoki *pre – preparatory school*). Matematika, ingliz tili, geografiya, muqika va san'at o'qitiladi.

7 yoshdan 11 yoshgacha boshlang'ich maktab (*juniorschool* yoki *preparatory school*)

Primary school yoki elementary school

- An'anaviy fanlarni chuqurlashtirilgan o'rganilishi
- Tabiiy fanlarni va axborot texnologiyalar o'qitilishi boshlanishi
- Test shaklida asosiy o'rganiladigan fanlardan Common Entrance Examination (CEE) Umumiy kirish va intellekt rivojlanish darajasini aniqlaydigan (IQ) imtixon topshiradilar.

O'rta ta'lim

- Davlat o'rta maktablari: yagona o'rta maktab (comprehensive school); klassik maktab (grammar school)

- Xususiy maktablar (public school)

Buyuk Britaniyada maktab xususiyatlari

- O'rganilayotgan fanlarni mustaqil tanlash imkoniyati

- 4-6 fanlar chuqurlashtirilib o'rganiladi, boshqa qo'shimcha fanlarni kichik xajmda o'zlashtirish mumkin

- O'rta ta'lim jarayoni bolalarni o'rta ta'lim britaniya sertifikat General Certificate of Secondary Education (GCSE) olish uchun imtixonini topshirish tayyorlashga qaratilgan

Oliy ta'lim

- Kollejlar, universitetlar, politexnika institutlari

- Katta sinflar o'quvchilari uchun tayyorlov kolleji (6 th Form College) 16 yoshdan 18 yoshgacha

- Chuqurlashtirilgan ta'lim darajasi to'g'risida umumiy sertifikat (General Certificate of Education Advanced Level)

Buyuk Britaniya ta'lim tizimining afzalliklari

□ Britaniya sertifikatlari, diplomlari va berilgan darajalari butun dunyoda tan olinadi.

□ Eng zamonaviy ta'lim metodlari, doimo modernizatsiyalashgan ta'lim vositalari va, eng asosiysi, mahoratli professor- o'qituvchilar.

□ Doimiy nazorat va mustaqil tanlash imkoniyatlari.


Buyuk Britaniya ta'lim tizimining xususiyatlari

□ Intizom .

□ Erta ixtisoslashtirish.

□ Ta'lim olishda mustaqillik va initsiativa. Asosiy e'tibor ilmiy tadqiqot ishlarni olib borishga va esselarni tayyorlashga qaratilgan.

□ Ijtimoiy va jamoatchilik tadbirlarda qatnashish.



Belgiya ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari

| № | Ta'lim bosqichlari | Yosh |
|---|---------------------|-------|
| 1 | Maktabgacha ta'lim | 2,5-6 |
| 2 | Boshlang'ich maktab | 6-12 |
| 3 | O'rta maktab | 12-16 |
| 4 | O'rta kasbiy maktab | 16-18 |
| 5 | Oliy maktab | 18-23 |

Maktabgacha ta'lim

Belgiyada maktabgacha ta'lim (MT) 2,5 yoshdan boshlanadi. Ushbu belgilangan yoshga etganda bolalarni maktabgacha ta'lim muassasasiga berishadi, shu sababli guruhdagi bolalar soni yil davomida o'zgarib boradi. Maktabgacha ta'lim guruhlarining asosiy maqsadi: bolalarning bilish, bilim orttirish (kognitiv), kommunikativ va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hisoblanadi. Mashg'ulotlar o'yin shaklida olib boriladi. Maktabgacha ta'lim majburiy ta'lim dasturiga kiritilmagan bo'lsada, Belgiyada taxminan 90%gacha bo'lgan bolalar unga qatnashadi. Ko'p hollarda maktabgacha ta'lim muassasalari boshlang'ich maktablarga uyg'unlashgan bo'ladi.

Bolalar 6 yoshga etganda boshlang'ich maktabning birinchi sinfiga o'qishga kiradi.

Maktab ta'limi davri 2 ta-boshlang'ich va o'rta maktab bosqichiga bo'linadi. Boshlang'ich maktab, o'z navbatida, 3 ta va 2 ta sinfli bosqichdan iborat. Bu davrda bolalar arifmetika, o'qish, yozish, musiqa, tarix va ba'zi boshqa fanlardan ta'lim olishadi. Darslar 8.30 da boshlanib, 15.30 gacha davom etadi. Soat 12.00 dan 13.00 gacha tushlik uchun tanaffus beriladi. Chorshanba kuni tushlikdan so'ng, shanba va yakshanba kunlari dam olish kunlari hisoblanadi.

Bryusseldagi flamand maktab dasturiga birinchi yoki ikkinchi sinfdan boshlab, fransuz tilini o'qitish kiritilgan. Qolgan flamand maktablarining ko'p qismida bu fan boshlang'ich maktabning 3-bosqichida o'rgatiladi. Mamlakatning fransuz tilida so'zlashuvchi qismida o'quvchining hohishiga ko'ra ingliz yoki niderland tillari ham o'rgatiladi. German tilida so'zlashuvchi qismida fransuz tili majburiy tarzda o'qitiladi. Shuningdek, Belgiyada, belgilangan ijtimoiy guruh (dengizchi va diplomatlar bolalari)ga yo'naltirilgan qator xususiy maktablar ham faoliyat ko'rsatadi.

O'quvchilar boshlang'ich maktabni tugatib, xuddi shunday 3 ta 2 yillik bosqichdan iborat o'rta maktabga o'tadilar. Bu bosqichda o'quvchilar fanlarni ma'lum guruhlar orasidan tanlashlari shart bo'ladi va bu tanlov ma'lum darajada ularning dars jadvalini aniqlab berishga asos bo'ladi. Dars jadvalidan bu tanlangan fanlardan tashqari hamma uchun majburiy fanlar ham joy olgan. Masalan, davlat tili va jismoniy tarbiya fanlari va hokazo.

Belgiya hududida 4 tipdagi o'rta maktablar faoliyat yuritadi:

Umumiy ta'lim beruvchi o'rta maktab (Algemeen Secundair Onderwijs, (ASO)). Mazkur tipdagi muassasalar o'quv dasturida maktab bitiruvchisi 6 yil to'liq ta'lim olib, o'qishni oliy o'quv yurtida davom ettirishi ko'zda tutilgan. Mehnat bozorida ASOni tugatganlik to'g'risidagi diplomli shaxslarga ehtiyoj mavjud emas, chunki mazkur tipdagi muassasalarda ta'lim ko'p hajmli nazariy bilimlar beruvchi fanlarga qaratilgan bo'lib, amaliy va kasbiy tayyorgarlik ko'zda tutilmagan.

Texnik o'rta maktablar (Technisch Secundair Onderwijs, (TSO)) ikkita: TTK va STK kabi —tipchalarlga bo'linadi. 1- —tipchalidagi maktablarda ta'lim texnik jihati tomoniga yo'naltirilgan, 2- —tipchal - amaliy muassasalarga ixtisoslashgan. Mazkur ta'lim muassasalarida matematika, tillar, tarix, tabiiy fanlarga urg'u beriladi, lekin ASOga nisbatan bilim hajmi kamroqdir. STK bitiruvchilari mehnat bozoriga chiqishga tayyor, TTK bitiruvchilari esa, odatda, o'qishni davom ettirishni: ixtisosi bo'yicha bir yil qo'shimcha tahsil olish, turizm, savdo, sog'liqni saqlash kabi sohalar bo'yicha bakalavr yoki hattoki magistr darajasini olishni afzal ko'rishadi.

Kasbiy-texnik o'quv yurtlari (Beroeps secundair onderwijs (VSO)) duradgor, zargar, g'isht teruvchi (quruvchi) usta kabi o'ziga xos mutaxassisliklar bo'yicha ta'lim taklif etishadi. VSO — faqat

Belgiya o'рта ta'limida mavjud bo'lgan ta'lim muassasasi tipidir, bundan keyin oliy ta'lim olish imkoniyati ko'zda tutilmagan. Agarda ushbu ta'lim muassasasi bitiruvchisi qo'shimcha yil (7 yoki 8) o'qish istagini bildirsa, bu qo'shimcha o'quv yilidan keyin bitiruvchiga TSO diplomiga ekvivalent bo'ladigan diplom berishadi.

O'рта badiiy ta'lim muassasalari (Kunst secundair onderwijs (KSO)). Ushbu o'quv yurtlar san'at sohasi boyicha oliy ma'lumotga ega bo'lish uchun universitet yoki kollejga o'qishga kirish uchun talabalarni tayyorlaydi. Tanlagan yo'nalishiga qarab, aktyorlik mahorati, xoreografiya, musiqa yoki tasviriy san'at ustuvor bo'lishi mumkin.

Belgiyada oliy ta'lim: universitetlar va oliy maktablar

Belgiya oliy ta'limi o'zining ko'hna an'alariga ega. O'qitish jarayoni va zamonaviy ilm-fanni rivojlantirishning muhim yo'nalishlari bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlarni o'tkazish o'rtasidagi bog'liqlik Belgiya ta'lim tizimi uchun an'anaviy hisoblanadi. Belgiyada o'qishni tanlash jarayonida e'tiborni, asosan, ishlab chiqarish (masalan, texnologiyalar) va biznes (xalqaro biznes, iqtisodiyot, boshqaruv, huquq, moliya va boshqa)lar bilan bog'liq bo'lgan dasturlarga qaratish kerak bo'ladi. Bunda, albatta, ta'lim olib boriladigan tilni bilish to'g'risida dalillar bo'lishi kerak. Belgiyadagi ta'lim xalqaro biznesga yo'naltirilganligi oliy o'quv yurtlari bitiruvchilari uchun katta imkoniyat beradi.

Belgiya ta'limiga fransuz, flamand va nemis hamjamiyatlari javobgar. 6 yoshdan 16 yoshgacha va kechki maktablarda 18 yoshgacha bo'lgan barcha bolalar uchun ta'lim majburiy va bepuldir. Savodsizlik deyarli tugatilgan. Belgiyaliklar bolalarining yarmi xususiy, aksariyat qismi katolik cherkovlarga tegishli bo'lgan maktablarda tahsil oladi. Qariyb barcha xususiy maktablar davlat tomonidan tomonidan yordamga beriladigan mablag'-subsidiya bilan ta'minlanadi.

Maktab ta'limining birinchi bosqichi-olti yillik boshlang'ich maktab hisoblanadi. O'рта ta'lim aksariyat hollarda uchta ikki yillik bosqichdan iborat bo'lib, uning dastlabki to'rt yili majburiydir. Birinchi va ikkinchi bosqichlarda o'quvchilarining taxminan yarmi umumpedagogik tayyorgarlik, badiiy ta'lim olishadi yoki texnik yoxud hunarmandchilik tayyorgarlikdan o'tadi; boshqalar esa ta'limning umumiy kursini o'tashadi. Oxirgi guruhining taxminan yarim o'quvchilari bitirgandan keyin universitetga kirish huquqini beruvchi o'рта maktabning oliy bosqichida ta'lim olishni davom ettiradilar.

Belgiyada 7 ta akademiya va 8 ta universitet faoliyat ko'rsatadi. Belgiyada oliy ta'lim qadimgi an'analarga ega: birinchi oliy o'quv yurti - Lyuven katolik universiteti hisoblanadi. U 1425 yil tashkil topgan. 1517 yili Erazm Rotterdam ham Lyuvenda uch tillik (ivrit, lotin, grek) maktabga asos soldi va uning namunasida Parijda Fransiya kolleji yaratildi.

1970 yili fransuz tilida so'zlashiladigan Valloniya, niderland tilida so'zlashuvchi Flandriya, ikki tilda so'zlashiladigan Bryussel' va nemis tilida so'zlashiladigan Germaniya bilan chegaradosh bo'lgan Valloniya sharqidagi tumandan iborat 4 ta lingvistik hudud mamlakat konstitutsiyasida mustahkamlandi.

O'sha vaqtdan beri maorif federal vazirligi faqatgina o'рта ta'limning majburiylikini nazorat qiladi va barcha bosqich bo'yicha ta'lim to'g'risidagi diplom va sertifikatlarni berish talablarini belgilaydi. Ta'lim bo'yicha boshqa masalalar tillar hamjamiyati vakolatiga kiradi. SHunday qilib, oliy ta'lim masalalari Flamand hamjamiyatining ta'lim va davlat xizmati Vazirligi, Fransuz hamjamiyatining oliy ta'lim, ilmiy tadqiqotlar, xalqaro aloqalar va sport Vazirligi hamda Nemis tilida so'zlashuvchi hamjamiyatning ta'lim, madaniyat, ilmiy tadqiqotlar, haykallar va diqqatga sazovor joylar Vazirligi vakolatidadir.

Universitet tipidagi o'quv yurtlar va oliy maktablar

1970 yil 7 iyuldagi qonunga muvofiq oliy o'quv yurtlar universitet tipidagi o'quv yurtlar va Oliy maktablarga bo'linadi. Aslini olganda 7 ta Belgiya universiteti faoliyat yuritadi: Lej davlat

universiteti, Monse-Enodagi universitet, Gent davlat universiteti, Bryussel' Erkin universitet (fransuz va alohida flamand tilida), Lyuven katolik universiteti (fransuz va alohida flamand tilida). Ular qatorida bir nechta xorijiy universitet bo'limlari (Bryussel' va Antverpenda), hamda universitetga tenglashtirilgan qator Belgiya oliy o'quv yurtlari (odatda ular universitet fakul'teti, markaz, birlashma yoki jamg'arma nomlariga ega) faoliyat yuritadi.

Oliy o'quv yurtlarning bir qismi-yuqorida nomlari qayd etilgan hamjamiyatlar hukumatlari byudjetidan moliyalashtiriladigan davlat, yoki «rasmiy» o'quv yurtlari hisoblanadi. Boshqalari shaxsiy mablag'lar hisobidan - xususiy, shaxs yoki tashkilotlar tomonidan ochilgan va —mustaqil, —erkin nomlariga ega bo'lishgan. Ularning aksariyati Belgiyada, an'anaga ko'ra, ta'limning barcha bosqichlarini, shu jumladan oliy ta'limni, tashkil etish va moliyalashtirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan Rim katolik cherkovi rahbarligida ochilgan. Ba'zi mustaqil o'quv yurtlar, xususan, katolik universitetlar hamjamiyatlar hukumatlari ko'magidan foydalanishadi.

Bryusseldagi Erkin universitet - Niderland tilida o'qitiladigan universitet hisoblanadi. Ushbu universitetlar nomlaridagi —erkinl so'zi ularning mustaqil o'quv yurti ekanini bildiradi.

Ular erkin ilmiy tadqiqotlar prinsipiga bo'ysinadi va shiorlari ham bir xil: —Qorong'ulikni ilm bilan engish. Bryussel' Erkin universiteti yuqorida qayd etilganidek, 1834 yili tashkil topilgan va ta'lim faqatgina fransuz tilida, 1934 yildan boshlab golland tilida ham olib boriladi. 1970 yili esa Niderland tilida o'qitiladigan fakul'tetlar Erkin universitetlariga ajratiladi. Shunday bo'lsada har ikkala universitet o'zaro hamkorlik dasturini amalga oshiradi. Fakul'tetlari:

huquq va kriminologiya;

iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy fanlar;

psixologiya va pedagogika;

tabiiy fanlar;

tibbiyot va dorishunoslik;

filosofiya va filologiya;

texnik (muhandislik) fanlar;

jismoniy tarbiya;

o'qituvchilarni tayyorlash fanlararo guruh.

Shuningdek, universitetga tenglashgan o'quv yurtlar tarkibiga Qirolning harbiy maktabi ham kiradi. Universitet diplomi mavjudligi amaldagi qonunchilikka muvofiq ma'lum davlat mansab, lavozimlarini egallash va jamoat ahamiyatiga ega (advokat, vrach va boshqa) mutaxassisliklar bo'yicha faoliyat yuritish uchun ruxsat olish uchun kerakdir. Alohida holatlarda Belgiya universitetlari chet elliklarga Belgiyada ishlash huquqiga ega bo'lmagan diplom berishadi. Universitetda ta'lim olish eng kam muddati 4 yildir, lekin ba'zi mutaxassisliklar bo'yicha undan ko'p yil tahsil olishi mumkin.

Universitetdagi o'qishlar ko'p pog'onalidir: universitetda ta'lim olishning har bir davri yoki sikli universitet ilmiy darajasini olish uchun quyidagi darajalarini olishi bilan tugatiladi:

| Kurs | Davomiyligi | Daraja |
|-----------------|-------------|---|
| Tayanch-bazaviy | 2 yil | Kandidat ta'limning boshqa tizimida bakalavr diplomiga mos keladi |
| | | |
| | | |

—**Kandidat darajasi**-2 yoki 3 yillik tayanch ta'lim olganidan keyin beriladi. Bu 1-sikl hisoblanadi (keyin esa ta'limning 2-sikli, ya'ni ixtisos (soha) bo'yicha tayyorlash boshlanadi);

—**Litsensiatl** - bakalavr darajasiga mos keladi, mutaxassisligi bo'yicha 2 yoki 3 yillik qo'shimcha ta'lim olishi va ilmiy ish yozganidan keyin beriladi.

Ba'zi fanlar bo'yicha ko'p muddatli o'qishdan keyingina ushbu darajaga erishish mumkin.

—**Doktor**-magistr darajasiga to‘g‘ri keladi, mazkur darajaga —litsensiatl darajasini olgandan keyingina kamida yana 1 yil tahsil olib, dissertatsiyani yozib, albatta uni yoqlash talab etiladi.

—**Oliy ta‘lim agrejesi**- ushbu ierarxiya (ketma-ketlik)ning oliy darajasi hisoblanadi va u doktorlik darajasini olib, 2 yil muddat o‘tishidan keyingina berilishi mumkin.

Universitetlarda, shuningdek universitetdan keyingi ta‘lim yoki, odatda, davomiyligi 2-3 yil bo‘lgan —3-chi sikl (bosqich) ta‘limi bordir. Mazkur ta‘lim turininig maqsadi insonlarga ko‘shimcha ta‘lim yoki daraja olish uchun imkoniyat yaratish hisoblanadi. Ba‘zi fanlardan universitet darajasiga ega bo‘lish uchun kechki yoki dam olish kunlari kurslari tashkil etilishi orqali yoshi katta bo‘lgan kishilarga imkoniyat yaratiladi. Ba‘zi universitetlarda ta‘limning —almashib kelishli, ya‘ni ta‘lim olish jarayoni ishlab chiqarishdagi amaliyot bilan almashib keladi va —tanaffusli ta‘liml kabi shakllari mavjud. Belgiya oliy maktab tizimi uchun ta‘lim jarayoni bilan zamonaviy fanni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlari bo‘yicha amaliy tadqiqotlarning bog‘liqligi an‘ana bo‘lib qolgan. Ilm, fanni rivojlantirish uchun universitetlarning byudjetidan 40% gacha bo‘lgan miqdordagi mablag‘ ajratiladi. Ilmiy tadqiqotlarning moliyalashtirilishi vazirlik, sanoat va qishloq xo‘jaligida ilmiy- tadqiqotlarga ko‘mak Instituti yo‘nalishlari bo‘yicha davlat mablag‘lari, ilmiy tadqiqotlar Milliy jamg‘armasi, shuningdek turli xil kompaniya, jamg‘arma va assotsiatsiyalar yo‘nalishi bo‘yicha xususiy (shaxsiy) manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

1995 yil 8 avgustdagi —Oliy maktablarda ta‘limni tashkil etish to‘g‘risidalgi Dekret —uzun va —qisqa tipdagi ta‘limni belgilab berdi. Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, oliy o‘quv yurti nomidagi —institutl yoki —universitet so‘zlari mazkur o‘quv yurti o‘z bitiruvchilariga oliy ma‘lumot beradi degani emas. Qisqa muddatli ta‘lim 3 yillik (ba‘zi hollarda san‘at va tibbiyot sohalari bo‘yicha 4 yil) muddatli bir sikldan iborat bo‘ladi. Nazariy qismini o‘qitish navbatma-navbat laboratoriya, ustaxonalardagi amaliy mashg‘ulotlar bilan birgalikda olib boriladi.

Ko‘pincha fermer, buxgalteriya, hamshira, maktab o‘qituvchisi, mexanik, kutubxonachi, fotograf, kotiba kabi mutaxassisliklarga o‘qitish ta‘limning 1-yilidan boshlanadi.

Uzoq muddatli oliy ta‘lim har biri davomiyligi 2 yildan iborat 2 sikldan iborat. Belgiya oliy o‘quv yurtlari tomonidan berilgan barcha diplomlar Yevropa Ittifoqi davlatlari, shuningdek Islandiya, Norvegiya, Tursiya va Mal‘ta mamlakatlarida e‘tirof etiladi.

Birinchi bosqich Gradue diplom berilishi bilan yakunlanadi. Ikkinchi pog‘ona tahsilidan keyin Licencie diplomi beriladi. Institut va universitetlarning ikkinchi pog‘ona bitiruvchilari uchun yagona bo‘lib, umumiy hisoblangan uchinchi pog‘onadan keyin bitiruvchiga (Ingeneurdiplome) diplomli muhandis darajasi beriladi. Aslida, oliy ta‘lim sektorlari oralig‘idagi chegaralar o‘zgaralar uchun yopiq emas hamda talabalar navbatdagi ta‘lim bosqichini o‘z mutaxassisligiga mos keladigan hohlagan oliy o‘quv yurtida davom ettirishi mumkin.

Oliy o‘quv yurtiga kirish imtixonlari mavjud emas: tahsil olish uchun yozilish tizimi mavjuddir. Ba‘zi Oliy o‘quv yurtlarida kelajak talabalari uchun qo‘shimcha ravishda test sinovlarini o‘tkazishadi.

Nazorat uchun savollar

1. Angliya ta‘lim tizimining xususiyatalari.
2. Boshlang‘ish va o‘rta ta‘lim, ularning mazmuni.
3. Angliyada oliy ta‘lim va ilmiy faoliyat.
4. Anglayada ta‘limining muammolari va rejalari.
5. Belgiyada maktabgacha ta‘lim
6. Belgiyada oliy ta‘lim

17-mavzu. Jahon mamlakatlari ta'limi taraqqiyotining ayrim masalalari

Reja:

1.Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimining o'ziga xosliklari.

2.Zamonaviy ta'lim va innovasion texnologiyalar sohasidagi ilg'or xorijiy tajribalar: blended learning (aralash o'qitish), mahorat darslari, vebinar, evristik metodlar va boshq. Zamonaviy ta'limda tyutor, supervizor, fasilitator, edvayzer va moderatorlik faoliyati.

Tayanch iboralar: blended learning (aralash o'qitish), mahorat darslari, vebinar dars, evristik metodlar, tyutor, supervizor, fasilitator, edvayzer, moderatorlik faoliyati, trimestr, —xanlar, dzyuku maktablari, gakuenlar, tanki-daygaku, kenkyu-sey, elementar ta'lim, yo'nalish maktablari, asosiy maktab, real maktab, gimnaziya, umumiy maktab, fond stipendiyalari, Maks Plank jamiyati, Gelmgols jamiyati, Fraungofer jamiyati, Leybnits jamiyati, kasbiy akademiya, xagvonlar, —fuqarolik maktabi, xangil, xancha, susen-standart testlari, chesusenlar, flamand maktab dasturi, subsidiya, —ona maktab, differensial ta'lim, integrativ ta'lim, masofaviy ta'lim.

O'zbekiston jahon andozalariga mos keladigan ko'p bosqichli ta'lim tizimiga o'tmoqda. Ta'lim texnologiyalari jahon andozalariga mos keladimi, ilg'or tajribalar ta'lim texnologiyalariga kirib bormoqdam? - degan savol hammamiz uchun o'ta muhimdir.

Biz foydalanadigan ta'lim texnologiyalari shaxsni rivojlanishiga, mustaqil ishlashga o'rgatishi zarur. Chet el tajribalarini o'rganib, ularni sharoitimizga moslab tatbiq qilish kerak. Bu borada bir qator chet el tajribalari, xususan Isroil davlati tajribalari bilan tanishish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Isroil davlatida ta'lim 5 yoshdan 18 yoshgacha davlat byudjeti hisobiga amalga oshirilib, uch bosqichdan iborat (maktabga 6 yoshdan qabul qilinadi):

- a).boshlang'ich ta'lim (1-4 sinflar),
- b).o'rta ta'lim (5-9 sinflar),

Bu bosqichlar yakunida butun Isroil bo'yicha bir kunda bitirish imtihonlari bo'lib o'tadi. Natijalari asosida o'quvchilar o'zi tanlagan maktab yoki texnologik maktablarda o'qishni davom ettiradi.

v) texnologik ta'lim (10-12 sinflar).

O'quvchilar bu bosqichda kasbiy bilim oladilar va universitetlarga kirish huquqini beruvchi attestat uchun imtihon topshirib borishadi. (Attestatga imtihon topshirish juda murakkab jarayondir.) Har yili 12-sinfni tugatgan o'quvchilarning o'rtacha 20-40 % attestat oladilar.

Shundan keyingi barcha toifadagi ta'lim xizmatlari pullik.

O'n sakiz yoshga kirgan o'g'il - qizlar majburiy armiya xizmatiga chaqiriladi.

Armiya xizmatidan keyin attestati borlarning deyarli hammasi universitetga o'qishga kiradi. Attestat olmaganlar texnologik maktablarda o'qishni davom ettirishi yoki olgan kasbi bo'yicha ishlashi mumkin.

Attestati yo'qlar texnologik maktablarning 13-14 sinflarida o'qiydi, lekin istagan sinfdan so'ng kichik texnik, texnik hujjati bilan o'qishni yakunlashi mumkin. 15-16 sinflarda o'qishni davom ettirganlar kichik injener (15-sinf) va bakalavr (16-sinf) diplomiga ega bo'ladi. Bunday sinflarga ega bo'lgan texnologik maktablar Isroil yoki chet el univesitetlari bilan shartnomaga ega bo'lib, shu universitetlarning diplomlarini berishadi.

Ta'limdagi ustuvor yo'nalishlar va moddiy-texnik ta'minot

Isroil davlatida texnologik (kasb-hunar) ta'limga juda katta etibor qaratilgan va turli -tuman ko'rinishdagi o'quv muassasalarida amalga oshiriladi. Bular jumlasiga texnologik maktablar, kollejlari, pedagogik markazlar va boshqalar kiradi. Ularning aksariyati ishlab chiqarish yoki firmalar bilan bevosita bog'liq bo'lib, mutaxassislik yo'nalishlariga ega. Masalan: elektronika, kompyuter, ekologiya, qishloq xo'jaligi, kimyo, grajdan dengiz floti va boshqalar.

Ta'lim muassasalarining barcha turlari moddiy texnik bazasi, kompyuter bilan jihozlanganligi juda yuqori darajada. Barcha kompyuterlar Internetga ulangan. O'quv jarayonida Internetdan keng foydalaniladi. Bundan tashqari Tel-Aviv universiteti bilan bir qator texnologik maktablar sputnik kanali orqali amalga oshiriladigan va online-bevosita muloqat rejimida ishlaydigan masofadan o'qitish tizimiga ulangan.

Ta'lim tizimida o'quvchiga juda ko'p bilim berilmaydi, lekin o'quvchilar, xatto bog'cha bolasi ham, mustaqil ravishda fan mavzuga bog'langan holda proektlar yozadi yoki tayyorlaydi va himoya qiladi. Isroil davlati pedagogikasi ta'limning barcha bosqichlarida o'quvchiga mustaqil ishlashni o'rgatishga qaratilgan va «**Bilim olishga o'rgatish uchun o'qitiladi**» degan shior bilan ta'lim beriladi.

Hozir Isroil davlatida joriy qilinayotgan ta'lim texnologiyasi ko'ra sinflarda o'quvchilarni o'zlashtirish darajasiga qarab tabaqalarga ajratib o'qitiladi. Ta'lim barcha fanlar bo'yicha hayot va tabiat bilan bog'lagan holda olib boriladi. Fanlarning uzviy bog'lanishi doimo ko'zga tashlanib turdi.

Oliy ta'lim tizimi uch bosqichli:

1. Bakalavriatura - 4 yil,
2. Magistratura - 2 yil,
3. Doktorantura - 3 yil.

Bakalavr va magistr uchun o'qish Isroilda, doktorantura asosan Yevropa va AQSH da amalga oshiriladi. Isroil davlatida malaka oshirishga asosan ikki guruh omillar ta'sir qiladi:

1. Ijtimoiy-madaniy omillar:

a) jamiyatni ko'p madaniyatlilik (turli davlatlardan kelgan repatriantlar o'ziga xos madaniyatga ega);

b) turli din vakillarining yirik qatlamlarining borligi (iudeylar, musulmonlar, xristianlar va ularning turli oqimlari);

turli yillardagi repatriantlarning katta oqimi (50-, 70-, va 90- yillar).

2. Pedagogik omillar:

a) texnologik ta'limga o'tish;

b) o'quvchilarni shaxs sifatida rivojlanishiga yo'naltirilgan ta'lim (ayniqsa o'rta va texnologik ta'limda);

v) o'quv yurtlarini kompyuterlashtirish davlat dasturi va uning juda yuqori suratlarda amalga oshirilishi;

g) mutaxassislarni tayyorlashdagi ko'p bosqichlilik.

Ushbu faktorlar malaka oshirishning mazmunini tashkil etadi va uning samaradorligini, malaka oshirish kelajagini aniqlashda hisobga olinadi. Bu dastur Vazirlik va munitsipalitetlar darajasida boshqariladi.

Axborot texnologiyalari ta'limning turli yangi ko'rinishlarini taklif etmoqda, xususan keyingi vaqtlarda modulli ta'lim tizimida majmuaviy yondashuv tamoyili kuchayib bormoqda. Unda turli shakl, usullar moslashtirilgan holda joylashtirilishi aralash ta'limning innovatsiya sifatida kirib kelishiga sabab bo'ldi.

Deklan Bern "blended learning" (aralash ta'lim) haqida shunday deydi – —ushbu ta'lim boy pedagogik tajribadan samarali foydalanishga qaratilgan. Bunday yondashuv axborotni taqdim etishda turli uslubiyotlardan foydalanishni, ta'limni tashkil etishda va ta'lim jarayonida axborot texnologiyalari, yakka tarzda va guruhlarda an'anaviy faoliyatni tashkil etishga asoslanishi mumkin. Bunday turlicha yondashuv talabani charchatmaydi va o'qishga bo'lgan motivlarini kuchaytiradi. Asosiy masala - tanlangan uslubiyotlarning o'zaro mutanosibligini ta'minlash va kam harajat asosida yuqori samaradorlikka erishish hisoblanadi.

Bugungi kunda blended learning kunduzgi an'anaviy ta'lim va masofaviy ta'limning unsurlari kombinatsiyasi hisoblanib, bunda an'anaviy metodika va yangi texnologiyalarni uyg'unlashtirishga

imkon yaratiladi. Bu tizimda o'qituvchi ta'lim markazida qoladi va internet imkoniyatlaridan keng va samarali foydalanadi. Blended learning masofaviy ta'lim (Distance learning), sinf xonada ta'lim (Fake-to-Fake learning) va internet orqali ta'lim (Onlin learning)dan iborat.

Vebinar metodi

Bugun masofaviy ta'limning yana bir turi «webinar» (1998 yilda bu termin muloqatga kiritildi) texnologiya vujudga keldi. Vebinar texnologiya o'qitishni web –texnologiya asosida interaktiv holda tashkil etishni nazarda tutadi. Bu texnologiya nafaqat tinglovchilarga axborotni etkazadi, balki ular bilan muloqotga kirishish (og'zaki, yozma) imkonini yaratadi, ya'ni seminar ko'rinishida fikrlarni almashish, o'z fikrini bayon etish mumkin. Boshqacha qilib aytganda internet tarmog'i asosida tashkil etiluvchi ta'lim ham sub'ekt-sub'ekt paradigmasiga o'tmoqda.

Vebinar usulida dars seminar yoki konferensiya Internet orqali bir vaqtda hozir bo'lgan tinglovchilar bilan audio video (va avvalgi postlarda sanab o'tilgan ko'plab interaktiv imkoniyatlar) bilan jonli olib borilib ushbu dars keyingi foydalanishlar uchun yozib olinishi mumkin bo'lsa-da, butun o'quv yoki kurs jarayonidagi darslar yagona platforma doirasida o'zaro uzviy bog'lanmaydi, ya'ni alohida-alohida bir martalik darslar bo'ladi deyish mumkin.

Evristik o'qitish metodi

Evristik o'qitish metodini qo'llashda o'qituvchi o'quvchilar bilan hamkorlikda hal etilishi zarur bo'lgan masalani aniqlab oladi. O'quvchilar esa mustaqil ravishda taklif etilgan masalani tadqiq etish jarayonida zaruriy bilimlarni o'zlashtirib oladilar va uning echimi bo'yicha boshqa vaziyatlar bilan taqqoslaydi. O'rnatilgan masalani echish davomida o'quvchilar ilmiy bilish metodlarini o'zlashtirib tadqiqotchilik faoliyatini olib borish ko'nikmasi tajribasini egallaydilar. Evristik metod o'qituvchilardan ijodiy xususiyat kasb etuvchi yuqori darajadagi bilish faoliyatini tashkil eta olish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishni taqozo etadi. Buning natijasida o'quvchilar mustaqil ravishda yangi bilimlarni o'zlashtira oladilar. Ular odatda yuqori sinf o'quvchilarining o'zlashtirish darajalarini hisobga olgan holda ma'lum holatlarda qo'llaniladi.

Ushbu metodlardan boshlang'ich sinflarda foydalanish amaliyotchi-o'qituvchilarning fikrlariga ko'ra birmuncha murakkab hisoblanadi. Biroq uzluksiz ta'lim tizimiga shaxsga yo'naltirilgan ta'limni faol joriy etishga yo'naltirilgan ijtimoiy harakat amalga oshirilayotgan mavjud sharoitda ushbu yo'nalishdagi loyihalarni tayyorlash o'ziga xos dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. SHunga qaramasdan bu tasnif maktab amaliyotida birmuncha keng tarqalgan va pedagogik hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan. SHuningdek, buyuk didakt I.YA.Lerner asarlari asosida ilmiy tadqiqot ham amalga oshirilgan.

XX-asr (1902-1903) boshida Emil Dyurkgeym(1973 [1925]) o'zining qator ma'ruzalarida yoshlarning ijtimoiylashuvida maktab fanlarining markazlashuvini ijtimoiy normalar, qadriyatlar va qoidalar borligini o'rgatuvchi va ular asosida ijtimoiy hamkorlikni shakllantiruvchi dastlabki ijtimoiy institut deb qaragan. Bu me'yorlar va qadriyatlarni o'zlashtirayotgan yoshlar ko'proq kattalarga xos samarali bandlik va fuqaroligi bilan bog'liq an'anaviy xatti-harakatlar modulini namoyon qilmoqda. O'z navbatida maktab va oilalarning bu normalar va qadriyatlarni bolalarga singdirishdagi xato va kamchiliklari ular orasidagi huquqbuzarlik, jinoyatchilik va boshqa salbiy natijalarning kelib chiqishiga olib keladi va yuqorida ta'kidlangan ijtimoiy institutlarning umumiy maqsadlariga zid holatni yuzaga keltiradi. Maktab tarbiyasi o'qitishni xavfsiz va professional tashkillashtirishda katta rol o'ynaydi. Dyurkgeymning ta'kidlashicha, maktab tarbiyasi “sinfda faqatgina tinchlikni ta'minlaydigan oddiygina qurilma emas”, balki undan ham muhimroq, “ma'naviy tarbiya instrumentidir va u ko'chirib olinishi murakkabdir”.

Xususan, sotsiologlar o'quvchilarning shakllanishida maktab intizomi muhiti rolining kengayishidan manfaatdor bo'lganlar. Intizom uzoq yillar mobaynida muvaffaqiyatli maktablarning markaziy xususiyati sifatida e'tirof etilgan bo'lsa-da, so'nggi o'n yilliklar ichida tadqiqotchilar bu

muhim mavzu haqida qiyosiy tadqiqotlarga nisbatan kam e'tibor bergan. Maktab intizomi yuzasidan qiyosiy tadqiqotlar ayniqsa hozirgi kunda juda muhimdir, chunki biz maktablarning bir-biridan intizom borasidagi tizimli yondashuv farqlarini bilishimiz kerak. Bunday bilim siyosatchilarga samarali ta'lim siyosatini shakllantirish uchun mustahkam empirik asos beradi. Bu kitob maktab intizomi yuzasidan tizimli qiyosiy milliy tadqiqotlarni o'z ichiga olgan bo'lib, mavzu yuzasidan akademik bilimlar, ijtimoiy fikr va ta'lim siyosatining shakllanishiga hissa qo'shadi.

XORIJIY TA'LIMDA TYUTOR, EDVAYZER, FASILITATOR VA MODERATORLIK FAOLIYATI

Xorijiy ta'limda so'nggi yillarda bir qator atamalar keng ishlatilmoqda. Bularga tyutor, edvayzer, fasilitator va moderator tushunchalari kiradi.

TYUTOR-(*Tutorem-lotincha*) ustoz, murabbiy vazifasini bajaradi. Ba'zi hollarda ma'ruza o'qituvchisi bilan tinglovchi orasidagi bog'lovchi rolini ham bajaradi. Bunda ma'ruzachi tomonidan berilgan bilimlarni keng egallashda maslahatchi va ustoz rolini bajaradi.

EDVAYZER(**advisor**)-fransuzcha—avisen—o'ylamoq)tinglovchilarning individual holda bitiruv malakaviy ishi, kurs loyihalarini bajarishda maslahatchi rolini bajaradi.

FASILITATOR - (ingliz tilida *facilitator*, lotincha *facilis*—yengil, qulay)-guruhlardagi faoliyat natijasini samarali baholash, muammoning ilmiy echimini topishga yo'naltirish, guruhdagi kommunikatsiyani rivojlantirish kabi vazifalarni bajaradi.

MODERATOR-qabul qilingan qoidalarga amal qilishni tekshiradi, tinglovchilarning mustaqil fikrlash va ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish, bilish faoliyatini faollashtirishga yordam beradi. Ma'lumotni, seminarni, treninglar va davra suhbatlarini boshqaradi, fikrlarni umumlashtiradi.

Bizning ta'limda ushbu faoliyatlarning hammasini o'qituvchi bajaradi va pedagog yoki o'qituvchi deb yuritiladi.

Nazorat uchun savollar

- 1.Xorijda maktabgacha ta'lim fanining predmeti
- 2.Xorijda maktabgacha ta'lim fanining maqsadi
- 3.Xorijda maktabgacha ta'lim fanining vazifalari.
- 4.Xorijda maktabgacha ta'lim fanining maqsadi.
- 5.Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimining o'ziga xosliklari.
- 6.Zamonaviy ta'lim va innovasion texnologiyalar sohasidagi ilg'or xorijiy tajribalar: blended learning (aralash o'qitish), mahorat darslari, vebinar, evristik metodlar va boshq.
- 7.Zamonaviy ta'limda tyutor, supervizor, fasilitator, edvayzer va moderatorlik faoliyati.
- 8.Xorij ta'lim tajribasida differensial, integrativ va masofaviy ta'lim masalalari.

18-mavzu. Xorij ta'lim tajribasida differensial, integrativ va masofaviy ta'lim.

Reja:

1. **Integrativ, differensial, masofaviy ta'lim turlari.**
2. **Xorij tajribasidagi ahamiyati.**
3. **O'zbekiston ta'lim tizimidagi qiyosiy tahlili**

Insoniyat jamiyatining hozirgi zamon rivojlanish darajasi mustaqil respublikamiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarda o'z aksini topmoqda. Bunday o'zgarishlar shak-shubhasiz, barkamol shaxsni tarkib toptirish bilan chambarchas bog'liq. Aynan ana shu masala "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da o'z aksini topgan.

Bugungi kunda insoniyat jamiyati, shuningdek, mustaqil respublikamiz xalqi oldida turgan ijtimoiy-itisodiy, g'oyaviy-siyosiy, ta'limiy-tarbiyaviy muammolarning echimini topish tabiiy, ijtimoiy, texnik fanlarni o'zaro aloqadorligi va o'zaro munosabatlariga bog'liq. Chunki, ularning barchasi mohiyati, mazmuni, tabiati, shakli va ko'lamiga ko'ra tizimlilik xarakteriga ega bo'lib, ularga aynan mos yondashuv yordamida tadqiq etilib, echimi topiladi. Bu o'z navbatida ta'lim-tarbiya ishida ham tizimli yondashuvdan foydalanishni ko'zda tutadi.

Ko'p sonli manbalar, xususan pedagogik amaliyot sohasining tahlili ta'lim-tarbiya jarayonining rivojlanishiga to'siq bo'layotgan muammolar mavjudligidan guvohlik beradi. Bular asosan, bizning fikrimizcha, o'rganilayotgan ob'ektlarning ba'zi bir jihat va xususiyatlarini lavhalar (fragment) shaklida o'rganish natijasida yuzaga kelib, mantiqan bog'lanmagan va tizimlashmaganligidadir. Amaliyotdagi bunday holatlarni bartaraf etishda integrativ yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Fanda "Integratsiya" tushunchasi XVIII asrdayoq G.Spenser tomonidan qo'llanilishiga karamay, unga davr taqozosiga ko'ra yaqin paytlargacha etarli ahamiyat berilgan emas.

Ilmiylik nuqtai nazaridan olib qaraganda integratsiyaning asosini olamning yaxlitligi va uni tashkil etuvchi qism (element)larning o'zaro aloqadorligi, munosabatlari tashkil etadi. Taniqli rus psixologik olimi G.S. Kostyukning fikricha: "Tabaqalanish differentsiatsiya - ruhiy jarayonlar va holat (xususiyat)larni ko'payishiga olib kelsa, integratsiya - tartibga keltirish, subordinatsiya va uning natijalarini ma'lum ketma-ketlikda joylashtirishga olib keladi. Integratsiyalash yo'li bilan yangi psixologik jarayon, yangi faoliyat tuzilmasi hosil bo'ladi. Bu yangi tuzilma ilgari alohida-alohida bo'lgan elementlardan sintezlash yo'li bilan hosil qilinadi". Genetik jihatdan integratsiya – uzviylik, predmetlararo aloqadorlik, o'zaro aloqadorlik va nihoyat o'zaro bir-birini to'ldiruvchi, kengaytiruvchi hamda chuqurlashtiruvchi, o'quv predmetlari mazmunini eng kamida ta'lim standartlari darajasida sintezlab, mantiqan tugallangan mazmun shakli va oliy darajasidir. Chunki predmetlararo aloqadorlikning har qaysi quyi darajasi, o'rganilayotgan o'quv predmetlari doirasida ma'lum didaktik birliklar orasida o'rnatilib, ularni o'rganish mazmunini va muddatlarini muvofiqlashtirishni ko'zda tutadi, bundan farqli o'laroq integrativ aloqadorlik asosida tashkil etilgan o'quv predmeti yoki integratsiyalab o'rganilayotgan predmet, hodisa yoki jarayonlarni yaxlit tizim shaklida har tomonlama aloqadorlik va munosabatlar nuqtai nazaridan talqin etishni talab etadi. Bu o'z navbatida hozirgi va istiqbol talablariga javob beradigan, mustaqil fikr yurituvchi va ijodiy faoliyat ko'rsatuvchi, malakali mutaxassis shaxsini shakllantirishga imkon beradi. Chunki u tahsil oluvchilardan faqatgina tahlil qilish va sintezlash operatsiyalarini talab qilish bilan chegaralanib qolmasdan, balki mavhumlashtirish, algoritmlashtirish, turkumlash, shartli belgilar yordamida ifodalash, sabab oqibatli aloqadorlikni aniqlash, tahlil etish, sintezlash, tizimlashtirish, modellashtirish kabi yuksak darajali tafakkurlash operatsiyalarini talab etadi. Bu operatsiyalar o'rganilayotgan ob'ektni barcha muhim jihat va xususiyatlarini ajratib olib (tabaqalashtirib), mohiyati va mazmunini anglab etish va ularni umumlashtirish orqali amalga oshiriladi. Demak, integratsiya har doim ham uning ikkinchi tomoni bo'lgan tabaqalashtirish (differentsiatsiya)ga tayangan holda rivojlanib boradi yoki aksincha.

Integratsiya masalasini pedagog olimlar va amaliyotchilar quyidagi yo'nalishlarda tadqiq etishni tavsiya etadilar:

- a) o'quv predmetlari va fanlar turkumi doirasidagi mazmunni integratsiyalab o'rganish;
- b) turli o'quv predmetlaridan tahsil beruvchi shaxslarning faoliyatlarini integratsiyalash;
- v) ta'lim-tarbiya ishini tashkil etish shakllarini integratsiyalash va shu kabilar.

Bu yo'nalishlarning har birining aniq o'z maqsadi bo'lib, uni amalga oshirish uchun mos shakl, metod, vosita va shart-sharoitlarni talab etadi. Amaliyotda ulardan uyg'un holda foydalanilgandagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkinligini ham shu o'rinda eslatib o'tish lozim.

Pedagogika fanida XX asrning 80- yillaridan boshlab integratsiya, "o'zaro aloqadorlik", "o'zaro ta'sir", "sintez" kabi tushunchalar qo'llanilgan ilmiy ishlar paydo bo'lib, ta'lim-tarbiya ishida

integratsiya muammosining dolzarbligi sezila boshlangan. Hozirgi paytga kelib ta'lim-tarbiya ishiga integrativ yondashuv g'oyasi xususiy fanlar doirasida chegaralanib qolmasdan, umumpedagogik ahamiyatga ega masalaga aylandi.

Integratsiya (lot. Integeration – tiklash, to'ldirish, birlashtirish. Integer – yaxlit) sintezlab bir butun qilib birlashtirmoq, mantiqiy yaxlit holga keltirmoq ma'nosida tushuniladi. Ta'lim mazmunini integratsiyalash deganda o'zaro uzviy aloqador, bir-birini taqozo etadigan, kengaytiradigan, chuqurlashtiradigan o'quv predmetlari mazmunini sintezlash, ya'ni mantiqiy birlashtirib bir butun (yaxlit) holga keltirishni tushunamiz.

Integratsiya (mujassamlashtirish) va differentsiatsiya (tabaqalashtirish) bir-biridan ajralgan holda mavjud bo'lmaydi, biri ikkinchisidan kelib ham chiqmaydi, balki ular har doim bir vaqtni o'zida o'rganilayotgan ob'ektning ikki tomoni sifatida namoyon buladi. Ilmiy bilishda ulardan biri vaqtinchalik ma'lum ustunlikka ega bo'lishi ham mumkin. Masalani ikki tomonini fan-texnika taraqqiyoti natijasida qishloq xo'jaligini ishlab chiqarishida turli kasblarning paydo bo'lishi, ya'ni tabaqalanishini, mexanizatsiya, avtomatizatsiya va yana qo'shma kasblar yoki keng ixtisosli mutaxassislarning dialektik rivojlanishi ekanligini ko'rsatish mumkin.

Integratsiyalashtirish jarayonlari hozirgi zamon ilmiy bilimlarining o'zaro ta'siridan farqli o'laroq quyidagi yo'nalishlarda kechishi mumkin:

- alohida olingan fan doirasida ichki ilmiy rivojlanish sifatida;
- fanlararo o'zaro aloqadorlik doirasida, ya'ni bir yoki bir necha sohalar doirasida;
- maxsus yaxlit ilmiy bilimlar doirasida kabilar.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan yo'nalishlar uyg'unligini integrativ yondoshuv sifatida tasavvur etish mumkin. Ikki va undan ortiq nisbatan mustaqil qismlarda kechayotgan jarayonlarni birlashtirish-integratsiyalashtirishning natijasi bo'lishi mumkin.

Yaxlit tizimni tuzishda integratsiyalanuvchi aloqadorlik muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularni ichki ilmiy aloqadorlik ham deb ataladi.

Tizimlashtirishdan ko'zlangan asosiy maqsad ichki ilmiy aloqadorlikni tartibga keltirish yo'li bilan yaxlitlikni yuzaga keltirishdan iboratdir. Bu jarayonda hosil bo'ladigan yaxlitlik yangi sifat ko'rsatgichlariga ega bo'ladi. Integratsiyalashtirishning mohiyati, nazariy sintez vositasi sifatida yangi darajadagi bilish natijalariga erishishdir.

Mutaxassislikka oid fanlarni integratsiyalab o'rganish quyidagi masalalarni hal etishga qaratilgan:

- mutaxassislikka oid fanlarni integratsiyalab o'rganishning mohiyati, mazmuni va uni amalga oshirish shart-sharoitlari va vositalarini o'rganish;
- turli fanlar mazmunini integratsiyalashtirishning ilmiy-nazariy va pedagogik-uslubiy asoslari bilan tanishish;
- tahsil oluvchilarning o'quv-bilish faolligi, mustaqilligi va bilimlar darajasini integrativ oshirishda bilimlarning dolzarbligini isbotlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, ruhiy-pedagogik, texnik-texnologik bilimlarni sintezlash talablari, imkoniyatlarini aniqlash. Ko'p hollarda ta'lim-tarbiya ishida integrativ, tizimli va majmuaviy yondoshuvlar sinonim sifatida talqin etiladi. Bu tushunchalarning umumiy tomonlarini o'rganilayotgan ob'ektlarning turli qirra, tomon va xususiyatlari tashkil etadi. Lekin ular bir-biridan mohiyatiga ko'ra ham farqlanadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida integrativ yondoshuvni amalga oshirish tizim yoki mavjud shakldagi yaxlit ob'ektning ichki va tashqi aloqalari, uni tashkil etish va boshqarish qonuniyatlarini bilgan holda olib borilishi mumkin. Kichik mutaxassislarni tayyorlashda integrativ yondoshuv mutaxassislikka oid bilim, ish-xarakat usullari va shaxsiy safat hamda fazilatlarini yaxlitligini ta'minlash uchun qo'llaniladi.¹⁴

Integrativ yondashuv mazmunan tutash, aloqador, mantiqiy bir-birini taqozo etuvchi va bir-biriga singib chuqurlashtiruvchi va kengaytiruvchi o'quv fanlarini integratsiyalash uchun qo'llanilib, yaxlit mantiqiy mukammal bilim, ish-harakat usullari va shaxsiy sifatlarni tarkib toptirishni ko'zda tutadi.

"Pedagogika" o'quv predmeti integrativ fan sifatida quyidagi masalalar o'z echimini qanday topganligiga bog'liq holda uning samaradorligi aniqlanadi:

1. Integrativ o'quv predmeti tarkibiga kiruvchi har bir o'quv predmetining qanday vazifa echimini ta'minlashdagi roli;
2. Nisbatan tor doiradagi o'quv predmetlarining didaktik vazifalarini integratsiyalash jarayonida to'liq saklab qolgan holda umumiy maqsadga bo'ysundirilishi;
3. Integrativ o'quv predmetini o'rganish metodikasi, shakli, metodlari, vositalari va shart-sharoitlarini majmuaviy ishlab chiqish.

Yuqorida ko'rsatilgan fikrlarga xotima berib aytganda tizimli, majmuaviy va integrativ yondashuvlarning umumiylik jihatlari mavjud bo'lib, o'ziga xos tafovutlarga ham egadir. Umuman olganda integrativ yondoshuvga tizimli va majmuaviy yondoshuvlarning natijasi sifatida qarash mumkin.

Integratsiya muammosini didaktik jihatdan tadqiq etilishi – uni ta'lim prinsipi sifatida talqin etilishini talab etadi. Metodik nuqtai nazardan olib qaraganda integratsiya ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtiruvchi va ko'zlangan natijani kafolatlovchi shart-sharoit va usul deb tadqiq etilishidir.

Integrativ yondoshuv ilmiylik, kasbiy yo'nalganlik, politexnizm, uzviylik, muntazamlik, tizimlilik, ko'rsatmalilik, tushunarlilik, tabaqalashtirish kabi didaktik prinsiplar bilan aloqadorlik hamda uyg'unlikda amalga oshiriladi. O'z navbatida integrativ yondoshuv ham hech qachon boshqa didaktik prinsiplarga o'xshab o'qituvchiga biror tayyor retsept bermaydi, ammo undan foydalanilgan holda didaktik va metodik masalalar echimini aniqlaydi.

O'quv materiali mazmunini integratsiyalash didaktik jarayon sifatida ko'p qirrali, ko'p o'lchovli, tizim shaklidagi tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. Uni tahlil qilish (o'rganish) tizimli-tuzilmaviy yondoshuvni talab etadi. Chunki uning funksiyasi, tarkibi, tuzilishi va shu kabi muhim xususiyatlarini o'rganish ko'zda tutiladi. Maxsus fanlarni integratsiyalashda ulardagi barcha xarakterli xususiyatlarni sintezlash emas, balki eng muhim va umumiy g'oyalar, muammolarni sintezlash ko'zda tutiladi.

Integratsiyalash alohida o'quv predmetlari chegarasida amalga oshiriladigan nazariy sintez vositasi sifatida va fanlararo sintez shaklida namoyon bo'lib, bevosita umumilmiy bilimlarni tarkib toptirishni ko'zda tutadi. Integratsiya – sintezning yuqori darajasi hisoblanadi. Bilish jarayonida, tahlil qismlarga ajratish, sintez esa ularni birlashtirish (umumlashtirish) sifatida namoyon bo'ladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yangi o'quv rejalari va dasturlariga o'tish davrida jamiyat va atrof-muhit o'rtasidagi aloqalarni uyg'unlashtirish, atrof-muhitga jiddiy munosabatni o'rnatish va shakllanish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Gegel falsafadagi uslubni mazmun xarakatining shakli sifatida ko'rsatadi. Ta'lim jarayonida turli hil tizimlar orqali o'qituvchi va u bilan birga o'quvchilar o'z bilim, qobiliyat va ko'nikmalarini deduksiya, induksiya, sintez, umumlashtirish, aniqlashtirish, taqqoslash shaklida ifodalashadi.

Barcha mantiqiy jarayonlar uslubning mazmun bilan uzviy bog'langan ichki tomonini tashkil qiladi. Boshlang'ich sinflarda o'quv jarayoni foydalanilayotgan usul, uslub va shakllarining turli - tumanligi bilan ajralib turadi.

Ma'lumki, atrof-muhitga jiddiy munosabatlar poydevori boshlang'ich sinflarda o'rgatiladi. SHuning uchun ta'limning natijasi maktab ta'limining 1-bosqichiga bog'liq. YANGI psixologik-pedagogik tadqiqotlar kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining bilish faoliyati cheklanganligi haqida ilgari tushunchani ko'rib chiqishga imkon beradi. Bu boshlang'ich ta'limning barcha tarkibiy qismlarini o'zgartirish va yangilashga asos yaratadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh

xususiyatlariga javob beradigan va dars talablariga mos keladigan maqsadni aniqlash bunday yangilanishning asosiy masalasidir.

Bir qator ishlar boshlang'ich ta'limdagi fanlararo va fanlar ichidagi aloqalarga bag'ishlangan. Bu muammolar o'quv fanlarini integratsiyalashga o'tishning yaqin rivojlanish sohasidir. Boshlang'ich maktab fanlari integratsion aloqalarining mohiyati haqida olimlar orasida qarama-qarshiliklar ko'p.

Integratsiya atama va uslubiy nuqtai nazardan hodisa sifatida nima ekanligini ko'rib chiqaylik.

Integratsiya lotincha integration tiklash, to'ldirish, integer – butun so'zidan kelib chiqqan. Bu borada ikki tushunchaga egamiz:

1. Tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarning bog'liqlik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon.
2. Tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni.

Integrativ yondashish turli darajadagi tizimli aloqalarning ob'ektiv yaxlitligini aks ettiradi. (tabiat-jamiyat-inson). U tizim elementlarining yaxlitlik va uyushqoqlik darajasini oshirishga olib keladi.

Integratsiyalash mobaynida bir-biriga bog'liqlik hajmi oshadi va tartibga tushadi, shu tizim qismlarining ishlashi va o'rganish ob'ektining yaxlitligi tartibga solinadi. Zamonaviy didaktika va metodikada ta'kidlanishicha, o'quvchilarni o'qitish, rivojlanishi va tarbiyasining muvaffaqiyatlari ularda dunyo birligi haqida tushunchani shakllanganligini, o'z faoliyatlarini umumiy tabiat qonunlari asosida yo'lga solish zaruriyatini tushunishlari, tabiatshunoslik kursida fanlararo va fanlar ichidagi aloqalarni echa olishlari bilan bog'liq. Ta'limdagi integratsiya o'quv fanlari mazmunini konstruksiyalashga tizimli yondoshish orqali ko'rib chiqiladi.

Integratsiyaning turli darajalari ajratiladi: boshlang'ich - tabiat haqidagi elementar bilimlarni birlashtirish; oraliq - fanlar bo'limlarini bo'lish integratsiyasi; yakuniy - tabiatshunoslikni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan ta'limning oxirgi bosqichi integratsiyasi. SHu bilan birga, tabiiy-ilmiy ta'limni to'liqroq va kengroq integratsiyalash imkoniyati ham inkor etilmaydi.

Tabiat yoki predmet haqidagi eng oddiy bilimlarni hosil qiluvchi bog'liqlikning eng soddasi ma'lum bir joy yoki tushuncha bilan chegaralangan lokal tasavvurdir. Bu bog'liqlik boshqa bilimlarga nisbatan ajralgan, shuning uchun eng oddiy aqliy faoliyatni ta'minlaydi. Bu kichik maktab yoshiga xos. Biror bir tizimga tegishli bo'lgan tasavvurlar eng soddagina tizimli tasavvurlardir. Ular biror bir mavzu, predmet yoki hodisani o'rganishi asosida hosil bo'ladi. Biror bir predmetni bilish, yangi dalil va tushunchalarning tanlanishi ularni bir bilimlar bilan taqqoslanishi orqala amalga oshiriladi. Bilimlarning eng oddiy umumlashtirishi sodir bo'ladi, lekin olingan bilim hamma unga yaqin bo'lgan bilimlar bilan bog'lansa ayni muddao bo'lar edi.

Bunda o'quvchilarning tahlil qilish va umumlashtirish faoliyatlari vujudga keladi. Tizim ichidagi tasavvurlar o'quvchilarning butun bir fanlar tizimini bilishini ta'minlaydi (fizikaviy, kimyoviy, biologik, bilimlar tizimi), o'rganilayotgan fan doirasida bilimlardan keng foydalanish kuzatiladi. Tizim ichidagi tasavvurlar, vaqt, muhit, son bog'lanishlarini aks ettiradi. Predmetlararo tasavvurlar aqliy faoliyatning eng yuqori pog'onasi hisoblanadi. Ular bilimlarning turli tizimlarini birlashtiradi, hodisa yoki jarayonning xilma-xilligini bilish imkoniyatini beradi. Shu bilimlar asosida umumiy tushunchalar kelib chiqadi. Tizimlararo tasavvurlarning shakllanishi, ularni bilimlardan foydalanishga, ularni bir-biriga bo'ysundirishga, bilimlar chegarasidagi bo'shliqlarni chegaralashga imkon beradi.

Bayon qilingan psixologik dalillar yordamida boshlang'ich, to'liqsiz o'rta va o'rta maktab ta'limini integratsiyalashning asosiy xususiyatlarini aniqlash mumkin. S.P.Baranov, L.R.Bolotin, V.A.Slasteninning "Pedagogika" kitobida darslarda qo'llanadigan fanlararo bog'lanish ko'rsatiladi, lekin integratsiyalashgan ta'lim muammolari aks etmagan. Olimlar fikrlaridan shunday xulosaga kelish mumkinki, integratsiya – differentsiya jarayonlari bilan birgalikda fanlarni yaqinlashtirish va bog'lash

jarayoni bo‘lib, yangi, butun, yaxlit bo‘limlar yaratishga yordam beruvchi, fanlararo aloqalarni amalga oshiruvchi yuqori ko‘rinishdir.

O‘quv predmetlari orasida integratsiya predmetlar tizimini inkor etmaydi va integratsiya tizimini takomillashtirish, kamchiliklarni bartaraf etish yo‘li bo‘lib, predmetlar orasidagi aloqalar va bog‘liqliklarni chuqurlashtirishga qaratilgan bunday yondashuv – differensiya va integratsiya orasidagi munosabatlarni tushunishga tayanadi.

Pedagogikaning maqsadi bir hil maqsad vazifalarga ega bo‘lgan turli fanlarning element va qismlarini bir butunga birlashtirishga yo‘naltirilgan integratsiyani amalga oshirishda o‘qituvchilarga yordam berishdir. Ko‘p yillik kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, keyinchalik esa bitiruvchilar u yoki bu fanlarni o‘rganib, boshqa fanlarni o‘rganishga qiynaladi, ularda mustaqil fikrlash, olingan bilimlarga o‘xshash yoki yangi vaziyatlarga ko‘chira bilish ko‘nikmalari etishmaydi.

Bularning hammasi dars jarayonida turli fanlar bo‘yicha mashg‘ulotlarning o‘zaro kelishmovchiligi tufayli sodir bo‘lmoqda. Bu holatda integratsiya bir predmet bo‘yicha bilimlarni ikkinchisiga ko‘chirish va faoliyatning almashinishi emas, balki zamonaviy fanlar integratsiyasi yo‘nalishlarini aks ettiruvchi yangi didaktik ekvivalentlarni yaratish jarayonidir. Qator olimlar maktab ta‘limini integratsiyalashning muhimligiga e‘tibor qaratsa, ba‘zilari integratsiya darsni samarali tashkil qilish vositasi, predmetlar aloqalarini yangi pog‘onalarga ko‘tarish shakli, deb hisoblaydi.

Demak, integratsiya - o‘quvchining turli fanlar bo‘yicha kuzatishlari va xulosalarini tasdiqlab yoki chuqurlashtirib beruvchi yangi dalillarni topib berish manbaidir. Ular faoliyatning turli shakllarini almashib turishi orqali o‘quvchilarning charchashi va asabiylashishini oldini oladi.

Differensial ta‘lim. Rivojlangan mamlakatlarda ommaviy o‘rta maktablarning yaratilishi ta‘lim-tarbiya differensiyasi muammosini yanada keskinlashtirdi. Bunday holat umumiy ta‘lim diversifikatsiyasining sifat darajasi boshqacha tizim zaruratini keltirib chiqardi. O‘quvchilarning iqtidori, qiziqishi, o‘zlashtirishiga ko‘ra differensial tayyorgarlikni kuchaytirish va murakkablashtirish - zamonaviy maktabning global yo‘nalishiga aylandi.

Differensiyaning asosiy shakllari - o‘quv muassasalarini turli tiplarga bo‘lish, bir maktab ichida potok va profillarga, sinfda guruhlarga ajratish nazarda tutiladi. Differensial ta‘lim muammosi bir xil hal bo‘lmaydi va qarama-qarshiliklarga ega. Ijtimoiy tomondan differensiya ijtimoiy tanlov usuliga aylanadi. Pulli ta‘lim va imtihonlar tizimi bunda tanlov vositasi bo‘lib hisoblanadi. Odatda tabaqalanish (differensiya) boshlang‘ich maktabni bitirgandan keyin boshlanadi.

U turli tipdagi ta‘lim muassasalarida amalga oshiriladi. Masalan: Angliyada grammatik va zamonaviy maktablarda, Germaniyada real bilim yurti, gimnaziya va asosiy maktablarda, Fransiyada texnologik, kasbiy va umumta‘lim litseylarda, Rossiyada oddiy o‘rta maktab, litsey, kollej, gimnaziya va b. Bu o‘quv muassasalarida differensiyaning asosiy o‘ziga xos belgisi dasturlardir. Bir o‘quv muassasasi doirasida differensiya keng yoyilgan. Masalan, AQSH va Yaponiya katta o‘rta maktablarida 2 tipdagi umumta‘lim va maxsus dasturlar mavjud. Ular turli qirralarda o‘quvchilarning turli guruhlarini o‘rganishadi. Germaniyada gimnaziya ta‘limning 6 profilini taklif etadi, asosiy maktab esa differensiyani KKAM tizimi asosida amalga oshiradi. Unga ko‘ra ta‘lim dasturning quyidagi variantlariga ko‘ra tashkil qilinadi: kasbiy kurs(K), kengaytirilgan kurs (K), asosiy kurs (A), moslashtirilgan kurs (M).¹⁵

To‘liqsiz o‘rta maktab differensiya vositasi hisoblanadi. 1930 yil AQSHda, 1950 yil Yaponiyada, 1970-1980 yillar G‘arbiy Yevropada, 1990 yil Rossiyada differensial ta‘lim amalga oshiriladigan o‘quv muassasalari paydo bo‘la boshladi. Bu erda gap AQSH va Yaponiyadagi kichik o‘rta maktab, Buyuk Britaniyadagi birlashgan maktab, Germaniyadagi yagona kollej, Rossiyadagi 6 yillik o‘rta ta‘lim maktabi haqida ketyapti. Bu kabi ta‘lim muassasalarida 11-12 yoshdan 15-16 yoshgacha bo‘lgan o‘quvchilar o‘qitiladi.

Bu o'quv muassasalarda tabaqalanishning pedagogik asoratlari ijobiy. Tabiiy maqsadga yo'naltirilgan xarakterga ega, turli guruh o'quvchilari imkoniyatlari hisobga olinadi. Umumiy dastur o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini oshirishga mo'ljallangan. Masalan, Fransiyadagi ilk yagona kollejlarda yaxshi o'zlashtiruvchilar foizi shu yoshdagi parallel ta'lim muassasalarida yaxshi o'zlashtiruvchilar sonidan yuqori chiqdi. AQSH va Yaponiya kichik o'rta maktablarida to'liqsiz o'rta ta'lim beriladi. Mazkur dastur qator afzalliklarga ega. Tanlov fanlar ta'limni davom ettirish yoki mehnat faoliyatini boshlashni nazarda tutadi.

1950 yil oxirida DJ.Konant boshchiligidagi pedagoglar guruhi umumqamrab oluvchi maktab modelini taklif etdi. Bu model bo'yicha umumta'lim o'quv muassasasida ijtimoiy daraja, qobiliyat, qiziqishidan qat'iy nazar barcha bolalar o'qishadi, lekin turli-tuman ta'lim dasturlari amalga oshiriladi. Konant tavsiyalari AQSHdagi kichik o'rta maktablarda differensial ta'limni joriy qilishda foydalanildi. Buyuk Britaniyada birlashgan maktablar kichik grammatik sinflar va zamonaviy maktablarni o'z ichiga oladi. Ilk 3 yillikda o'quvchilar zamonaviy maktab dasturi bo'yicha shug'ullanadilar, keyin yoki shu dasturni davom ettiradi, yoki grammatik maktab dasturi bo'yicha o'qishadi. Birlashgan maktablarda yoshiga ko'ra 90% o'smirlar shug'ullanadilar.

Germaniyada umumiy maktablarda yoshiga ko'ra 5% o'quvchilar tahsil olishadi. Umumiy maktabning kooperativ va integral tiplari yuzaga keldi. Kooperativ maktablar asosiy, real maktab va gimnaziyalarni birlashtirdi. 9-sinfdan keyin o'quvchilar asosiy maktabdagi kabi diplom oladilar, 10 sinfdan keyin esa diplom real maktab va gimnaziyaning o'rta bosqichiga teng keladi. Kooperativ maktablarda mashg'ulotlar majburiy va elektiv dastur birgaligida amalga oshiriladi.

Fransiyada yagona kollejlarda guruh bo'yicha ta'lim doimiy tashkil etiladi. Turli tipdagi guruhlar tuziladi: gomogen guruhlar – tayyorgarlik darajasi bir xil, yarim gomogen guruhlar – tayyorgarlik darajasi yaqin, geterogen – tayyorgarlik darajasi har xil. Guruhlarga o'qituvchilar, psixologlar, yo'nalishlari bo'yicha maslahatchilar tavsiyasiga ko'ra bo'linadi. Guruhlar maktab dasturi variantlarini o'zlashtiradilar. Ikkita bitiruvchi sinfdan kuchli va kuchsiz bosqichli guruhlar yuzaga keladi. Bu ikki xil guruhni bitirgan kollej o'quvchilariga ta'limning keyingi tiplari tavsiya etiladi.

Yaponiya maktablarida guruhli ta'lim yaxshi mavqega ega, uni musobaqa tarzida tashkil etishadi. Sinfdagi guruhchalar kim ko'p ingliz tilidagi so'zlar, ieroglif va she'r yod olish bo'yicha bellashadilar. Baho butun guruhga qo'yiladi. Yapon pedagoglari guruhli ta'limga har xil nuqtai nazar bilan qarashadi. Guruhli ta'lim pedagogik jihatdan to'g'ri, lekin guruhlarda shug'ullanuvchi bolalar va o'smirlar dunyoqarashini toraytirish xavfi bor, deb hisoblashadi. Masalan, guruhni kuchlilar va zaiflar guruhiga bo'lganda 2ta holat yuzaga keladi: yoki kuchlilarga, yoki kuchsizlarga e'tibor qaratiladi, bu har ikkala guruhga ham zarar.

Masofaviy ta'lim

Hozirda dunyo shunchalik tez rivojlanmoqdaki, bugungi yangilik ertaga eskirib qolyapti. Shuning uchun, ma'lumotlarni o'z vaqtida olish maqsadida, odamzot informatsion texnologiyalarni yaratdi. Kompyuter — bu oddiy va qulay tarzda ma'lumotlarga etish vositasidir. Ma'lumotlar bilan ishlayotgan shaxs, ma'lumotlarning qaerda joylashishidan qat'i nazar, xoh u shaharda, xoh jahonning boshqa nuqtasi bo'lsin, uni olish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Hozirda shu va shunga o'xshash boshqa muammolar kompyuterlar yordamida bartaraf qilinmoqda. Kompyuterlar inson hayotining barcha jabhalariga jadallik bilan kirib borapti va jahonda ularning soni va qo'llanilish doirasi kengaygandan kengaymoqda. Bu esa kompyuterlarning kundankunda yanada rivojlanishini ta'minlayapti.

Bularning hammasi ta'lim tizimiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Hozirda puxta bilimga ega bo'lish uchun informatsion texnologiyalarni ham o'zgartirish zaruriyati tug'ilmoqda, chunki ta'lim tizimi har doim zamon talablariga mos kelishi kerak.

Hozirgi zamon talabi esa yangi o'quv muhiti, ya'ni yangi informatsion texnologiyalar yordamida ixtiyoriy joyda turib bilim olish, ixtiyoriy o'quv yurtlari bilan aloqa qilish va jahonning ixtiyoriy nuqtasidagi ma'lumotlarni olishdir. Bunda bizga internet tizimi yordam berishi mumkin. Internet tizimi orqali ta'lim tizimi tashkil qilingan maktablar, kollejlari va o'quv yurtlari hozirgi kunda rivojlanib borayotgan "virtual o'quv yurtlari"ga birlashayotganini kuzatish mumkin. Bu esa o'quv muassasalari orasidagi masofani qisqartiradi va ma'lumotlar almashinuvini maksimal darajada ta'minlaydi.

Ta'limga yangi texnologiyalarning kirib kelishi — axborotni uzatish va qayta ishlashning elektron vositalariga asoslangan yangi ta'lim texnologiyalarining va o'qitish shakllarining paydo bo'lishiga olib keladi.

Masofaviy o'qitishda o'rgatuvchi, sinovchi va aloqa vositalari kabi texnik vosita va texnologiyalar qo'llaniladi. O'rgatuvchi vositalarga izohli lug'atlar, qidiruv vositalari, elektron o'quv qo'llanmalar, ma'ruzalarning videokursi va boshqalar kiradi. Sinov vositalariga test savollari, o'z-o'zini tekshirish vositalari mansub. Aloqa vositalari bular — forumlar, pochta, audio va videokassetalardir.

Masofaviy ta'limda o'qituvchi funksiyasini o'rgatuvchi va sinovchi vositalar (to'la avtomatlashtirilgan, tugal dasturiy mahsulotlar) bajaradi, shuningdek, o'qitishning avtomatlashtirilgan muhitini tashkil etuvchi video va elektron nashr etilgan uslubiy material bajaradi.

Elektron darslikning imkoniyatlarini multiplikatsiya va videotexnikaning zamonaviy vositalarini qo'llagan holda kengaytirish mumkin. Bular o'quv kursi bo'yicha videoma'ruzalari, ishlab chiqarish jarayonlarining namoyishi, mashhur olimlarning chiqishlari va boshqalar bo'lishi mumkin.

Zamonaviy kompyuterga mo'ljallangan didaktik dasturlar (elektron darslik, kompyuter topshiriqnomalari, multimediyali elektron darsliklar va h.) o'qitishning multimediyali vositalari sirasiga kiradi. Multimedia didaktik material uzatishni yuqori darajada qulay va ko'rgazmali bo'lishini ta'minlaydi, bu, o'z navbatida, talabalarda o'rganishga qiziqishni orttiradi.

YAqin vaqtlargacha masofaviy ta'lim, sirtqi ta'lim, ochiq ta'lim va hokazolar kabi tushunchalar deyarli bir-biridan ajratilmas edi. Biroq hozirgi vaqtga kelib, masofaviy ta'lim o'z ahamiyati va zarurligini isbotladi. Biroq hozirgacha, — bu ta'lim shaklimi yoki texnologiyami degan savollar dolzarbligicha qolmoqda. Chunki, bu savolning tushunchasidan masofaviy ta'limning strategiyasi, amalga oshirish taktikasi hamda o'qituvchilarni masofaviy ta'limda ishlashga tayyorgarligiga bog'liq bo'ladi.

Hozirgi vaqtda masofaviy ta'limning tadqiqotchi va amaliyotchilari tomonidan unga quyidagicha asosiy ta'rif berib kelinmoqda:

Masofaviy ta'lim - bu o'quv materialining etkazib berilishida, mustaqil o'rganishida, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida muloqot almashinuvida qo'llaniladigan, an'anaviy va yangi axborot texnologiyalarni hamda ularning texnik vositalarini keng qamrovdan ishlatilishidagi ta'limning sintetik, integral, ijtimoiy shaklidir.

Masofaviy ta'lim kunduzgi ta'lim mazmunidagi kabi mos ravishda o'sha maqsadlar bilan quriladi (agar u ta'limga mos keluvchi dastur bo'yicha qurilsa), lekin, materialni etkazish shakli, o'qituvchi va o'quvchilar, shuningdek, o'quvchilarning o'zaro o'rtasidagi ta'sir etish shakli boshqacha bo'ladi. Masofaviy ta'limning asosiy bazaviy didaktik prinsiplari boshqa ta'lim turlari kabidir, lekin masofaviy ta'limning tashkiliy prinsiplari boshqachadir, ular masofaviy ta'lim uchun xosdir, chunki shakl xususiyatlari, internetning axborot vositasi imkoniyatlari, uning xizmatlari (chatlar, forumlar, elektron pochta, videokonferensiya) bilan ifodalangan. Masofaviy ta'limning o'ziga xos xususiyatlari sifatida modullilik, o'qituvchi rolini o'zlashtirish, o'quv jarayoni sub'ektlarining masofa bilan ajratilganligi, ta'limning virtual kooperativligi, o'qituvchi tomonidan yuritiladigan nazorat ustidan o'z nazoratini o'rnatish, zamonaviy maxsus ta'lim texnologiyalari va vositalarining ishlatilishini keltirishimiz mumkin.

Masofaviy ta'lim ishlatilishining asosiy sohalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ma'lum sohalar bo'yicha pedagogik kadrlar malakasini oshirish;
- imtihonlarni ekspert usulida topshirishda alohida o'quv fanlari bo'yicha maktab o'quvchilarini tayyorlash;
- ma'lum yo'nalishdagi o'quv muassasalariga o'qishga kirish uchun maktab o'quvchilarini tayyorlash;
- maktab o'quvchilarining yo'nalishlar bo'yicha ta'lim olishlarini tashkil etish;
- qiziqish bo'yicha qo'shimcha ta'lim olish;
- kadrlarni kasbga qayta tayyorlash;
- kasbiy tayyorgarlik.

Masofaviy ta'lim bilan kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarini taqqoslab, shuni xulosa qilish mumkinki, masofaviy ta'limni, personal kompyuterlar, video va audio texnika, kosmik va optik tolali texnikaning ishlatilishiga asoslangan ta'limni axborot texnologiyalari bilan ta'minlangan sirtqi va kunduzgi ta'lim rivojlanishining yangi bosqichi sifatida ko'rish mumkin. Masofaviy ta'lim sirtqi ta'lim shaklidan shunisi bilan farq qiladiki, unda materialning mohiyatli qismi mustaqil o'zlashtirilmasdan, o'qituvchi bilan doimiy muloqotda amalga oshiriladi (telefon va internet, ma'ruza va seminarlarda onlayn rejimidagi konsultatsiyalar). SHuningdek, masofaviy ta'limning sirtqi ta'lim shaklidan asosiy farqlari sifatida quyidagilarni kiritish mumkin: – telekommunikatsiya vositalari yordamida o'qituvchi bilan doimiy muloqot, vujudga keladigan savollar bo'yicha u bilan operativ tarzda muloqot qilish imkoniyati.

Rivojlangan davlatlarda yangi tipdagi o'quv yurtlari mavjud. Bunday o'quv yurtlari “ochiq”, “masofali” universitet, “elektron”, “virtual” kollejlar deb nomlana boshlandi. Ular o'ziga xos tashkiliy strukturaga ega bo'lib o'ziga mos pedagogik usul, iqtisodiy mexanizmlardan foydalaniladi. Xulosa.

Jahon ta'lim tajribasida differensial va integratsion ta'lim masalalari, xususan jahon ta'lim taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari, differensial va integratsion ta'lim mazmun mohiyati pedagogik muammo sifatida o'rganilib, quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Integratsiya (lot. Integeration – tiklash, to'ldirish, birlashtirish.

Integer – yaxlit) sintezlab bir butun qilib birlashtirmok, mantiqiy yaxlit holga keltirmoq ma'nosida tushuniladi. Ta'lim mazmunini integratsiyalash deganda o'zaro uzviy aloqador, bir-birini taqozo etadigan, kengaytiradigan, chuqurlashtiradigan o'quv predmetlari mazmunini sintezlash, ya'ni mantiqiy birlashtirib bir butun (yaxlit) holga keltirishni tushunamiz. Genetik jihatdan integratsiya – uzviylik, predmetlararo aloqadorlik, o'zaro aloqadorlik va nihoyat o'zaro bir-birini to'ldiruvchi, kengaytiruvchi hamda chuqurlashtiruvchi o'quv predmetlari mazmunini eng kamida ta'lim standartlari darajasida sintezlab, mantiqan tugallangan mazmun shakli va oliy darajasidir. Integrativ aloqadorlik asosida tashkil etilgan o'quv predmeti yoki integratsiyalab o'rganilayotgan predmet, hodisa yoki jarayonlarni yaxlit tizim shaklida har tomonlama aloqadorlik va munosabatlar nuqtai nazaridan talqin etishni talab etadi. Bu o'z navbatida xozirgi va istiqbol talablariga javob beradigan mustaqil fikr yurituvchi va ijodiy faoliyat ko'rsatuvchi keng ixtisosli malakali mutaxassis shaxsini shakllantirishga imkon beradi.

3. Integratsion ta'lim tahsil oluvchilardan faqatgina tahlil qilish va sintezlash operatsiyalarini talab qilish bilan chegaralanib qolmasdan, balki mavhumlashtirish, algoritmlashtirish, turkumlash, shartli belgilar yordamida ifodalash, sabab oqibatli aloqadorlikni aniqlash, tahlil etish, sintezlash, tizimlashtirish, modellashtirish kabi yuksak darajali tafakkurlash operatsiyalarini talab etadi. Bu operatsiyalar o'rganilayotgan ob'ektzni barcha muhim jihat va xususiyatlarini ajratib olib (tabaqalashtirib), mohiyati va mazmunini anglab etish va ularni umumlashtirish orqali amalga oshiriladi.

Demak, integratsiya har doim ham uning ikkinchi tomoni bo'lgan tabaqalashtirish (differenziatsiya)ga tayangan holda rivojlanib boradi yoki aksincha.

4. Integratsiya va differenziatsiya bir-biridan ajralgan holda mavjud bo'lmaydi, biri ikkinchisidan kelib ham chiqmaydi, balki ular har doim bir vaqtni o'zida o'rganilayotgan ob'ektning ikki tomoni sifatida namoyon bo'ladi.

5. Integratsiyalashtirilgan o'quv dasturlarining mualliflari barcha yondosh o'quv kurslarini o'zak predmet va g'oya atrofiga jipslashtirishga xarakat qilishadi, bu o'quvchilarga ijodiy tafakkur yurgizishga yordam beradi.

6. Rivojlangan mamlakatlar o'quv dasturiga integratsiyalashgan kurslarni kiritish bilan bir qatorda alohida fanlardan chuqurlashtirilgan kurslarni tavsiya etmoqdalar. Masalan, G'arbiy Evropa mamlakatlarida 15 foiz o'quvchilar fizika fanini chuqurlashtirib o'rganadilar.

7. Bosqichlik differensiya texnologiyasidan foydalanishning asosiy maqsadi har bir o'quvchini o'zining imkoniyatlari va qobiliyatlari darajasida o'qitish bo'lib, natijada har bir ta'lim oluvchi o'z iqtidoriga ko'ra bilim olish va shaxsiy salohiyatini amalga oshirish (qo'llay olish) imkoniyatiga ega bo'ladi.

Tavsiyalar:

1. Chet el tajribalari shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lim mazmunini qayta qurish ishida shoshma-shosharlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Fikrimizcha, bu sohada samaraliroq yo'l integratsiya va ixtisoslashtirishga asoslangan o'quv dasturlarini yaratishdir.

2. Pedagogik jarayonda o'quvchilarga individual va differensial yondashuv shaxs rivojlanishida muhim omil hisoblanadi, chunki aynan shunday yondashuv bolalardagi iqtidor va qobiliyatni ko'ra bilish, shaxs rivojlanishiga sharoitlar yaratishni nazarda tutadi.

3. Ta'limning turli bosqichli differensiyasi o'quv jarayonining turli bosqichlarida keng qo'llanilishi lozim: bu yangi materialni o'rganish, differensiyalangan uy vazifasi, darsda bilimlar o'lchovi, o'tilgan mavzuni egallaganlikni joriy tekshirish, mustaqil va nazorat ishlar, xatolar ustida ishlash, mustahkamlash darslarida amalga oshirilishi kerak.

4. Ko'pincha darslarda uy vazifasi so'ralganda o'quvchilar bilimidagi kamchiliklar qidiriladi. Aslida yutuq, bilim, malakalari aniqlanishi kerak, zero uy vazifasi so'ralganda asosiy vazifa o'rgatish, yordam berish va qo'llab-quvvatlashdir. SHu o'rinda o'quvchilardan uy vazifasini so'rashda differensial ta'lim usullaridan foydalanish zarur.

5. O'quvchilarning individual xususiyatlarini bilish, zarurat bo'lsa korreksion samaraga erishish maqsadida differensial ta'lim amalga oshirilishi kerak, bu esa o'qituvchilardan o'quvchilarning individual qobiliyatlari va o'qish imkoniyatlarini (diqqat, fikrlash, xotira va boshqalarning rivojlanish darajasi), aniq fanlar bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalar darajasini o'rganishni talab qiladi.

6. Differensial ta'lim –o'quv jarayonini o'quvchilar guruhining etakchi xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish bo'lsa, individual ta'lim har bir o'quvchining qobiliyati, iqtidoriga qarab beriladi. Demak, differensial ta'limni samarali tashkil qilish uchun dastur, darslik, didaktik materiallarning yangi variantlari yaratilishi lozim bo'ladi.

Nazorat savollari:

1. Integratsion va differensial ta'limning maqsad va vazifalarini ayting.
2. Xorij ta'lim tajribasida differensial, integrativ ta'limning mazmun mohiyatini bayon eting.
3. Rivojlangan davlatlar tajribasida masofaviy ta'lim masalalari haqida ma'lumot bering.
4. Xorij mamlakatlarida to'ldiruvchi ta'lim, maxsus ta'lim turlari haqida fikringizni bayon eting.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Richard Arum, Melisa Velez. Improving Learning Enviroment: Schol Discipline and Comporative Perspektive. Stanford Universiy Press, USA 2012.

2. H.Fry, S. Ketteridge, S.Marshall. Handbook For teaching and Learning in Higher Education. New York, Routledge, 2009.
3. Higher education in japan. Higher Education Bureau, Ministry of Education, Culture, Sports, Science and Technology. 3-2-2 Kasumigaseki, Chiyoda-ku, Tokyo 100-8959, Japan Tel: +81-3-5253-4111 (Reception)
4. Eduscol. education.fr./ dossiers. School Education in Franse. ISBN 978-92-9079-921-4 Available for free downloading from the CEPS website (<http://www.ceps.eu>) © CEPS, 2009
5. http://cache.media.eduscol.education.fr/file/dossiers/07/3/2013_School_Education_in_France_244073.pdf.
6. Florian Geyer. The Educational System in Belgium CEPS Special Report/September. ISBN 978-92-9079-921-4 Available for free downloading from the CEPS website <http://www.ceps.eu>)© CEPS, 2009.
- 7.Improving Learning Environments: School Discipline and Student Achievement in Comparative Perspective (Studies in Social Inequality) Hardcover – June 13, 2012
8. Djalalova D.X. Osnovnyye tendensii razvitiya sovremennoy Yaponskoy shkoly. Avtoreferat dis.k.p.n. 2004.
9. Titov V.A.Pedagogika zarubejnyx stran (sravnitel'naya pedagogika). A-Prior, 2010.
10. Mutalipova M.J., Xodjaev B.X. Qiyosiy pedagogika. – T: 2015y.
11. Xoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.

SEMINAR TOPSHIRIQLARI


1-Mavzu “Qiyosiy pedagogika” mustaqil fan sifatida mavzusi yuzasidan

1-topshiriq

BBB jadvalini to’ldiring

| B/B/BJADVALI | | |
|----------------------------------|---------------------------|-------------------|
| Bilaman | Bilishni xohlayman | Biliboldim |
| Mavzubo‘yicha nimalarni bilaman? | | |

2-Topshiriq Qiyosiy pedagogikaning mazmun-mohiyati, boshqa fanlar bilan bog‘liqligi yuzasidan «FSMU» jadvalini to’ldiring



3-Topshiriq

O‘zbekiston hamda chet el ta’lim tizimining qiyosiy tahlili mavzusida “ESSE” yozing

2-mavzu. Qiyosiy pedagogikaning nazariy-metodologik asoslari mavzusi yuzasidan

1-topshiriq

Tushunchalar tahlili metodi

| Tushunchalar | Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi? | Qo‘shimcha ma’lumot |
|--------------------------------------|--|----------------------------|
| <i>Ambivalentli yondashuv</i> | | |
| <i>Kompleks yondashuv</i> | | |
| <i>Insonparvar yondashuv</i> | | |
| <i>Tarixiy yondashuv</i> | | |
| <i>Etnopsixologik yondashuv</i> | | |
| <i>Aksiologik yondashuv</i> | | |
| <i>Integratsiyalashgan yondashuv</i> | | |

2-Topshiriq
Ikki qismli kundalik metodi

| | |
|----------------------------|--|
| Melioristik yondashuv | |
| Tarixiy-falsafiy yondashuv | |
| Fanlararo yondashuv | |
| Etnomadaniy yondashuv | |

Ikki qismli kundalik uchun talabalar yozilmagan qog‘ozning o‘rtasidan tik chiziq o‘tkazib, uni ikkiga ajratishlari kerak. Kog‘ozning chap tomoniga matnning qaysi qismi ularga eng ko‘p taassurot qoldirganini qayd etishadi. Ehtimol, u qandaydir xotirani uyg‘otar yoki hayotlarida yuz bergan voqealarni esga tushirar, yoki shunchaki taajjubga solar. Yoxud ularning qalbida keskin norozilik hissini uyg‘otar. O‘ng tomonida ular sharh berishlari kerak: ayni shu sitatani yozishga ularni nima majbur etdi? Ularga qanday fikrlar uyg‘otdi? Shu munosabat bilan ularda qanday savol tug‘ildi? Qisqasi, matnni o‘qirkan, o‘quvchilar vaqti-vaqti bilan to‘xtashlari va o‘zlarining qo‘shaloq kundaliklarida shunday belgilar qo‘yib borishlari kerak

Mana shu namuna asosida ikki qismli kundalikni to‘diring

3-mavzu. Qiyosiy pedagogik tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlari mavzusi yuzasidan 1-topshiriq
Bir necha manbalardan foydalanib ma’ruza tayyorlash

| Savol | Darslik | Jurnal Maqolalar | Internet ma’lumotlari | Intervyu |
|---|---------|------------------|-----------------------|----------|
| Qiyosiy pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari haqida nimalarni bilasiz? | | | | |
| Tarixiy metod, qiyoslash metodlariga misollar keltiring | | | | |
| Sotsiologik hamda analitik metod haqida fikrlaringizni bayon qiling | | | | |

2-Topshiriq
“INSERT” metodi yordamida mavzuni yoriting

| Belgilari | 1-matn | 2-matn | 3-matn |
|---|--------|--------|--------|
| “V” – tanish ma’lumot | | | |
| “?”–mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak | | | |
| “+” bu ma’lumot men uchun yangilik | | | |
| “– ” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman | | | |

Ushbu jadval yordamida mavzuni yoriting, fikrlaringizni bayon qiling

3-Topshiriq

Mavzu yuzasidan savollarga javob bering

1. Qiyosiy pedagogikaning tadqiqot metodlari haqida gapiring.
2. Tavsiflash metodi qanday metod?
3. Tarixiy va sotsiologik metodlarga ta'rif bering.
4. Analitik metodni tushuntiring

4-MAVZU:QIYOSIYP EDAGOGIKA FANINING TARAQQIYOT BOSQICHLARI.

1-Topshiriq

1.Qiyosiy pedagogikaning taraqqiyot bosqichlari mavzusida esse yozing

2-Topshiriq savollarga javob bering

1. BMT, YUNESKO, YUNISEF tashkilotlari haqida gapiring.
2. YUNESKO tashabbusi bilan Parijda qaysi vatandoshlarimizning yubileyi bo'lib o'tdi?
3. YUNESKOning "Buyuk ipak yo'li"ni o'rganish dasturi qaysi yo'nalishlarda olib borilmoqda?
4. Jahon tarixiy yodgorliklariga O'zbekistondan qanday obidalar kiritilgan?

3-Topshiriq FSMU jadvalini to'ldiring

| Savol | Qiyosiy pedagogika fanini rivojlanishida xalqaro tashkilotlarni xususan YUNESKO tashkilotining ahamiyati qanday |
|---|---|
| (F)Fikringizni bayon eting | |
| (S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating | |
| (M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring | |
| (U)Fikringizni umumlashtiring | |

5-mavzu TA'LIM SOHASINI RIVOJLANTIRISH

BO'YICHA TAJRIBALAR. MODULLI-KREDIT TIZIMI

1-Topshiriq

| "Modulli kredit tizimi" tushunchasi tavsifi | Kredit texnologiyasi bo'yicha tinglovchilar bilimni baholash metodikasi | "Modulli-kredit tizimi"ning xususiyatlari | "Modulli-kredit tizimi"ning tamoyillari |
|---|---|---|---|
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |

2-Topshiriq.Bir necha manbalardan foydalanib ma'ruza tayyorlash

| Savollar | Darslik | Jurnal Maqolalari | Internet materallari | Intervyu |
|---|---------|----------------------|-------------------------|----------|
| | | | | |
| Differensial ta'lim nimani anglatadi? | | | | |
| To'ldiruvchi ta'lim turlarini ayting. | | | | |
| Integratsion ta'limning mazmun mohiyati | | | | |
| Xorij tajri basida iqtisodiy talabalar bilan ishlash masalalari | | | | |
| Modulli ta'limning afzalligi nimada | | | | |
| Modulli kredit tizimi mazmun mohiyati | | | | |

6-mavzu:Qiyosiy pedagogikada tadqiqotlar tipologiyasi va OO'Yularida ta'lim variativligi.

1-TOPSHIRIQ. Yurtimiz ta'lim tizimining istiqbolli rivoji haqida o'z fikrlaringizni bayon eting.

2-TOPSHIRIQ. "Ilg'or xorijiy tajribalarning ta'lim tizimi rivojidadagi ahamiyati shundaki..." mavzusida asoslangan esse yozing.

Topshiriqni bajarish tartibi:

- 1.Mazkur mavzu yuzasidan o'z nuqtai nazariningizni bayon eting.
- 2.Nuqtai nazariningizni asoslash uchun misollar keltiring.
- 3.Mavzu yuzasidan aniq xulosalar chiqaring.

3-TOPSHIRIQ. Internetdan turli davlatlarning ta'lim sohalariga bag'ishlangan eng yangi ma'lumotlarni olish va tahlil qilishga tayyorlaning.

7-mavzu. Oliy ta'lim tizimining tipologik-tasnifiy mezonlari va ta'lim muassasalari nufuzi.

1-Topshiriq

Oliy ta'lim tizimining tarixiy rivojlanishi mavzusida esse yozish

2-Topshiriq FSMU jdvali to'ldiring

| Savol | Oliy ta'limning maqsadi va vazifalari to'g'risida fikringizni bayon qiling |
|---|--|
| (F)Fikringizni bayon eting | |
| (S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating | |
| (M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring | |
| (U)Fikringizni umumlashtiring | |

3-Topshiriq BBB jadvalini to'ldiring

| B/B/BJADVALI | | |
|----------------------------------|--------------------|------------|
| Bilaman | Bilishni xohlayman | Biliboldim |
| Mavzubo'yicha nimalarni bilaman? | | |

8-Mavzu: Qiyosiy pedagogika fani rivojlanishida xalqaro tashkilotlar va ularning faoliyati

1-Topshiriq

Blits savollariga javob bering

5. Qiyosiy pedagogika fani taraqqiyotida YUNESKO tashkilotining faoliyati nimalardan iborat?
6. YUNISEF tashkilotining ta'lim sohasidagi vakolatlarini qanday izohlaysiz?
7. "Xalqaro mehnat tashkiloti"ning kadrlar va ularni ish bilan ta'minlash masalasi doirasidagi vazifalarni qanday amalga oshiradi?
8. O'zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi qanday imkoniyatlarni yaratib beradi?

2-Topshiriq

"Xalqaro mehnat tashkiloti"ning kadrlar va ularni ish bilan ta'minlash mavzusida Esse yozish.

3-Topshiriq

Bir necha manbalardan foydalanib ma'ruza tayyorlash

| Savol | Darslik | Jurnal Maqolalar | Internet ma'lumotlari | Intervyu |
|---|---------|------------------|-----------------------|----------|
| Qiyosiy pedagogika fani taraqqiyotida YUNESKO tashkilotining faoliyati | | | | |
| YUNISEF tashkilotining ta'lim sohasidagi vakolatlari haqida nimalarni bilasiz | | | | |
| O'zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlini yoritish | | | | |

9-Mavzu.Hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta'lim tizimi va pedagogika fani rivoji.

1-topshiriq


| Savol | Yaponiya ta'lim tizimi |
|---|------------------------|
| (F)Fikringizni bayon eting | |
| (S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating | |
| (M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring | |
| (U)Fikringizni umumlashtiring | |

2-Topshiriq O'zbekiston va Koreya davlatining ta'lim tizimini tahlil qiling

3-Topshiriq O'zbekiston va Yaponiya ta'lim tizimining tahlili haqida esse yozish

10-mavzu. AQSH va Yevropa mamlakatlarida ta'lim–tarbiya masalalarining olib borilishi va qiyosiy tahlil.

1-Topshiriq «FSMU» metodi



Fikr: “Amerika ta'lim tizimi eng samarali ta'lim tizimlaridan biridir.”.

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

2-Topshiriq “KONSEPTUAL JADVAL”

«Iqtisodiy rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'lim tizimi» mavzusidagi konseptual jadvalni to'ldiring

| Iqtisodiy rivojlangan xorijiy davlatlar (o'qituvchi va tinglovchilarning xohishiga ko'ra) | Ta'lim tizimi | | | |
|---|-------------------------------|--------------------------|-------------------------------|------------------------|
| | <i>Maktabgacha ta'lim</i> | <i>Umumiy ta'lim</i> | <i>O'rta maxsu ta'lim</i> | <i>Oliy ta'lim</i> |
| | | | | |

| | | | | |
|-----------|--|--|--|--|
| AQSH | | | | |
| Germaniya | | | | |
| Fransiya | | | | |
| Yaponiya | | | | |
| Kanada | | | | |
| Angliya | | | | |

11-mavzu. Avstriya, Avstraliya va Shveysariya davlatlaridagi ta'lim tizimining qiyosiy tahlili.


1-Topshiriq

| Savol | Avstriya, avstraliya ta'lim tizimining qiyosiy tahlili |
|---|--|
| (F)Fikringiznibayoneting | |
| (S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating | |
| (M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring | |
| (U)Fikringizni umumlashtiring | |

2-Topshiriq

| Savol | Shevetsariya va O'zbekiston ta'lim tizimining qiyosiy tahlili |
|---|---|
| (F)Fikringiznibayoneting | |
| (S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating | |
| (M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring | |
| (U)Fikringizni umumlashtiring | |

3-Topshiriq VEEN deagrammasi



12-Mavzu: Germaniya, Fransiya davlatlarining ta'lim tizimi

1-Topshiriq

“Germaniya, Fransiya davlatlarining ta'lim tizimi” mavzusida konseptual jadvalni to'ldiring

| Yevropa davlatlarining ta'lim tizimi o'xshashlik va farq | Ta'lim tizimi | | | |
|--|---------------------------|----------------------|---------------------------|--------------------|
| | <i>Maktabgacha ta'lim</i> | <i>Umumiy ta'lim</i> | <i>O'rta maxsu ta'lim</i> | <i>Oliy ta'lim</i> |
| Germaniya | | | | |
| Fransiya | | | | |
| O'xshashlik | | | | |
| Farq | | | | |
| | | | | |

2-topshiriq Germaniya davlati ta'lim tizimi mavzusiga oid toifalash jadvalini to'ldiring

| Germaniya ta'lim tizimining tavsifi | Germaniya ta'lim tizimining baholash metodikasi | Germaniya ta'lim tizimi"ning xususiyatlari | “Germaniya ta'lim tizimining tamoyillari tizimi”ning tamoyillari |
|-------------------------------------|---|--|--|
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |

13-mavzu. Fenlandiya ta'lim tizimi

1-Topshiriq

Blits savollar

1. Finlandiya ta'lim tizimi haqida nimalarni bilasiz?
2. Finlandiya ta'lim tizimining afzalliklari haqida.
3. Finlandiyaning bepul ta'lim tizimi haqida gapirib bering.

2-Topshiriq

Fenlandiya va O'zbekiston ta'lim tizimi o'rtasidagi farq mavzusida esse yozing.

3-Topshiriq

| Savol | Fenlandiya ta'lim tizimi |
|---|--------------------------|
| (F) Fikringizni bayon eting | |
| (S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating | |
| (M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring | |
| (U) Fikringizni umumlashing | |

14-Mavzu: Singapur va Turkiyada davlatlari ta'lim tizimining o'ziga xosliklari

1-Topshiriq

BBB\jadvalini to'ldiring


B/BX/B JADVALI

| Bilaman | Bilishni xohlayman | Bilib oldim |
|---------|--------------------|-------------|
| | | |
| | | |

2-Topshiriq

Singapur davlati ta'lim tizimi haqida esse yozish

3-topshiriq VEEN deagrammasi



15-MAVZU: ROSSIYA DAVLATI TA'LIM TIZIMINING O'ZIGA XOSLIKLARI

1-Topshiriq

Rosvlati ta'lim tizimining o'ziga xosliklari mavzusida BBB jadvalini to'ldiring

| Bilaman | Bilishni xohlayman | Bilib oldim |
|---------|--------------------|-------------|
| | | |
| | | |

2-Topshiriq FSMU jadvalini to'ldiring

| Savol | Rossiya davlatining ta'lim to'g'risidagi qonuni |
|---|---|
| (F)Fikringizni bayon eting | |
| (S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating | |
| (M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring | |
| (U)Fikringizni umumlashtiring | |

3-Topshiriq BLITS savollar

1. Rossiya ta'lim tizimi haqida nimalarni bilasiz?
2. Rossiyada boshlang'ich ta'lim qanday amalga oshiriladi?
3. Rossiya maktabgacha ta'lim muassasalari haqida nimani bilasiz?
4. Rossiyani ta'lim to'g'risidagi yangi qonuni qachon tasdiqlangan va uning ahamiyati qanday?
5. Rossiya ta'limida kasbga yo'naltirish masalalari.

16-mavzu: Buyuk Britaniya va Belgiya ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari

1-Topshiriq. Bir necha manbalardan foydalanib ma'ruza tayyorlash

| Savollar | Darslik | Jurnal Maqolalari | Internet materiallari | Intervyu |
|--|---------|-------------------|-----------------------|----------|
| | | | | |
| Angliya ta'lim tizimining xususiyatlari. | | | | |
| Anglayada ta'limining muammolari va rejalari | | | | |
| Belgiyada oliy ta'lim | | | | |

2-Topshiriq Angliya va Belgiya ta'limining qiyosiy tahlili yuzasidan esse yozing.

3-Topshiriq FSMU jadvalini to'ldiring

| Savol | Belgiya va O'zbekiston ta'lim tizimining tahlili |
|---|--|
| (F) Fikringizni bayon eting | |
| (S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating | |
| (M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring | |
| (U) Fikringizni umumlashtiring | |

17-mavzu. Jahon mamlakatlari ta'limi taraqqiyotining ayrim masalalari

1-Topshiriq. Zamonaviy ta'lim va innovasion texnologiyalar sohasidagi xorijiy tajribalar. Differensial, integratsion va masofaviy ta'lim mavzusida

BBB\jadvalini to'ldiring

B/BX/B JADVALI

| Bilaman | Bilishni xohlayman | Bilib oldim |
|---------|--------------------|-------------|
| | | |
| | | |

2-Topshiriq tushunchalar tahlili metodi
“Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”

| Tushunchalar | Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi? | Qo‘shimcha ma’lumot |
|--|--|----------------------------|
| Tyutor | Ustoz, murabbiy vazifasini bajaradi | |
| Edvayzer | tinglovchilarning individual holda bitiruv malakaviy ishi, kurs loyiha larini bajarishda maslahatchi rolini bajaradi | |
| Dzyuku | Yaponiyada to‘ldiruvchi ta’lim | |
| Xagvon | Janubiy Koreyada chet tilini o‘rganish bo‘yicha to‘ldiruvchi ta’lim | |
| Fasilitator | guruhlardagi faoliyat natijasini samarali baholaydi, muammoning ilmiy yechimini topishga yo‘naltiradi | |
| Vebinar dars | seminar yoki konferensiya internet orqali bir vaqtda hozir bo‘lgan tinglovchilar bilan audio video bilan jo44nli olib boriladi | |
| Blended learning (aralash o‘qitish) | kunduzgi an’anaviy ta’lim va masofaviy ta’limning unsurlari kombinatsiyasi | |

18-mavzu. Xorij ta’lim tajribasida differensial, integrativ va masofaviy ta’lim

1-Topshiriq

| “Modulli kredit tizimi” tushunchasi tavsifi | Kredit texnologiyasi bo‘yicha tinglovchilar bilimni baholash metodikasi | “Modulli-kredit tizimi”ning xususiyatlari | “Modulli-kredit tizimi”ning tamoyillari |
|--|--|--|--|
| | | | |
| | | | |

2-Topshiriq. Bir necha manbalardan foydalanib ma’ruza tayyorlash

| Savollar | Darslik | Jurnal Maqolalari | Internet materiallari | Intervyu |
|--|----------------|--------------------------|------------------------------|-----------------|
| | | | | |
| Differensial ta’lim nimani anglatadi? | | | | |
| To‘ldiruvchi ta’lim turla rini ayting. | | | | |
| Integratsion ta’limning mazmun mohiyati | | | | |
| Xorij tajri basida iqti dorli talabalar bilan ishlash masalalalari | | | | |
| Modulli ta’limning afzalligi nimada | | | | |
| Modulli kredit tizimi mazmun mohiyati | | | | |

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mutalipova M.J. Qiyosiy pedagogika - T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2016 y.
2. Sh. Shodmonova., Ergashev P. Qiyosiy pedagogika. - T.: TDPU, 2005.
3. Хошимов К., Нишонова С. Педагогика тарихи - Т.: А.Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2005 й. 287-297-б.
4. Вулфсон Б.Ф. Сравнительная педагогика М.: «Просвещение», 2003 г.

Qo'shimcha adabiyotlar:

5. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari va 2017-yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi.//Xalq so'zi gazetasi, 2017.16 yanvar, №11
6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. „O'zbekiston“, 2017.
7. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil, 6-son, 70-modda.
8. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 йил, 6-сон, 70-модда.
9. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi-inson manfaatlarini ta'minlash taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. „O'zbekiston“, 2017.
10. Hoshimov K., S.Ochil. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. - T.: O'qituvchi, 1995 y.
11. Munavvarov A. Oila pedagogikasi. T.: O'qituvchi, 1994 y.
12. Фаниев Ф. Хорижда таълим. Т.: Шарқ, 1995.

Elektron ta'lim resurslari

1. www.ziyonet.uz
2. www.edu.uz
3. www.nadlib.uz
4. teoriya.ru